

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
O'zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası**

«TASDIQLAYMAN»

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor
dotsent _____ M.Atajanov
«__» _____ 2021-yil**

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

O'quv-uslubiy majmua

Bilim sohasi	300 000	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
	400 000	Biznes, boshqaruv va huquq
	700 000	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
	800 000	Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi	310000	Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
	410000	Biznes va boshqaruv
	420000	Huquq
	710000	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi	810000	Qishloq xo'jaligi
	60410100	- Buxgalteriya hisobi va audit(qishloq xo'jaligida)
	60310100	- Iqtisod (qishloq xo'jaligida)
	60412400	- Agrobiznes va investitsion faoliyat
	60412500	- Marketing (qishloq xo'jaligida)
	60420100	- Yurisprudensiya (qishloq xo'jaligi huquqi)
	60711400	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)
	60810300	- Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis
	60810500	- Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti
	60811400	Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha)
	60811400	- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha)
	60812000	- Issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish va yuritish
	60812300	- Suv xo'jaligi va melioratsiya
	60812400	- Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish
	60820100	- O'rmonchilik

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil “__”_____ kunidagi __-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan namunaviy dastur va o‘quv dasturi asosida tayyorlangan.

O‘quv-uslubiy majmua Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: f.f.n. Yarkinova B.– O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası katta o‘qituvchisi
Salohiddinova N. – O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası asisstanti

Retsenzent:

O‘quv-uslubiy majmua Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va qilishga tavsiya etilgan (2021-yil “__”_____ kunidagi №__ sonli qaror)

MUNDARIJA

№	MAVZULAR	BET
I.I.	Amaliy mashgʻulotlar mavzusi Kirish	3-6
1	Oʻzbekiston Respublikasi Davlat tili siyosati, Davlat tilini rivojlantirish haqidagi qonun va qarorlar. <i>“Qishloq xoʻjaligi va uning yetakchi tarmoqlari”</i>	7-15
2	Soha mutaxassisining nutqi rivojlanishida oʻzbek tilining oʻrni va ahamiyati. <i>“Agrobiznes va uning tarkibi”</i>	15-24
3	Nutqning uslubiy jihatlarini va madaniy nutqni shakllantirish. Nutqiy malakaga ega boʻlish. <i>“Bogʻdorchilik va polizchilik”</i>	24-35
4	Soha mutaxassisining madaniyati va muloqoti asoslari. <i>“Oʻsimliklar himoyasi doimiy eʼtiborda”</i> .	36-47
5	Sohaviy atamalarning va soʻzlarning boyib borish usullari. <i>Odil Yoqubovning “Diyonat” romani</i>	48-57
6	Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari. Soha mutaxassisining internet muloqotidan foydalanish asoslari. <i>Turizm va yurisprudensiya sohasiga oid atamalar bilan ishlash.</i>	57-64
7	Oʻzbek adabiy tilida qoʻshib yozish va ajratib yozish. <i>“Ekologik omillar”</i> .	64-70
8	Soʻz maʼnolari bilan ishlash. Soʻz tanlash va qoʻllash. <i>“Tuproq unumdorligi”</i>	71-81
9	Muloqotda verbal va noverbal shakllar. Boʻgʻin toʻgʻrisida umumiy maʼlumot.	81-89
10	Oʻzbek adabiy tilida bosh harflar imlosi. Lisoniy savodxonlikni shakllantirish. <i>“Manzarali oʻsimliklar”</i>	89-94
11	Tinish belgilar imlosi. <i>“Uzum – tabiat durdonasi”</i>	94-103
12	Soha mutaxassisi savodxonligi, toʻgʻri soʻz tanlash, toʻgʻri talaffuz, toʻgʻri gap qurilishi. <i>“Dehqonchilikda xoʻjalik</i>	104-112

	<u>yuritish tizimi</u>	
13	Grammatik, lugʻaviy, semantik birliklar. <i>“Asalarichilik mahsulotlari”</i>	112-129
14	Soha mutaxassisining muomala madaniyati, nutqining mantiqiyligi, aniqligi va toʻgʻriligi. <i>“Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi tahlili misolida”</i> .	129-134
15	Ogʻzaki adabiy nutq. Nutqiy vaziyatlarni ogʻzaki ifodalash. . <i>“Ipakning kelib chiqish tarixi”</i>	135-142
16	Adabiy til uslublari. Ilmiy uslub. <i>“Seleksiya asoslari”</i>	142-154
17	Badiiy uslub va uning xususiyatlari. <i>Murod Muhammad Doʻstning “Lolazor” romani tahlili</i>	154-170
18	Publitsistik uslub va uning sohada qoʻllanishi.	170-176
19	Soha tili leksikasi adabiy til. <i>Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasi misolida</i>	176-182
20	Sohada hujjat yuritish asoslari. Soha hujjatlarini tuzish texnologiyasi. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari.	182-190
21	Shaxsiy hujjatlar. Tavsifnoma, taqriz, ariza.	190-199
22	Maʼlumot-axborot hujjatlari: tilxat, eʼlon, hisobot	199-209
23	Soha mutaxassisi nutqida soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra farqlanishi. <i>Zooveterinariya va zootexnika sohasiga oid atamalar bilan ishlash.</i>	209-217
24	Ilmiy matn yaratish. Maqola, esse, tezis yozish.	217-226
25	Sohaviy matnga soʻz va termin tanlash. <i>Agrar sohaga oid atamalarning oʻziga xosligi</i>	226-234
26	Soha nutqida monolog, diolog, poliloglarning qoʻllanilishi.	234-248
27	Soha mutaxassisining ommaviy va lisoniy madaniyati.	248-252
28	Oʻqish, yozish va muloqotda zamonaviy vositalardan foydalanish.	253-258
29	Ijtimoiy muloqot jarayonida ichki va tashqi omillarning	258-263

	ahamiyati	
30	Yozma nutq savodxonligi	263-268
II	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	264-265
III	GLOSSARIY	265-275
IV	ILOVALAR	275-284
1	Ishchi o'quv dasturi	284-288
2	Fan sillabusi	288-293
3	Tarqatma materiallar	293-295
4	Testlar	295-312
5	Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	321-313

KIRISH

Respublikamiz o‘z mustaqilligiga, ona tilimiz esa Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda turli fanlar, jumladan, o‘zbek tilshunosligi oldida ham yangidan-yangi vazifalar ko‘ndalang bo‘lmoqda. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o‘zgarishlar davrida yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqdaki, buning natijasida har bir sohada yangi atamalar paydo bo‘lmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, atamashunoslik oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Unga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi huzurida “Davlat tilini rivojlantirish departamenti” tashkil etildi va uning aniq vazifalari belgilab berildi. Shuningdek, davlat idoralari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy hokimiyat organlarining davlat tilida ish yuritishi, davlat idoralarida davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qat‘iy rioya etilishi ustidan nazorat olib borishini monitoring qilish tizimi yaratildi. Ushbu farmonda “Ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste‘molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta‘minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish”¹ masalasi ham alohida ta‘kidlab o‘tilgan bo‘lib, bu har bir sohada atamalarning qo‘llanishi qay darajada muhim ekanligini belgilaydi.

So‘nggi yillarda va bugungi kunda atamashunoslikning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish, atamalar yaratish va ularni qo‘llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli atama tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish,

¹ “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidan**. 2019-yil 21-oktabr

ularni atamashunoslikning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Hozirda o'zbek tilida qo'llanib kelinayotgan qishloq xo'jaligi soha atamalarini to'plash va sistemalashtirish ham juda dolzarbdir..

Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida jahon o'lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay bilish kabi talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. Shu maqsadda amaldagi o'quv dasturi asosida qishloq xo'jaligi mutaxassisligi talabalari uchun "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" o'quv qo'llanmasi yaratildi. Qishloq xo'jaligi mutaxassisligi talabalari uchun joriy etilgan "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi.

Fanning asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarning o'z kasblari sohasida o'zbek tilidagi og'zaki va yozma savodxonligini o'stirish, ularda o'z fikrlarini tushunarli va ravon tilda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish. O'zbek tilidagi agrar sohaga oid atama terminlarni izohini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi sohasiga oid atama so'zlarning kelib chiqishini o'rgatish, chetdan kirgan atama hamda soha so'zlarining muqobil variantlarini o'zlashtirish, qishloq xo'jaligining har bir yo'nalishida qo'llaniladigan atamalarni matnlar asosida o'rgatish va lug'atini tuzish, ilmiy maqolalarda sohaga oid so'zlardan to'g'ri foydalanish, ilmiy uslubning soha bo'yicha atamalarini mukammal o'rgatish, og'zaki va yozma nutqda ularni to'g'ri qo'llashdan iborat.

Fanning vazifasi – birinchidan, bo'lajak mutaxassislarning yozma savodxonligini yuqori pog'onaga ko'tarish, ikkinchidan, ularning og'zaki nutqini adabiy o'zbek tili me'yorlari asosida sifat jihatidan yaxshilashni nazarda tutadi. Bo'lajak mutaxassislarga o'z sohasiga oid atamalar to'g'risida batafsil ma'lumot berish va so'z boyligini oshirish, soha bo'yicha qo'llaniladigan atama va so'zlarni to'liq o'zlashtirish asosiy vazifa etib belgilanadi.

1-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili siyosati, Davlat tilini rivojlantirish haqidagi qonun va qarorlar.

Qishloq xo‘jaligi va uning yetakchi tarmoqlari.

Reja:

- 1. O‘zbek tili tarixiga nazar*
- 2. O‘zbekiston Respublikasida Davlat tiliga e‘tiborning kuchayishi*
- 3. Qishloq xo‘jaligi va uning yetakchi tarmoqlari*

Tayanch so‘zlar: Davlat tili, lotin yozuvi, turkiy tillar, qadimgi turkiy til, O‘rxun-Yenisey tosh bitiklari, “Devonu lug‘otit-turk”, ”Qutadg‘u bilig”.

Mamlakatimizda 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinganligiga bu yil 31 yil to‘ldi. O‘tgan shu davrda ona tilimizning yanada sayqallanishi, badiiyligi, tarixiyligi va dunyo miqyosida ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan qator madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy, mafkuraviy ijo, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi an‘anaga aylanib qolgan. Chunki, mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, uning milliy ruhini oshirish, madaniyat va san‘atni yuksak pog‘onalarga ko‘tarish, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta‘minlashdek, ustuvor yo‘nalishdagi vazifalarni bajarish tom ma‘noda kundalik hayotimizga tobora singib bormoqda.

O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi va uning tizimidagi aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlar, korxona, tashkilot va muassasalar ta‘sischiligidagi tashkil etilgan «Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi jamoat fondi» faoliyatida ham yuqorida ko‘rsatilgan qonunlarning ijrosini ta‘minlash yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy

va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora shakllanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, o'zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarixiy urf-odatlar, udumlari, an'analari, tartib-qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezon sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy davlatchilikka asos solindi. Huquqiy davlatchilikning asosini fuqarolik jamiyati tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati esa, huquqiy munosabatlardan tashkil topadi. O'z haq-huquqini bilgan, uni qonuniy yo'l bilan talab etadigan, himoya qiladigan huquqiy ma'rifati yuqori bo'lgan xalqning istiqboli porloq, hayoti farovondir. E'tirof qilinganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi — inson huquqlari va manfaatlari to'la-to'kis ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishdan iboratdir. Jamiyatimizda, eng avvalo, inson manfaatlarini ifodalovchi, ta'minlovchi va himoya qiluvchi huquqiy davlat qurish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Insoniyat tarixida tilga doimo katta e'tibor berib kelingan. XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g'oyasi keng yoyildi. Bu bejiz emas. Chunki jahondagi ko'pgina mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, milliy tillar davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega bo'ldi.

1989-yil 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so'n g o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro'y berdi. Bu ulug' maqsadga erishish va tarixiy voqelikning ro'yobga chiqarilishida birinchi Prezident Islom Karimov bevosita rahbarlik qildi.

1992-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o'zbek tili davlat tili maqomiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yildi.

Mustaqillik-yillarida o'zbek tilining jamiyatimizning barcha sohalarida keng qo'llanilayotganligi, xalqaro miqyosda kompyuter va internetda foydalanilayotgani ham ijodiyot va idoraviy ish yuritishda o'z samarasini berib kelmoqda.

Nafaqat mamlakatimizda, hattoki xorijiy mamlakatlarda adabiyot va san'at yo'nalishida faoliyat yuritayotgan taniqli tilshunos olimlar, turkiy tillarning boyligi va xususiyatlari, jumladan, o'zbek tilining jahon tillari orasida eng go'zal va nafis til ekanligi, tarixiyligi bilan ajralib turishi haqida ko'p yozganlar. Turli anjumanlarda ona tilimizning boy til ekanligi haqida odilona-xolisona fikrlar bildirganlar.

Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi) kitobida quyidagilar bayon etilgan, ya'ni: Sulton Muhammad O'zbekxon o'zining el ulusi bilan ilohiy saodat va fazilatga yetishgach, hazrati Sayid Otaning g'ayb ishorati va ollohning inoyati bilan ularning barchasini Movarounnahr diyori sari olib keldi. Hazrati Sayd Otaga quloq solishdan bo'yin tovlaganlar bu saodatdan bebahra holda u yerda (Dashti Qipchoqda) qoldilar va «qalmoq» degan nomga mansub bo'ldilarki, buning ma'nosi «qolgan» demakdir. Hazrati Sayd hamda Sulton Muhammad O'zbekxon bilan hamrohlikda Movarounnahrda kelgan kishilardan: «Bu kelgan kishilar kim?» deb so'rardilar. Ularning sardori va podshohi O'zbekxon bo'lgani uchun ularni «o'zbek» deb atadilar. Shu sababli o'sha zamondan boshlab Movarounnahrda kelgan kishilar «o'zbek» deb atala boshlandi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi qavmlarning Movarounnahrda kirib kelishi bilan mahalliy aholi tarkibida «o'zbek»larning nufuzi yanada ortgan va asta-sekin bu nom turkiy aholining umumiy nomiga aylangan. Bu esa turkiy tilning tobora kengayishi va nufuzi oshib borishiga keng imkoniyat yaratib bergan.

Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, turkiy tillar eramizning IV asrida uch guruhga bo'lingan hamda qarluq, qipchoq, o'g'uz guruhlarini vujudga kelgan. Bular orasida eng qadimgi yozuv tili qarluq guruhi zaminida shakllangan azaliy o'zbek tilidir. Tarixda eng ko'p adabiy va ilmiy asarlar ham shu tilda ijod qilingan. Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur singari so'z ustalari ijodi bilan bu til yanada sayqallangan va rivojlangan.

Taniqli rus tarixchisi A.P.Grigoryev shunday deb yozgan: «O‘sha paytda (XIII-XIV asrlar) Oltin O‘rdada so‘zlashuv va yozuv tili sifatida qipchoq lahjasi qo‘llanilgan bo‘lsada, rasmiy yozishmalar va adabiy matnlarda Chig‘atoy lahjasi, ya‘ni eski o‘zbek tili qo‘llanilgan».

Xulosa qilib aytganda, Oltin O‘rdaning rasmiy va adabiy tili turk tilining Chig‘atoy lahjasi, ya‘ni o‘zbek mumtoz adabiy tili bo‘lgan. Ajdod va avlodlarimizning asrlar osha say-harakati bilan ona tili — o‘zbek tilida samarali ijod qilib, tilni qadrlab, adabiy tilni rivojlantirib, boshqa el-ulus, millat va elatlar o‘rtasida keng mushohada qilish hamda o‘zaro muloqot o‘rnatib, til madaniyatining ta‘sirchanligi va nufuzini oshirib kelganlar.

Ma‘rifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: «Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur»- degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi.

Abdulla Avloniyning ona tili va adabiyotni buzish, boshqa tillar bilan aralashtirib, mazmun-mohiyatini o‘zgartirish, pirovard natijada, bir tilning boshqa tildan ustun turishiga, tilning ruhiyatini buzishga qaratilgan har qanday urinish va zid harakatlarga qarshi chiqqanligi quyidagi purma‘no so‘zlarida yaqqol isbotlanadi. «Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadir. Bobolarimizga etishg‘on va yaragan muqaddas til, adabiyot bizga hech kamlik qilmas. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilmoqdan iborat».

Ushbu dalillar shundan dalolat beradiki, ajdod va avlodlarimiz tomonidan yaratilgan o‘zbek tili asrlar osha rivojlanib, turkiy tillik millat va elatlar orasida keng tarqalib, yanada sayqallashib, yuksak madaniy tilga aylanganligi va o‘zining tarixiyliги bilan ham ahamiyatlidir.

Ma‘rifatparvar va donishmand tilshunos olimlarimizning o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligi haqidagi purma‘no fikrlari hayotimizda isbotlangan. Shu bois, o‘zbek tili — ona tilimizga Asosiy qomusimizda davlat tili maqomi berilganligi shu elning fuqarosi sifatida har birimizga milliy g‘urur va iftixor baxsh etadi.

«O‘zbek tilim — ona tilim — dunyoda eng go‘zal, jarangdor va boy tilim». «Dil idroki — til javhari, uni izhor etmak, til ila jarangdor so‘zdir». — deb ta‘riflasak, ona tilimizga va til madaniyatimizga to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz. Rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyanina «O‘zbek tili nafis va musiqa ohangiday jarangdor» — deb tan olganligi va yuksak baho berganligi bejiz emas, albatta.

Mustaqillik sharofati bilan 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu huquqiy tadbir, o‘zbek tilining xalqaro doirasidagi obro‘-e‘tibori va nufuzini yuksaltirish, Vatanimizning jahon kommunikatsiya tizimiga bog‘lanishini ta‘minlash, chet tillar va axborot texnologiyalarini puxta egallash uchun qulay sharoitlar yaratib berdi. Hozirgi kunda yurtimizda maktablarda, litsey va kollejlarda, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida, ya‘ni ta‘limning barcha bosqichlarida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi qo‘llanilmoqda. Endilikda bu yozuvda darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e‘lonlar nashr etilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz aholisining ko‘pmillatli ekani e‘tiborga olinib, ayrim milliy guruhlar tilida kirill yozuvi qo‘llanishi uchun imkoniyat yaratildi va bu hozir erkin ravishda amalga oshirilmoqda.

Haqiqatdan ham, til madaniyati, adabiy til va shevalar munosabati, adabiy talaffuz va stilistik mezonlar haqida nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borish, o‘zbek adabiy talaffuzi lug‘atini tuzish zarurligi ta‘kidlangan. O‘zbek tilida har xil matnlar tuzish tartib-qoidalari chuqur izohlangan ilmiy asarlar, nasr va nazm tiliga doir tadqiqotlar olib borish, turli hajmdagi izohli, sinonim, antonim, paronim, omonimlar va imlo lug‘atlari hamda qo‘llanmalar tuzish til madaniyatini yuksaltirishda katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan «Davlat tili haqida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonunlarning ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Davlat dasturida belgilangan tadbirlarning bosqichma-bosqich bajarilishini ta‘minlash maqsadida qator ahamiyatga molik ishlar bajarib kelinmoqda.

Ushbu qonunlarning ijrosi bo'yicha sohada amalga oshirilgan tadbirlar, bajarilgan ishlar darajasi muntazam o'rganilib, sohadagi barcha aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlar, korxona, tashkilot va muassasalarda yuqoridagi qonunlarning ijrosini og'ishmay bajarish, sohadagi barcha xodimlarni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini o'rganib, o'zlashtirishlari uchun o'quv kurslari tashkil qilish, xodimlarni korxona hisobidan bepul o'qitish, ayniqsa, rusiyzabon xodimlarga o'z ona tilida muloqot qilish hamda davlat tilini erkin va mukammal o'rganib, o'zlashtirishlari uchun muntazam o'quv mashg'ulotlari olib borish, ularning yangicha sharoitlarda ish faoliyatlarini davom ettirishlari uchun qulayliklar yaratib berish, shuningdek, joylarda ish yuritish, hujjatshunoslik va idoraviy yozishmalarni davlat tilida olib borish, har yili 21-oktabr kuni til bayrami tadbirlarini o'tkazish kabi qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

«Davlat tili haqida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunlarning ijrosini hamda Davlat dasturida belgilangan tadbirlarning bosqichma-bosqich bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining o'ndan ziyod buyruqlari chiqarilgan hamda tizimdagi barcha aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlar, korxona, tashkilot va muassasalarga ijro qilish uchun o'z vaqtida yetkazib berilgan.

«Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini respublikamiz ijtimoiy hayotida tatbiq etish muddati 2010-yil 1-sentabrga qadar uzaytirilganligi sababli Jamoat fondi hamda Muzeylar direksiyasi unitar korxonasida ish yuritish va hujjatlar tayyorlashni bosqichma-bosqich lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tkazilishi, ya'ni hujjatshunoslik, ish yuritish va idoraviy yozishmalar asl o'zbek tilida olib borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rib borish barchamizning sharaflı burchimizdir.

Ishonchimiz komilki, o'zbek tili va madaniyati jahon sivilizatsiyasida yanada ravnaq topib, uning purma'noligi, jozibadorligi, talaffuzi ohangli musiqaday jarangdorligi bilan jahon ahlını o'ziga rom qila oladigan xalqaro til darajasiga ko'tariladi va dunyo xalqlari bu tilni sevib o'rganib, samimiy hurmat qiladilar.

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o‘zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Zero, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur».

1-topshiriq. Quyidagi BBB jadvalini to‘ldiring.

BILAMAN	BILISHNI XOXLAYMAN	BILIB OLDIM

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Qishloq xo‘jaligining tarixi haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.

Qishloq xo‘jaligi va uning yetakchi tarmoqlari


Qishloq xo‘jaligi - aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy manbadir. Ayni vaqtda u keng iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoatning bir qancha tarmoqlari uchun xomashyo yetkazib beradi. Masalan, qishloq xo‘jalik xomashyosining ulushi (qiymat jihatidan) ip-gazlama sanoatida barcha moddiy harajatlarning 60 foizini, qandolat sanoatida salkam 70 foizni, yog‘ va sut sanoatida qariyb 80 foizni tashkil qiladi. Bularning hammasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni ko‘ngildagiday sur‘atlar bilan rivojlanmasa, xalq turmush darajasini oshirishning hech qanday eng yaxshi programmasini ham ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligining ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, xalq xo‘jaligida band bo‘lgan xodimlarning 27 foizi shu sohada mehnat qiladi. Qishloq xo‘jaligida mamlakat milliy daromadining taxminan uchdan bir qismi yaratiladi. Shu sababli mamlakat butun iqtisodiyotining o‘sish sur‘atlari, mehnatkashlar farovonligini oshirish ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir.

Qishloq xo‘jaligi – moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollari ko‘paytirish bilan shug‘ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo‘jaligining bir qancha tarmoqlarini xomashyo bilan ta‘minlaydi. Qishloq xo‘jaligi o‘simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o‘z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami sohalaridan farq qilgan holda qishloq xo‘jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda yer (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug‘lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar – o‘simlik va hayvonlardan foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish davri ish davri bilan mos tushmaydi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilikdir. Ular ham o‘z navbatida bir qadar kichikroq tarmoqlarga bo‘linadi (dehqonchilikda — dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilik, o‘rmon xo‘jaligi va boshqa; chorvachilikda — qoramolchilik, qo‘ychilik, yilqichilik, cho‘chqachilik,

parrandachilik, asalarichilik, pillachilik va boshqalar); O‘z navbatida, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari ekiladigan ekinlar (g‘allachilik, sholikorlik, paxtachilik) va chorva mollari turlari (qoramol, qo‘y, ot, tuya) bo‘yicha guruhlanadi.

Qishloq xo‘jaligi – inson xo‘jalik faoliyatining dastlabki turlaridan biri. Uning kelib chiqishi tosh davri oxiriga borib taqaladi. Bu davrda inson xo‘jalik va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun yerni oddiy qurollar bilan ishlagan, ba’zi hayvonlarni xonakilashtira boshlagan.



2-topshiriq. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Qo‘ng‘urov R. va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 2012-yil.
- 2.Sh.Shahobiddinova, D.Rustamov va boshqalar. Ommaviy lisoniy madaniyat. Andijon 2020.
- 3.Xolmirzayeva S. Nutq madaniyati (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2019.
- 4.Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston”-2016.56 B.

2-mavzu. Soha mutaxassisining nutqi rivojlanishida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati. Agrobiznes va uning tarkibi

Reja:

- 1. Til va nutq hodisasi**
- 2. Soha mutaxassisining nutqi**
- 3. Agrobiznes va uning tarkibi**

Tayanch so'zlar: so'zlash qobiliyati, ravon nutq, til va tafakkur, nutqning vazifalari, soha mutaxassisi nutqi.

Insonning eng muhim xususiyatlaridan biri so'zlash qobiliyatidir. Ravon nutq orqali ifodalangan fikr tushunarli va yoqimlidir. Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizmi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi, nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir, nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi; til-bu fonetik leksik va grammatik vositalar tizimidir odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining xarakatlari aniq va tog'ri bo'lishi kerak. Nutq talaffuzi mexanizmi harakatini tushunish uchun nutq apparatining tuzilishini yaxshi bilishi zarur. Nutq buzilishlari uzoq yillar davomida o'rganib kelayotgan sohadir. Nutq normasi deganda nutq faoliyati jarayonidagi til ishlatilishining umumiy qabul qilingan variantlari tushuniladi. Nutqning normal faoliyati holatiga uning psixofiziologik mexanizmlarning zaiflashuviga bog'liq holda til normalaridan chetlashuvi bilan belgilanadi. Kommunikativ nazariya nuqtai nazaridan qaraganda, nutq buzilishlari bu aloqa vositasining buzilishidir. Bunda individ bilan jamiyat orasidagi nuqtiiy muomalada ko'zga tashlanadigan o'zaro munosabatlarning buzilgani ma'lum bo'ladi.

Nutq-bu tilni ishga solish jarayonidir. Subyektning nutqiy faoliyati ichki vositasi va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o'z ichiga oladi. Nutq bu psixik xodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitlarida

rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs mulkidir. Utildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasidir.

Ravon nutq- bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq – bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yeti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallaro, ichki individual va umuminsoniy.

Til millatning noyob xazinasini bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda, namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli nutq so'zlayotgan kim bo'lishidan qat'i nazar, nuri hisoblanadi. Tilning olijanob imkoniyatlar nutq orqali nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So'z va g'azal sultoni A.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. "Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa tilning manfaatidir".

Demak, til qanchalik zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilar ekan. [Uning kuch](#), qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati, kamonning qudratiga bo'g'liq.

Ma'lumki til inson aqlining, faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzodlardan ajralib turadigan ham til emasmi?! Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari tafakkur mevalari til, nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulining hayotga tatbiq etilishi vositasi bo'luvchi qudratli quroldir.

Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi- individuallaro- kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq-monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbatisifatida chiqadi.

2-vazifasi- ichki individual-bu yerda nutq ko'plab nutqiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshqalar) aniq-tiniq anglash darajasiga ko'targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3-vazifasi- umuminsoniy- bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda u grafik ramzlari va belgilardan moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Ta'lim muassasalarida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

a)erkin nutqiy muloqotda;

b) maxsus mashg'ulotlarda.

Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi; ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); Ta'lim muassasalarida bo'lib turgan vaqti mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki o'g'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi.

Dialog ravon nutqni rivojlantirishdaga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari;

Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

To'g'ridan to'g'ri bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

Yo'ldosh- talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, [xotiralarini](#), emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim tizimini chuqur isloh qilish masalalari jamiyatimiz rivojlantirilishining asosiy qismiga aylandi. Bu islohotlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi dasturulamaldir.

Hozirgi kunda yangi Davlat ta'lim standartlari yaratilishi bilan birga ta'lim muassasalari zamonaviy jihozlar, axborot texnik vositalari bilan ta'minlashga kirishildi. O'quvchilarimizning intellektual salohiyati o'sib, tabiat, jamiyat sirlarini, fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortmoqda. Harakatlar strategiyasida "Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni, ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur" deb belgilanganligi juda katta ahamiyatga ega.

O'ylab ko'rsak, o'quvchi bog'chasidan boshlab, maktabda, kollej va akademik litseylarda kamolga yetayotgan shaxslarda til kompotentligini shakllantirishga harakat qilinadi. Vaholanki, buning samarasi qay darajada? Aksariyat balog'at yoshidagilarning oddiy ish qog'ozlarini mustaqil ravishda to'ldira olmasliklari, o'z fikr-mulohazalarini og'zaki yoki yozma bayon qila olmasliklari har qanday kishini o'yantiradi. Ularga yillar davomida o'z tilimizda ta'lim beramiz-ku?!

Darhaqiqat, ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'g'ri, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

So'zlarni to'g'ri tanlash, o'z nutqni tinglovchiga qulay yetkaza olish

insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Shuning uchun har bir til birligini barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi bo'lgani sababli dars jarayonlarida o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'g'ri, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini rivojlantirishimiz lozim. Zero, Alisher Navoiyning "Lisonut tayr"da yozganidek:

Harnekim g'ayri talabdur tashlamoq,

O'zni, maqsad manziliga boshlamoq.

Biz yangi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda faqat bilimli kishilarni emas, balki ijodkor, nutqiy tadbirkorlikka ega kishilarni ham tarbiyalashimiz lozim.

"Alumun bila amalin, kasahabu bila matarin" degan arab maqoli bor. Ma'nosi: ilmini amalda qo'llay olmagan olim yomg'irsiz bulutdir, u quyoshni to'sadiyu boshqa hech narsa bermaydi. Nutqiy tadbirkor kishi bilimini har daqiqada ishga soladi va undan samara oladi.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali o'z nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, o'quvchilik davrida samarali tus oladi. Kichik o'quvchilik davridan boshlab u aloqa-aralashuvga ehtiyoj sezadi, o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zarurat seza boshlaydi. Chunki har bir fan o'quvchi nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va u ona tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga yo'l ochadi. Ona tili esa fan sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, tilning fikrni ifodalashdagi yangi rang-barang qirralarini ochib beradi, o'quvchini nutqning go'zal olamiga olib kiradi. Ona tili fani nutqini sayqallashga, boyitishga, unga badiiy bo'yoq berishga o'rgatadi.

O'quvchi nutqining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning so'z boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 14-15 yoshdagi o'quvchilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim [3. 87]. Afsuski, hozirda ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darhol sezilib

qolmoqda. Nutqda soʻzlarni takroriy qoʻllash, berilgan soʻzni uning maʼnodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi maʼnoligi bilan almashtira olmaslik, maʼlum bir sohaga tegishli soʻzlar lugʻatini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar oʻquvchilarning soʻz boyligi yetarli emasligini koʻrsatmoqda.

Yuqori sinflarda ham gapning mazmunini saqlagan holda shaklini oʻzgartira olmaslik (masalan: Biz bilamizki, yaxshi nutqqa ega boʻlgan kishi goʻzal xulqqa ham egadir. Yaxshi nutqqa ega boʻlgan kishi goʻzal xulqqa ham ega boʻlishini bilamiz kabi), xalq maqollarini ularning boshqa variantlari bilan almashtira olmaslik (masalan: Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib. Doʻst yigʻlatar, dushman kuldirar. SHakarli tilga ishonma. Doʻst soʻzini tashlama, tashlab boshing qashlama. Kuldirgandan kutguncha, yigʻlatgandan kut va h.k.) yaqqol koʻrinib qolmoqda. Muammoning sababi XX asrning 70-80-yillar davomida oʻzbek tilshunosligiga kirib kelgan qator yangi yoʻnalishlarning yetarli hisobga olinmaganligidir. SHulardan bir tilga sistemali yondashish va funksional tahlil yoʻnalishidir.

Keyingi yillarda til va nutq hodisalarini izchillik bilan farqlash, tilga yaxlit bir tizim sifatida yondoshish, til hodisalarini oʻzaro aloqadorlikda oʻrganish borasida oʻzbek tilshunosligida ham ulkan yutuqlar qoʻlga kiritildi [4.8-16]. Oʻquvchilarni til, meʼyor, nutq hodisalarini izchillik bilan farqlashga oʻrgatish maktabda ona tili taʼlim mazmuni va uning maqsadini tamomila yangilashni taqozo etmoqda.

Oʻquvchilarga til hodisalari alohida hodisalar sifatida emas, balki nutq imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalar sifatida oʻrgatish maqsadga muvofiq. Masalan, oʻquvchilar fonetikadan “Nutq tovushlari” mavzusini Nutq madaniyati va oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari oʻrganar ekanlar, asosiy diqqat-eʼtibor tovushlarning toʻgʻri talaffuzi va imlosini oʻzlashtirish bilan birga, soʻz boyligini oshirishga qaratilishi lozim.

Ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri oʻquvchilarning dialektal sharoitlarda bilim olishlaridir. Oʻquvchilarda adabiy til va sheva elementlarini yaxshi


farqlash ko'nikmalarini shakllantirishga erishish adabiy til me'yorlarini o'rgatishga keng yo'l ochadi.

Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish – murakkab jarayon. Unga monelik qilayotgan omillar faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Bu jamiyatga ham bog'liq masala. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirish masalalari o'z yechimini topadi.

1-topshiriq. Klaster o'yini orqali til va nutq hodisasi haqida tushunchalaringizni yozing

Klasterni tuzish qoidalari

1. Topshiriqlarni diqqat bilan o'qib chiqing
- 2 Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo'ladigan har bir fikrni yozing.
4. Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5. Fikrlarni chegaralamang, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikka e'tibor qarating



Agrobiznes va uning tarkibi.

Agrobiznes deganda qishloq xo‘jaligi sohasidagi biznes tushuniladi va u bozor tizimining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Keng ma‘noda, bunga qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan, biznes turlari kiradi. Agrobiznes rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos. Tarkiban unga qishloq xo‘jaligining o‘zidagi, shu soha mahsulotini qayta ishlash va iste‘molga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatlari kiradi. Agrobiznesning maqsadi bozorni kerakli mahsulotlar bilan kanda qilmay va to‘la-to‘kis ta‘minlash orqali foyda ko‘rishdan iborat. Agrobiznes ishtirokchilari – bu tadbirkor fermerlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi sanoat tadbirkorlari va nihoyat, shu mahsulotni sotish bilan shug‘ullanuvchi tijoratchilardir. Bulardan tashqari agrobiznes doirasiga banklar, sug‘urta va moliya kompaniyalari ham tortiladi. Agrobiznes ilgarilari qishloq xo‘jaligi bilan cheklansa, keyinchalik u agrosanoat integratsiyasi natijasida agrosanoat kompleksini qamrab oladi. Agar differentsiatsiya sanoatning qishloq xo‘jaligidan ajralishi bo‘lsa, integratsiya ularni bir-biriga chirmashib ketishi yoki ularning sintezidir. Bunday hodisa qishloq xo‘jaligi hamda mashinalashgan ishlab chiqarish asosiga ko‘chgan, qishloqda ham texnika revolyutsiyasi quloq yozgan sharoitda yuz beradi.

Fermer xo‘jaligi qishloqdagi asosiy tovar ishlab chiqaruvchi, u agrosanoat integratsiyasida ishtirok etadi.

Fermer xo‘jaligidan tashqari agrobiznes turlari ham bor. Ulardan biri agrofirma. Agrofirma muayyan turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo‘shib olib beradigan korxonadir. Bu korxona iste‘molga tayyor bo‘lgan mahsulot yaratadi. Masalan, chorvachilikda sutni yetishtirish, uni qayta ishlab, iste‘molga tayyor holga keltirish bilan shug‘ullanadi. Agrofimalarda integratsiya ham qishloq xo‘jaligi, ham sanoatga taalluqli bo‘ladi, har ikki sohaga xos resurslar ishlatiladi, xodimlar malakasi keng bo‘lib, ular sanoat mehnati bilan ham shug‘ullana oladilar. Agrofimalar kichik oilaviy xo‘jalik asosida ham tashkil topadi. Bu yerda kichik xo‘jalik kichik zavod bilan birikadi.

Agrobiznesning yiriklashgan turi – bu agrosanoat birlashmalaridir. Bunday birlashma bir necha xo‘jalik va korxonalar faoliyatini integratsiyalashtiradi. Bu yerda

ishlab chiqarishning bir necha o‘zaro bog‘langan turlari, ularga xizmat ko‘rsatuvchi va tijorat ishi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar birlashadi.

2-topshiriq. Quyidagi agrobiznes sohasiga doir ilmiy atamalarning izohini toping. *Agrobiznes, tadbirkor, agrosanoat, ishlab chiqarish, fermer xo‘jaligi, tijoratchi, sug‘urta kompaniyasi, bank, agrofirma.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Qo‘ng‘urov R. va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 2012- yil.
- 2.Sh.Shahobiddinova, D.Rustamov va boshqalar. Ommaviy lisoniy madaniyat. Andijon 2020.

3-mavzu.Nutqning uslubiy jihatlarini va madaniy nutqni shakllantirish.

Nutqiy malakaga ega bo‘lish. Poliz ekinlari

Reja:

1. *Madaniy - nutqiy vaziyatning asosiy tendentsiyalari*
2. *Madaniy nutq tushunchasi*
3. *Poliz ekinlari*

Tayanch so‘zlar: madaniy-nutqiy vaziyat, globalshuv, adabiy me‘yor, og‘zaki nutq, yozma nutq, xorijiy so‘zlar, madaniy nutqning turlari.

Madaniy - nutqiy vaziyatning asosiy tendentsiyalari: umumiy xususiyatlari. Zamonamizning madaniy va nutqiy holatining rivojlanish tendentsiyalari va omillari orasida uchta yetakchini ajratish mumkin. Ularning har birining kundalik nutq muhitiga ta‘siri bir vaqtning o‘zida tengsiz va noaniqdir. Madaniy va nutqiy vaziyatni tavsiflovchi asosiy tendentsiyalar hozirgi paytda jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq va hozirgi bosqichda o‘zbek tilining ishlashining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonaviy madaniy - nutqiy vaziyatda kuzatiladigan asosiy tendentsiyalar. **Birinchidan**, bu tilni demokratlashtirish, bu ijtimoiy qatlamlar va guruhlar o‘rtasidagi chegaralarning xiralashishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu nutq uslublari o‘rtasidagi farqning yo‘qolishiga olib keladi. Bu yerda quyidagi tendentsiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin: - adabiy me‘yorlarni yumshatish; - og‘zaki va yozma nutq

madaniyati yetarli emasligi; - shafqatsiz va jargondan foydalanish. **Ikkinchidan**, bu globallashuv va turli xil xalqlar madaniyati dialogi, bu quyidagi tendentsiyalar rivojlanishini ochib beradi: - polietnik; - xorijiy soʻzlardan keng va faol foydalanish; - rus tili doirasini toraytirish.

Uchinchidan, hozirgi paytda toʻliq texniklashtirish alohida oʻrin tutadi; - kompyuterlar va yangi kompyuter texnologiyalarining ahamiyati keskin oshdi, bu "kompyuter jargoni" va "elektron til" ning paydo boʻlishiga olib keladi; - kompyuter oʻyinlari sonining va turlarining koʻpayishi, bu oʻqiydiganlar sonining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Shunday qilib, zamonaviy madaniy va nutqiy vaziyatning surati qarama-qarshi va noaniq boʻlib qolmoqda.

Umuman olganda, 20-asr oxiridagi rus tili, (I.A.Sternin) fikriga koʻra, quyidagi umumlashtirilgan rivojlanish tendentsiyalari bilan tavsiflanadi: «tildagi oʻzgarishlarning intensivligi va tezligi; ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning til rivojiga taʼsirini aniqlash; lugʻat va frazeologiyada ustun oʻzgarishlar yuz beradi; miqdoriy oʻzgarishlar sifatli oʻzgarishlardan ustun turadi; funktsional oʻzgarishlar tizimli oʻzgarishlardan ustun turadi »(Sternin, 2000 :; 4 - 16). I.A. Sternin rus tilining intensiv rivojlanish davri hozirda eng yuqori choʻqqisini bosib oʻtdi va asta-sekin pasayib bormoqda, deb hisoblaydi.

Ushbu tendentsiya dialogning tajovuzkorligi, uslubiy meʼyorning barqarorlashuvining aniq belgilarida, qarzlar hajmining pasayishi va qarzga olingan soʻzlarning faol rivojlanishida namoyon boʻladi.

Kommunikativ kompetensiya - Bu odamning nutq faoliyatini aloqa holatiga mos keladigan lisoniy vositalar va usullardan foydalangan holda tashkil etish qobiliyatidir.

Ushbu kursning maqsadi - nutq madaniyati darajasini oshirish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish.

Kursning maqsadi:

fanning asosiy tushunchalari bilan tanishish (adabiy til, norma, stilistika, nutq madaniyati, funktsional uslub, ishbilarmonlik aloqasi va boshqalar);
oʻzbek adabiy tili meʼyorlari tizimi toʻgʻrisida umumiy gʻoyalarni shakllantirish;
turli xil aloqa vaziyatlarida muloqot qilish qoidalari, asosiy xujjatlarni (bayonotlarni) qayta ishlash qoidalari bilan tanishish;

nutqni kommunikativ-mantiqiy qurish qoidalarini, mantiqning asosiy qonunlari, nizolarni olib borish strategiyasi va ishbilarmonlik aloqalarini olib borish xususiyatlari to'g'risida umumiy g'oyalarni o'rganish;

ona tiliga, uning boyligiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, lisoniy va nutqiy ifoda vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ehtiyojni shakllantirish;

Madaniy nutqning ikki turi: to'g'ri va namunali

To'g'ri - bu tilning barcha me'yorlariga, qoidalariga javob beradigan nutq. Ya'ni, me'yorlar: talaffuz, so'z boyligi, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, imlo va punktuatsiya.

Namunaviy so'zlashuv - bu qo'shimcha ravishda uslub me'yorlariga (qoidalar, talablar, tamoyillar, tavsiyalar), dolzarblik, mavjudlik, boylik, obrazlilik va o'ziga xoslik talablariga javob beradi.

Nutq madaniyati tushunchasi

Nutq madaniyati - umumiy madaniyatning eng muhim tarkibiy qismi, ya'ni. insoniyat jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy faoliyatidagi barcha yutuqlari. Nutq madaniyati har qanday insonning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zaruriy shartdir. Nutq madaniyati - bu sizning fikrlaringiz va his-tuyg'ularingizni to'g'ri, aniq va yorqin ifodalash qobiliyatidir.

"Nutq madaniyati" tushunchasi "adabiy til" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq: bitta tushuncha boshqasini nazarda tutadi. Nutq madaniyati adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishi bilan birga vujudga keladi.

Nutq madaniyatining asosiy vazifalaridan biri adabiy tilni saqlash va takomillashtirish bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

yozma fiksatsiya og'zaki nutq (yozuvning mavjudligi adabiy tilning xarakteriga ta'sir qiladi, uning ekspressiv vositalarini boyitadi va qo'llanilish doirasini kengaytiradi);

normalizatsiya

tarmoqlangan funktsional va uslubiy tizim;

kitobning dialektik birligi va og'zaki nutq;

badiiy adabiyot tili bilan chambarchas bog'liqlik.

Nutq madaniyati uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: normativ, kommunikativ va axloqiy. Ulardan eng muhimi *normativ* komponent. *Norm* $\frac{3}{4}$ bu til tizimining aloqa

jarayonida tanlangan va o'rnatiladigan eng barqaror, an'anaviy qo'llanmalar to'plamidir. Norma barcha til darajalarida mavjud (tovush, so'z yasalishi, leksik, grammatik, sintaktik). Adabiy til normalar majburiyatisiz mavjud bo'lolmaydi va kommunikativ funktsiyani muvaffaqiyatli bajaradi (lingvistik me'yorlarning yo'qligi aloqa jarayonida noto'g'ri tushunishga olib keladi).

Ideal lingvistik normani kamida ikkita talabga javob beradigan me'yor deb hisoblash mumkin edi: 1) bir necha asrlar davomida o'zgarmaydi; 2) mutlaqo barcha ona tilida so'zlashuvchilarning nutqida mavjud (ijtimoiy, kasbiy guruhlar, shuningdek hududiy asosda ajratilgan aholi guruhlari uchun istisnalarsiz). Biroq, nomlangan parametrlarga ega bo'lgan me'yor "tushunarsiz" yoki "umuman erishib bo'lmaydigan".

Til me'yorlari tarixiy hodisadir. Adabiy me'yorlarning o'zgarishi tilning doimiy rivojlanishi bilan bog'liq. O'tgan asrda va hatto 15-20 yil oldin qanday norma bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda undan chetga chiqish mumkin. Masalan, bankrot so'zi XVIII asrda qabul qilingan. golland tilidan va dastlab rus tilida bankrotga o'xshab yangradi. Uning hosilalari o'xshash talaffuzga ega edi: bankrotlik, bankrotlik, bankrotlik. Pushkin davrida "u" bilan talaffuz varianti "u" bilan birga paydo bo'ladi. Bankrot va bankrot deyish mumkin. XIX asrning oxiriga kelib. nihoyat mag'lub bo'ldi bankrotlik, bankrotlik, bankrotlik, bankrotlik. Bu odatiy holga aylandi.

Stress normalari ham o'zgaradi. Shunday qilib, 90-yillarning oxirida talaffuzning ikkala varianti ham maqbul edi: fikrlash va fikrlash. Zamonaviy lug'atda (2005) faqat bitta shakl berilgan - fikrlash.

Adabiy til me'yorlarining tarixiy o'zgarishi tabiiy, ob'ektiv hodisa. Bu alohida ona tilida so'zlashuvchilarning irodasi va xohishiga bog'liq emas. Jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy turmush tarzining o'zgarishi, yangi an'analarning paydo bo'lishi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi, adabiyot va san'atning faoliyati adabiy til va uning me'yorlarining doimiy yangilanishiga olib keladi.

Har qanday lingvistik vositalardan professional tarzda foydalanish mavjud: ko'plab mutaxassislarning, shu jumladan yuqori umumiy lingvistik madaniyatga ega odamlarning nutqida odatiy shakllar odatda qabul qilinganlardan farq qiladi - kompas (dengizchilar uchun), shpritslar (shifokorlar uchun), kelishib olinadigan narx

(iqtisodchilar uchun), fondni tarash - kutubxonada toza kitoblarni (kutubxonachilar uchun), kompyuterlarni (kompyuter olimlari uchun) va boshqalarni joylashtiring.

Soʻzning hududiy (dialektal) ishlatilishi mavjud. Turli xil hududlarda yashovchi rus tilidagi ona tilida soʻzlashuvchilarning kundalik nutq nutqida dialektal kelib chiqadigan mahalliy soʻzlar va shakllar koʻpincha ishlatiladi, masalan * choy ichish (choy ichish), * byp (baʼzan), * kartovina (kartoshka) Rossiya shimolining aholisi nutqida. Dialektizmlar nafaqat qishloqlar, balki markaziy shaharlar aholisiga ham xos boʻlishi mumkin. Shunday qilib, Moskva va Sankt-Peterburg aholisi toʻrtburchaklar non uchun umumiy qabul qilingan ism bilan birga gʻisht soʻzini faol ishlatishgan (bu allaqachon mahalliy lahja) va Perm va Chelyabinsk aholisi nutqida. , nonning barcha turlari, shu jumladan toʻrtburchaklar, bulochka deyiladi (meʼyor nuqtai nazaridan, bu soʻz faqat oq dumaloq nonning maxsus turini anglatadi).

Shunday qilib, bugungi kunda ham rus tilida soʻzlashuvchilarning nutqida ham professional, ham hududiy soʻz boyligi mavjud. Ular tilda haqiqatan ham mavjud boʻlgan meʼyordan chetga chiqishni aks ettiradi, bu meʼyor ideal emas va dogma emasligini ishonchli isbotlaydi. Normalar moslashuvchan, ular aloqa maqsadlari va shartlariga qarab oʻzgaradi.

Nutq madaniyati lingvistik meʼyorlarga rioya qilishdan tashqari, kommunikativ vazifalarga muvofiq lisoniy vositalarni tanlash va ulardan foydalanishni oʻz ichiga oladi. (Har bir maqsad uchun - oʻz mablagʻlari!) Nutq madaniyatining kommunikativ jihatlari talablariga muvofiq, ona tilida soʻzlashuvchilar uning funktsional uslublarini oʻzlashtirishi, shuningdek, nutqimiz (yoki yozishimiz) uslubiga sezilarli taʼsir koʻrsatadigan aloqa sharoitlarini boshqarishi kerak.) maʼlum bir daqiqada. Masalan, agar ilmiy matn (maqola, kurs ishi yoki tezis) yaratish maqsad qilingan boʻlsa, bu kontseptual aniqlik, izchillik va boshqalar talablariga javob beradigan ilmiy funktsional uslubni tanlashni belgilaydi. biznes xat oʻrnatildi, bu holda yagona toʻgʻri tanlov rasmiy ravishda biznes uslubi boʻladi. Funktsional uslublarni aralashtirish, boshqasini almashtirish (boshqa nutq meʼyorlariga rioya qilgan holda ham) maʼruzachi / yozuvchi madaniyatining pastligidan dalolat beradi.

Nutq madaniyatining kommunikativ komponenti nutqning aniqligi, tushunarli va tozaligini ham nazarda tutadi. Demak, ogʻzaki nutqda oʻzlashtirilgan soʻzlardan

ortiqcha, noo‘rin foydalanish muloqotni qiyinlashtiradi, jargonlar va so‘kish so‘zlarning sofligini buzadi. Nutq madaniyatining kommunikativ komponenti aloqa maqsadlariga eng samarali erishishda asosiy yukni ko‘taradi.

Nutq madaniyatining kommunikativ komponenti uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: 1) aloqa maqsadini aniqlash; 2) kommunikativ harakatning pragmatik shartlarini aniqlash; 3) maqsad va pragmatika tomonidan belgilanadigan, ularni yozma yoki og‘zaki bajarishda tegishli matnlarni tashkil etadigan lingvistik vositalarni tanlash va tashkil etish asoslari.

Kommunikativ maqsadlar tizimi quyidagicha taqdim etiladi. Propozitsion va modal maqsadlar farqlanadi. Taklifiy maqsadlar matnning haqiqiy mazmunini belgilaydi, modal maqsadlar - bu matnning kommunikativ sozlamalari: ma‘lumotlar, ishonch, motivatsiya va boshqalar. S. Balli tushunchasidan kelib chiqqan holda, propozitsion va modal ma‘nolarning qarama-qarshiligi, gap-gap mazmuniga nisbatan rivojlangan.

Nutq madaniyatining kommunikativ komponentining eng muhim pragmatik xususiyatlari, agar biz ushbu sohadagi tadqiqotlar tajribasini umumlashtirishga harakat qilsak, quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: 1) manzilning aloqa maqsadi va muloqotdan kutishlar o‘rtasidagi yozishmalar. manzil; 2) ushbu vaziyatda manzil va adresning nutq xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish; 3) adresat va adresning shaxsiy pragmatik xususiyatlarini hisobga olish.

Nutq madaniyatining axloqiy komponenti ma‘lum bir vaziyatda lingvistik xulq-atvor qoidalarini bilish va qo‘llashni belgilaydi. Muloqotning axloqiy me‘yorlari nutq odob-axloqi (tabriklash, so‘rovlar, xayrlashish, minnatdorchilik, tabriklash va boshqalar nutq formulalari; "siz" yoki "siz" ga murojaat qilish; to‘liq yoki qisqartirilgan ismni tanlash, manzil shakli va boshqalar).

Har bir jamiyatning o‘ziga xos axloqiy me‘yorlari mavjud. Muloqot odob-axloqi yoki nutq odob-axloq qoidalari muayyan vaziyatlarda til xatti-harakatlarining ba‘zi qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Axloqiy tarkibiy qism asosan nutq harakatlarida - maqsadga muvofiq lingvistik harakatlarda namoyon bo‘ladi: so‘rov, savol, minnatdorchilik, tabrik, tabrik va boshqalarni ifodalash.

Muloqot odob-axloqining alohida sohasi - bu baʼzi bir lisoniy vositalardan foydalanishga aniq va shartsiz taqiqlar, masalan, har qanday vaziyatda, qoʻpol soʻzlar qatʼiyan man etiladi. Baʼzi intonatsion lingvistik vositalar ham taqiqlanishi mumkin - masalan, "koʻtarilgan ohanglarda" gapirish.

Shunday qilib, nutq madaniyatining axloqiy tomoni adabiy tilni tashuvchilarning turli ijtimoiy va yosh guruhlarida, shuningdek, ushbu guruhlar oʻrtasida zarur boʻlgan muloqot axloqiy darajasini taxmin qiladi.

Muloqotning maksimal samaradorligini taʼminlash nutq madaniyatining uchta tarkibiy qismi (normativ, kommunikativ, axloqiy) bilan bogʻliq. Bizning kunlarimizdagi rus adabiy tili zamonaviy estetik, badiiy, ilmiy, ijtimoiy, maʼnaviy hayotni ifodalovchi shaxsning oʻzini namoyon qilishiga, ogʻzaki sanʼatning barcha turlarini rivojlantirishga, ijodiy fikrlashga, axloqiy tiklanish va takomillashtirishga xizmat qiladi. rivojlanishning yangi bosqichida jamiyatning barcha jihatlari.

1-topshiriq.

«A Q L I Y H U J U M» USULI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar toʻzoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish gʻoyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yoʻl qoʻymay uni hal etishning koʻproq shaxsiy gʻoyalarini yuzaga keltiradilar, soʻngra koʻproq oqilona/samrali/maqbul va boshqa gʻoyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - taʼlim oluvchilarni oʻquv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi taʼsir ostida fikrlashdan ozod boʻlish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yoʻl fikrlarini yengib oʻtishni tarbiyalaydi. Anʼanaviy taʼlimda

vazifani yechish vaqtida ko'pgina ta'lim oluvchilar o'zlarini g'oyalarini aytishga botina olmaydilar. O'z takliflarining xatoligi va ta'lim beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchilarning yo'q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo'rqadilar.

Aqliy hujum qoidasi

1. Hech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham –hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma-hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rta chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!


2. Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, hafa bo'lma va hijolat chekma.

3. Tasavvuringni «jo'sh urishiga» ruxsat ber!

Aqliy xujum uchun muammoli savol:



Madaniy nutq nutq uslublarining har biri bilan aloqaga kirisha oladimi?

2-topshiriq. Matnni o'qing. Soha mutaxassisi sifatida qanday uslubda so'zlayotganingizga e'tibor bering

Poliz ekinlari

Mamlakatimiz polizchiligi ko'p asrlik tarixga ega. Ayniqsa, xalqimiz qovunni sevib iste'mol qiladi. Yurtimizda hozirda qovunning 130 dan ortiq madaniy navlari tarqalgan bo'lib, ular pishib yetilish muddati, hosildorligi, ta'mi, meva vazni, saqlanish muddati bo'yicha o'zaro farqlanadi. Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan qovunlarning ko'pchiligi jahonda shuhrat qozongan.

Qovunning mevasi ajoyib ta'mga hamda ko'pgina foydali xususiyatlarga ega. Uning tarkibida 85-92% suv, 8-15% quruq modda, 0,8 % oqsil, 1,8% kletchatka, 6,2% boshqa uglevodlar, 0,9% moy, 20-30 mg % askorbin kislotasi, temir, kalsiy, magniy, kaliy kabi mikroelementlar, organik va mineral tuzlar mavjud.

Yurtimiz qovun navlari mevalaridagi qand moddasi miqdori 14-16% ga yetadi. Tarkibida fruktoza moddasi miqdori ko'p bo'lsa qovun shirin, glyukoza moddasi ko'proq bo'lsa, nimshirin ta'mga ega bo'ladi.

Buyuk alloma olim-tabiblar – Iskari Olim (miloddan avvalgi IV asr) va Abu Ali ibn Sino (milodiy IX-X asr) asarlarida qovun ko'pgina kasalliklarni davolashda ishlatilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qovunning dorivor xususiyatlari zamonaviy tibbiyot ilmi tomonidan ham isbotlangan. Uni iste'mol qilish ko'plab fiziologik jarayonlarni boshqarishga yordam beradi. U buyrak, me'da, jigar

kasalliklarida hamda ateroskleroz, bronxit, sil, bod xastaliklarida va kamqonlikda dorivor vosita sifatida foydalaniladi.

Qovun urug‘i damlamasi yo‘tal, teri va buyrak-tosh kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan qovun navlarining hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishiga qaramay, ular un shudring va palak so‘lish kasalligiga chidamsizdir. Ushbu kasalliklar bilan qovun ekinining zararlanishi natijasida hosildorlik 30-35, kasallik kuchli tarqalgan yillari 60-65 foizgacha kamayib ketmoqda. Sifatli mo‘l hosil olish omillaridan biri kasallikka chidamli navlar ekishdir.

Keyingi yillarda seleksionerlarimiz tomonidan mahalliy qovun navlarining un shudring va palak so‘lish kasalligiga chidamliligini oshirish borasida seleksiya ishlari olib borildi va un shudring kasalligiga 100% chidamli quyidagi navlari yaratildi.

“Oltin tepa” – o‘rtapishar, nihollari unib chiqqandan qovuni pishguncha 85-90 kun o‘tadi. Qovun mevasi “Yirik ichi qizil” naviga o‘xshash, cho‘zinchoq, kattaligi o‘rtacha, og‘irligi 3,3-4 kg, usti silliq, rangi qo‘ng‘ir-yashil. Gullari qoramtir yashil uzuq yo‘lli, to‘ri sidirg‘a. Po‘sti o‘rtacha qalin, qattiq. Eti qizil, karsillaydigan, xushta‘m, tarkibidagi qand miqdori 13-15%. Hosildorligi 28-35 t/ga. Tashishga chidamliligi o‘rtacha. Hamma viloyatlarda iqlimlashtirilgan.

“Lazzatli” – erta-o‘rtapishar, nihollari unib chiqqandan keyin 75-80 kunda mevasi pishadi. Mevasining ko‘rinishi “Oq urug‘ – 1157” naviga o‘xshash. Qovunning o‘rtacha vazni 3-4 kg, shakli cho‘zinchoq, usti silliq, oq sariq rangli, u yer-bu yerida uzunchoq sariq dog‘lari bor. To‘ri yirik katakli. Po‘sti yupqa, qattiq. Eti o‘rtacha qalin – 4,5 sm, oq rangli, karsillaydigan, sersuv, shirin. Qand miqdori 14-16%. Hosildorligi 28-30 t/ga. Uzoq masofaga tashishga chidamliligi o‘rtacha. Sirdaryo, Jizzax, Toshkent viloyatlarida iqlimlashtirilgan. Boshqa hududlarda ham ekish mumkin.

”Suyunchi – 2” – o‘rtapishar, nihollar paydo bo‘lgandan so‘ng mevasi 83-87 kunda pishadi. Qovun mevasi “Shakarpalak – 2580” naviga o‘xshash. Mevasi cho‘zinchoq-tuxumsimon, og‘irligi 2-2,5 kg, yuzasi silliq. To‘ri to‘liq, mayda katakli, qovunga kulrang tus beradi. Po‘sti oqish – limon rangda, to‘q yashil qo‘shaloq jimjima yo‘li bor. Eti qizil, karsillaydi, sersuv, shirin. Qand miqdori 13-14%. Hosildorligi 20-25 t/ga. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida iqlimlashtirilgan. Boshqa hududlarda ham ekishga tavsiya etiladi.

“Oltin vodi” – oʻrtapishar, nihollari unib chiqqandan keyin mevasi 86-93 kunda pishadi. Qovun tashqi koʻrinishidan “Shakarpalak – 554” naviga oʻxshash. Qovunning oʻrtacha ogʻirligi 2-4,1 kg, shakli choʻzinchoq tuxumsimon, usti silliq, och yashil rangda, toʻq yashil dogʻlari bor, toʻri toʻliq. Poʻsti qattiq, magʻzi oq rangda. Qand moddasi 13-14%. Hosildorligi 22-30 t/ga. Mevalari uzoq masofaga tashishga oʻrtacha chidamli. Yurtimizning barcha mintaqalarida iqlimlashtirilgan.

”Toʻyona” – kechpishar, mevasi qishda saqlanadigan nav. Nihollari unib chiqqanidan keyin mevasi 105-115 kunda yetiladi. Mevasi tashqi koʻrinishidan “Qoʻy bosh – 476” naviga oʻxshash. Qovuni yirik, tuxumsimon, oʻrtacha kattalikda. Ogʻirligi 4-6 kg. Usti tekis, uzayotganda rangi qoʻngʻir kulrang tusda boʻladi, yetilgach sargʻish-qoʻngʻir rangga kiradi, toʻri dagʻal, toʻliq, tarkibida 9-10% qand bor. Hosildorligi 35-40 t/ga. Mevasi uch oygacha saqlanadi, tashishga chidamli. Yurtimizning barcha mintaqalarida iqlimlashtirilgan.

“Gurlan” – kechpishar, nihollari unib chiqqandan keyin mevasi 108-120 kunda pishadi. Qovuni yirik, tekis, rangi sariq, qora rangli uzuq yoʻllari bor, toʻri dagʻal, toʻliq, tarkibidagi qand miqdori 8-9%. Hosildorligi 40-45 t/ga. Mevasi uch-toʻrt oygacha saqlanadi, tashishga chidamli. Yurtimizning barcha mintaqalarida iqlimlashtirilgan.

“Amudaryo” – kechpishar, qishda saqlanadigan nav. Nihollari unib chiqqandan mevasi yetilguncha boʻlgan davr 112-120 kun. Qovuni yirik, ogʻirligi 4-6 kg, kalta silindrsimon shaklda. Sirti gʻadir-budir, jigarrang, gulsiz. Eti oq, tarkibida 10-12% qand bor. Hosildorligi 45-50 t/ga. Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasida iqlimlashtirilgan.

“Gulobi Xorazmiy” – kechpishar, nihollari unib chiqqandan mevasi yetilguncha boʻlgan davr 120-125 kun. Palagi kuchli oʻsadi. Mevasi yirik, vazni 5-10 kg, uzun silindrsimon shaklda. Sirti gʻadir-budir, qoramtir-koʻkish, gulsiz. Eti qalin – 7-8 sm. Tarkibidagi qand miqdori 14-15%. Hosildorligi 50-55 t/ga. Juda yaxshi saqlanadi, transportda tashishga chidamli. Buxoro, Xorazm viloyatlarida iqlimlashtirilgan.

“Zar Gulobi” – oʻrta kechpishar, nihollari unib chiqqandan mevasi yetilguncha boʻlgan davr 100 kun. Palagi kuchli oʻsadi, bargi yuraksimon, cheti qirrali, koʻm-koʻk rangda. Mevasi tuxumsimon, vazni 4-5 kg. Sirti silliq, meva bandi tomoni biroz segmentlashgan, shu qismi toʻr bilan qoplangan. Mevasining rangi sariq. Poʻstining

qalinligi oʻrtacha. Eti oq, etdor – 7-8 sm, yarimkarsillama, saqlov davrida eti yumshoq, sersuv, ogʻizda eruvchan boʻladi. Meva tarkibidagi qand miqdori 14-15%. Hosildorligi 30-35 t/ga. Uzoq masofaga tashishga chidamli. Buxoro, Xorazm viloyatlarida iqlimlashtirilgan. Boshqa mintaqalarda ham ekish mumkin.

”Saxovat” – kechpishar, nihol unib chiqqandan soʻng mevasi 120-122 kunda yetiladi. Qovunlari tuxumsimon shaklda, vazni oʻrtacha 4,4 kg. Sirti silliq, toʻq jigarrang. Toʻr bilan qoplangan. Poʻsti qattiq, oʻrtacha qalinlikda. Eti qalin och-yashil rangda. Yangi uzilganda biroz karsillaydi, saqlangandan soʻng eruvchan boʻladi. Mazasi juda shirin, tarkibidagi quruq modda miqdori 15,4%. Hosildorligi 34,6 t/ga. Saqlanish muddati 120 kungacha. Buxoro, Xorazm viloyatlarida iqlimlashtirilgan. Boshqa mintaqalarda ham ekish tavsiya etiladi.

“Kichkintoy” – erta-oʻrtapishar, nihol unib chiqqandan soʻng mevasi 76-80 kunda pishadi. Palaklari baquvvat, sershox, barglari qalin, toʻq yashil rangda, qirqimli. Mevasining oʻrtacha ogʻirligi 0,8-1,2 kg, meʼyorli, shakli sharsimon, sirti tekis, sariq rangda, toʻliq mayin toʻr bilan qoplangan. Eti och yashil rangda, tigʻiz, mayin, yoqimli hidi bor. Qand miqdori 14,4%. Hosildorligi 19,5-21 t/ga teng. Yurtimizning barcha mintaqalarida iqlimlashtirilgan.

”Dilxush” – oʻrtapishar, nihollar unib chiqqandan soʻng mevasi 95-100 kunda pishib yetiladi. Palagi uzun, bargi yuraksimon, oʻrtacha hajmli. Mevasi urchuqsimon, vazni 3,5-4,5 kg, yuzasi bir oz gʻadur-budur, yashil rangli, toʻri toʻla, mayda katakli, poʻsti oʻrtacha qattiq. Eti oq, qalinligi 3,5-4 sm, poʻsti atrofi yashil, mayin, shirin. Tarkibidagi eruvchan quruq modda miqdori 14-15%. Hosildorligi 30-32 t/ga. 2011-yilda Davlat nav sinoviga topshirilgan.

Yuqoridagi barcha navlarni respublikamizning markaziy mintaqasida joylashgan viloyatlarda ertagi navlar 15-aprelgacha, oʻrtagisi 20-apreldan 10-maygacha, kechki navlar 15-maydan 10-iyungacha, janubiy viloyatlarda ertagi navlar 10-aprelgacha, oʻrtagisi 10-20 aprelgacha, kechkilari 10-20 iyunda ekiladi. Shimoliy viloyatlarda ertagi navlarni 20-aprelgacha, oʻrtagisini 25-apreldan 10-maygacha, kechkisini 20-30 mayda ekish kerak.

3-topshiriq. Matndan ilmiy atamalar roʻyxatini shakllantiring va maʼnosini izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbek tilining imlo lug‘ati. “O‘qituvchi”, Toshkent, 2005.
- 2.Aminov M., Madvaliyev A. va boshqalar. Ish yuritish, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Toshkent, 2014.
- 3.Qo‘ng‘urov R. Va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
- 4.Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi (uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

4-mavzu: Soha mutaxassisining madaniyati va muloqoti asoslari. O‘simliklar himoyasi doimiy e‘tiborda.

Reja:

1. Soha mutaxassisining madaniyati
2. Muloqot madaniyati
3. O‘simliklar himoyasi doimiy e‘tiborda

Tayanch so‘zlar: muloqot, muloqot madaniyati, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya, funktsional, substantSIONal, kommunikativ, kognitiv, sotsiolingvistika, psixolingvistika va lingvopragmatika

Inson faoliyatining barcha turlari o‘zaro muloqot jarayonlarida kechadi. Jamiyatning to‘liq faoliyat yuritishi uchun muloqot tushunchasi asosiy shartlardan biridir. SHunday ekan, muloqot madaniyati, muloqot jaraenini to‘g‘ri tashkil etish uchun kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish, turli-tuman sotsiopragmatik vaziyatlarda muloqot amaliётini o‘zlashtirish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Insoniyat madaniyatining san‘at, fan, siёsat, din, moddiy-madaniy boyliklari kabi qirralari izchil o‘rganib kelingan bo‘lsa-da, muloqot jaraenining yaxlit tarixi haligacha yaratilgan emas. Keyingi paytlarda tilshunoslikning o‘rganish ob‘ekti ancha kengayib, fanlararo integratsiyalashuv jaraeni kuchaydi va fanga "madaniyatlararo muloqot", —lingvokulturologiya, —jamiyat bilan muloqotl singari tushunchalar kirib keldi. SHu nuqtai nazardan ijtimoiy munosabatlar nazariyasi va

amaliyoti muammolariga e'tibor qaratilib, tabiiy tilning funktsional tuzilishi psixologiya, sotsiologiya, semiotika, germeneytika, falsafa, ritorika, etika, estetika, poetika va boshqa sohalar bilan hamkorlik qila boshladi. Muloqot tarkibining cheksizligi uning ma'lum bir tuzilishga ega ekanligini inkor etmaydi.

L.Buyeva, M.Kagan, R.Krauss, T.Rodermel, V.Fefelova, A.Leontev, B.Lomov, A.Petrovskiy, I.Kon, L.SHneyder va boshqalarning tadqiqotlarida muloqotning falsafiy va nazariy asoslari tahlil etilgan bo'lsa, SH.Balli, D.SHirrin, G.Apresyan, E.Sepir, F.SHuman kabi olimlar tomonidan uning ijtimoiy va psixologik jihatlari o'rganilgan. XX asrning 80-yillarida muloqot va shaxslararo munosabatlar sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi.

O'zbek tilshunosligida ham muloqot tushunchasining funktsional, substantsional, kommunikativ, kognitiv, sotsiolingvistik, psixolingvistik va lingvopragmatik, lingvomadaniy jihatlari zamonaviy kontsepsiyalar asosida tadqiq etishga kirishildi.

Muloqotning umumlashtirilgan yagona nazariyasini yaratishning eng muhim usuli bu uning tarixini o'rganishdir, chunki tarixga murojaat qilish har doim makonda vaqtning aniq ob'ektlari mavjudligini tushuntiruvchi nazariy natijalarning eng yaxshi sinovi bo'lgan. Insonning u eki bu faoliyati natijasida hosil bo'lgan jaraenlar tarixiy manbalarda aks ettirib kelingan Muloqotshunoslik haqida gapirganda, u tarixiy-madaniy tadqiqotlar doirasida yaratilishini taxmin qilamiz.

Muloqot tarixi mustaqil ravishda yuzaga chiqmaydi, ya'ni uning o'zgarishlaridagi harakatlantiruvchi kuch o'zida emas, balki butun madaniyatning umumiy dinamikasida mavjud bo'ladi. Insoniyatning muloqot tarixi nafaqat muloqot vositalarini rivojlantirish, balki ibtidoiy odamlarning ov oldidan tushgan ramziy raqslaridan tortib to ramziy belgilar shaklida axborot uzatish kanallarining paydo bo'lishigacha insonni —muloqot sub'ekti sifatida shakllantiruvchi muloqot va madaniyat shakllari tarixiy taraqqiottidir.

Muloqot va kommunikatsiya so'zlarining qat'iy terminologik ma'nosini aniqlashda xilma-xil ta'riflar mavjud bo'lib, fikrlar tafovuti kuzatiladi. Avvalo, mana shu masalaga oydinlik kiritish uchun bu ikki tushuncha orasidagi o'zaro bog'liqlik hamda farqli jihatlarni ajratib olish muhimdir. —Kommunikatsiya (lot. Communico dan yasama so'z, communicatio - umumiy

holga keltiraman, ulayman, muloqot qilaman), 1) muloqot usuli, bir joyning boshqasi bilan muloqoti. 2) muloqot, odamdan odamga ma'lumot uzatish - bu odamlarning kognitiv va mehnat faoliyati jaraenlarida asosan til èrdamida amalga oshiriladigan (kam hollarda boshqa belgi tizimlari èrdamida) o'zaro ta'sirning o'ziga xos shakli. Hayvonlar o'rtasidagi o'zaro muloqot ham kommunikatsiya deb ataladi

—Entsiklopediya sotsiologiil lug'atida nisbatan to'liqroq ta'rif berilgan:

—Kommunikatsiya (lot. communicatio dan - almashish, muloqot, suhbat) – 1. Adresant niyati, muloqot kanallari, kodlash va uni ochish, tarkib (mazmun), samaradorlik, nazorat, vaziyat, adresatni o'z ichiga olgan axborot uzatish jaraeni. 2. O'zaro tushunish maqsadida odamlar o'rtasida belgilarni uzatish orqali amalga oshiriladigan muloqot, muloqot akti. 3. Turli xil muloqot tizimlari orqali ma'lumot almashish

. SHuni ham aytib o'tish kerakki, kommunikatsiya nafaqat so'zlar orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa jaraenida, balki yo'l belgilari, teleradiomatnlar, kitoblar, filmlar va boshqalar èrdamida ham sodir bo'lishi mumkin. Bulardan maqsad, masalan, ogohlantirish, tushuntirish, ko'ngilochar mazmundagi ma'lumotlar va h.k. Ularni qabul qilish esa ixtièriydir.

Muloqot – odamlar (shaxslararo) va guruhlar (guruhlararo) o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab ko'p qirrali jaraeni, birgalikdagi faoliyat ehtièjlari natijasida vujudga keladi. Muloqot atamasi - ijtimoiy psixologiyada muloqot va faoliyat o'rtasidagi organik aloqani ta'kidlash uchun ishlatiladigan o'ziga xos atama bo'lsa-da, bog'lanish mohiyati turlicha talqin qilinadi. Guruhlararo aloqani tahlil qilishda uning ijtimoiy ma'nosi nafaqat bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan guruhlar o'rtasida, balki tarixiy jaraen davomida madaniyat va ijtimoiy tajriba shakllarini uzatish vositasi sifatida ham tushuniladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxslararo muloqotga katta e'tibor beriladi.

Ushbu ta'rif shuni anglatadiki, muloqottermini kommunikatsiya tushunchasiga nisbatan ancha keng ma'noni anglatib, o'zaro aloqa jaraenidagi

ichki va tashqi, ya'ni ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ham o'z ichiga oladi. SHu o'rinda muloqot jaraenidagi kommunikatsiya kanallariga oydinlik kiritish masalaning mohiyatini chuqurroq anglashga erdam beradi. Lisoniy muloqot asosan, til orqali amalga oshirilib, qo'shimcha belgi tizimlari (masalan, maktub, sms, telegramma, telefon, videotelefon orqali muloqot, surdomuloqot) ham shu muloqotni amalga oshirishga xizmat qilishi nazarda tutiladi. Kommunikatsiya esa ma'lumot yetkazishda qatnashuvchi kanallarni ifoda etadi: telekommunikatsiya, radiokommunikatsiya, pochta, telegraf, internet tizimi va hokazo. Muloqotda axborot yetkazish va uni qabul qilish bevosita adresant va adresat ishtirokini talab qilsa, kommunikatsiyada bir tomonlama muloqot ham mavjud. YA'ni adresat ma'lumotni ommaga tarqatadi, lekin uning natijasi – adresatning qabul qilishi jaraeni epiq holda qoladi. Antik davr falsafasida muloqot masalasi umumfalsafiy qarashlar tizimi tarkibida ko'rilgan. Demokrit falsafaning o'zini yaxshi fikrlash,

muloqot qilish, faoliyat yuritish borasidagi yashash san'ati, muloqot san'ati deb tushungan. Rag'batlantiruvchi va ishonarli nutqqa asoslangan ishontirish usulini ma'naviy kamolot vositasi deb hisoblagan. Suqrot esa muloqotni teng huquqli dialog, suhbat, o'zaro so'zlashuv orqali bir-birini anglash jaraeni deb talqin qiladi. Platon esa muloqotni birinchi navbatda davlat manfaatlari va talabi amalga oshiradigan rituallashgan jaraen deb qaraydi. Platon dialoglarida asosiy e'tibor barcha ijtimoiy qatlamlar uchun zarur bo'lgan ta'limiy tizim sifatida nutqiy muloqot texnikasi va malakasini shakllantirishga qaratiladi. Platon Suqrot an'alarini davom ettirib, muloqotni inson uchun bir ne'mat sifatida qadrlaydi: u insonning o'zini va boshqalarni anglashiga, haqiqatni tushunishiga erdam beradi, shaxsning o'z-o'zini takomillashtirishiga va mukammal jamiyat yaratishga qaratilgandir. Aristotel birinchi marta insoniy muloqotning ichki qiymatini asoslashga harakat qildi

SHarqona tafakkurda ham muloqot madaniyati jamiyat taraqqiётining etakchi omillaridan biri sanalgan. Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Xisrav Dehlaviy, Kaykovus, SHayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olimu fuzalolar ma'naviy merosida shaxs kamoloti uning dunèqarashi, tafakkuri, bilim saviyasi, haètga munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoèn bo'lishi uqtirilgan. V.I.Safyanov muloqot tushunchasi nazariy

asoslarining dastlabki ildizlari diniy-ma'naviy negizda shakllangani va keyinchalik falsafiy yo'nalishda o'rganila boshlaganini izohlaydi. Bu borada qadimgi Xitoy, qadimgi Hindiston, xristian va islom ta'limotlari tamoyillari o'ziga xos tayanch manbasi bo'lganini ta'kidlaydi. Diniy aqidalarni shaxslararo, va hattoki, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi deb atash o'ziga xos ziddiyatli asosga ega edi: diniy tushunchalar, bir tomondan, inson axloqiy yo'l-yo'riqlari, xatti-harakatlarini tanlash muammosini boshqargan bo'lsa,

boshqa tomondan, shaxslararo munosabatlarni tartibga solish va nizolarning oldini olishda ijobiy rol o'ynaydi.

—SHuni ta'kidlash kerakki, diniy tizimlarda muloqot muammolari mustaqil muammo sifatida qo'yilmagan va ularni qo'ya olmasdi ham, chunki masalaning yechimi qadriyat yo'nalishlari va e'tiqod normalarida oldindan aniq belgilab qo'yilgan. Diniy mafkura va diniy e'tiqod hukmronligi sababli, nazariy darajadagi muloqot axloqi muammolari mustaqil masala sifatida qo'yilmagan. Bunday holat ko'p asrlar davomida hukmronlik qilgan. Albatta, falsafiy bilimlar va muayyan g'oyalar, folklor va badiiy asarlar doirasida muloqot bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tmaslik mumkin emas edi. Axloq qoidalari, muloqot madaniyati doirasida shu tariqa paydo bo'lgan tajriba keyinchalik ma'lum bir nazariy qarashlar va hatto tushunchalar yuzaga kelishi uchun boy empirik asos bo'lib xizmat qildil.

M.Kagan sub'ekt-ob'ekt munosabatlaridagi inson faoliyatining falsafiy tahlilida dialektik-materialistik asoslarga tayanish kerakligi, bu faoliyat psixolog va faylasuflar tomonidan turli yo'llar bilan aniqlanishini ta'kidlaydi. Hozirgacha sub'ekt-ob'ekt munosabatlari ko'rib chiqilgan. Ammo sub'ektlarning o'zaro ta'siri ham mavjud. M.S.Kagan e'zganidek, bu holatda biz faoliyatning kommunikativ turi e'ki muloqotga duch kelamiz. O'zining 1988 yilda nashr etilgan —Muloqot dunësi: intersub'ektiv munosabatlar muammosi kitobida u madaniyat va falsafa tarixida muloqot muammosi qanday paydo bo'lganligi, uning strukturasi va funktsiyasini tahlil qiladi. Dastlab faqat muloqot tushunchasi anglashilganligi, zamonaviy qarashlar talqinida —kommunikatsiya tushunchasi ham kirib kelganligi va endi

ular bir-birini taqozo etuvchi alohida kategoriyalar sifatida ajratila boshlaganligini asoslab berdi. Muloqot, birinchi navbatda, ikki sub'ektning o'zaro ta'siridir. Muloqot

amaliy (moddiy), ma'naviy, informativ xarakterga ega. Kommunikatsiya – bu sof axborot jaraeni, sub'ektning u e'ki bu ob'ektga axborot yetkazishidir

. J.Lokk muloqotning inson hayotidagi salmoqli o'rnini alohida qayd etadi, muloqot jarayonida odamlarning bir-birini anglashi masalalarini o'rganadi va tilning aloqa vositasi sifatidagi rolini ochib beradi. U muloqotning axloqiy jihatiga e'tibor qaratadi, odamni muloqotdan mahrum qilish "juda og'ir ma'naviy yo'qotish" ekanligini ta'kidlaydi.

Insoniyat tarixida bo'lib o'tgan ayrim hodisotlar (Robinzon Kruzoning prototipi shotland Aleksandr Selkirk, Maugli, g'ordan topilgan bola), bugungi kunga kelib olimlar tomonidan o'tkazilaetgan ko'plab amaliy tadqiqotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. 2009 yilda amerikalik Sara SHurd ikki o'rtog'i bilan Iroq shimolidagi tog'larga sa'hat qiladi. Mahalliy aholining maslahati bilan ular Eron bilan chegarada joylashgan sharsharani ko'rishga qaror qilishadi. Sa'ehatchilar ayg'oqchilikda gumon qilinib, hibsga olinadilar. Sara 410 kunni qamoqxonada o'tkazadi. Uni kuniga ikki marta yarim soatlik sayrga olib chiqishadi, xolos. Natijada ijtimoiy mahrumlik psixologik stressni keltirib chiqaradi, odamlar bilan muloqot yo'qligi sabab miya azoblana boshlaydi. Sarada tez orada gallyutsinatsiyalar boshlanadi. U ma'lum bir vaqt ichida qu'esh nuri hujra oynasiga kirib, ichidagi chang zarralarini e'ritganini eslaydi. U bu zarralarni say'eramizda yashovchi boshqa odamlar kabi qabul qiladi. Ular birgalikda nimadir qilishmoqda va men esa odamlardan ajralib qoldim degan xa'elga boradi. Ozodlikdan keyin Sara yana jamiyatga qo'shiladi, ammo asorat juda jiddiy edi: depressiya va vahima qizni doimo tashvishga solib qo'ydi. Bunday hodisalar inson uchun ijtimoiy muloqotning naqadar muhimligini ko'rsatadi, shuning uchun ham biz guruhlariga birlashamiz, boshqalar bilan muloqot qilamiz va o'zaro aloqada bo'lamiz. G.M.Andreyevaga ko'ra, muloqotning psixologik jihatdan quyidagi uch

asosiy jihati mavjud:

- ☐ Axborot almashinuvi (kommunikatsiya)
- ☐ O'zaro ta'sir (interaktsiya)
- ☐ Odamlarning bir-birini idrok etishi va anglashi (pertsepsiya).

SHunday qilib, muloqot jara'ènda shartli ravishda uchta, ya'ni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro ta'sir) va pertseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish va anglash) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin. Ana shu uch jihatning birligi muloqot jara'ènda hamkorlikdagi faoliyat va kommunikantlarning o'zaro muloqot samaradorligiga erishish usuli sifatida maydonga chiqadi.

Tilning asosiy ijtimoiy funktsiyasi o'zaro muloqotni amalga oshirishning yagona vositasi sifatidagi —kommunikativ qudratida namoèn bo'ladi. —...so'zlovchi o'z maqsadini ifoda etuvchi jumla qurish uchun olamda mavjud bo'lgan narsa, predmet, hodisalarning nomini bilishi hamda ma'lum grammatik qonun-qoidalar bilan tanish bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi. So'zlovchi bulardan tashqari, nutqiy vaziyat tushunchasi mohiyatini ham bilishi kerakki, bu, albatta, so'zlovchi baèn qilmoqchi bo'lgan kommunikativ niyatning to'g'ri ifodalanishida muhim amaliy qimmat kasb etadi. So'zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatni aniq va to'g'ri ifodalanishi uchun yana milliy urf-odatlar bilan bog'liq ijtimoiy qonun-qoidalarni bilish ham talab qilinadi. SHu jihatlar to'liq qamrab olingandagina, nutq ishtirokchilarining o'zaro muloqot jara'èni to'g'ri amalga oshiriladi.

- Jadiding nimasi? Nima degan gap o'zi?
- Maktabni èptirgan vaqtingizda aytib bergan edim-ku.
- Esda qolgan deysanmi?
- Jadid degani yangi degani bo'lsa kerak. YUrt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... YAngi o'qish, yangi maktab, yangi urf odat, yangi kiyim, har narsa yangi...
- Eskicha bo'lsa, kimga zarari tegar ekan?
- Unisini bilmadim... Ishqilib, jadidlarning qasdi shu emish...
- YAngi mingboshi, yangi qozi ham desang-chi!
- Albatta, o'ziga mos keladigan mingboshi bo'lsin deydi jadid... (CHo'lpon —Kecha va kunduzl)

Interaktiv so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosI —birgalikda harakatl demakdir. Pedagogikada bu ma'no o'rinli tushunchani ifodalaydi, ya'ni ta'lim jara'ènda ta'lim oluvchilarning birgalikdagi ishtiroki nazarda tutiladi. Psixologiyaga oid ayrim

manbalarda ham soʻzning mana shu lugʻaviy maʼnosiga asoslanib fikr yuritilganligining guvohi boʻldik. Lekin psixologik èki lingvistik jaraènlariga nisbatan, bizningcha, bu notoʻgʻri talqin hisoblanadi. Chunki muloqot bu nutqiy-psixologik jaraèn boʻlib, jismoniy èki boshqa harakatlarni nazarda tutmaydi, yaʼni interaktiv soʻzini koʻchma maʼnoda oʻzaro nutqiy —harakat (taʼsir) sifatida qoʻllash zarur boʻladi. —Pragmatikada nutqiy birlikning voqelanishi diskurs – nutqiy muloqot jaraèni, kommunikatorlarning oʻzaro fikr almashish va bir-biriga taʼsir oʻtkazish faoliyati doirasida tadqiq qilinadi. Nutqni jaraèn sifatida oʻrganish muloqot tizimidagina amalga oshirilishi mumkin. Demak, muloqotning aynan mana shu interaktiv jihatini oʻrganishda pragmatik tahlilga ehtiëj paydo boʻldi. Interaktiv taʼsir ijobiy ham, salbiy ham boʻlishi mumkin, har bir nutqiy vaziyat oʻziga xos psixolingvistik xarakterga ega boʻladi.

– Assalomu alaykum!

Yusuf oʻgirilib qarab, roʻparasida jilmayib turgan professor Hamid Sobitovichni koʻrdi. Ular universitetda ancha yillardan beri birga dars berishardi.

– Vaalaykum... Yusuf oʻzini xuddi tok urgandek sezib, garangsib qoldi.

– Nima qilyapsiz bu yerda, Yusuf? – professor ahvolni tushunib turgan boʻlsa-da, Yusufni oʻngʻaysizlikka solib soʻradi.

Yusuf buni sezdi va hamkasabasining koʻzlariga favqulodda tik qaradi.

Xuddi shu yerda bagʻridagi toshni– ALAMZADALIK sovuqligini his etdi.

– Koʻrib turibsiz-ku, Hamid Sobitovich, ishlayapman, tufli sotypapman, kerakmi sizgayam?..

Professor hamdardlikka yoʻgʻrilgan mulohazasi bilan oʻrtani yumshatmoqchi boʻldi.

– Tushunaman, Yusuf, eshitdim. Hozir zamon ogʻir. Lekin bularning hammasi oʻtib ketadi, mana, mani aytdi, deysiz hali. Shuning uchun universitetni ham tashlab yubormaganingiz maʼqul edi, hech boʻlmasa, yarimta ishlab turavering.

– Koʻramiz, Hamid aka, hali bir qarorga kelganim yoʻq. Hozir oʻz hisobimdan bir yarim oylik taʼtildaman. Muddat yaqinlashaversin, u ègʻi bir gap boʻlar, – dedi peshonasi tirishib Yusuf. (Ulugʻbek Hamdam.—Muvozanat!)

Muloqotning pertseptiv jihatida esa kommunikantlarning milliy-madaniy qadriyatlari, yashash shart-sharoitlari, atrof-muhitiga oid tasavvurlari asosida shakllangan til birliklari orqali yuzaga keladi. Baʼzan tilning nozik jilvalaridan bexabar til tashuvchisi soʻz va iboralarning asl mohiyatidan bexabar boʻlganda tushunarsiz disskursiv vaziyat yuzaga keladi, yaʼni pertseptiv toʻsiq hosil boʻladi.

—Oʻynab qoʻyay, bunday chikin havoni oti nima boʻldi? Qor ègʻmadi, deyin dedim – havoda laylaklab qor oʻynadi. Laylaklab qor ègʻdi, deyin dedim – yerda qordan nishona boʻlmadi.

Dehqon bunday havoni: - Tulki qiziga toʻy berdi, - deydi.

Kechasi yigʻilishda raisimiz kunlik yaganani soʻradi. Yoʻl-yoʻriqlar berdi.

SHunda, raisimiz oldida turmish telefon jiringladi. Raisimiz telefonda salom-alik boʻldi. Gap-soʻzidan bildim – raisimiz Ideologiya bilan gapirishdi.

Ob-havoni gapirishdi. CHaynab-chaynab gapirishdi.

Raisimiz sharaqlatib telefon dasta tashladi. Derazaga qarab lab burdi.

-Tavba, - dedi. - Ajab vakilamiz bor-da. Kolxozlaringizda qor èqqan emish, gʻoʻza nima boʻldi, deydi. Qor èqqan yoʻq, tulki qiziga toʻy berdi, desam, tulkiyam toʻy qiladimi, deydi ...|| (Togʻay Murod —Otamdan qolgan dalalar||)

Kommunikativ muloqot jaraʼnida soʻzlovchi oʻz fikrini baʼn etish bilan birga suhbatdoshini ham tinglaydi, nutq mazmuniga va suhbatdoshga oʻz munosabatini ham bildiradi. U jilmayishi èki qovogʻini solishi, jummalarni ekspressiv ohangda talaffuz qilishi imo-ishoralar bilan gapining muhimligini taʼkidlashi, eshitganiga javoban boshini qimirlatishi yoki gavda harakatlari orqali suhbatdoshining soʻzlariga ishonchsizligi, xursandligi èki eʼtirozini koʻrsatishi mumkin. Ogʻzaki nutqiy faoliyatda ana shunday noverbal maʼlumotlar bilan muloqot toʻldiriladi.

Xonaga gunafsharang baxmal muqovali albom koʻtarib Dilnoza kirdi. Niholdek nozik. Qosh-koʻzlari SHahnozaga oʻxshab ketadi. – Rustam aka, – dedi sirli qilib. – Bitta narsa koʻrsataymi? Yonimdagi stulga oʻtirdi-da, albomni ochdi.

– Mana! – dedi koʻzlarida bolalarcha tabassum ènib. – Qarang!

Bu oʻzimning Afgʻonistondan yuborgan suratim edi. Egnim-da bushlat, boshimda shlemofon, yelkamda avtomat...


– Dilnoz!.. – Ostonada paydo bo‘lgan Shahnoza albomga ko‘zi tushdi-yu, yugurib keldi. Albomga qo‘l cho‘zgan edi, Dilnoza chaqqonlik qilib, shappa èpdi.
– Yig‘lagansiz! – dedi kattakon sirni ochaètgandek boshini sarak-sarak qilib. – O‘zim ko‘rganman, Rustam akamning suratini tomosha qilib, har kuni yig‘lagansiz!


Shahnoza duv qizarib ketdi.

– Xoin! – dedi mushti bilan yasama dag‘dag‘a qilib. (O‘.Hoshimov —Tushda kechgan umrlar)

Til faqat insongagina xos ong bilan bog‘liq oliy ne‘mat ekan, odam uning èrdamidagina dunè va haèt haqidagi bilim va tasavvurlarini ifodalay oladi, muloqotga kirishadi, o‘zaro fikr almashadi. Tilda ifodalanaètgan ma‘no-mazmunning anglanishi insonning muayyan milliy-madaniy guruhga mansubligi, umumiy bilim darajasi, qiziqishi, lisoniy qobiliyati, nutqiy vaziyatdagi kayfiyati kabi qator omillarga ham bog‘liq bo‘ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy ravishda takomillashib boradi. SHu bilan birga unda insoniyat kundalik haètda qo‘llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang-barangligini ta‘minlaydigan ekstralingvistik vositalar tizimi ham mavjud. Muloqot murakkab situativ pragmatik sistema sifatida ichki va tashqi omillar asosida o‘rganish uchun muhim sotsiopsixolingvistik tadqiqotlar manbadir.

1-topshiriq. Venn diagrammasi orqali muloqot va madaniyatning aloqadorligiga misollar yozing.





O'simliklar himoyasi doimiy e'tiborda

Qishloq xo'jalik ekinlari qator kasalliklar va zararkunandalar bilan kasallanib, o'sish va rivojlanishdan orqada qolganligidan hosilning miqdori va sifati keskin darajada

kamayadi. Ko'pchilik ekinlarning hosildorligi kasalliklar keng tarqalgan yillari 20—25 %, ayrim hollarda esa 50 % gacha kamayib ketadi. Ekinlar hosilining nobud bo'lishini kamaytirishda kasallik-lar va zararkunandalarga qarshi kurashda, ularning chidamlilik—immunitet xususiyati asosiy o'rin tutadi. «Immunitet» yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «organizmni yot narsalardan holi bo'lish, ozod bo'lish» degan ma'noni bildiradi, ya'ni, o'simliklarning o'ziga kasallik yuqtirmaslik xususiyati tushuniladi. O'simliklarning immunitet xususiyati deyilganda, uning mikroorganizmlar va hasharotlar bilan munosabatda boiganda, qulay ekologik sharoit bo'lsa-da ular bilan kasallanmaslik yoki zararlanmasligiga aytiladi.

Madaniy o'simliklarning immunitet xususiyati ularning anatomik-morfologik tuzilishlari va fiziologik xususiyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'simliklarning immunitet xususiyati deganda ularning tanasiga kirgan va tarqalgan kasallik qo'zg'atuvchi parazitning zararli ta'siriga qarshi kurashishi va shu tariqa hosildorligini pasaytirmaslik xususiyati tushuniladi. O'simliklarning kasalliklarga chidamliligi, ko'pincha hujayra shirasi osmotik bosimining yuqori bo'lishiga, ayrim hollarda ularning biokimyoviy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. O'simliklarning chidamlilik xususiyati o'sish sharoitiga qarab o'zgarsa-da, aslida u irsiy xususiyat bo'lib, nasldan naslga muayyan qonuniyat bilan beriladi. Hozirgi vaqtda bug'doyning qo'ng'ir, sariq va poya zangi kasalliklari tabiatda keng tarqalgan. Natijada qo'ng'ir zang kasalligining 90 dan, sariq zang kasalligining 30 dan, poya zangining 150 dan ortiq irqlari mavjudligi aniqlangan. Zang kasalligiga chidamli navlar yaratish masalasi juda murakkab bo'lib, parazitlarning yangi irqlari paydo bo'lishi tufayli ular chidamli navlarga tez moslashib oladi va navlarning chidamlilik xususiyati tezda yo'qolib, kasallikka beriluvchan bo'lib qoladi. O'simliklarning kasallik va hasharotlardan holi bo'lishi, uning tabiiy xususiyatlari kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishi, chidamliligi asosida kasallikning tarkalishiga imkoniyat bermasligi yoki uning rivojlanishini to'sishi natijasida ro'y beradi. O'simliklarning kasalliklarga chidamliligi nisbiy xarakterga ega bo'lib, immunitet xususiyati tufayli umuman kasallanmasligi yoki qisman kasallanishi ba'zan, juda kuchli kasallanishi mumkin. Umuman kasallanmaydigan

Oʻsimliklar hujayra va toʻqimalariga har qanday sharoitda patogen mikroorganizmlar umuman kirib kelish xususiyatiga ega boʻlmasa, kuchli kasallanuvchi oʻsimliklarga kasallik qoʻzgʻatuvchilari har qanday sharoitda kirib keladi, unda rivojlanib hech qanday qarshiliksiz koʻpayib nasi qoldiradi. Yaʼni, oʻsimlikning kasallanish darajasi uning ichki imkoniyatlari bilan birga, tashqi ekologik omillar bilan ham bogʻliqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Oʻzbek tilining imlo lugʻati. “Oʻqituvchi”, Toshkent, 2005.
- 2.Aminov M., MadvaliyevA. va boshqalar.Ish yuritish, “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Toshkent, 2014.
- 3.Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi (uslubiy qoʻllanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

5-mavzu: Sohaviy atamalarning va soʻzlarning boyib borish usullari.

Odil Yoqubovning “Diyonat” romani

Reja:

1. Soʻz va atamalarning boyib borish manbalari
2. Atamalarni tanlash va ulardan toʻgʻri foydalanish mezonlari
3. Odil Yoqubovning “Diyonat” romani

Tayanch tushunchalar: atama, ichki manba, tashqi manba, kasb-hunar atamaları, ilmiy atamalar, arab tilidan oʻzlashgan atamalar, fors-tojik tilidan oʻzlashgan atamalar, ruscha-baynalmilal atamalar, lotin va yunon tilidan oʻzlashgan atamalar.

1. Soʻz va atamalarning boyib borish manbalari. Oʻzbek tili leksikasi bir qancha manba asosida boyib, rivojlanib boradi. Uni eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) ichki manba;
- 2) tashqi manba.

1. Oʻzbek tili lugʻat tarkibining birinchi yoʻl bilan boyib borish imkoniyati juda keng. Masalan:

a) ilgari qoʻllanib, keyin isteʼmoldan chiqib ketgan soʻzdan yangi tushunchani ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi;

b) yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi soʻz yasash: *uyali (telefon), omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner)* va boshqalar;

d) shevaga xos soʻzni faollashtirish: *mengzamoq* (Xorazm) “*oʻxshatmoq*”, “*tenglashtirmoq*”, “*qiyoslamoq*”, *checha* “*yangi*” maʼnosida.

2. Oʻzbek tili lugʻat tarkibi tashqi manba asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda faqat ichki imkoniyat asosidagina rivojlanadigan til yoʻq. Faqat maʼlum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi oʻz tilimizning ichki imkoniyati asosida ifodalab boʻlmagandagina tashqi manbaga murojaat qilish foydali.

Keyingi davrda tilimizga Yevropa tilidan bir qancha soʻz yangi tushuncha bilan birgalikda kirib keldi. Masalan: *monitoring, diler, skaner* kabi. Buning hammasi oʻzbek tili leksik imkoniyatini kengaytirib, boyitmoqda. Har qanday til oʻz soʻz boyligiga ega. Tilning lugʻat tarkibi maʼnosida leksika atamasi ham qoʻllanadi. Leksika muayyan tildagi harakatga boʻlgan barcha soʻz yigʻindisidir. Hozirga qadar biror bir tilning, lugʻat tarkibida qancha soʻz borligi toʻliq aniqlangan emas. Bu borada taxmin bor, xolos. Jumladan, tilshunos Elbek Navoiy davridan to 1930-yilga qadar oʻzbek tilida 40-45 ming soʻz boʻlgan deb taxmin qiladi. Tilshunos Gʻ.Abdurahmonov hozirgi kunda oʻzbek tili soʻz miqdori 80 mingdan ortiq deb koʻrsatadi. Akademik E.Fozilov esa oʻzbek tilidagi soʻzlar miqdorini yuz-ikki yuz mingdan ortiq deb taxmin qiladi. Tildagi taxminiy soʻz miqdorini lugʻatdan ham bilsa boʻladi.

1981- yil nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 60 ming, 1976- yil nashr qilingan “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”da 65 ming soʻz qayd etilgan. Buning ham toʻliq emasligi oʻz-oʻzidan ravshan. Til lugʻat tarkibi juda murakkab va keng hajmli tushuncha. U tilning yashash shakliga koʻra aniq lugʻaviy qatlam (oʻzbek adabiy tili leksikasi, sheva, kasb-hunar soʻzi va hokazo)ni oʻz ichiga oladi

Atamalar, odatda maʼlum bir tilning oʻz ichki imkoniyatlari asosida yoki tashqi manba, yaʼni boshqa tillardan oʻzlashtirish, tarjima qilish hisobiga paydo boʻlishi mumkin. XX asrning oʻrtalaridan boshlab oʻzbek tiliga juda koʻplab baynalmilal soʻzlar bilan bir qatorda fan, texnika, sport, madaniyat sohalariga oid atamalar ham kirib keldi. Buning natijasida tabiiy fanlar, sport va texnika sohasini oʻzbek tilida oʻrganish qiyin

bo‘lib qoldi. O‘zbek tiliga davlat tili huquqi berilishi va O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi bilan bu boradagi salbiy yo‘nalishga barham berila boshladi. Chunki o‘zbek tili ham dunyodagi boshqa tillarning birortasidan na leksik, na grammatik va na uslubiy jihatdan qolishmaydi. Aksincha, ona tilimizning, mutafakkir bobomiz hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat -ul lug‘atayn” asarida isbot qilib berganidek, so‘z yasash, ma‘no nozikliklarini ifodalash jihatidan ba‘zi bir tillardan imkoniyati kengroq hamdir.

Atamalarni dastlab ikki katta guruhga bo‘lish mumkin.

1.Kasb-hunar atamalari.

2. Ilmiy atamalar.

Kasb-hunar atamalari uzoq davrlardan beri xalqimiz tomonidan kasb-hunar sifatida rivojlantirilib kelinayotgan chorvachilik, dehqonchilik, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik, gilamchilik, kashtachilik, oshpazlik, qandolatpazlik, tabibchilik va boshqa shu kabi ko‘plab kasblarga doir tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilib kelmoqda. Ilmiy atamalar ham ko‘p asrlik tarixga ega. Chunki ular qomusiy bilimlar egasi bo‘lgan M.Koshg‘ariy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Az-Zamaxshariy, A.Navoiy, Bobur va boshqa qomusiy bilimlar egasi bo‘lgan bobokalonlarimizning turli fanlarga oid asarlarining yaratilishi bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiyydir. To‘nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg‘ul bo‘lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo‘shiqlarida ham mavjud bo‘lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan. Masalan, asardan ovchilik mavzusidagi parchalarni olib ko‘raylik:

Chag‘ri berib qushlatu,

Toyg‘an izib tishlatu,

Tilki, to‘ng‘iz toshlatu,

Ardan bila o‘klalim.

Mazmuni:(Yigitlarga) chag‘ri (ov qushi) berib qush ovlaylik, ov itini (qushlarning) izidan solib tishlataylik. Tulki, to‘ng‘iz(larni) tosh bilan uraylik, yutuqlarimiz bilan maqtanaylik. Yana:

Yigitlarig‘ ishlatu,

Yig'ach yanish irg'atu,

Qulan, kiyik avlatu,

Bazram qilib aynolim.

Mazmuni: Yigitlarni ishlataylik, daraxt(lar)dan meva(larni) qoqtiraylik, qulon kiyik ovlataylik, (so'ng) bayram qilib ovunaylik. Shunday qilib, mana shu kabi tarixiy-ilmiy-badiiy manbalar orqali birgina jismoniy tarbiya va sportga oid *kurash, chopish, sakrash, chavandozlik, yoy, o'zish, o'yin, tepish, tepki, to'p, to'r chavgon, qanot, qilich yoki shaxmatga oid shatranj, shoxmot /shaxmat,shox / shax, farzin, rux, fil, ot /asp, piyoda / sipoh, mot, pot /pat, dona, oq qora, katak, qanot, yurish, kisht, hujum* singari ko'plab atamalar bizgacha yetib kelgan. Bu hol ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli.

Mana shu tarzda har bir davrda jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq holda sohaviy atamalar ham son, ham sifat jihatdan takomillashib bordi. Uning taraqqiyotida XIX asrning II yarmidan keyingi davr va yana oradan yuz yildan ortiq vaqt o'tib O'zbekistonning mustaqillikka erishgan davri alohida o'rin tutadi. Mana shu davr ichida jahonda yuz bergan o'zgarishlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda ham sanoatning o'sishiga, dunyoviy fanlarning qaytadan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Falsafa, huquq, tarix, filologiya, sotsiologiya, kimyo, fizika, matematika, biologiya, geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyotga oid maxsus atamalar shakllandi va ular tilimizga kirib keldi. Bunda rus tilining ta'siri katta bo'lganligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Umuman olganda, ilmiy atamalar bugungi kunda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa, tarix, pedagogika, psixologiya, biologiya, tibbiyot, geografiya, astronomiya, fizika, matematika, huquqshunoslik, kimyo, geologiya, minerologiya, falsafa, iqtisod kabi yuzlab zamonaviy fanlar va qishloq xo'jaligi sohasida keng qo'llanilmoqda.

Dunyoda chetdan so'z o'zlashtirmagan birorta ham til yo'q, degan qarash uning terminologiyasiga ham to'g'ri keladi. "Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor atama qabul qilinadi, yo shu tilning o'zida mavjud bo'lgan so'z yoki atamadan foydalaniladi, yo bo'lmasa yangi atama yasaladi", - deb yozadi S.Akobirov.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

1. **Arabcha:** *amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

1. **Forscha-tojikcha:** *bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

2. **Ruscha-baynalmilal:** *abzats, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realizm, romantiam, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar.

3. **Lotincha:** *abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata* kabi.

4. **Yunoncha:** *allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonim, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm* singari.

2. Atamalarni tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish mezonlari. Atamalar tanlash va qo'llashda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishguncha bo'lgan davrda bir oz biryoqlamalikka yo'l qo'yildikim, buning natijasida respublikamizdagi oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarida nafaqat tabiiy, texnika fanlari hatto ayrim ijtimoiy-siyosiy fanlarda ham asosan ruscha-baynalmilal atamalardan foydalanilganligi oqibatida o'qish-o'qitish rus tilida olib boriladigan bo'lib qoldi.

O'zbek tiliga davlat tili huquqi berilishi va mamlakatimizning mustaqil deb e'lon qilinishi bilan bu boradagi kamchiliklarni tuzatishga kirishildi. Darhaqiqat, "Davlat tili haqida"gi qonunning 7-moddasida "Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi", - deyilishi bejiz emas.

Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1996-yilda chiqarilgan 267-sonli buyrug'i bilan oliy o'quv yurtlarida "O'zbek tili va adabiyoti" (nofilologik fakultetlarda), "Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik" kurslari o'tilishi yo'lga qo'yilishi bilan bu fanlardan dasturlar tuzilib, o'quv qo'llanmalar,

darsliklar ham yaratila boshladi.(2, 83-103, 122-182-betlar) Ularda o‘zbek tilining xoslangan uslublari, ish qog‘ozlari yuritish va ularning tili, atamashunoslik haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Ma‘lumki, oliy o‘quv yurtlarida ixtisoslik sifatida yoki umumnazariy yo‘nalish sifatida o‘rganilayotgan barcha fanlar aniq tushuncha ifodalovchi atamalarga tayanadi. Atamalar tanlash, yangi atamalar yaratish, yasash, ularni birxillashtirish va standartlash barcha fanlar uchun xos muhim talabdir. Atamalar, avvalambor, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yasalishi, umumxalq tilidan, xalq shevalaridan tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Agar buning iloji bo‘lmasa, boshqa tillardan tarjima qilish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish orqali ham yangi tushunchalarni ifodalovchi atamalarni ko‘paytirib borish mumkin.

Atamalar tanlash va ulardan foydalanishda akademik G‘.Abdurahmonov taklif etgan quyidagi qoidalarga rioya etilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) atamalarning bir ma‘noli bo‘lishi;
- 2) ayni bir tushunchani ifodalash uchun ikki xil atamani qo‘llamaslik;
- 3) atamaning tushunchani aniq ifodalashi (vazifa, shakl, rangi va boshqalarga qarab);
- 4) atama ixcham bo‘lishi, ortiqcha keng iboralarning qo‘llanmasligi;
- 5) ona tilida so‘z turib, chet til atamalarini qo‘llamaslik;
- 6) atama ona tili tizimiga mos bo‘lishi (yasash va birikma tashkil eta olish xususiyati, talaffuzga mosligi va boshqalar).

Bu qoidalarga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, atama yasash yoki yaratishda ortiqcha sun‘iylikka berilmaslik lozim. Chunki sun‘iy yaratilgan, tushuncha mohiyatiga mos bo‘lmagan atama fanga ham, tilga ham singmaydi. Xullas, atama har bir fan rivoji uchun, uni o‘qib-o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Atamalarni to‘g‘ri tanlay bilish, qo‘llay olish fanlarni chuqur o‘zlashtirish, olingan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay bilishning eng muhim omili bo‘lib qoladi.

1-topshiriq. Quyidagi atama va so‘zlarni qaysi tildan o‘zlashganligiga qarab, guruhlariga ajrating. *Botanika, shkaf, aruz, bastakor, antonim, osmon, maxraj, amaliyot, morfologiya, agronomiya, ustoz, fizika, masala, aforizm*

Arabcha soʻzlar	Fors- tojikcha soʻzlar	Ruscha- baynalmilal soʻzlar	Yunoncha soʻzlar

XX asrning ikkinchi yarmida mamlakatimiz miqyosida muhim evrilishlarning yuzaga kelishi xalq madaniy-maʼrifiy turmush tarzini jiddiy ravishda oʻzgartirib yubordi. Millatning maʼnaviy mustaqillikka erishish jarayoni iqtisodiy, siyosiy va madaniy jabhalarni tubdan isloh qilishga ehtiyoj tugʻdirdi. Jamiyatning barcha sohalarida kuzatilayotgan demokratik yangilanish – millatning ozodlik, oʻz taqdirini oʻzi belgilash yoʻlidagi intilishlari adabiyotshunoslik oldiga muhim vazifalarni, muam-molarni koʻndalang qoʻydi. Badiiy ijodning muhim halqasi hisoblanadigan poetika ilmiy-amaliy sarhadlarni toʻgʻri tayin etish, adabiy-nazariy tahlillarning yangicha uslubiy-janriy takomilini yuzaga chiqardi.

Ayniqsa, istiqlol davriga kelib jamiyat hayotida axloqiy mezonlarni yangilash va uni haqqoniy baholash ehtiyoji tobora kuchayib borayotganligini takidlash joizdir. Yangi davr oʻzbek adabiyoti, xususan, roman janri shakliy tadrijida inson maʼnaviyati hamda maʼrifati yaxlitligining doimo dolzarbligini eʼtiborga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Chunki bir tomondan, badiiy tizimdagi ruhiyat tasviri va ifoda turfaligining butunligi badiiy mushohada mantiqiy rivojlanish qonuniyatlarini uygʻunlashtirsa, ikkinchi tomondan, real borliqdagi mavjud hayot andozalari va unga mos ravishda psixologik talqin voqelikni tadqiq etishning oʻzgacha tamoyillarini yuzaga chiqardi. Ushbu holat badiiy tizim – roman janri qonuniyatlarining ichki va tashqi yoʻnalishlariga oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Mazkur jihatlar soʻz zargari Odil Yoqubov ijodini ham chetlab oʻtgani yoʻq, albatta.

Adabiyotshunos U.Normatov eʼtirof qilganidek, “Adib asarlari avvalo hayotiyliги, haqqoniyliги, davrning oʻtkir ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy masalalarini dadil oʻrtaga

qo‘yganligi, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatning yangi qirralarini ochishga qaratilganligi, keskin drammatizmi, teran gumanizmi, inson hayoti xususidagi ehtirosli bahs-munozaralari bilan ajralib turadi. Yozuvchi o‘zbek romani poetikasiga ko‘pgina yangiliklar olib kirdi, polifonik roman namunalarini yaratdi.” Adib izlanishlarida roman syujetining o‘ziga xosligi va teran falsafiy mantiq uzviyligi, ruhiyat tasviri va ifoda mustaqilligining uzviy birligi yetakchilik qiladi. Demak, Odil Yoqubov yaratgan badiiyat solnomalarini jiddiy tadqiq qilish kunimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turgani shubhasizdir. Adib romanlarida xarakter yaratish mahorati o‘ziga xos ravishda kechadi. Xoh u zamonaviy mavzuda bo‘ladimi, xoh tarixiy mavzudami, qaysi muammoni tasvirlashdan qat‘iy nazar, Odil Yoqubov zukko kitobxonni inson qalbiga yaqinlashtirib qo‘yadi. Kitobxon ham aynan ushbu jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Jonli tasvir bo‘yoqlarida qahramon iztiroblarini, quvonchu shodliklarini xuddi o‘zinikidek qabul qiladi. Bu kabi xususiyatlar adib ijodiy kredosining muhim, ajralmas halqalarini tashkil etadi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Roman janri inson borlig‘i hamda davr ruhiyatini izchil va teran, yaxlit va tugal ifodalash xususiyatiga egadir. Badiiy shakl qahramon ruhiy dunyosini batafsil ochish barobarida voqelikka bo‘lgan ongli-sog‘lom munosabatni ham sharhlaydi. Tashqi muhitning bevosita va bilvosita inson yashash tarziga ta‘sirini ifodalash, ko‘rsatish, o‘z munosabatini ham bildirib o‘tish janr qonuniyatlari sirasiga kiradi. Shu ma‘noda, roman mavjud voqelik silsilasida yangi hamda muhim ahamiyatga molik falsafiy-axloqiy muammolarni ilgari suradi. Odil Yoqubovning “Diyonat” romani ham bundan mustasno emas. Vaqtida “voqea” bo‘lgan asarlar qatoridan joy olgan ushbu roman hayotning muhim qirralarini o‘zida jamlay olganligi bilan ham qadrlidir. Bir qarashda roman psixologik asardek tuyuladi. Unda turfa xarakterlarning botiniy ifodasi yetakchilik qiladi. Romanda muallif ijodiy niyati va tafsilotlar rang-barangligi qahramon nutqi bilan qorishib ketadi hamda xotira-esdaliklar uyg‘unlashuvini yuzaga chiqaradi. Qahramon hayoti bilan davr voqeligining o‘zaro ziddiyati asar falsafasini – diyonat, or-nomus, iymon-e‘tiqod kabi insoniy sifatlarning mohiyatini ilg‘ab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu o‘zaro murosasiz jang, shaxs o‘zligini anglashga da‘vat etadi. Shunga qaramay “Diyonat” ijtimoiy talqin ustuvorlik qilgan asar hisoblanadi: “Mingbuloqdan keladigan bir ariq suv dam oftobda kumushday yarqirab, dam ariq tagidagi giyohlar

rangida ajib tovlanib, daryoday hayqirib oqmoqda edi. Haydar ariqqa yetmasdanoq kiyimlarini yechib, bedazorga otib yubordi-da, hurkak otday oldindan dir-dir titrab, o'zini suvga otdi. Muzday buloq suvi a'zoyi badanidan o't chiqarib yuboribdiki, u jonholatda suvda o'ynoqlab, o'zini u qirg'oqdan-bu qirg'oqqa otdi, lekin zum o'tmay tanasi suvga o'rganib, allaqanday tinchib qoldi. U tol shoxini ushlab, suvda chalqancha tushib yotdi-da, ko'zini yumdi. Nazarida, go'yo suv emas, kimningdir muloyim qo'li uning horg'in tanasini mehr bilan silayotganday, har bir hujayra, har bir asab tolasiga orom berib, sevib silayotganday tuyuldi."

Muallif tabiat manzarasini tahlil markaziga olib chiqadi. Parchada o'ziga xos mazmun kasb etib, unda qahramon ichki dunyosi, yashash maydoni va falsafiy dunyoqarashi aks ettiriladi. Haydar obrazi tadrijiga nazar tashlasak, uning hayot yo'li o'zgachaligi ko'zga tashlanadi. Bo'lajak olim to'q oilada voyaga yetadi. Uning otasi Otaqo'zi millioner raislardan biri. Qalbi faxr va g'ururga to'la yigitcha tog'asi Normurod Shomurodovni dastavval uncha tushunmaydi. Ko'ngliga ishq olovi tushgan personaj turmush mohiyatiga kirib borgan sayin domlani anglay boshlaydi. Aslida qahramonda yuzaga kelgan evrilish tashqi voqelikka bo'lgan munosabat shaklida aniqlik kasb etadi. Tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan hodisalar uni o'ylashga, fikrlashga majbur etadi. Endi u ilgari faxrlanib yurgan otasi boshi berk ko'chaga kirib qolganligini anglaydi. Biroq endi tavba va tazarruga o'rin yo'q! Muallif qabariq tasvir prizmasida inson idrokini band etgan ijtimoiy-ruhiy muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Xotiralar dinamikasida qayta tiklangan imkoniyat asar leytmotivini tashkil qiladi. Adib yo'l qo'yilgan kamchiliklar, adashishlarni mantiqan aniq tasvirlaydi. Lekin baholashni emas, inson dunyoqarashidagi evrilishlarni ko'rsatishni birinchi planga chiqaradi.

Yozuvchi romanlaridagi umumiy bir sifat shundan iboratki, u shaxs psixologiyasining o'rab turgan muhit xarakteri bilan murosas-madora qilmasligida qabarib ko'rinadi. Uning yaratgan qahramonlari jamiyat hayotida, kundalik turmushida ro'y berayotgan nohaqliklarni adolatsizliklar, ko'zbo'yamachiliklarni firibgarliklarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. "Diyonat" ham o'z davrining mahsuli bo'libgina qolmasdan, XX asr nasrining barmoq bilan sanarli asarlari sirasida turishini hech kim mubolag'aga yo'ymasa kerak. Badiiy asar shundayki, sof san'at namunasi yillar, asrlar o'tsa hamki eskirmaydi, har qanday tuzum va davr qobig'idan yorib o'tib, odamzod

kelajagi uchun beminnat xizmat qilaveradi. Shu ma'noda Odil Yoqubov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqidagi falsafiy teran tasvir yo'nalishi adibning dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida, xoh u kichik janr bo'lsin, xoh u yirik hajmli polotno bo'lsin, diyonat, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, sog'lom e'tiqod tadriji qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi aniqlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga bo'lgan intilishning kuchliligi bilan izohlanadi. O'z navbatida yozuvchi g'oyaviy munosabati xalq ruhiyati, millat istiqbolini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan mantiqiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida ijodiy mantiqning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o'zlashtirishga borib taqaladi. Chunki, mazkur tushuncha, xarakterli belgini axtarish va unga urg'u berish mushtarakligidan oziqlanadi.

Adib romanlarida shaxs psixologiyasini jamiyat, tabiat hodisalari bilan omuxta badiiy-psixologik tadqiq etish tamoyili tadriji ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, badiiy talqin doimiy tarzda inson dunyoqarashida namoyon bo'lish tarzining sinoatlari kashfiyotida, ko'ngil izhori va ruh falsafasi ma'nolarini anglashda tadrijiy takomillashib, evrilib boradi.

Nazorat uchun savollar

1. Atamalarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Atamalar qanday manbalar asosida boyib boradi?
3. Tilning ichki boyish manbasi va uning turi haqida gapirib, misol keltiring.
4. Tashqi manba va uning turi haqida gapirib, misol keltiring.
5. Atamalarni to'g'ri tanlashda qanday mezonlarga amal qilish kerak?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. "O'qituvchi", Toshkent, 2005.

- 2.Aminov M., MadvaliyevA. va boshqalar.Ish yuritish, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Toshkent, 2014.
- 3.Qo‘ng‘urov R. Va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 2012-yil.
- 4.Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi (uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

6-mavzu. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Soha mutaxassisining internet muloqotidan foydalanish asoslari.

Turizm va yurisprudensiya sohasiga oid atamalar bilan ishlash.

Reja:

- 1. O‘zbek tilining yangi imlo qoidalari**
2. O‘zbek adabiy tilida unli harflari imlosi.
3. O‘zbek adabiy tilida undosh harflari imlosi.

Tayanch tushunchalar: adabiy til, umumxalq tili, O‘rxun-Yenisey tosh bitiklari, “Devonu lug‘otit-turk”, ”Qutadg‘u bilig”, imlo qoidasi, unli harflar imlosi, undosh harflar imlosi.

1. O‘zbek tilining yangi imlo qoidalari.

So‘zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat‘iylik millatni yakdillikka, ma‘naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma‘noda har bir xalq o‘z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidasi 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o‘tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida” qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo‘lib, quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

1.Harflar imlosi:

- a) unlilar imlosi (1—7-bandlar);
- b) undoshlar imlosi (8—32-bandlar).
- 2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33—37-bandlar).
- 3. Qo‘shib yozish (38-50-bandlar).
- 4. Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).
- 5. Ajratib yozish (57—56-bandlar).
- 6. Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).
- 7. Ko‘chirish qoidalari (75—82-bandlar).

2. O‘zbek adabiy tilida unli harflari imlosi.

1. A a harfi: 1) *aka, alanga, aloqa, og‘a, sentyabr, noyabr* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida *vaqt, vahm* kabi so‘zlarda *a* aytiladi va yoziladi.

2. O o harfi: 1) *ona, omon, quyosh, baho, xola, lotin, mukofot, mahorat*, kabi so‘zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. I i harfi: 1) *ish, iz, xil, xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, tulki, volida, piramida, bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq*, kabi so‘zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi.

2) *o‘tin, o‘rik, bo‘lim* kabi oldingi bo‘g‘inida **o‘** unlisi keladigan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. U u harfi: 1) *uy, kun, buzoq, Buxoro, butun, uchuq, usul, yulduz, mafkura, ko‘zgu, uyqu, alyumini* kabi so‘zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg‘ovul*, kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo‘g‘in boshidagi *u* undoshidan keyin *u* aytiladi va yoziladi.

5. O‘ o‘ harfi: *o‘t, o‘q, o‘zbek, o‘simlik, do‘ppi, bo‘tako‘z, semizo‘t, gulko‘rpa, noo‘rin* kabi so‘zlarda orqa qator –o‘rta keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. E e harfi: *esla, evara, ekran, eksport, kel, zehn, kecha, behi, telefon, teatr, poezd, e‘lon, ne‘mat, she‘r* kabi so‘zlarda old qator o‘rta – keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba‘zan **y** undoshi qo‘shib aytilsa ham yozilmaydi:

a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

e) **ai:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilari soʻz ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon keladigan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

3. Oʻzbek adabiy tilida undosh harflari imlosi.

8. B b harfi: 1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli, portlovchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida **p** aytilsa ham **b** yoziladi. 3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda baʼzan **v** aytilsa ham **b** yoziladi.

9. P p harfi: *paxta, pishloq, opa, tepa, tup, yop*, kabi soʻzlarda jarangsiz, portlovchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. V v harfi: 1) *ov, suv, kuyov, ovoz, savol, volida, vatan* kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi oʻzlashma soʻzlarda **v** baʼzan **f** aytilsa ham **v** yoziladi.

11. F f harfi: 1) *fan, feʼl, futbol, fizika, asfalt, juft, insof, isrof*, kabi soʻzlarda jarangsiz, sirgʻaluvchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi **f** tovushi baʼzan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi;

12. M m harfi: *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi soʻzlarda ovozdor, lab-lab, burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

13. D d harfi: 1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi soʻzlarda portlovchi, lab-lab, jarangli undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid, zaod, pud, sud, badqovoq* kabi soʻzlarda **t** aytilsa ham **d** yoziladi;

14. T t harfi: *tong, tun, butun, oʻtin, oʻt, kut* kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

- 15. Z z harfi:** 1) *zar, zamon, toza, o‘zbek, yoz, g‘oz* kabi so‘zlarda til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *iztirob, izquvar, bozoni, tuzsiz* kabi so‘zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham **z** yoziladi;
- 16. S s harfi:** *sog‘, somon, oson, asos, olmos*, kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, sirg‘aluvchi undoshini ifodalash uchun yoziladi;
- 17. Sh sh harflar birikmasi:** *shahar, shisha, shodlik, ishq, pishiq, bosh, tosh* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz, sirg‘aluvchi undoshini ifodalash uchun yoziladi;
- 18. J j harfi:** 1) *jon, jahon, jiyda, tijorat, rivoj, vaj* kabi so‘zlarda til oldi, jarangli, qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *jurnal, proyektor, ajdar, garaj, tiraj* kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 19. Ch ch harflar birikmasi:** *choy, chevar, chiroy, chaman, uchun, kuch, kech* kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 20. R r harfi:** *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor*, kabi so‘zlarda til oldi, ovozdor titroq undoshini ifodalash uchun yoziladi;
- 21. L l harfi:** *lola, loyiq, la‘l, iloj, kanal*, kabi so‘zlarda sirg‘aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 22. N n harfi:** 1) *nomus, ona, tana, bilan, tomon* kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi, ovozdor burun undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *yonbosh, jonbozlik, yonma-yon, ko‘rinmaslik* kabi o‘zlashma so‘zlarda **n** tovushi ba‘zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi;
- 23. G g harfi:** *gul, go‘zal, ega, gugurt, teg, eg* kabi so‘zlarda til orqa, jarangli, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.
- 24. K k harfi:** *ko‘l, ko‘ylak, uka, moki, tok, bilak*, kabi til orqa jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.
- 25. Y y harfi:** *yo‘l, yigit, yetti*, kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;
- Undosh harflar birikmasi:** *yangi, ko‘ngil, dengiz, singil, keling, boringiz* kabi so‘zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi;

27. Q q harfi: *qizil, qirmiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. Gʻ gʻ harfi: *gʻoz, bagʻir, togʻ* kabi soʻzlarda chuqur til orqa, jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

29. X x harfi: *xabar, xoʻroz, xonish, xushnud, baxt, axborot*, kabi soʻzlarda chuqur til orqa, jarangsiz, sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

30. H h harfi: *hosil, hamma, bahor, isloh nikoh* kabi soʻzlarda jarangsiz, sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi: 1) *baland, Samarqand, poezd, doʻst, past, gʻisht* kabi soʻzlarda **d, t** tovushi talaffuzda aytilmasa ham yozuvda ifoda etiladi;

2) metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi oʻzlashma soʻzlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar = metallar* kabi.

32. Tutuq belgisi: 1) *aʻlo, baʻzan, maʻyus, raʻy, taʻb, eʻlon, feʻl, Nuʻmon, shuʻla* kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan keyin shu unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi; *moʻjiza, moʻtadil, moʻʻtabar* kabi soʻzlarda **oʻ** unlisi choʻziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qoʻyilmaydi;

2) *inʻom, sanʻat, qatʻiy* kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

1-topshiriq. *Quyida xato yozilgan soʻzlarni asliga muvofiq yozing. Biyologiya, oyla, isquvar, akiyan, habar, broq, xamma, Samarqan, poyiz, elon, moʻʻjiza, shotlik, doʻs, baxor, jombozlik*

Yuridik til va uning oʻziga xos xususiyatlari

Yurisprudensiya tarmoqlariga oid orfografik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlar yuridik tildir. Taniqli huquqshunos olim, professor A.X.Saidov taʻkidlaganidek, "Yuridik til — koʻp mingyillik taraqqiyot va koʻp avlodlar

tajribasi mahsuli". "... Huquq rivojlanishining tarixiy lajribalarini ó'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir"[^] Yuridik til adabiy tilning tarkibiy qismi, ó'ziga xos ko'rinishga ega til bo'lib, asosan, qonuncMik va rasmiy doirada qo'Uaniladi. Ya'ni yuridik til ó'ziga xos lug'aviy birliklari, gap qurilishi, usiubiy jihatlari hamda huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi terminlari bilan ajralib turadi. Barcha huquq manbalari yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida ó'z in'ikosini topadi. Yuridik til ó'z mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga, ya'ni qonun tili, ilmiy yurisprudensiya tili, sud tili, huquqshunos-pedagog tili, huquqshunos-publitsist tili, prokuror tili, advokat tili kabi guruhlarga bo'linadi[^].Yurisprudensiya tarmoqlariga oid leksik-grammatik xususiyatlar umumiyligi bilan bir-biriga yaqin tursa-da, lekin ó'ziga xos xususiyliklaiga ham ega bo'ladi. Masalan, fuqarolik sudi faoliyatida qo'llaniladigan (taraf, taraflarning tortishuvi, da'vo qo'zg'atish, hal qiluv qarori, da'voni ta'minlash) terminlar jinoyat sudi faoliyatida qo'Uaniluvchi terminlar (firibgarlik, genotsid, nomusga tegish, terrorizm)dan tubdan farq qiladi. Badiiy uslub va so'zlashuv uslubida badiiy ó'brazli so'zlar, tasviriy vositalar, frazeologik birliklar keng qo'llanilsa-da, yuridik til rasmiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun unda bunday til vositalarlni qo'llashga ehtiyoj tug'ilmaydi. Chunki yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo'yoqqa egaligidir. Qat'iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar yuridik tilning nufuzini belgilovchi me'yorlardir.

Yuridik til har xil beo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda órtiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlardan xoh bo'lishi lozim.

Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun till gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil bo'lishi va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan talablarga javob beradigan bo'lishi shart.

Ma'lumki, qonun — jamiyatni tartibga solib tumvchi vosita, u inson manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladi. Qonunning mazmuni, mohiyati, sifati, nufuzi til qoidalariga nechog'liq rioya etilishiga ham bog'liqdir. Qonunning ustuvorligi ham uning adabiy til me'yorlari asosida tuzilishi bilan belgilanadi.

Adabiy til me'yorlariga to'liq javob bermaydigan qonun mazmunan va mantiqan tushunarsiz bo'ladi. Qonun til davlatning rasmiy yuridik till bo'lib, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi "muomala", "muloqot" vositasidir. Qonun faqat yuristlar yoki huquq sohasidagi mutaxassislar uchun qabul qilinmaydi, balki u davlatning barcha fuqarolar! uchun tegishli bo'ladi. Shu bois qabul qilinayotgan qonunlarning tuzilishi imkon qadar sodda, iloji boricha g'alizliklardan, noaniqliklardan xoh bo'lishi lozim. Qonun mantiqan izchil bo'lmas ekan, uning amaliyotga tatbiq etilishi ham qiyin kechadi. Qonunlar mantiqan izchil bo'lishi uchun adabiy til me'yorlari asosida tuzilishi shart. Biz har kuni qonun qabul qilmaymiz. Sifatli ishlangan va tayyorlangan qonunlar parlament tasdig'idan o'tgach, bir necha yillarga xizmat qiladi. Qonunning ustuvorlik darajasi ham uning sifatidadir. Sifat esa yuridik tilga qat'iy rioya qilish mahsulidir.

Nazorat uchun savollar

1. Adabiy til deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek tilida qanday lahjalar bor?
3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar" qachon tasdiqlangan?
4. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar" qanday bandlardan tashkil topgan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. "O'qituvchi", Toshkent, 2005.
2. Aminov M., Madvaliyev A. va boshqalar. Ish yuritish, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. Toshkent, 2014.
3. Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi (uslubiy qo'llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

7-mavzu: O'zbek adabiy tilida qo'shib yozish va ajratib yozish.

"Ekologik omillar".

Reja:

1. O'zbek adabiy tilida qo'shib yozish
2. O'zbek adabiy tilida chiziqcha bilan yozish
3. **Ekologik omillar.**

Tayanch tushunchalar: o‘zbek adabiy tili, qo‘shib yozish qoidalar, qo‘shma ot, qo‘shma sifat, taqlid so‘z, marosim va afsona bildiruvchi qo‘shma otlar.

1. O‘zbek adabiy tilida qo‘shib yozish.

1. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug‘doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

2. -(a) r (inkori -mas) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, otboqar, cho‘lquvar, ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.

3. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe‘llar qo‘shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

4. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish yo‘li bilan bildiruvchi qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘iyko‘z* kabi.

5. Narsani uning rangi, mazasi, o‘zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *olaqarg‘a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

6. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo‘ra, nosqovoq, ko‘zoynak* kabi.

7. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *tog‘olcha, cho‘lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

8. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog‘di, Urto‘qmoq, Ochildasturxon* kabi.

9. Qaratuvchili birikmaning bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *mingboshi, so‘zboshi, olmaqoqi* kabi.

10. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki *obod* so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Yangiyo‘l, To‘rtko‘l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi


atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

11. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

12. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDPMK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

13. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nima, himm, uff* kabi.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, qo'shma so'zlarni hosil qiling



1. O'zbek adabiy tilida chiziqcha bilan yozish.

1. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, maydachuyda, aldab-suldab, O'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikirchikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq* kabi;

2) juft soʻz qismlari orasida **-u (-yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: *doʻst-u dushman* (*doʻst-dushman*), *kecha-yu kunduz* (*kecha-kunduz*) kabi;

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi*, *borasan-qoʻyasan*, *uxlabman-qolibman* kabi.

2. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil*, *yam-yashil*, *dum-dumaloq*, *kuppa-kunduzi*, *toʻppa-toʻgʻri*, *bab-barobar* kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq soʻzi qoʻshib yoziladi).

3. Soʻzning **-ma**, **ba-** qoʻshimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *koʻchama-koʻcha*, *uyma-uy*, *rang-barang*, *dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday soʻzlar qoʻshib yoziladi: *roʻbaroʻ*, *darbadar* kabi.

4. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser*, *kilovatt-soat* kabi.

5. **-chi**, **-a (-ya)**, **-ku**, **-u (-yu)**, **-da**, **-e**, **-ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi*, *boraylik-chi*, *sen-a*, *kutaman-a*, *bola-ya*, *mingta-ya*, *keldi-ku*, *kelgan-u*, *yaxshi-yu*, *yaxshi-da*, *qoʻy-e*, *yashang-e*, *oʻgʻlim-ey*, *keldi-yey* kabi. Ammo **-mi**, **-oq (-yoq)**, **-ov (-yov)**, **-gina (-kina, -qina)** yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: *keliboq*, *oʻziyoq*, *koʻrganov*, *koʻrdiyov*, *mengina*, *qoʻshiqqina* kabi.

6. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha (-) qoʻyiladi: 7- *sinf*, 5- *“A” sinfi*, 3-, 7-, 8- *sinf oʻquvchilari*, 60- *yillar*, 1991- *yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr*, *X sinf* kabi.

2-topshiriq. Quyidagi gaplardan chiziqcha bilan yozilgan soʻzlarni ajrating va yuqoridagi qoidalaridan qay biriga mos kelishini izohlang.

1. Uy hovlisida aka-uka [patir-putur harakatlanib](#), onasining roʻbaroʻsiga toʻgʻri keldi. 2.Daryo sohillarida yosh-yalang darbadar kezar edi. 3. 2010-yilda doʻst-u yor birgalikda yonma-yon universitetni tark etishdi. 4.Onasi yakka-yu yagona qizini koʻp erkalatardi. 5.Onda-sonda koʻm-koʻk osmonda qushlar uchib oʻtardi. 6.Yillar qanchalik tez-tez oʻtyapti. Onda-sonda 2-kurs vaqtlarimni eslayman.7.Top-toza joy insonning

bahri dilini ochadi.8.Hozirgi kunda oldi-berdi savdosi kuchayib bormoqda. 9.Bugun dunyo ahli koronavirus kasalligidan behudaga o'ldi-qoldi.10.Bugun vitse-prezident qo'ni-qo'shni o'lkalardan xabar oldi. 11.Men-chun ota-onam har doim birinchi o'rinda. 12.Onasi farzandiga tomma-tom dakki ayta-ayta og'zi charchadi.

3-topshiriq. Matnni o'qing. Qo'shib yozish imlosiga doir so'zlar ro'yxatini shakllantiring.

Ekologik omillar

Ekologik omillar. Har bir organizm o'zi yashab turgan muhitda bir vaqtning o'zida har xil iqlim, tuproq va biotik omillar ta'siriga uchraydi. Tirik organizmlarni individual rivojlanish jarayonining bir fazasi davrida to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan muhit elementlariga **ekologik omillar** deyiladi. Bunday ayrim muhit omillari, ya'ni dengiz sathiga nisbatan bo'lgan balandlik, dengiz va ko'llarning chuqurligi istisnodir. Sababi balandlikning organizmga ta'siri harorat, quyosh radiyasiyasi, atmosfera bosimi orqali borsa, suv chuqurligining organizmga ta'siri bosim va yorug'likning kamayishi sababli yuzaga keladi.

Ekologik omillar tirik organizmlarga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

1. Ayrim turlarni ma'lum hududdan siqib chiqaradi va ularning jo'g'rofik jihatdan tarqalishining o'zgarishiga olib keladi.

2. Har xil turlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning ko'payishi va nobud bo'lishini o'zgartiradi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib populyatsiya va biosenozlar zichligiga ta'sir qiladi.

3. Organizmlarda moslashish xususiyatlarini keltirib chiqaradi, ularda ichki (modda almashuv) va tashqi o'zgarishlarni tarqoq, guruh bo'lib tarqalishi, qishga va yozgi tinim davri, fotodavr reaksiyasining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Muhit omillarini ta'siri vaqt bo'yicha ham o'zgarib turadi. Chunonchi, kun davomida yoki yilning fasllari bo'yicha, dengiz va okean to'lqinlarining muntazam va doimiy o'zgarib turishi, ekologik omillarning kutilmagan holda o'zgarishi yoki aniq davrlar ichida bo'lmasligi, turli yillarda ob-havoning har xil kelishi, tabiiy ofatlar – dovul,

kuchli bo‘ron, suv bosishi, sel kelishi, yer silkinishlari, vulqonlar ta‘sirida o‘zgarib turadi.

Tabiiy muhitda uchraydigan omillarni quyidagi uchta asosiy ekologik guruhga ajratish mumkin:

1. **abiotik**
2. **biotik**
3. **antropogen omillar.**

1. **Abiotik omillar** – organizmlarga ta‘sir qiladigan **onorganik** muhitning kompleks omillaridir. Bu kimyoviy (atmosfera, suv, tuproq va loyqa), fizik yoki iqlim (harorat, bosim, yorug‘lik, namlik, yog‘in, shamol) omillariga bo‘lishi mumkin. Yer yuzasining tuzilishi (relyefi), geologik va iqlim omillari (geomagnit maydoni), kosmik nurlar, radiaktivlik), abiotik omillarning xilma-xilligi, turli tabiiy ofatlar (bo‘ron, suv bosishi, yerning silkinishi, qurg‘oqchilik) va ularning tirik organizmlarning tarixiy rivojlanishi va muhitga moslashishida katta ahamiyatga ega.

2. **Biotik omillar** – muhitda uchraydigan tirik organizmlarning hayot faoliyatida bir-birlariga qiladigan ta‘siri va ular o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘lib, ular tirik organizmga, uni o‘rab turgan boshqa tirik jonzorlarga har xil ta‘sir qiladi.

3. **Antropogen omillar** – inson hayot faoliyatining organik dunyoga ta‘siri. Jamiyatning rivojlanishi bilan insonning tabiatga ta‘sir qilishining yangi-yangi xillari kelib chiqib, atrof muhitda salbiy ekologik o‘zgarishlar seziladi.

3. Ekologiyada asosiy tushunchalardan biri **ekologik sistema** tushunchasidir. Tirik organizmlar jamoasi va ularning yashash muhitini o‘z ichiga oladigan funksional sistema **ekologik sistema** deyiladi. O‘rmon, cho‘l, o‘tloq, suv havzasi va boshqalar ekosistemaga misol bo‘la oladi. Ma‘lumki, har xil turdagi organizmlar bir-birlariga va tevarak atrofdagi jonsiz tabiatga har tomonlama moslashganlar. Bunday uzviy bog‘lanishlar biogeotsenozlarni tashkil etadi.

Ekosistema tushunchasi fanga 1935-yili ingliz ekologigi A. Tensli tomonidan kiritilgan. **Biogeotsenoz** (bios-hayot, geo – Yer, senoz – umumiy, jamoa) tushunchasini esa rus botanik olimi, akademik V.N. Sukachev taklif etgan. Shunday qilib, biogeotsenoz (yoki ekosistema) deyilganda o‘zaro ichki qarama-qarshiliklar birligi asosida doimo harakatda va rivojlanishda bo‘lgan, o‘ziga xos modda va energiya

almashinuvi hamda tabiatning boshqa hodisalari bilan Yer yuzining muayyan qismida bir xil tabiiy hodisalarning bir-birlari bilan o'ziga xos tarzda ta'sir etuvchi birikmalar yig'indisi tushuniladi.

Biogeotsenozning asosiy komponentlari atmosfera, tog' jinslari, o'simlik va hayvonot dunyosi (o'simlik, hayvonlar, **zamburug'lar**, **mikroorganizmlar**) **biotsenoz** deb atalib, muhit esa **ekotop** deyiladi. Ekotop o'z navbatida klimatop (atmosfera), gidrotop (gidrosfera) va edafatop (tuproq) degan tarkibiy qismlardan iborat.

Biogeotsenoz va ekosistema atamalarining tushunchasi bir-biriga yaqin, lekin bir-birini qaytarmaydi. Ular to'la o'xshash emas, ikkala holatda ham tirik organizmlar va ular guruhlarining yig'indisi, bir-birlari va muhit bilan munosabatni ifodalaydi.

V.N. Sukachevning fikricha, **biogeotsenoz**, bu tirik organizmlarning yashash muhitiga oddiy to'planishi va muhit bilan doim muloqotdagi o'ziga xos yashash formasidir. Biogeotsenozlar Yer yuzining har xil joyida hosil bo'lishi mumkin.

Ekosistemalar komponentlari va ulardagi mavjud jarayonlar, biologik tirik, energiya kelishi va moddalar almashinishdan iborat. Bu Yerda quyoshdan kelayotgan energiya bir tomonga yo'nalib, biologik tirik tomonidan o'zgarib, sifat jihatdan murakkab organik moddaga o'tadi va energiyaning konsentrlashgan formasiga aylanadi.

Hamma ekosistemalar va biosfera ham ochiq sistema hisoblanadi. Biosferaga kiradigan ekosistemalar energiya kelishi, unga organizmlar **immigratsiyasi** va **emigratsiyasi** qilishida energiya kirishi va chiqishida o'zini boshqarib turadi.

Nazorat uchun savollar

- 1.-(a) r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlarga misol ayting
- 2.Qanday holatda joy nomlari ajratib yoziladi?
- 3.Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan qo'shma so'zlarga misol keltiring
4. Qanday so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi?
5. Qaysi yuklamalar so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi?
6. Juft so'z qismlari orasida **-u (-yu)** bog'lovchisi kelsa, so'zlar qanday yoziladi?
- 7.“Ekologik omillar” matnidan qo'shma so'zlarni ajratib yozing
- 8.*Biogeosenoz, mikroorganizm* kabi so'zlar tilimizga qaysi tillardan o'zlashgan?

9. Ekologik omillarning tirik organizmlarga ta'siri haqida mulohaza yuriting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. "O'qituvchi", Toshkent, 2005.
2. Aminov M., Madvaliyev A. va boshqalar. Ish yuritish, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. Toshkent, 2014.
3. Qo'ng'urov R. Va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
4. Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi (uslubiy qo'llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

8-mavzu: So'z ma'nolari bilan ishlash. So'z tanlash va qo'llash.

Tuproq unumdorligi

Reja:

1. *So'z ma'nolari haqida*
2. *Matnga so'z tanlash*
3. *Tuproq unumdorligi*

SO'Z MA'NOLARI. MA'NO KO'CHISH USULLARI.

Leksikologiya va leksika atamalari. 1. Leksikologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lib, yunoncha lexikos—lug'at, so'z so'zga doir va logos—ta'limot so'zlarinig birikuvidan iborat bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'limot demakdir. Demak, so'z va uning ma'nolarini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limga leksikologiya (ba'zan leksika) deyiladi 2. Bu bo'limda tilning lug'at boyligi, so'z va uning lug'aviy ma'nolari, so'z va uning ko'chma ma'nolari ma'no ko'chish usullari so'zlarning qo'llanish doirasiga ko'ra turlari o'rganiladi. 3. Leksika atamasi 2 ma'noda ishlatiladi. a) tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi b) lug'at tarkibini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi; leksika atamasining ikkinchi ma'nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo'llaniladi

So'z va uning ma'nolari 1. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi. 2. So'z ikki xil ma'no bildiradi. Bu ikki xil so'zni biz opa so'zi orqali ko'rib chiqaylik. - Opa so'zi aka, uka singil so'zlai bilan qarindoshlik ma'nosi bilan bir guruhga birlashadi. Ayni paytda bir

guruhga mansub bo'lgan yuqoridagi so'zlar bir-biriga zidlanganda, ma'lum ma'nolari bilan o'zaro farqlanadi. Xususan, **opa** so'zi : -- **o'gay opaga** zidlanganda ,qarindoshlik (o'gay emaslik) ma'nosini bildirishi bilan ; --**opa** so'ziga zidlanganganda men bilan bir bo'g'inga mansublik ma'nosini bildirishi bilan ; -- **aka,uka** so'zlariga zidlanganda, ayol jinsiga mansublik ma'nosiga mansubligi bilan --**singil** so'ziga zidlanganda opaning mendan kattalik singilning kichiklik ma'nosiga egaligi bilan farq qiladi. . **Opa** so'zining boshqa qarindoshlik bildiruvchi so'zlar bilan birlashtirib turadigan va ayni paytda ularni bir-biridan farqlaydigan ma'nolarining jami uning atash ma'nosi yoki *leksik* ma'nosi deyiladi. Opa so'zi yuqoridagi ma'nodan tashqari predmetlik, bosh kelishik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu ma'nolar uning *Grammatik* ma'nosi sanaladi. . Ko'rinadiki, nutq jarayonida har bir so'z leksik va Grammatik ma'nolar uyg'unligidan tashkil topadi. **3.** So'z shakl va mazmun yaxlitligiga ega bo'lib, ma'no va Grammatik jihatdan shakllangan til birligidir. **4.** So'zning 2 tomoni bor: a) so'zning shakli, ya'ni tashqi tomoni (moddiy tomoni) tovush (harflar)dan iborat bo'lib, bu xususiyatlar fonetikada o'rganiladi b) so'zning ichki tomoni (ma'no, mohiyat tomoni) esa unda ifodalanadigan ma'nolar bilan tavsiflanadi ya'ni so'z bo'lishi uchun tovush va harflar yig'indisi ma'lum ma'no ifodalashi kerak. **5.** So'z ikki xil ma'no bildiradi. a) leksik ma'no ; b) Grammatik ma'no **6.** Leksik ma'no (atash ma'nosi lug'aviy ma'no) leksikologiyada o'rganiladi. leksikologiyaga doir atama hisoblanadi a) So'zlarning borliqdagi qanday narsa – hodisalar belgi-xususiyatlar, harakat-ho'lalarni bildirishi ularning atash ma'nolari hisoblanadi. Atash manosi faqat 5ta so'z turkumi ega . Olmoshlar bundan mustasno. Ular belgi bildiruvchi so'zlarga ishora qiladi. **7.** (Grammatik ma'no) deganda esa so'zning qaysi turkumga mansubligi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishi , shuningdek, tarkibidagi qo'shimchalar orqali yuzaga keladigan ma'nolar tushuniladi. Grammatik ma'no barcha so'z turkumlari uchun xos bo'lib, uni morfologiyada o'rganamiz. M: Kitoblar keltirildi. . *kitoblar* so'zining lug'aviy ma'nosi – predmet, o'quv quroli Grammatik ma'nosi – ot, bosh kelishikda , ko'plik sonda, ega vazifasida *keltirildi* harakat tushunchasini ifoda etyapti bu uning lug'aviy ma'nosi. Grammatik ma'nosi: fe'l, o'tgan zamonda, III shaxs majhul nisbatda , xabar maylida, bo'lishli shaklda, kesim vazifasida. **8.** Demak, so'zlar lug'aviy va Grammatik ma'noga ega bo'lib bularning biri leksikologiyada, ikkinchisi morfologiyada o'rganiladi. . **So'z va leksema** **1.** So'z va

leksema atamalarini ham farqlash kerak, ya'ni -so'z leksik va Grammatik ma'nolarni ifodalaydigan butunlik -- leksema atamasi esa so'zning grammatik ma'nolarisiz, faqat leksik ma'no ifodalovchi qismi uchun ishlatiladi --bunday vaqtda so'z morfologiya birligi sifatida ,leksema esa leksikologiya birligi sifatida farqlanadi 2.Demak tahlil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni ajratamiz. So'zlar esa leksema va Grammatik qo'shimchalarga ajraladi . So'zning Grammatik shakllarsiz qismi leksema sanaladi Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksema beriladi. . **Bir ma'noli so'zlar** 1.So'zlar anglatadigan ma'nolariga ko'ra 2ga bo'linadi a)bir ma'noli so'zlar (monosemantik so'zlar; gr.mono—bir ,semiya—ma'no) b)ko'p ma'noli so'zlar (polesemantik so'zlar gr.poli—ko'p,semiya—ma'no) 2.Aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan so'zlar *bir ma'noli so'zlar* sanaladi. 3.Bir ma'noli so'zlar gap tashqarisida ham gap ichida ham faqat bitta ma'no ifoda etadi. M: men; sen; Toshkent;Mirzacho'l,cho'pon 4.Bir ma'noli so'zlar tilimazda kam sonni tashkil qiladi,va ilmiy ,kasb-hunarga doir atamalarni,shuningdek,yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi.Yani so'zlar (neologizmlar)ham davr o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi. .

Ko'p ma'noli so'zlar 1 Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'zlarga *ko'p ma'noli so'zlar* deyiladi 2.Polisemiya yunoncha *poli— ko'p, semia ma'no* so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir Polisemiya monosemiyaga zidlanadi 3.Ko'p ma'noli so'zlar gapdan tashqarida bir ma'noni gap ichida yana boshqa bir ma'noni bildiradi. 4.Ko'p ma'noli so'zlar kontekstda ,ya'ni ma'lum bir gapning ichida faqat bitta ma'nosi bilan keladi. 5.Tilimizdagi so'zlarning juda kata qismi ko'p ma'nolidir. Chunki kishilar kundalik hayotda yangi paydo bo'lgan tushunchalarning har biri uchun alohida alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa,so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib ,ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qoladi ,Shuning uchun tilda mavjud bo'lgan so'zlarga yangi-yangi ma'nolar yuklanadi. Natijada ko'p ma'noli yuzaga keladi. M: tosh so'zi dastlab qattiq sovuq jism ma'nosida qo'llangan M:Yo'l chetida yumalab yotgan toshni tepdim (M.Yusuf Osmonning oxiri dostonidan) Keyinchalik ,”qattiqlik”ma'nosini faollashtirib *tosh bag'ir,bag'ri tosh* birikmalarida bag'irning sifatlovchisi vazifasida ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Yoki : ko'z so'zi dastlab faqat tirik organizmning qabariq shaklga ega bo'lgan bo'lgan ko'rish a'zosi ma'nosida

qoʻllangan boʻlsa keyinchalik qabariqlik maʼnosini faollashtirish maqsadida “*daraxtning koʻzi*” maʼnosida ; Yorugʻlik bilan taʼminlash maʼnosini faollashtirish orqali “*derazaning koʻzi*” maʼnolarida qoʻllanila boshladi **6.**Koʻp maʼnoli soʻzlarda maʼno qanchalik koʻp boʻlsa ham lekin u bir soʻz hisoblanaveradi. Shuning uchun koʻp maʼnoli soʻzlarga maʼnolardan biri toʻgʻri maʼno (yoki oʻz maʼno) qolganlari esa koʻchma maʼno [hisoblanadi](#) **7.**Koʻchma maʼnolar nutq tarkibida boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda nomoyon boʻladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa toʻgʻri maʼnosi asosiy maʼno boʻlib qoladi. M: tosh soʻzi nutq qurshovidan ajratib olinsa, “*qattiq jism*” maʼnosini anglatadi . **8.**Demak, oʻz va koʻchma maʼno birikib, koʻp maʼnoli soʻzni hosil qiladi. **9.**Koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnosini bilish va undan nutq jarayonida oʻrinli foydalanish nutqning taʼsirchan, ifodali boʻlishiga yordam beradi.

Bosh va koʻchma maʼno **1.**Bosh maʼno (oʻz maʼno) deganda soʻzning asl maʼnosi tushuniladi soʻzlarning nutq jarayoniga bogʻliq boʻlmagan atash maʼnosi tushuniladi. **2.**Ana shu lugʻaviy maʼno asosida boshqa maʼnolar ham ifodalansa, u yasama (koʻchma) hisoblanadi **3** Koʻchma maʼno deganda bosh maʼno zaminida hosil qilingan yangi maʼno, soʻzning nutqqa boshqa soʻzlarga bogʻlanib hosil qiladigan yondash maʼnosi tushuniladi. M: *tulki* soʻzi aslida yovvoyi hayvonning bir turi maʼnosini anglatadi. Mirzakarimboy—tulki odam gapida *tulki* soʻzi ayyor quv kabi koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan. Yoki *kumush*-nutq tarkibidan tashqarida oq rangdagi qimmatbaho metal maʼnosini ifoda etadi bu uning bosh maʼnosi .*Kumush* soʻzi qish va qor kabi soʻzlar bilan bogʻlanganda koʻchma maʼno kasb etadi. **4.**Odatda soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari bir soʻz turkumi doirasida boʻladi. M:koʻz: odamning koʻzi (oʻz maʼno) *Ignaning koʻzi, uzukning koʻzi, buloqning koʻzi, yogʻochning koʻzi, tizzaning koʻzi, xurjunning koʻzi* (koʻchma maʼnolari) Baʼzan soʻz oʻzining koʻchma maʼnolari bilan boshqa soʻz turkumlariga teng kelishi mumkin. M:oltin;kumush;temir—bular asli ot oltin yaproq, [kumush qish](#), temir intizom kabi misollarda koʻchma maʼnosi bilan sifatga koʻchgan **5.**Polisemantik soʻzlarga soʻz maʼnolari orasida maʼno zanjiri bogʻliqlik boʻladi Agar bunday maʼno zanjiri uzilsa, koʻp maʼnoli soʻz omonim soʻzga aylanadi. M: koʻk (rang)—koʻk (osmon) Yoki: 1)dam 2)gap 3)salla 4)tepki 5)chechak 6)qavs 7)changal 8)nozik 9)tutash 10)toʻy 11)koʻch 12)atala kabi omonim soʻzlar koʻp maʼnoli soʻzlar oʻrtasidagi maʼno zanjiri uzilishidan hosil boʻlgan. Koʻp maʼnoli soʻzlar

o'rtasidagi ma'no zanjiri uzilib omonim so'zlar yuzaga kelar ekan bu so'z yasallashning leksik-semantik usuli sanaladi. **6.** So'zning o'z ma'nosidan ko'chishi,uslubiy mazmun olishi ko'proq badiiy uslub; ba'zan ommaviy uslub va o'rni bilan og'zaki so'zlashuv tilida uchraydi.

Ma'no ko'chishi usullari **1.**Tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi Ma'no ko'chishi, ma'noning kengayishi yo torayishi tarzida ro'y beradi. **2.**Borliqdagi narsa hodisa belgi-xususiyat harakat holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa hodisa belgi xususiyat, harakat holatning nomi sifatida xizmat qiladi. M:burun sozi "*tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi*" ma'nosini ifodalash bilan birga "*yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi*" ma'nosini ham ifodalaydi.Predmetlar o'rtasidagi shakily o'xshashlik birining nomi ikkinchisining o'rniga asos bo'lgan. **3.**So'zlarda ma'no ko'chishi nima asosida ko'chishiga ko'ra **metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya** kabi turlarga bo'linadi.

a) Metafora **1.** Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir. **2.**Metafora (yunoncha-ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga o'xshashlik asosida ko'chishidir M: tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. **3.**Demak metaforada predmet belgi harakatlar o'xshashlik asosida boshqa predmet va harakatga ko'chadi. M: *qozonning qulog'i, varrakning dumi, rubobning qorni, kemanding tumshug'I, egarning qoshi, o'choqning og'zi, tog'ning etagi, qora niyat, sovuq xabar, shirin xotira, achchiq haqiqat, bemaza gap sayoz asar, yengil ta'zim yorug' yuz, oltin yproq, kumush qish, zumrad bahor, po'lat iroda, temir intizom, majlisda savalanmoq, qarzini uzmoq, Qashqadaryo bilan ulanmoq...* **4.**Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin. a) Ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xshashlik; M: Odam qulog'i—qozon qulog'I b)Ikki predmet qayerda joylashishi bo'yicha o'xshashlik M: *Itning dumi ---- samolyotning dumi* **5.** Formula: MAVHUM OT + ANIQ OT shaklidagi ko'chma ma'noli birikmalar ham,odatda, metaforani yuzaga keltiradi. M:*hayot ostonasi,visol uyi sabr kosasi, ishq bog'i, hayo ko'chasi, hasad o'ti, takabburlik libosi, g'amza o'qi* Bular adabiyotshunoslikda istiora deb nomlanadi. **6.**Ba'zan kishi ismlari metafora usulida

ko‘chishi mumkin. M: *Yo‘lbars, Bo‘riboy, Qoplonbek, Lochin, [Gulchehra](#), Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Arslon, Charos, Ozoda...* 7. Metaforalarga juda yaqin bir vosita “O‘xshatishlar” bo‘lib, ular yordamida shaxs, predmet bir biriga o‘xshatiladi, qiyos qilinadi. —day; -dek; go‘yo, yanglig‘, singari, xuddi kabi o‘xshatish vositalaridan ham foydalaniladi. M: *Ulug‘bek — misoli oftob* Nutq jarayonida metaforadan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta‘sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

b) Metonimiya Metonimiya yunoncha *qayta nomlash* demakdir. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chishi metonimiya deyiladi. M: *Fuzuliyni oldim qo‘limga* (aslida Fuzuliy asarlarini; Shoir va uning asarlari o‘rtasidagi bog‘liqlik) *Samovarda osh yedik* (aslida choyxonada; choy ichiladigan joy bilan choy qaynatiladigan buyum o‘rtasidagi aloqadorlik) *Zal kulib yubordi* (aslida zaldagi odamlar) “*Rossiya*”ga qanday borsam bo‘ladi? (bekatdagi yo‘lovchi murojati) “*Besh bolali yigitcha*” kelmadimi? (kitobxon savolidan) *Ichak-chavog‘im [qolmadi endi kalla sotaman](#)* (qassobning gapi) *Navbatim sumka ko‘targan “jinsi”dan keyin* (xaridorning gapi) “*Navoiyni kechadan beri ko‘tarib yuribman*”(o‘quvchining nutqidan) 3. Demak, so‘z ma‘nolarining o‘xshashlik emas, makon va zamondagi o‘zaro bog‘liqlik aloqadorlik asosida ko‘chishi metonimiya sanaladi 4. ba‘zan kishi ismlari ma‘lum bir hodisa bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. M: *Ramazon Juma, Odina, Safar, Hayit* 5. Metonimiya asosida ko‘chma ma‘no hosil qilish fikrimizni lo‘nda ifodali ta‘sirchan bayon qilishning bir yo‘li sanaladi.

c) Sinekdoxa . Sinekdoxa yunoncha *birgalikda angash* yoki *nazarda tutmoq* *qo‘shib fahmlamoq* so‘zidan olingan bo‘lib bo‘lak orqali butunni yoki bo‘lak orqali butunni anglatish mumkin. Sinekdoxa metonimyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda ma‘no butun va qism munosabatlari asosida ko‘chadi. Shunga ko‘ra sinekdoxa 2 xil bo‘ladi. A) qism orqali butun ma‘nosi ifodalash mumkin. b) Butun orqali qism ma‘nosini ifodalash mumkin M: *Tirnoqqa zor bo‘ldi* (qism orqali butun ya‘ni farzandga zor bo‘ldi demasdan shu (farzandning tirnoq) orqali farzand ma‘nosi anglashiladi) *Bitta shu tuyuq bilan 5 bolani qanday boqaman?* (Qism orqali butun chunki tuyuq deganda sigirdir echkidir boshqa boshqadir tushuniladi) *G‘ildirakni yurgizib ko‘cha bo‘yi signal chalib*

ketdi. Cho'loqqa achinish bilan qaradi Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib keldi. Ma'no ko'chishining bu turi ham nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda ifodali jozibali bo'lishda kata ahamiyatga ega.

d) Vazifadoshlik 1.Vazifadoshlik narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy birxillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishidir. M:Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi. Yuqoridagi ikki gapda qo'llangan chiroq so'zi bir xil vazifa bajaruvchi 2ta bir-biriga o'xshamaydigan narsalarni ifodalayapti. Birinchi gapda elektr orqali yorituvchi noksimon (lampochka)asbobni; ikkinchi gapda esa kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi asos va shisha qismlaridan tarkib topgan asbobni bildiradi. Bu asboblarning makon va zamonda aloqadorligi yo'q Bu asboblarning shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi.Lekin vazifasi bir ular vazifadosh ya'ni yozish vazifasini bajaradi. 2.Vazifadoshlik o'xshashlikka asoslanishi bilan metaforaga yaqin turadi. Farqi shundaki metaforada predmet belgi harakat o'xshashligi asos qilib olinadi Vazifadoshlikda esa ular bajaradigan predmet bajaradigan vazifalar o'xshashligi asos qilib olinadi. 3. Ba'zan maq'no ko'chishida metafora va vazifadoshlik usullari birga qo'llanishi mumkin. Bu tilshunoslikda funksional metafora deb nomlanadi M:Odamning tishi-- arraning tishi (Bunda ham shakily ham vazifalar o'xshashligi) 4 Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish ularning ilgari qanday shakldaligini narsalarni ifodalaganini bilish tilimiz imkoniyatlarini naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.

e) Kinoya 1.Kinoya arabcha bir narsa demoq boshqa narsa tushunmoq ma'nosini bildiradi. 2.Bunda so'zlar o'z ma'nosida emas teskari aks ma'noda tushuniladi. 3.Kinoya usuli og'zaki nutqda maxsus intonatsiya ohang orqali yozma nutqda qo'shtirnoqqa olish orqali ifoda etiladi. M: Feruz nemis tilini "suv qilib ichgan". Jasur urishganda bisotidagi eng "chiroyli" so'zlarni ishlatdi.

ESLATMA: Ba'zan bir so'zning ma'nosi kontekstda turli usullar bilan ko'chishi mumkin. (deylik **bosh** so'zi) Badanim o't bo'lib yondi, boshim og'rib, ko'zlarim tindi. (o'z ma'nosida) Tog'ning ko'rki tosh bilan odam ko'rki bosh bilan (aql metonimiya) Uning boshi yaxshi ishlaydi. (miyasi Sinekdoxa) butun orqali qism Bir boshga bir o'lim

(sinekdoxa inson) qism orqali butun Yoki:
Quloq soʻzini olamiz Qiy-chuv baqir-chaqir quloqni kar qildi. (oʻz maʼnosida) Qozonchining ixtiyori qaydin quloq chiqarsa (metafora shakl) Adl qulogʻila esgit holimi (Mavhum ot + aniq ot=metafora) Eshitgan quloq nima deydi ? (Qism-butun inson sinekdoxa)

ESLATMA:Yuqoridagi soʻz maʼnolarini koʻchishini koʻrib oʻtdik. Baʼzan ifodalangan gapning koʻchma tag maʼnosi ham boʻladi.Tag maʼno gap orqali ifodalangan gapning zamirida yotgan koʻchma maʼnodir. M: Xotin: Sizga tekkuncha alvastiga tegsam boʻlmasdimi? Er: Afsuski,yaqin qarindoshlar oʻrtasida nikoh man etilgan.

Ilova 1.Palak. Maʼlum bir urugʻdan koʻkarib chiqib, yer yuzalab,oʻsib, gullab, hosil beradigan, poliz oʻsimligining tanadini bildiradi bodring; qovun; tarvuz palak M:...Soʻlgʻin palaklarda oʻsmay qolib ketgan xomaklar yiltillab qolar goh surmaday qorayib koʻrinar edi. 2.Palak.Polizchilar nutqida baʼzan qovun yoki handalak urugʻI maʼnosida ham qoʻllanadi. Toʻrt egat palak ekdim. 3.Palak Xalqimiz urf-odatlariga koʻra qizlarni kuyovga uzatish uchun gul (kashta)ipakli matolar tayyorlanadi. M:Poyiga ipakdan palak soldilar Soʻng yuksak bir taxtni etdilar tortiq 4.Parvoyi palak oʻz ishiga maʼsulyatsizlik etiborsizlik bilan qarash begʻamlilik maʼnolarida tushuniladi. Ayrim abituriyentlarning parvoyi palak.

Dor soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida quyidagi maʼnolarda qoʻllaniladi. 1)arqon va yogʻochdan iborat dorboz qurilmasi 2)kishini osib oʻldirish uchun oʻrnatilgan maxsus qurilma 3)kiyim quritish u-n maxsus tortilgan arqon; 4) Kiyim boshni ilish uchun tortilgan ip yoki arqon

Tuproq unumdorligi

Tuproq unumdorligi - tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa bilan taʼminlash xususiyati. Tuproq togʻ jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xoʻjaligi oʻsimliklari oʻstiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xoʻjaligida ishlab chiqarish vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproq hosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuproq hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy

o'simliklar bilan uzviy bog'liq, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Tuproq unumdorligining eng muhim omillar: o'simlik rivojlanishi uchun zarur oziq moddalar va ular turining yetarli miqdorda bo'lishi; o'simlik o'zlashtirishi mumkin bo'lgan namning mavjudligi; yaxshi tuproq, aeratsiyasi; tuproqning granulometrik tarkibi, struktura holati va tuzilishi; zaharli moddalar (kislota, ishqor, tuz va boshqalar) miqdori; tuproq reaksiyasi va boshqalardan iborat. Bu xususiyatlar yig'indisi tuproqning madaniylashganlik holati darajasini belgilaydi. Unumdorlikning barcha elementlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu elementlardan birortasining o'zgarishi boshqalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Har xil o'simliklarning tuproq unumdorligiga talabi turlicha bo'lganligi sababli va o'simlik biologiyasiga bog'liq holda bir tur o'simlik uchun unumdor hisoblangan tuproq boshqa tur uchun unumdor bo'lmashligi mumkin.

Unumdorlik, asosan, tabiiy va samarali turlarga bo'linadi. Tabiiy unumdorlik tuproqdagi oziq moddalar umumiy zahirasi bilan xarakterlanadi; uning shakllanishi esa tuproq hosil bo'lish sharoitlari va omillari hamda genezisiga bog'liq. Samarali (sun'iy) unumdorlikning inson mehnat faoliyati bilan, ya'ni yerga ishlov berish, sug'orish, o'g'itlash, sho'rini yuvish kabi agrokompleks tadbirlar bilan boshqaradi. Sun'iy yo'l bilan qumlik, toshloq, botqoqlik kabi unumsiz yerlarda unumdor tuproqlar paydo qilish mumkin. Tabiiy unumdor tuproqlar ba'zan kam samaraga ega bo'lishi mumkin va aksincha yuqori agrotexnika tadbirlarini qo'llash natijasida unumsiz tuproqlarda yuqori unumdorlikka erishish mumkin. Tuproqdagi oziq moddalar miqdori (azot, fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy, oltingugurt, temir, bor, marganets va boshqa mikroelementlar) tuproq, hosil qiluvchi jinslar va uning tagidagi yotqiziqlar (tagzamini) tarkibiga hamda tuproq hosil qiluvchi jarayonlarga bog'liq. O'simliklarning mikroelementlarni o'zlashtirishiga tuproq reaksiyasi katta ta'sir ko'rsatadi. Tuproqdagi oziq moddalar zaxirasi mineral va organik o'g'itlar solish bilan boshqarib turiladi. Tuproqda suvda oson eruvchi tuzlar, asosan, natriy, shuningdek, magniy, kalsiy va boshqa kationlarining ortiqcha miqdorda bo'lmashligi unumdorlikning muhim shartidir. Tuproqda tuzlar miqdorining me'yordan oshib ketishi – tuproqning sho'rlanishi, asosan, noto'g'ri sug'orishdan vujudga keladi. Natijada unumdorlik keskin pasayib ketadi. Tuproq qatlamidagi zararli tuzlarni

yo'qotish uchun sho'r yerlar yuviladi. Sho'rlanishning oldini olish uchun esa tuproq xususiyati va tarkibiga qarab suyurish rejimi belgilanadi. Qurg'oqchilik joylarida, jumladan, sug'orma dehqonchilik zonalarida suyurish tuproq unumdorligini tubdan oshiradi. Tuproq unumdorligining past bo'lishi, ko'pincha patogen organizmlar mavjudligiga ham bog'lik. Ularni kimyoviy (hasharotlarni bepusht qilish, fungitsidlar sepish va boshqalar) va agrotexnik tadbirlar (almashlab ekish, tuproqqa ishlov berish) yordamida yo'q qilish tuproqning samarali unumdorligini keskin oshiradi. Tuproq unumdorligini saqlash uchun tuproqqa eroziyaga yo'l qo'ymaydigan usullarda ishlov beriladi, dala ihota o'rmonzorlari barpo qilinadi, daryo va kanallar qirgog'i mustahkamlanadi

Tuproq qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning eng asosiy vositasi hisoblanadi. Tuproqning tarkibi, tuzilishi va xossalarini bilmasdan turib, undan samarali foydalanib bo'lmaydi. Tuproq haqida ma'lumotga ega bo'linsagina uning unumdorligini yanada oshirish yoki unumdorligini saqlab qolish mumkin bo'ladi.

Tuproqning rangi tuproq hosil qiluvchi ona jinsning dastlabki rangi hamda tuproq hosil bo'lish jarayoniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham respublikamizning turli hududlarida tuproq rangi turlicha. Masalan: bo'z tuproq, qora tuproq, qizil tuproq va boshqalar.


Tuproqning rangi qanchalik qora bo'lsa uning tarkibida organik moddalar va chirindi miqdori shuncha ko'p miqdorda bo'ladi. Shu sababdan tuproqning haydaladigan va ishlov beriladigan qismi quyi qismiga qaraganda to'qroq rangda bo'ladi. Shuning uchun tuproqning rangiga qarab ham uning hosildorligini o'rganish va oshirish mumkin.

Agar tuproqdagi chirindi miqdori 10% yoki undan yuqori bo'lsa, tuproqning rangi tim qora tusda, 8-10% miqdorda bo'lganda esa qoramtir yoki to'q jigarrang tusda bo'ladi. Chirindi miqdorining kamayib ketishi oqibatida tuproqning rangi to'q kulrang, kulrang, och kulrang tusga o'tib, juda kamayib ketganda oqish rangga ega bo'ladi. Tuproq unumdorligi unga to'g'ri ishlov berilganda ortib borib, aksincha noto'g'ri ishlov berish oqibatida kamayib ketadi.

Namlik darajasiga ko'ra tuproq qatlami ho'l, zax, nam, namxush yoki quruq bo'ladi. Tuproq qatlami orasida suv tomchilari sizib tursa, ho'l tuproq; tuproqni qo'lga

olib siqilganda undan suv tomsa, zax tuproq; siqilganda suv tommasa, nam tuproq; tuproq zarralari to‘zimasdan bir-biriga yopishib tursa, namxush tuproq; siqilganda birlashmaganda esa, quruq tuproq deyiladi.

1-topshiriq. Tuproq unumdorligi qanday omillarga bog‘liq ekanligini “**Klaster**” metodi orqali umumlashtiring.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbek tilining imlo lug‘ati. “O‘qituvchi”, Toshkent, 2005.
- 2.Aminov M., MadvaliyevA. va boshqalar.Ish yuritish, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Toshkent, 2014.
- 3.Qo‘ng‘urov R. Va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
- 4.Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi (uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

9-mavzu. Muloqotda verbal va noverbal shakllar.

Reja:

1. Verbal vositalar
2. Noverbal vositalar

3. Muloqotda noverbal vositalarning ahamiyati

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzorlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o‘zaro ta‘sirleshuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzorlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta‘riflari mavjud. **Muloqot** ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta‘sirleshuvi sifatida ta‘riflanadi. Yoki: **muloqot** – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta‘sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta‘rifidir.

Muloqot barcha tirik jonzorlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo‘ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongingning barcha qirralari bilan chambarchas bog‘langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta‘siri ostida qarashlar, e‘tiqodlar, intellektual, ma‘naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe‘l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. SHunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo‘lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg‘unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma‘no va mazmunga ega.

Til – shartli belgilar tizimi bo‘lib, ularning yordamida odamlar uchun muayyan ma‘noga va mazmunga ega bo‘lgan tovushlar yig‘indisi uzatiladi.

Nutqda alohida insonning ruhiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jihatdan alohida shaxsga xos bo'lib, unda alohida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa hamma uchun bittadir.

Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, harakat, holat va h.k. ifodalanadi. So'z esa, predmet yoki hodisa to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq.

Umumlashtirish funksiyasi har bir so'z umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan bog'liq, bu esa tafakkurning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, ya'ni muloqot muayyan ma'lumotlarni, fikrlarni, tuyg'ularni odamlar bir-birlariga etkazib berishdan iborat bo'lgan jarayondir.

Inson nutqining aniqligi cheklangan miqdordagi nutqiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuyg'ularini ifodalash imkonini beradi.

Muloqot **mazmuni** – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga etkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma'lum tartibda aloqaga kirishishga yo'naltiruvchi, ularning emotsional holatlari (mamnunlik, shodlik, g'azab, qayg'u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma'lumotlar o'tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga etkaziladi va shaxslararo aloqalar o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Biz, ochiq ko'ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, g'azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o'zimizni boshqacha tutamiz. Bir mavjudotdan boshqasiga etkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi ma'lumot, masalan, xavfdan yoki yaqin atrofda ijobiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni bo'lishi mumkin. Odamda muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va ko'nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko'p jismli bo'lib, ichki mazmuniga ko'ra turli-tumandir.

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab. Hayvonlarda muloqot maqsadi bo'lib boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga

chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o'z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba'zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar etib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va etkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

Muloqotning **shaxslararo** tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Muloqotning **kognitiv** tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning **kommunikativ-axborotli** tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va sh.o'lari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning **emotiv** tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.

Muloqotning **konativ** (hulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Muloqot vositalarini muloqot jarayonida bir tirik jonzotdan boshqasiga etkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishlash va ochib berish vositalari sifatida ta'riflash mumkin.

Muloqot vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Til – muloqot uchun qo‘llaniladigan so‘zlar, ifodalar va ularni muloqotda qo‘llash uchun ma‘noli iboralarga birlashtirish qoidalari tizimi, shuningdek, turli ko‘rinish va shakllardagi (matnlar, chizmalar, suratlar), axborot yozish, etkazish va saqlashning texnik vositalari (radio- va videotexnika, yozuvning mexanik, magnitli, lazerli va boshqa shakllari) dagi belgilar tizimlari va yozuvdan iborat.

2. **Ohang, emotsional ifodalanganlik**, bir xil iboraga turlicha ma‘no berishga qodir.

3. Suhbatdoshning **mimikasi, gavda holati, nigohi** ibora ma‘nosini kuchaytirishi, to‘ldirishi yoki rad etishi mumkin.

4. **Imo-ishoralar** muloqot vositasi sifatida umumiy qabul qilingan, ya‘ni, belgilangan ma‘noga ega bo‘lishi yoki ekspressiv, ya‘ni, nutqning ifodaliligini yanada oshirishi mumkin.

5. Suhbatdoshlar muloqotidagi **masofa** madaniy, milliy an‘analarga, suhbatdoshga bo‘lgan ishonch darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Inson o‘zining tur ichidagi muloqot usullari va vositalarini tanlashdagi kashfiyotchiligi bo‘yicha er sayyorasida bizga ma‘lum tirik mavjudotlarni ancha quvib o‘tdi.

Muloqot quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- muloqotga bo‘lga ehtiyoj (axborotni etkazish yoki undan xabardor bo‘lish, suhbatdoshga ta‘sir ko‘rsatish zarur, va h.k.) Boshqa odamlar bilan aloqaga kirishishga undaydi;

- muloqot maqsadlari, muloqot vaziyatini to‘g‘ri belgilash;

- suhbatdosh shaxsini belgilash;

- o‘z muloqoti mazmunini rejalashtirish, odam aynan nima haqida so‘z yuritishini tasavvur qiladi (odatda anglanmagan holda);

- inson ongsiz ravishda (ba‘zan ongli) foydalanishi mumkin bo‘lgan aniq vositalar, nutqiy iboralarni tanlaydi, qanday gapirib, o‘zini qanday tutishini o‘ylab qo‘yadi;

- suhbatdoshning javob reaksiyasini idrok qilish va baholash, qaytar aloqa o‘rnatish asosida muloqot samaradorligini nazorat qilish;

- muloqot yo‘nalishi, uslubi, metodlariga tuzatishlar kiritish.

Agar muloqot aktining biror-bir halqasi izdan chiqqudek bo'lsa, so'zlovchi muloqotdan kutgan natijalariga erisha olmaydi.

Blits-so'rov savollari

1. «Muloqot» tushunchasi, uning maqsadi va mazmunini ochib bering.
2. Insonlar muloqotining vazifalari va turlari nimadan iborat?
3. Qanday muloqot vositalarini bilasiz?
4. Muloqotning nuqtai nazarlari haqida gapirib bering.
5. Muloqotdagi kauzal atributsiya, refleksiya, tenglashtirish va persepsiya nimani bildiradi?
6. Tirik jonzorlar filogenezi va odam ontogenezidagi muloqot taraqqiyotini ochib bering.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi

Kommunikatsiya – o'zaro hamfikrlilikka boshlovchi, ikki tomonlama axborot almashinuvi jarayoni.

Kooperatsiya - hamkorlik faoliyatini tashkillashtirish, guruh maqsadlariga erishishni ta'minlab beruvchi o'zaro ta'sir.

Verbal kommunikatsiya - inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi

Kommunikatsiya - tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nizo – muloqot ishtirokchilarining har biri muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir

Kinesika – bu imo-ishoralar, mimika va pantomimikadan iborat bo'lgan muloqot vositalari tizimi.

Paralingvistik tizim – bu vokallashtirish tizimi, ya'ni, tovush sifati, uning ko'lam, tonalligi.

Ekstralingvistik tizim – nutqqa tanaffus va boshqalarni, masalan, tin olish, yo'talish, yig'i, kulgu, nutq jadalligini kiritish.

Proksemika – psixologiyaning muloqotni fazoda va vaqt bo'yicha tashkil etish talablari bilan shug'ullanadigan maxsus sohasi. Proksemikaning asoschisi amerikalik antropolog e. Xolldir. Proksemik xususiyatlarga sheriklarning muloqot vaqtidagi yo'nalishi va ular o'rtasidagi masofa kiradi.

Vizual muloqot – bu ko'zlar orqali aloqa. Spuni ta'kidlab o'tish joizki, servis sohasi bilan bog'liq ish faoliyatida verbal, hamda noverbal aloqalar bo'yicha o'z malakalarini muntazam oshirib boradiganlarga omad kulib boqadi.

Muloqotning verbal va noverbal vositalari

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiya ni ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda birbirini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo'lishi kerak. Til so'z belgilari yig'indisidan iboratdir. So'zning ma'nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini alohida odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi. Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy tarixiy tajribasi belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilab olmaydi, u ota onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu erda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi ijtimoiy tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish

harakati va faoliyati ko‘pincha ijtimoiy qiymatga ega bo‘lmagan o‘zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi.

Masalan, men oshxona tomon yo‘l olaman. Yo‘lda o‘rtog‘im uchrab menga: “oshxona yopilgan”, deydi.

SHu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma‘lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo‘nayman. Bu erda til o‘zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya‘ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki olamning xatti harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta‘sir qilishdan iboratdir. Uchinchidan, har bir alohida odamning ish harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning “shaxsiy” tajribasi, o‘z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o‘ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli ularoq, o‘z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishdan va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu erda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to‘qnash keldik. So‘z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o‘rnatish o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o‘zidir. Nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi: So‘zlovchining nutqi faol nutq, tinglovchining nutqi esa passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo‘linadi. Tashqi nutq yozma va og‘zaki nutqqa, ogzaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo‘linadi. Monolog - bir kishining o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan

nutqidir. Bu o‘qituvchining bayoni, o‘quvchining to‘laroq javobi, ma‘ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma‘lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarining saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e‘tibor berish kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o‘qituvchilar o‘quvchilarda monologik nutqn

i rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi nutq dialog deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko'p jihatdan undan oldingi fikrga bog'liq bo'ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. SHuning uchun yozib olingan dialog bosh qalarga unchalik tushunarli bo'lmasligi mumkin. Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya'ni odatlanib qolingan so'z birikmasi ko'p uchraydi (qoyil, marhamat qilib

aytingchi). Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo'ladi. Biz so'zni chala yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og'zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xuso'san ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo'lgan og'zaki nutqdan ilgariroq sodir bo'lishi mumkin. YOzma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo'lib yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir.

Noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko'z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya so'zni to'ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o'rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo'q degani, ruslarniki teskarisi bo'ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo'ladi. Masalan, bolalar ko'pincha kattalarga ta'sir etish, ularga o'z xohish va kayfiyatlarini o'tkazishda yig'idan vosita sifatida foydalana dilar.

Axborotni so'z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir. Bu ayniqsa pedagog uchun g'oyat muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
2. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.

10-mavzu: O'zbek adabiy tilida bosh harflar imlosi

“Manzarali o'simliklar”

Reja:

1. O‘zbek adabiy tili
2. Bosh harflar imlosi
3. “*Manzarali o‘simliklar*”

Tayanch tushunchalar: bosh harflar imlosi, ism, familiya, taxallus, joy nomlari, osmon jismlari, har bir so‘zi bosh harf bilan boshlanadigan tashkilot nomlari, tarixiy sana va bayram nomlari, davlatning oliy darajali mukofoti nomlari

1. O‘zbek adabiy tilida bosh harflar imlosi.

1. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O‘rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

2. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

3. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

4. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O. Yoqubov).

Eslatma:

1) ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmasa) kichik harf bilan yoziladi: *‘Bu men’*,— *qo‘rqibgina javob berdi ko‘lanka* (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

- *mazkur ishni ko'rib chiqish uninghuquq doirasiga kirish-kirmasligini;*
- *ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;*

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilning lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

- 1) *umumturkiy so'zlar;*
- 2) *o'zbekcha so'zlar;*
- 3) *tojik tilidan kirgan so'zlar;*
- 4) *arab tilidan kirgan so'zlar;*
- 5) *rus tilidan kirgan so'zlar*

(«O'zbek tili» darsligidan).

5. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong" (mehmonxona), "Saodat" (firma), "Navroz" (xayriya jamg'armasi), "Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich) kabi.*

6. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

7. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

8. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *"Oʻzbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal)*. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *"Sogʻlom avlod uchun" (orden), "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa aʼlochisi" (nishon)* kabi.

1-topshiriq. Matnni oʻqing. Xato yozilgan soʻzlarni imlo qoidalariga muvofiq yozing.

Oʻzbekiston davlati 1991 yil 21 dekabrda Mustaqil davlatlar hamdoʻstligiga, 1992 yil 2 martda Birlashkan millatlar tashkiloti va boʻlqa xalqaro tashkilotlarga aʼzo boldi.

Oʻzbekiston respublikasini 200 ga yaqin davlat tan oldi, 130 mamalakat blan rasmi diplomatiya aloqalari ornatildi. 50 dan ortiq davlat Oʻzbekistonda oz elshihonalarini ochti. Mustaqillik oʻzbek xalqiga oz tarixiga terang nazar tashlash, otababalardan kelayotgan ulugʻ mirosni qadrlash, oz milliy madaniyati va ananalarini rivojlantirish, dunyo xamjamiyatida munosib orin igallash imkoniyatini berdi.

Manzarali oʻsimliklar

Manzarali oʻsimliklar, dekorativ oʻsimliklar — kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladigan turli botanik oilalarga mansub madaniy va yovvoyi oʻsimliklar guruhi. Manzarali oʻsimliklar shahar va qishloqlarni koʻkalamzorlashtirish, istirohat bogʻlari, ijtimoiy, ishlab chiqarish binolari va turar joylarni bezatish, guldastalar yasash uchun oʻstiriladi. Chiroyi, barglari, gullari, mevalari rangi, tanasining gʻaroyib shakllari (shoxlari osilgan, soyabonsimon, ustunsimon) bilan tavsiflanadi. Bir qator belgilariga, masalan, hayot shakliga koʻra — daraxtlar, butalar, chala butalar, oʻt-oʻsimliklarga, poyasi shakliga koʻra, tik oʻsadigan, ilashib oʻsadigan, pastak, yoyilib oʻsadigan, osilib oʻsadigan va boshqalarga boʻlinadi. Manzarali oʻsimliklar biologik xususiyatlari hamda agrotexnika talablariga qarab: daraxt va butalarga, koʻp yillik, ikki

yillik, bir yillik, boshqodosh (g'allagulli), piyozli va boshqa o'simlik guruhlariga bo'linadi. Man- zarali daraxt va butalarga yaproqli, igna bargli, doim yashil va barg to'kuvchi o'simliklar kiradi. Xiyobon, ko'chalarga, hovuz va ko'l bo'ylariga eman (dub), kashtan, chinor, akatsiya, oq qayin, majnuntol, terak, sarv, oq qarag'ay, shamshod, do'lana, archa; shiypon va ayvon tevaragiga ilashib o'suvchilar — tok, chirmoviq, butalardan atirgul, siren va boshqa ekiladi.

Ko'p yillik manzarali o'simliklarga istirohat bog'lari, xiyobonlarda o'stiriladigan sergul, serbarg va manzarali mevali o'simliklar kiradi. Iliq iqlimli mamlakatlarda ko'p yilliklarning qishda ochiq dalada qoladigan va ko'chirib olib, issiqxonada saqlanadigan xillari bor. Ba'zi ko'p yilliklar iqlimi sovuq mintaqalarda bir yillik o'simlik sifatida o'stiriladi. Ular bahorda ildiz, ildizpoya, ildizmeva, piyozchasidan o'stiriladi. Ko'p yillik o'simliklar bir yerda 3-5 yil va undan ortiq o'sadi. Qalamchasi va urug'idan ko'paytiriladi. Ikki yillik manzarali o'simliklar xushmanzara gulli o'simliklar bo'lib, birinchi yili tupbarg , ikkinchi yili gulli va mevali poya hosil qiladi. Bu guruhga, shuningdek, ikki yillik sifatida o'stiriladigan ba'zi ko'p yillik o'simliklar ham kiradi. Bulardan, asosan, gulzor barpo etishda foydalaniladi.

Bir yillik manzarali o'simliklarga urug'idan ekiladigan va o'suv davri bir yil davom etadigan o'simliklar, birinchi yili gullaydigan, lekin sovuqqa chidamsiz o'simliklar ham kiradi (masalan geliotrop, itog'iz, forzitsiya, lobeliya va boshqalar). Bir yillik o'simliklarga chiroyli gullaydigan, naqsh barglilar, "gilam" hosil qiladigan, novdalari osilib turadigan ampal va boshqa o'simliklar guruhi kiradi. Iliq iqlimli hududlarda ko'pchilik bir yillik o'simliklar vegetatsiya davrini uzaytirish va erta gullashi uchun mart— aprelda parnik va oranjereyalarga ekiladi, so'ngra ochiq yerga ko'chiriladi, ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri ochiq yerga ekiladi. Bularga qo'qongul, xinagul, timoqgul, ko'knorgul, nastursiya, petuniya, tamakigul, baxmalgul, ipomeya va boshqa kiradi.

G'alla gulli manzarali o'simliklar boshqodoshlarga mansub bo'lib, gulchilikda guldastalar tayyorlashda foydalaniladi. Maysazorlarga yakka va guruhlab ekishda baland o'sadigan, gulzor chetlariga va guruhlab ekishda past o'sadigan g'allagulli o'simliklardan foydalaniladi.

Piyozli manzarali o'simliklar piyozguldoshlar va chuchmomaguldoshlarga mansub bo'lib, manzarali bog'dorchilikda ko'paytiriladi. Bularga boychechak, lola, nargis, giatsintlar, piyozgul va boshqa kiradi. Asosan, piyozchalaridan ko'paytiriladi.

Manzarali o'simliklar urug'i, ko'chatlari, qalamchalari manzarali bog'dorchilik xo'jaliklarida yetishtiriladi, yangi manzarali o'simliklarni madaniylashtirish va ularni tarqatish bilan botanika bog'lari va dendrologlar shug'ullanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbek tilining imlo lug'ati. "O'qituvchi", Toshkent, 2005.
- 2.Aminov M., MadvaliyevA. va boshqalar.Ish yuritish, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. Toshkent, 2014.
- 3.Qo'ng'urov R. Va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
- 4.Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi (uslubiy qo'llanma). ToshDAU nashr tahririyati, Toshkent, 2001.

11-mavzu. Tinish belgilar imlosi. "Uzum – tabiat durdonasi"

Reja:

1. Punktuatsiya haqida tushuncha.
2. O'zbek punktuatsiyasining tarixiga doir.
3. Punktuatsiyaning tilshunoslikning sohalari bilan aloqasi.
4. O'zbek punktuatsiyasining asos va tamoyillari.

Punktuatsiya termini lotincha **punctum** so'zidan olingan bo'lib, aslida nuqta, o'rin, joy tushunchalari bilan bog'langan bo'lsa ham, tilshu-noslikda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yig'indisini (**tinish belgilarini**) anglatadi.

Punktuatsiya tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, tinish belgilari (**punktogramma**) va ularning qo'llanish qonun-qoidalarini o'rgatadi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (**grafika**) ning uzviy qismi bo'lib, yozma nutqning ayrim yozuv

belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin bo'lgan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday ma'no va vazifada qo'llangan bo'lsa, mazkur tinish belgi o'quvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi.

Demak, tinish belgilari "*Yozma nutqning tushunilishini osonlashti-rish uchun qo'llaniladi*" (Baduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, aniqlik kiritadi. Tinish belgilarining o'rinli qo'llanmasligi ma'lum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilishii jihatidan o'zgarib ketishiga olib keladi. Masalan, *Afandi podshoga qarab: Siz axmoq odam emassiz, – dedi* (latifa) gapida **axmoq** so'zidan keyin pauza berilib (tire yoki vergul qo'yilib) o'qilsa, gap podshoning aklliligi haqida emas, balki uning ham axmoq, ham yomon odamligi haqida boradi. *Qir-adirda lola gulpar ochilgan* (U.) gapida *lola* so'zidan keyin vergul qo'yilmasa, faqat lolalar ochilganligi; vergul qo'yilsa, loladan tashqari boshqa gullar ham ochilganligi anglashiladi.

Tinish belgilari yozuvdan keyin paydo bo'lgan. Qadimgi yozuvlar piktografik (rasm yozuv), logografik (so'z yozuv) shakllarida bo'lganligidan, punktatsiyaga ehtiyoj sezilmagan. Punktatsiya yozuvning keyingi taraqqiyotida shakllana boshlagan.

Yozuvning sintetik usulidan analitik yozuv usuliga o'tilishi, endi yozuvda grafemalarni – [belgilarni ajratish](#), bir harfli so'zni ko'p harfli so'zdan, so'zni so'zdan ajratish ehtiyojining tug'ilishi, fikrni mantiqli bayon qilish, maqsadni to'g'ri ifodalash zaruriyati kabilar bora-bora yozuvga ayrim ishoralarning kiritilishiga olib keldi. Qadimgi yozma matnlarda so'zlar: a) bo'sh joy, interval (oraliq masofa), b) nuqtalar, v) ayrim belgilar (masalan, qizil rang) vositasida ajratilgan.

O'rta Osiyoning qadimgi yozuvlarida ham (oromiy, turkiy runik kabi) ajratuvchi belgilar saqlangan, ancha faol qo'llanilgan, bularni shartli ravishda qadimgi yozuvlarga xos «punktatsion» belgilar deyish mumkin.

Oʻrta Osiyoda arab yozuvi maydonga kelgandan keyin, oromiy, turkiy runik kabi yozuvlardagi mavjud anʻanaviy yozuv tizimi buziladi. Arab grafikasida yozuvning yordamchi elementi sifatida: a) taʼkid belgi-lari" – tik toʻgʻri chiziq, qizil va oq-qora ranglar; b) "maʼno belgilari" – "Qurʼon"dagi turish va determinativlar; v) "bezak belgilari" qoʻllangan.

Demak, XIX asrning II yarmigacha arab grafikasidagi oʻzbek yozu-vida tinish belgilari boʻlmagan. Oʻzbek punktuatsiya tarixi, asosan, XIX asrning II yarmidan keyin boshlanganki, buning obʼyektiv va subʼyektiv tarixiy sabablari bor:

1. XIX asrning II yarmida Oʻrta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyatining, jumladan, oʻzbek xalqi madaniyatining rivojlanishida omil boʻldi. Rossiya va u orqali boshqa Yevropa xalqlari bilan boʻlgan turli xil madaniy aloqalar yozuvda ham oʻz ifodasini topadi.

2. XIX asrning II yarmida Oʻrta Osiyoda poligrafiyaning vujudga kelishi: bosmaxonalar, nashriyotlarning paydo boʻlishi, kitob, gazeta, jurnallarning nashr etilishi, oʻzbek adabiy tilining matbuot tili darajasiga koʻtarilishi yozuv madaniyatini, savodxonlikni – tinish belgilari qoʻllash ilmini shakllantirdi. Bunda 1917 yildan muntazam ravishda ikki tilda (ruscha va uzbekcha) nashr etilgan "**Turkiston viloyatining gazet**i" ham muhim ahamiyatga ega boʻldi.

3. Bu davrda tarjimachilik ishlari juda rivojlandi. Rus tilidan oʻzbek tiliga qilingan tarjima matnlarda, tabiiyki, tinish belgilari oʻzbekcha nushaga ham oʻtdi.

4. Turkiy tillar, turkiy yozuvlar tadqiq qilina boshlandi: ilmiy asar-lar, grammatik qoʻllanmalar paydo boʻldi. Turkologlar tomonidan tahlil qilingan oʻzbekcha matnlarda ham tinish belgilari qoʻllanila boshlandi.

Bu holat keyinchalik oʻzbek yozuvida anʻanaga aylandi. Shunday qilib, XX asr boshlarida oʻzbek punktuatsiyasi shakllanib yetdi.

Xususan, 1920 yillardan keyin barcha turkiy tillar bilan birga, oʻzbek [grafikasining rivojida](#), xususan, orfografik va punktuatsion qoida-larning ishlanishida oʻzgarishlar roʻy berdi. Oʻzbek tiliga koʻpgina tinish belgilari (soʻroq, undov, qoʻshtirnoq, koʻp nuqta kabi) kiritirildi.

Punktuatsiya tilshunoslikning **grafika** sohasi bilan zich bogʻlangan. Maʼlumki, grafika muayyan tilning yozuv tizimini bir butun holda, barcha belgilar yigʻindisini oʻrganuvchi

soha, Shulardan tinish belgilar punktuatsiya tomonidan o'rganilishidan qat'i nazar, keng ma'noda punktogrammalar ham grafikaning tarkibiy qismidir. Grafika tinish belgilaridan tashqari, raqamli, diakritik va transkripsion belgili kabi yozuvlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa ham, punktuatsiya o'z o'rganish ob'yekti va vazifasi jihatidan grafikadan, yozuvning boshqa – belgili shakllaridan ajralib turadi.

Demak, grammalar (tinish belgilar) muayyan yozuv tizimining yordamchi, ayni paytda, zarur qimsi bo'lgan shartli belgilar yig'indisidir.

Puntuatsiya **orfografiya** bilan aloqador. Orfografiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rganib, morfologiya bilan zich bog'lansa, punktuatsiya gaplarning to'g'ri tuzilishi, undagi fikrning to'g'ri ifodalanishi uchun xizmat qilib, sintaksis bilan zich bog'lanadi.

Masalan, so'roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so'ng gapning bosh harf bilan, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyin gapning ko'pincha kichik harf bilan yozilish holatlari punktuatsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko'rsatuvchi omildir. Bundan tashqari, savodxonlikni oshirishda orfografiya qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktuatsiya ham shuncha ahamiyatga egadir. Orfografiya ham, punktuatsiya ham grafik vositalar bo'lib, to'g'ri yozish to'g'ri tuzish, to'g'ri ifodalash haqidagi ta'limotdir.

Puntuatsiya **uslubiyat** bilan aloqador. Tinish belgilarining noto'g'ri qo'llanilishi gap mazmunida galizlik, mavhumlik va noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, *Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri* (Muq.) gapida uch holat bor: a) **qo'y** so'zidan keyin vergul o'qilmasa, "tabib" "qo'yboqar"ga aylanadi; b) "**dardim**"dan keyin vergul qo'yilsa, "dardim" "boqma"ga bog'lanadi – kesim+to'ldiruvchi (boqma dardimni) munosabati tug'iladi; v) "boqma"dan keyin vergul qo'yilsa, "ega+kesim" (dardim bedavolardan biri) tug'iladi.

Puntuatsiya **sintaksis** bilan uzviy aloqador. Punktuatsion qoidalar sintaktik qonuniyatlar, me'yorlar asosida talqin qilinadi. Puntuatsiya qoidalarini sintaktik qonuniyatlarga bog'lab bayon qilishning o'z ilmiy metodik asoslari va usullari bor. Puntuatsiya qoidalarini aniqlashda mazkur tilning barcha sintaktik, uslubiy xususiyatlari hisobga olinadi. Tinish belgilari qo'llashni gap qurilishi, uning grammatik-semantik shakllanishi boshqaradi. Masalan, *Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko'zimni yashnatib, [kiyibsiz atlas](#)* (X.Saloh) gapida vergul uch xil vazifada: 1)

uyushgan undalmalarni biriktirish; 2) ularni gap bilan grammatik bog‘lanmaganligi uchun gapdan ajratish; 3) oborotdagi qisqa pauzani qoplash uchun qo‘llanilganki, buni shu gapning konkret sintaktik qurilishi taqozo qilgan.

Punktuatsiya **sintaktik fonetika, gap ohangi** bilan uzviy bog‘lan-gan. Ohang (intonatsiya) ovozning rang-barang tovlanishi: tinch boshla-nishi, ko‘tarilishi (kulminatsiyasi), pasayishi, susayishi, tinishi (uzilishi); tempi: tez va sekinligi, osoyishtaligi; sifati: cho‘ziq, qisqaligi, kuchli va kuchsizligi; davriy va davomlilik, takrorlanishi kabilarda ko‘rinadi.

Ohang juda murakkab bo‘lib, urg‘u, pauzalar, melodika kabilar uning komponentlari hisoblanadi. Ohang gap mazmun-mundarijasining ajralmas qismi: usiz gap shakllanmaydi, gapning kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifasini ohang boshqaradi. Ohangning o‘zgarishi gapning mazmun va tuzilish jihatidan o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi: mazmun farqlaydi, gap qayta shakllanadi. Quyidagi gaplarning ohangini qiyoslaylik:

1. *Turg‘un ukam vrach bo‘ldi.*
2. *Turg‘un, ukam, vrach bo‘ldi.*
3. *Turg‘un – ukam vrach bo‘ldi.*
4. *Turg‘un, ukam vrach bo‘ldi.*

1-gapda Turg‘un bilan ukam o‘rtasida pauza yo‘q: Turg‘un – aniq-lovchi, ukam – ega; 2-gapda Turg‘un bilan ukam sanash ohangi bilan aytiladi: uyushiq egalar; 3-gapda "ukam" gapga nisbatan sal tez va pasayuvchi ohang bilan aytiladi: ajratilgan bo‘lak; 4-gapda Turg‘un so‘zi murojaat ohangi bilan gapdan ajratilib, biroz pauza qilinadi: undalma.

Siz bor, men bor qurilmasi ohangning o‘zgarishi tufayli uyushiq bog‘lovchisiz qo‘shma gap (*Siz bor, men bor va boshqalar bor* kabi); sabab ergash gapli qo‘shma gapga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap (*Siz bor – men bor // Siz [borligingiz tufayli men bor](#)*) kabi shakllarda shakllanishi mumkin.

Punktuatsiya bilan ohang qanchalik yaqin bo‘lmasin, ular o‘ziga xosligi, qimmati jihatidan har xil baholanadi: ohang (gap ohangi) – birlamchi, material tushuncha; punktogrammalar (tinish belgilari) – hosila; ohangning mahsuli, uni aks ettiruvchi shartli simvollardir. Punktogrammalar ohang ohangga qarab qo‘yiladi. Matn har bir

gapning mazmun va grammatik, intonatsion xususiyatlaridan kelib chiqib o'qila-di. Punktogrammalarning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilganligini gap mazmuni boshqaradi, *"Tinish belgilariga rioya qilib o'qish"* iborasi ham, *"Deyarli barcha tinish belgilari "o'qiladi"* (A.M.Peshkovskiy), deyilgan fikrlar ham tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan normal matnlarga nisbatan aytilgandir.

O'zbek tilida ham punktogrammalarni qo'llashning o'z asoslari va shartlari mavjud. Tinish belgilarining qo'llanishida: 1) gapning tuzilishi, 2) mazmuni, 3) ohangi asos qilib olinadi. Tinish belgilarining o'rni va vazifasini belgilashda mana shu uch xil hodisa alohida-alohida emas, balki ularning bir bugunligi nazarda tutiladi. Chunki bular o'zaro bog'langan bir hodisaning uch tomoni – uch xususiyatidir. Nutqning tuzilishi, mazmuni, ohangi o'zaro zich bog'langan bo'lib, har qanday gapda shu uch xususiyat mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, *Opalar, singillar! Bu savollar majlisda berilsin!* (A.Q.) gapi: 1) tuzilishi jihatidan sodda, 2) buyruq bilan birga emotsiya, murojaat ifodalangan, unda gap bilan grammatik bog'lanmagan so'zlar (opalar, singillar) bor, 3) ko'ta-riluvchi ohangi ohangga ega.

Punktuatsiya asoslaridan kelib chiqib, tinish belgilari qo'llashning quyidagi asoslarini ko'rsatamiz:

1. Logik-grammatik asos. Bunga ko'ra, tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangi nazarda tutilgan holda, shulardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gaplarning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishga asoslanadi: *"Dod!" degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jonjahdi bilan baqirdi: Yuqol!!!* gaplarining birinchisidagi qo'shtirnoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

2. Uslubiy asos. Bu prinsipga ko'ra, tinish belgilari nutq uslubining talabidan kelib chiqib qo'yiladi.

Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlik

uchun personajlarning nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilgan-ligidan, borligidan ularni tire bilan ajratishga extiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, [emotsional fikr ifodalash](#), uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, *Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi.* (O.) *Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli!* (U.) gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan. *G'ovur bo'lib ketdi: Xotin-qizlar zveno, brigadani udda qilolmaydimi!* (A.Q.) gapida ritorik so'roq bilan fikrning kuchli (emotsional) va davomli ekanligi ifodalangan. Bu maqsadlar undov belgisi va ko'p nuqta orqali ifodalangan. Lekin bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z bilganicha, o'z istagicha foydalana beradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslub talabiga ko'ra qo'llanilishi ham uslubiy tamoyilning umumiy me'yoriga bo'ysinadi.

3. Farqlovchi (differensial) asos. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgi-lari yozuv texnikasi (shakli)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatda-gidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda iqtibos – sitatalarning manbaini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent – 2011 kabi), havolalarda vergul (G'afur G'ulom, Tanlangan asarlar, Toshkent, 1985 kabi) qo'yiladi.

Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalaniladi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q.

Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.

Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoillar asosida qo'llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi – yordamchi tamoyil.

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari, ularning nomlanishi va shakli quyidagicha:

№	NOMI	SHAKLI
1.	Nuqta	.
2.	So‘roq belgisi	?
3.	Undov belgisi	!
4.	Nuqtali vergul	;
5.	Ko‘p nuqta	...
6.	Vergul (qo‘sh vergul)	, „
7.	Ikki nuqta	:
8.	Tire (qo‘sh tire)	—
9.	qavs (qo‘sh qavs)	()
10.	Tirnoq (qo‘sh tirnoq)	“ “

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Tinish belgilarining qo‘yilish sababini tushuntiring.

1. Albatta... go‘zallik ham har xil bo‘ladi... kechasi qop-qora osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduz ham go‘zal, kunduzi guldin-gulga qo‘nib yurgan kapalak ham

go‘zal... (A.Q.) 2. Lekin na chora ... bu manhus toj-u taxt... bu saltanat... insonlar ustida hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim ishonadi...(O.Y.). 3. Biz... Ahror ikkalamiz... allamahalgacha uxlamay...onam haqida....uni xursand qilish haqida gaplashib yotdik... 4. Rus edi, mallaroq di...o‘zi ham barvasta... kelishgan yigit edi. 5. U olacha chopon kiygan... beliga qiyiqcha bog‘lab olgan... oftobda oqargan do‘ppisi daraxt shohiga ilingan edi. 6. Qachongacha bizni aldaysizlar...bo‘ldi endi....boshqa ishonmaymiz...

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Tire va qo‘shirnoqning qo‘yilishini izohlang.

1. Ikki dugona...Lobar bilan Nazira birga to‘yga ketishdi. 2. Ahror ovoz egasini tanidi... Xasan naychi edi. 3...Hunari bor hech kimga zor bo‘lmas...degan maqol bor. 4. Yaxshidan bog‘ qolar...yomondan dog‘. 5. Telefon ...jiring ...etsa... yuragim ...shuv...etadigan bo‘lgan. 6. ...Men qoqio‘t, karnaygul, tog‘ piyozi...giyohlarni teraman...dedi yo‘lovchi.

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Matndagi qaysi so‘zlarni sheva asosida talaffuz qilamiz.

Uzum – tabiat durdonasi

Uzumning shifobaxsh xususiyatlari haqida eshitmagan odamning o‘zi bo‘lmasa kerak. Ammo uning bu xususiyati siz o‘ylagandan ancha kengroq bo‘lib, ular haqida aytib o‘tishni ma‘qul ko‘rdik. Shunday qilib...

Uzum mevasida **radioprotektorli**, nurga qarshi, bakteritsid, **antioksidant**, **neyrorag‘batlantiruvchi**, tonusni ko‘taruvchi va boshqa funksional xususiyatlarga ega kamida 300 ta birikma mavjud. Sizga tanish bo‘lgan **bioflavanoidlar**, **monosaxaridlar**, **pektin** moddalari va organik kislotalardan tashqari, uzum tarkibini C, A, B1, B2, B5, B6, B9, E, PP, P vitaminlari, natriy, kalsiy, fosfor, magniy, kaliy, marganets, temir, rux, mis va boshqa ko‘plab moddalardan tashkil topgan haqiqiy “kokteyl” deyish mumkin.

Uzum bilan davolash **ampeloterapiya** deb nomlanadi. Uzum organizmdagi moddalar almashinuvini yaxshilaydi, siydik haydovchi, yumshoq ich suruvchi va ter haydovchi xususiyatga ega. U nafas olish yo‘llaridagi shilimshiq moddaning ajralib

tushishini ragʻbatlantiradi va balgʻamni tupurib tashlashni yengillashtiradi. Shu bois uzumni laringit, faringit, traxeit, bronxit, bronxial astma, plevritlarda isteʼmol qilish juda foydali

Yurak uchun foydasi. Yuqorida aytib oʻtganimizday, uzumdagi bioflavanoidlarning foydali taʼsirining chegarasi yoʻq. Birinchidan, qizil uzumda ajoyib rezveratol bioflavonoidi mavjud. U qonda “yaxshi” **xolesterin**, yaʼni yuqori zichlikdagi **lipoproteinlar** miqdorini oshiradi va **triglitsidlar**, hammaga xolesterin nomi ostida maʼlum boʻlgan past zichlikdagi “yomon” lipoproteinlar miqdorini 50% ga kamaytiradi. Demak, uzumni yoqtiradigan kishilarda **aterosklerozga** chap berib, keksaygan paytida ham yaxshi xotirani saqlab qolish imkoni bor.

Uzumning madaniy turi 7-8 ming yil avval paydo boʻlib, hozirgi kunda uning 5 mingdan ortiq turi mavjud. Uzumning dorivorlik xususiyati ham ancha qadimdan maʼlum. Sharq tabobatida dorivor sifatida uzumdan pishgan va xom holida foydalanganlar. Shuningdek, uzum sharbati, sirkasi, bargi poyasidan ham unumli foydalanishgan.

Abu Rayhon Beruniyning taʼkidlashicha, uzum poyasini kesganda oqib tushadigan suvi koʻp shifobaxsh xususiyatlarga egadir. Uning poyasidan efir moyi ham olingan. Mashhur tabib Abu Ali ibn Sino esa uzumning xususiyatlari haqida shunday deb yozadi: “Bir muncha muddat olib qoʻyilgan uzum tanani yaxshi oziqlantirib, quvvatlantiradi. Yaxshi pishgan uzumning zarari pishmaganidan kamroqdir. Uzumning oʻzi sharbatidan koʻra foydaliroqdir. Uzum va danakli magʻiz ichak ogʻrigʻida yaxshi foyda qiladi. Shuningdek, mayizi buyrak va qovuq uchun ham foydali. Uzum poyasining suvi, yovvoyi uzum mevasining sharbati qon tupurishni bartaraf etadi. Ichketish va yoʻgʻon ichak xastaliklarida ham foydali. Uzum poyasining suvi toshlarni maydalaydi, soʻgal, qontalash, temiratkini davolaydi. Yovvoyi uzum poyasini suv yoki moy bilan ichish istisqoni davolaydi va peshob haydaydi. Yovvoyi uzum mevasi esa oshqozon faoliyatini yaxshilab, qusishni toʻxtatadi, yurakka quvvat berib. jigʻildon qaynashini bosadi”.

Uzum tarkibida koʻp miqdorda qandlar, **organik kislotalar**, S, V **vitaminlari**, oshlovchi va boʻyoq moddalar bor. Bargida esa S, V, K vitaminlari, karotin, nikotin, foliy kislota, flavonoidlar, katexin va oshlovchi moddalar mavjud.

Xalq tabobatida uzum sharbati, shuningdek, uzumning nordon navlari ishtahani ochuvchi va ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Yaxshi pishgan uzum, ayniqsa, qora navi kamqonlikni davolashda va kamquvvat bemorlarga mador berishda qo'llaniladi. Qora mayiz esa turli zararli o'smalarni davolab, inson quvvatini oshiradi. Uzumning yaxshi pishmaganlaridan sirka tayyorlaydilar. Sirka ishtahani ochish bilan birga stomatit va anginani davolaydi.

4-topshiriq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
2. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.

12-mavzu. Soha mutaxassisi savodxonligi, to'g'ri so'z tanlash, to'g'ri talaffuz, to'g'ri gap qurilishi. “Dehqonchilikda xo'jalik yuritish tizimi”

Reja:

1. Til va nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
2. Til va nutq madaniyati haqida buyuk mutafakkirlar va pedagoglarning fikrlari
3. Nutq texnikasi, nafas olish, talaffuz.

Tabiat kuchlarini bilish va egallashda juda qisqa vaqt maboynida g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishuvchi odamning hamma boshqa jonzotlar - hayvonlardan farqli tomoni ularda tilning mavjudligidir. O'zining ongi - tili va nutqi bilan inson hamma narsadan ustun turadi.

Til jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch va millatning mavjudligini ko'satuvchi belgilardan biri hamdir.

Barcha rivojlangan davlatlarda bo'lganidek bizda ham o'z milliy tilimizni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek tili bizda davlat tili deb e'lon qilingan va shunga amal qilinmoqda.

O'z fikrini mutloqo mutaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalombor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"¹ .

Til aloqa vositasi yoki qurolidir, nutq esa aloqa jarayonining o'zidir.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq qanchalik chiroyli, mazmundor bo'lsa kishilarni o'ziga shunchalik jalb etadi. Bu masalaga kishilar qadimdan qiziqib kelishgan. Qadimgi YUnoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan. Notqlik san'at darajasiga ko'tarilgan. Ularda yetuk inson bo'lish uchun notqlik san'atini egallashlari shart bo'lgan. 335 yilda Aristotelning "Ritorika"si yaratiladi. sitseronning "Notiq haqida", "Notiq"asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq tayyorlash to'g'risida" asari ham notqlik san'ati haqidadir.

SHarqda, jumladan Movarounnahrda ham va'zxonlikka katta e'tibor berilgan. Va'zxonlik notqlik san'atining o'sib borishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar ham mukammallashib boradi. Buyuk allomalar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Kaykovus va boshqalar tilga, mantiqshunoslik va notqlikka oid asarlar yaratdilar.

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. "Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening suz bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar ...", deb yozadi alloma. U yana notiq xalq tilini, uning fikri va ruhiyatini bilishi kerak deydi.

Yusuf hos Hojibning"Qutadg'u bilig" asarida ham til odobi va notqlik madaniyati haqida juda qimmatli fikrlar bayon etiladi. U qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida gapiradi. Til insonning qadr - qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi adib.

Omonlik tilasang agar sen o'zing,

Tilingdan chiqarma yaroqsiz so'zing.

Qizil til qilar qisqa yoshli seni,

Omonlik tilasang avayla uni.

Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzish bayroqdoridir. U o'z ijodi bilan o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Bu tilning boyliklarini namoyon etdi. Navoiyning "Muhokamatul - lug'atayn", "Mahbubul - qulub", "Nazmul javohir" asarlari o'zbek

tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shdi. "Mahbubul qulub" asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq madaniyati haqida muhim fikrlar beriladi.

"Tilga ixtiyorsiz - elga e‘tiborsiz". "Tilini tiyolgan odam - donishmand oqil; so‘zga erk bergan odam - beandishaa va pastkash. Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi, til bilan dil bir bo‘lsa yana yaxshi".

Navoiydan keyingi qator adib, allomalarimiz, jumladan jadid ziyolilari ham til va nutq, til va nutq madaniyati haqida o‘zlarining muhim qarashlarini bayon etganlar.

O‘qituvchi, tarbiyachi nutq madaniyatini egallamasa hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon ma‘nodagi eski usuldan, bir qolibdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi. O‘qituvchi nutqi, o‘quvchilar bilan muoamala qilishi uning o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni muloqot olib borishni doimo o‘rganib borish kerak.

Pedagogik jamoa bilan, bolalar guruhlar, ayrim o‘quvchilar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borishi [uchun gapirishni bilishi](#), suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi lozim. Birinchi navbatda o‘qituvchi suhbatni boshlaganda, gapni masalaning qo‘yilishidan boshlashi mumkin. Bu masalada bo‘ljak suhbatning ma‘nosi mujassamlashgan bo‘ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko‘rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli fakti ma‘lum qilishdan boshlasa bo‘ladi. Suhbatni tugallash ham muhim ahamiyat kasb etadi. U turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy g‘oyalarni yana bir marta qisqacha bayon qilib berish mumkin uni she‘riy satrlar bilan tugallasa ham bo‘ladi.

Bu qoidalarga rioya etish pedagogning so‘zlari o‘quvchilarga zarur ta‘sir ko‘rsati uchun shart - sharoit yaratadi. So‘z bilan ta‘sir ko‘rsatishni amalda qo‘llanish o‘z hissiyotlarini, ijodiy ta‘sirlanishini boshqarish ko‘nikmalariga va o‘z his - tuyg‘ularini ifodalash uchun aniq shaklni topa bilishga asoslanishi lozim. Bu sohada aktyor ishi osonroq ekanligini e‘tirof qilish kerak. Ta‘lim - tarbiya ishi rahbarning doimiy tutgan yo‘li ba‘zan pedagogga his - tuyg‘ular va fikrlarni so‘z bilan ifodalashda qolibda ish tutishga olib keladi. Ko‘pincha so‘z bilan ifodalashning bir kolibdaligi o‘qituvchi

hayajonlanganda va jiddiy ayb, gunoh qilgan o'quvchilarni qoralash lozim bo'lganda yaqqol ifodalanadi.

Imo - ishora yuz harakatlari bilan ham ta'sir ko'rsatish mumkin. Bunda ham imo - ishoralar so'z - tovush nutqini to'sib qo'ymasligi kerak. Og'zaki ta'sir qilish mazmuni ta'sir ko'rsatishning aniq turiga bog'liq. Agar biz ta'sir qiluvchi nasihatdan foydalansak, nutqimiz nihoyatda muxtasar bo'lishi lozim. Ta'sir qiluvchi ta'sir ko'rsatish uchun o'ziga xos narsa faqat materialning mazmuni emas, balki nutqning ohangdorligi, bezagi hamdir.

Hatto oddiy nutqda ham agar kuchli ta'sir qiluvchi ta'sir ko'rsatish vazifasi qo'yilmasa, faqat axborotning mazmuni emas, gapiruvchining so'zlashish ohangi ham idrok etiladi. Nutq texnikasini takomillashtirish uchun o'z ovozi chetdan turib eshitish muhimdir. Bu o'rinda magnitafon o'qituvchilarga bebaho yordam beradi. Og'zaki ta'sir qilishning har xil turlarini magnit lentasiga bir necha marta yozib olib, eshitib ko'rish zarur, shunga erishish kerakki, u galda bu galga ovoz ohangi tobora aniqroq bo'lib borsin, hal etilayotgan vazifaga tobora mos kelib, so'zlovchining individual xususiyatlarini juda mukammal ifodalaydigan bo'lsin.

Pedagogik jarayonda qo'llanadigan o'zaro fikr almashishining asosiy shakllari tahlil qilish va ularga ta'rif berish bo'lajak o'qituvchining kasb - koriga o'z - o'zini tarbiyalashi uchun ham, pedagogik muomala madaniyatini takomillashtirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunoslik bolalar nutqni kattalarga taqlid qilish yo'li bilan egallab olishlarini isbotlab beradi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namuna va ularga ta'sir etish vositasidir. Kichik sinf o'quvchilarining nutqlari uncha o'smaganligi sababli kattalar nutqidagi yaxshi jihatlariga ham, yomon tomonlariga ham bir xilda taqlid qilaveradilar. O'qituvchi nutqining xususiyatlari va nuqsonlari tarbiyalanuvchilar nutqining xususiyatlari va nuqsonlariga aylanib qoladi. SHuning uchun o'qituvchilar nutqiga g'oyat katta talablar qo'yiladi. O'qituvchining nutqi adabiy til mezonlariga javob berishi va bolalarning yoshiga mos, ularga tushunarli bo'lishi kerak, o'qituvchi o'z nutqida ko'proq sinonimlardan antonimlardan foydalanishi kerak.

Buning uchun u shoshilmasdan, duduqlanmasdan, ona tilidagi hamma tovush so'zlarni to'g'ri, aniq, burro, orfografiya normalariga rioya qilib talaffuz eta bilishi

kerak. O'qituvchi ko'pincha bolalarga berilgan savolni bir necha marta takrorlaydi, bu berilgan savolni to'g'ri tushunib olishga, vujudga kelgan pauzani to'ldirishga yordam beradi. Bu vaqtda o'qituvchi bolalarga birgina fikrning o'zi turlicha bayon etilishi mumkinligini ko'rsata olish imkoniga ega bo'lishi kerak.

YOsh avlodni tabiat, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari bilan, kishilarning o'zaro axloqiy munosabatlari bilan tanishtirishda o'qituvchi nutqi katta rol o'ynaydi. Har bir o'quvchi o'z sevimli o'qituvchisining tovush, nutqiy xususiyatlari, o'quvchilarga murojaat qilish, savollarga javob berish usullarini doimiy eslay oladi.

Til va nutq madaniyati

Tilning madaniyati deyilganda, uning so'z boyligi, sintaksizning taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligi tushuniladi. Nutqning madaniyati uning aloqaviy fazilatlari yig'indisi va tizimi bo'lib, ular til madaniyati til faoliyatida qiynalmaslik, matnning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har xil sharoitlarga bog'liq.

Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash ikki bosqichda amalga oshadi.

1-bosqich til vositalarini bilishdan iborat. Bu nutqni tinglaganda unda ishlaydigan til vositalarining ma'nosi va vazifasini anglashda ko'rinadi. YA'ni, tinglovchi tinglash va o'qigan narsalarini tushunadi. Bunday shaxs o'zgalar nutqini yaxshi tushunadi. Ammo o'zining nutqi tilning rang-barang imkoniyatlaridan mahrum, qoshshoq bo'ladi.

2-bosqich til sistemasi taqdim etgan imkoniyatlarning katta qismini chuqur o'zlashtiradi, ularni nutq tezkorligiga aylantirib olishdan iboratdir. Bunga erishgan shaxsning nutqi ravon, boy, obrazli, o'rinli bo'ladi. 1-bosqichda anglab olingan nutq vositalari ustida doimiy mashq qilish, ularni xotirada saqlashga doimo e'tibor berish, bu imkoniyatlarni nutqiy tezkorlikka aylantiradi.

Insoning nutkiy faoliyati uch ko'rinishga amal qiladi. Bular: so'zlash, mutoolaa va eshitish. So'zlash deyilganda so'zlovchining ma'lumot, [maslahat berishi](#), buyurishi, o'ziga noma'lum narsalar haqida so'rashi anglatiladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, ahloq-odobi yuzaga chiqadi.

Mutolaa o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o'quvchi yozma nutqidan aks etgan voqea-xodisalardan xabardor

bo'ladi, ular ta'sirida xulqida qandaydir o'zgarish paydo bo'ladi. Mutolaa ma'lumot olishning eng muhim yo'lidir. Kishi o'qish orqali ma'naviy yetuklikka erisha boradi.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga **o** yoki **a** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

avv...1	b...shoq	b...dan	b...g'cha	v...raq
gavh...r	j...mg'ar	bog'b...n	b...tqoq	b...la
bolg'... ma		d...no	b...rvaqt	varr...k
d...shqozon	alb...tta	janj...l	d...ira	jodug...r
...mal	d...vlat	b...xt	v...tan	j...nli
d...ngasa	j...nivor	k...sa	...rang	b...hona
v...hima	jann...t	j...rima	l...la	mot...m
...rcha	d...raxt	v... 'da	d...g'al	m...hir
j...sur	b...hor	vaf...	nord...n	...maki
darv...za	nod...n	...lti	...dam	t...maki
...bod	t...g'ora	...voz	od...t	osm...n
	j...hl			

Dehqonchilikda xo'jalik yuritish tizimi

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri dehqonchilikdir. Dehqonchilik tarmog'ini to'g'ri tashkil qilish va maqsadga **muvofig** yuritish dehqonchilik tizimiga asoslanadi.

Dehqonchilik tizimi deyilganda arzon va sifatli dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish **maqsadida** yerdan unumli foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tashkiliy, texnikaviy va texnologik tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Dehqonchilik tizimi asosini dehqonchilik **texnologiyasi**, ya'ni agrotexnika tashkil qiladi. Bu tizim tuproq unumdorligini **saqlash** va yaxshilash sohasidagi agrotexnika tadbirlarining majmuidan iborat bo'lib, parvarish qilinayotgan **ekinlar** xususiyatiga

muvofiq kelishi, ularning o'sishi va rivojlanishiga ko'maklashishi va pirovard natijada yuqori hosil yetishtirishni ta'minlashi kerak.

Har xil tabiiy-iqtisodiy va xo'jaligi sharoitlariga muvofiq keladigan dehqonchilik tizimlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga, ya'ni texnik, kimyoviy vositalar, ekinlarga **ishlov** berish texnologiyasi va ishlab chiqarishni tashkil etishining takomillashuviga qarab **doim** o'zgarib, takomillashib keldi va shunday taraqqiy **etib boraveradi**.

Dehqonchilik tizimi to'g'risidagi ta'limot 200 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, uning tarixiy almashinib turishi quyidagi tartibda amalga oshirilgan:

- o'rmon va chakalakzorlarni kuydirib, qirqib, [tozalab dehqonchilik qilish](#);
- yerlarni uzoq muddatga tashlab qo'yib (qo'riq va partov tizimi) dehqonchilik qilish;
- shudgor qilib qoldirib dehqonchilik qilish;
 - o't dalali almashlab ekib dehqonchilik qilish;
 - qator oralariga ishlov berib dehqonchilik qilish, xususan, **sug'oriladigan** hududlardagi dehqonchilik tizimi.

O'rmon va chakalakzorlarni kuydirib, qirqib, tozalab, dehqonchilik qilish tizimi. Bu usul dehqonchilik yuzaga kela boshlagan **dastlabki** davrlarga to'g'ri keladi. Xususiy mulkchilik paydo bo'lmasdan avval va quldorlik tuzumining dastlabki paytlarida ekin ekiladigan yerlarni tanlashda hech qanday chegaraga amal qilinmagan. Kishilar o'rmon va chakalakzorlarni qirqib tashlash yoki kuydirish yo'li bilan yer ochib, dehqonchilik qilganlar. Yer unumi pasaygandan keyin xuddi shunday **usul** bilan boshqa joylarda mahsulot yetishtirganlar. Bu tizimda tuproq unumdorligi [kishilarning faol ishtirokisiz](#), faqat tabiiy omillar hisobiga tiklangan.

Keyinchalik yerlarni **uzoq muddat tashlab qo'yib dehqonchilik qilish yoki partov-qo'riq tizimiga** o'tilgan. Partov deb, ilgari ekin ekilib, keyinchalik tashlab qo'yilgan, begona o'tlar bosib ketgan va undan yaylov va pichanzor sifatida foydalaniladigan yerlarga aytiladi. Partov va qo'riq yerlarni ochib don ekinlari ekilganda undan 7-10 yil hosil olingan. Shundan keyin bu yerlar **tuproq** unumdorligini tiklash uchun uzoq muddatga, taxminan 20-30 yilga tashlab qo'yilgan. Aholi sonining o'sishi va ayniqsa, **qishloq** xo'jaligidan boshqa sohalardagi aholi sonining tez o'sishi,

qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talabning ortishi, yerga xususiy mulkchilikning vujudga kelishi natijasida yerdan birmuncha unumli foydalanish zarurati tug‘ildi.

Yerdan bunday foydalanish qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondira olmaganidan keyin uzoq muddat yerga dam berish o‘rniga **shudgor qilib qo‘yish orqali yer unumdorligini tiklash tizimi** joriy qilindi. Shudgorlab qo‘yish [tizimining mohiyati shundaki](#), surunkasiga bir necha yil donli ekinlar ekilaverib **kuchsizlanib qolgan** va begona o‘tlar bosib ketgan yerlar kuzda yoki bahorda haydaladi. Keyin yerlar begona o‘tlarga qarshi shudgorlanadi yoki yog‘ingarchilik tufayli hosil bo‘lgan qatqaloq kuzda shudgorlanib, qayta ishlangan maydonlarga kuzgi don ekinlari ekiladi. Shudgor qilinganda dalalardagi begona o‘tlar yo‘qoladi, yerda nam turadi, tuproqda kislorod va oziq moddalar saqlanadi. Ekin ekib band qilinmagan shudgorga toza yoki qora shudgor deyiladi. Shudgorlashning bu tizimidan qurg‘oq g‘allakor tumanlarda foydalaniladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, sug‘oriladigan maydonlarda bu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Sanoatning rivojlanishi va shahar aholisining tez sur‘atlar bilan ko‘payishi tufayli aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, ayniqsa, chorvachilik mahsulotlariga, sanoatning esa qishloq xo‘jaligi xomashyosiga talabi ancha oshadi. Bu davrga kelib fan rivojlandi. “Biologiya” fani o‘simliklarning oziqlanish xususiyatlarini kashf etdi.

Fransuz tabiatshunos olimi Libix hamma ekinlarni oziqlanish xususiyatiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘lib, bir guruhdagi ekinlar tuproqdan oziq olishini, ikkinchi guruhi esa havodan oziq olib, moddalarni ildizda to‘plashini ko‘rsatdi va ratsional dehqonchilik shu ekinlarni o‘zaro almashtirib ekishga asoslanish kerakligini isbotladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ortib borgan talab va fan taraqqiyoti natijasida shudgorlab ekish tizimi dehqonchilikdagi ancha progressiv tizim bo‘lgan almashlab [ekish tizimi](#) bilan almashtiriladi. Almashlab ekish tizimida donli ekinlar nafaqat bir-ikki yildan ortiq ekiladi, balki chopiqtalab yoki yem-xashak ekinlar, makkajo‘xori, **kartoshka**, yo‘ng‘ichka, beda va boshqalar bilan almashtiriladi. Dehqonchilikning bu tizimida shudgor qilib qo‘yish o‘rniga yerning bir qismiga yo‘ng‘ichka yoki beda, qolgan qismiga xashaki ekinlar ekiladi.

O‘t-dalali almashlab ekish tizimining tub ma‘nosi, serunum tuproqning asosiy ko‘rsatkichi uning tarkibidadir, tarkib esa ko‘p yillik dukkakli va g‘allalimon o‘t

aralashmasi ekish bilan hosil qilinadi. O‘t-dalali almashlab ekish tizimi haqida ta‘limot akademik V.R. Vilyams tomonidan ishlab chiqilgan. O‘t-dalali almashlab ekish dehqonchilik yuritish tizimining bir turi bo‘lib, ma‘lum sharoitda to‘la ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bu tizim talablariga mos kelgan hududlarda dehqonchilikni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir etdi. Lekin tizim tarafdorlari o‘t-dalali almashlab ekish tizimini hamma hududlar uchun yagona va ma‘qul tizim deb xatoga yo‘l qo‘ydilar. Namgarchilik yetarli bo‘lgan va ayniqsa sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan hudud va tumanlar uchun o‘t-dalali almashlab ekish tizimi o‘ta ekstensiv tizimdir.

Jamiyatda qishloq xo‘jaligidan boshqa sohalarining ham gurkirab rivojlanishi natijasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan haydaladigan yerlarning kamayishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab tez sur‘atlar bilan o‘sishi, mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalarning ko‘plab sanoat asosida ishlab chiqarilishi [almashlab ekish tizimidan](#) **chopiq qilinadigan ekinlarni ekib, dehqonchilik qilish tizimiga** o‘tishni taqozo qildi. Chopiq qilinadigan ekinlarni ekib, dehqonchilik qilish dehqonchilikning intensiv tizimi bo‘lib, ma‘lum yer birligidan ko‘proq mahsulot olishni ta‘minlaydi. Bu tizim mineral va mahalliy-organik o‘g‘itlar va kimyoviy vositalardan hamda texnika vositalaridan foydalanish va yerlarni melioratsiyalashga asoslanadi.

Akademik D.N. Pryanishnikov va uning izdoshlari yerga mineral va **organik** o‘g‘it solish tuproq unumdorligini oshirishini, shudgor va o‘t maydonining bir qismiga chopiq qilinadigan serhosil ekinlar ekish har **gektar** haydaladigan yerdan ko‘plab dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish imkonini berishini, natijada mehnat unumi oshishi va mahsulot tannarxi kamayishini asoslab bergan edi. Shunday qilib, intensiv dehqonchilik qishloq xo‘jaligi taraqqiyotining bosh yo‘nalishi va obyektiv zaruriyati bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imamova T., Tuxvato‘llina L. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 1992.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma) .-Toshkent, 2004.

“Asalarichilik mahsulotlari”

Reja:

1. O‘zbek adabiy tilida grammatik me‘yorlar

2. O‘zbek adabiy tilida lug‘aviy me‘yorlar

3. **O‘zbek adabiy tilida grammatik me‘yorlar.** Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘riligi nutq madaniyatida ayricha o‘rin tutadi. To‘g‘rilik degan kommunikativ sifat uchun grammatik to‘g‘rilik asoslarning asosidir. Grammatik to‘g‘rilik esa nutqda grammatik me‘yorlarga qat‘iy amal qilish orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilining grammatikasi, ya‘ni morfologiya va sintaksisi tilshunoslikda nazariy jihatdan anchayin batafsil tadqiq etilgan, tilning morfologik va sintaktik qurilishiga xos qonuniyatlar umumlashtirilgan, deyarli barcha holatlar qoidalashtirilgan. Ular tilshunosligimizdagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, normativ grammatika, o‘zbek tili bo‘yicha umumta‘lim va oliy maktablar uchun yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarida o‘z aksini topgan. Ana shu asosda o‘zbek tilida so‘z shakllari, qo‘shimchalarning qo‘llanishi, so‘zlarning qo‘shilishi, so‘z birikmalari va gap tuzilishi bilan bog‘liq qoidalarining jami grammatik me‘yorlar sifatida e‘tirof etilgan. Tabiiyki, grammatik me‘yorlar morfologik va sintaktik me‘yorlardan tarkib topadi. So‘zlarning morfologik shakli va ularning nutqda qo‘llanishini tartibga soluvchi qoidalar **morfologik me‘yorlar**, so‘zlarning birikish yo‘llari, so‘z birikmasi va gap tuzilishi bilan bog‘liq qoidalar esa **sintaktik me‘yorlar** deb yuritiladi. Taassufki, adabiy morfologik me‘yorlarning nutqda buzilishi tez-tez uchrab turadi. Bu me‘yorlarning buzilishidagi eng keng tarqalgan holatlardan biri qaratqich va tushum kelishiklarini qorishtirishdir. Aslida bu kelishiklarni qo‘llash bilan bog‘liq qoida kuchli me‘yor bo‘lishi kerak edi, chunki tilimiz tabiatiga ko‘ra qaratqich kelishigi keng ma‘noda ot turkumidagi so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lashga (*daraxtning bargi, O‘zbekistonning poytaxti* kabi), tushum kelishigi esa keng ma‘noda ot bilan fe‘lni bog‘lashga (*kitobni o‘qimoq, Vatanni sevmoq* kabi) xizmat qiladi. Ammo bu me‘yor shevalar va og‘zaki nutq ta‘sirida kuchsizlangan. Aytish mumkinki, hozirgi kunda o‘zbek tilining yetakchi shevalarida qaratqich kelishigi tushum kelishigi bilan aynan bir xil shaklda qo‘llanadi (*daraxtni bargi, kitobni o‘qimoq* kabi). Taniqli tilshunos

A.Hojiyev o'tgan asr boshlaridagi bosma manbalar tilini o'rganar ekan, **-ning** o'rnida **-ni** qo'shimchasini qo'llash ancha keng tarqalganini aytadi. Hatto o'tgan asrning 50-yillarida shevalarga suyangan holda **-ni** qo'shimchasi bilan ifodalanadigan qaratqich-tushum kelishigini me'yorlashtirish taklifi ham o'rtaga tashlangan. Zahmatkash tilshunos A.Ma'rufov "Bu ikki shaklni birlashtirish sintaksisga ortiqcha yuk bo'ladi, fikrni to'g'ri anglashga xalaqit beradi, stil ravonligini buzadi" degan haqli fikrni bildirgan. A.Hojiyevning ko'rsatishicha, o'sha asr boshlarida og'zaki nutq odatidan qochish adabiy tilga olib keladi qabilida fikr qiluvchi ba'zilar hatto tushum kelishigi o'rnida qaratqich kelishigi shaklini qo'llashga ham uringanlar va buni ziyolilik belgisi tarzida taqdim etmoqchi bo'lganlar. O'sha davr voqeligini chuqur o'rgangan mahoratli adib Asqad Muxtor "Opa-singillar" romanida salbiy obrazlardan biri Naimiyning ana shunday chiranchoqligini uning quyidagi nutqi (**-ni** o'rniga o'rinsiz ravishda **-ning** qo'shimchasini ishlatadi) bilan ko'rsatadi: *Mushtipar volidayi muhtaramalar! ...Tobakay oila dersiz, tobakay bola-chaqa dersiz. Yoppasiga paranjining tashlab, artelga ishga borishning talab qilaman... Bola-chaqangizning boqib olishga iqtidori yetadi, nodon erlaringizning jilovlab qo'yishga kuchi yetadi!.. Unday yaramas oilaning tashlab ketmog'ingiz lozim... Bolalaringizning yetimxonalarga oladi.*

Bu kabi munozara-mulohazalar o'zbek tili tabiatiga zid bo'lgani uchun, tabiiyki u davrlarda qolib ketdi. Ammo har holda, sheva va og'zaki nutqdagi qaratqich o'rnida tushum kelishigi shaklini qo'llash odati mazkur morfologik me'yorni kuchsiz holatga tushirgan. Shuning uchun bu me'yorni so'zlovchi ongida barqarorlashtirish bo'yicha doimiy mashq lozim. Qaratqich va tushum kelishiklari nutqda belgili (qo'shimcha bilan) va belgisiz (qo'shimchasiz) qo'llana oladi, ammo bunda ham tegishli me'yorlar mavjud. Zotan, bu kelishiklar belgili qo'llanganda, konkretlik, ta'kidlash ma'nolari (kitobning sahifasi, kitobni o'qimoq; gap aniq, konkret kitob haqida), belgisiz qo'llanganda esa umumiylik ma'nolari (kitob sahifasi, kitob o'qimoq; gap umuman kitob haqida) reallashadi. Masalan, qaratqich kelishigidagi so'z bilan qaralmish o'rtasida boshqa so'z bo'lsa, qaratqich kelishigining, albatta, belgili qo'llanishi me'yorlashgan. Shuning uchun *kitob sahifasi, maktab o'quvchisi* deyish mumkin, ammo ular orasiga, aytaylik, *sarg'aygan, a'lochi* so'zlari kiritilsa, *kitob sarg'aygan sahifasi, maktab a'lochi o'quvchisi* deyish me'yorning buzilishiga olib keladi. Birikma

grammatik to'g'ri bo'lishi uchun, albatta, *kitobning sarg'aygan sahifasi, maktabning a'lochi o'quvchisi* deyish shart. Shunga qaramasdan, ayrim kishilar nutqida ba'zan bu me'yorning buzilishi kuzatiladi. Ko'pincha shunga yaqin yana bir xatolik ko'zga tashlanadi. Mana bu jumlaning ko'raylik: *"Unda (muloqotda) viloyatdagi kasb-hunar kollejlarning ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirok etishdi"*. ("O'zbekiston ovozi", 2006-yil 29-iyun). Umuman, *direktor o'rinbosari* yoki *direktorning o'rinbosari* deyish mumkin. Ammo *kollejning direktor o'rinbosari* deyish to'g'ri emas, chunki *o'rinbosari* so'z shaklidagi **-i** egalik qo'shimchasi direktorga qarashlilikni ifodalaydi, bu qo'shimcha *kollejning* so'zi bilan aloqalanmaydi. Shuning uchun *kollej direktori o'rinbosari* yoki *kollej direktorining o'rinbosari* deyilsa, grammatik va mantiq jihatidan to'g'ri bo'ladi. Agar *o'rinbosari* so'zidan oldin yana boshqa sifatlovchi qo'yiladigan bo'lsa, yuqoridagi me'yorga muvofiq qaratqich kelishigi belgisi qo'llanadi, ya'ni *kollej direktorining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosari*, *kollej direktorining moliya masalalari bo'yicha o'rinbosari* kabi. Keltirilgan gap grammatik to'g'ri bo'lishi uchun quyidagicha tahrir etilishi lozim: *Unda (muloqotda) viloyatdagi kasb-hunar kollejlari direktorlarining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etishdi*.

Har bir kelishikning qo'llanishi bilan bog'liq aniq adabiy me'yorlar bor, har bir kelishik alohida-alohida ma'no va vazifa uchun xizmat qiladi, lekin bu me'yorlarga zid o'laroq nutqda bir kelishikning o'rnida boshqasini qo'llash holatlari uchraydi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shevalar vakillari nutqida *o'rin-payt* kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini ishlatish adabiy nutqning to'g'riligiga jiddiy xalaqit beradi. *Toshkentga o'qimoq, dalaga ishlamoq, poyezdga kelmoq* kabi holatlar me'yorning buzilishidir. *Senga bitta gapim bor, hali poyezdga aytaman* deyilsa, boshqa sheva vakillari tomonidan *Senga bitta gapim bor, hali poyezdda aytaman* tarzida emas, balki *"Senga aytadigan gapimni senga emas, poyezdga aytaman"* tarzida kulgili bir mazmunda anglanishi mumkin.

Tushum va chiqish kelishiklarining ma'nosi bilan bog'liq ushbu ikki holatni qiyoslang: *uzumni yemoq* — *uzumdan yemoq*. Tushum kelishigi qo'llanganda, *uzumning hammasini yemoq*, chiqish kelishigi qo'llanganda esa *uzumning bir qismini*

yemoq ma'nosi ifodalanadi. Buni bilmaslik, shubhasizki, grammatik va mazmunijihatdan mana bunday xato jumla tuzishga olib keladi: *Tilni yoray deydi-ya, tilni, - deb mulla uzumdan paqqos tushirdi.* (S.Ravshanov). Bu o'rinda chiqish kelishigini emas, tushum kelishigini qo'llash shart edi, chunki paqqos tushirmoq, "bitta ham qoldirmay, oxirigacha yemoq" degani va shuning uchun ham u tushum kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Fe'l nisbatlarining qo'llanishida ham ko'pincha morfologik me'yorlarning buzilishini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, fe'lning analitik shakllari (yetakchi fe'l+ko'makchi fe'l)da ko'zga tashlanadi. Filolog A.Rustamov bunday holatlarga quyidagicha aniqlik kiritadi: "Bu **-n** qo'shimchasini ishlatishdagi ayb uni keraksiz o'rinlarda ham iste'mol qilishdan iborat. *Boshlamoq, kelmoq* kabi fe'llar ko'makchi bo'lib kelganda majhul harakatni bildirish uchun majhullik qo'shimchasi asosiy fe'lga qo'shilib, ko'makchi fe'lga, jumladan, *boshlamoq* yoki *kelmoq* fe'lga qo'shilmaydi. Binobarin, men eshitgan va boshqalar ham yana eshitishi yoki o'qib qolishi mumkin bo'lgan quyidagi gaplardagi **-n** qo'shimchasi til nuqtayi nazaridan ortiqchadir. 1. Hayot ildizi ekila boshlandi. 2.Cho'llar o'zlashtira boshlandi. 3. Qovoq urug'i qadimdan qo'llanib kelingan. To'g'risi - Hayot ildizi ekila boshlandi emas, ekila boshladi bo'ladi. Cho'llar o'zlashtira boshlandi emas, o'zlashtirila boshladi deyiladi. Qovoq urug'i qadimdan qo'llanib kelingan emas, qo'llanib kelgan deyilishi kerak.

So'z turkumlarining barchasidagi grammatik kategoriyalarning adabiy tilda qo'llanishini tartibga soladigan juda ko'plab morfologik me'yorlar mavjud. So'zlarning birikishi, so'z birikmasi va gap tuzishda morfologik shakllangan so'zlar, tabiiyki, material vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham sintaktik me'yorlar ana shu morfologik me'yorlarga ham suyanadi. Sintaktik me'yorlarning ham nutqda buzilishi holatlari kuzatiladi. Aytib o'tilganidek, ega bilan kesimning shaxs-sonda moslashishi, asosan, kuchli me'yor, ammo bunda ham ba'zi xususiy o'rinlar borki, ular nutq tuzuvchining ikkilanishiga sabab bo'ladi. Masalan, ega va kesimning 3-shaxs ko'plik sonda moslashishini olib ko'raylik. Ega kesim bilan 3-shaxsda ko'plikda hamisha moslashishi shart emas, ya'ni ega shaxsni bildiradigan so'z bo'lganda, kesim ko'plikda ham, birlikda ham kelaverishi mumkin: *O'quvchilar maktabga keldilar.* / *O'quvchilar maktabga keldi* kabi. Lekin ega vazifasida jonivorlar yoki jonsiz narsalarni bildiruvchi

soʻz kelganda, kesim, asosan, birlikda qoʻllanadi: *Itlar vovulladilar* emas, *Itlar vovulladi*. *Gullar ochildilar* emas, *gullar ochildi* kabi. (badiiy nutqdagi alohida qoʻllashlar bundan mustasno).

Mantiqiy koʻplik bilan grammatik koʻplikning farqiga bormaslik ham sintaktik meʼyorlarning buzilishiga olib keladi. Masalan, *Isroil armiyasi ushbu hududda harbiy texnikalarni koʻpaytirganlar* ("Xalq soʻzi", 2006-yil 30-iyun) gapida ega birlik sonda (Isroil armiyasi), kesim koʻplikda (koʻpaytirganlar). Buning sababi nutq tuzuvchi armiyani koʻplikda deb tasavvur qilgan. Aslida bu soʻz mantiqan koʻplikni bildiradi, yaʼni jamlovchi ot, lekin grammatik birlik sonda. Shuning uchun bunday gap grammatik jihatdan notoʻgʻridir, toʻgʻrisi - *Isroil armiyasi ushbu hududda harbiy texnikalarni koʻpaytirgan* boʻlishi lozim.

Tilimizning grammatik meʼyoriga koʻra aniqlovchi predmetning aniq miqdorini bildirsa, predmetni bildirgan soʻz faqat birlik sonda qoʻllanadi: *oʻnta kitob*, *yigirma nafar oʻquvchi*, *besh dona gul* kabi; bunday holatlarda aniqlanmishlarga **-lar** koʻplik qoʻshimchasini qoʻshish grammatik xatodir. Lekin matbuotda, radio-televideniya, ogʻzaki nutqda ana shunday notoʻgʻri qoʻllashlar koʻp uchramoqda. Masalan: *Hozir viloyatimizdagi 80 ta kasb-hunar kollejlarida 55 mingdan ziyod oʻquvchi taʼlim olyapti* ("Oʻzbekiston ovozi", 2006-yil 29-iyun). Miqdor ifodalovchi soʻzlarni qoʻllashda keng tarqalgan yana bir nuqson shuki, taxminiy miqdorni umumlashtiruvchi "...dan ortiq", "...ga yaqin" shaklidagi konstruksiyalar tarkibidagi sonlar koʻpincha notoʻgʻri tanlanadi. Oʻndan, yigirmadan..., yuzdan..., mingdan ortiq yoki oʻnga, yigirmaga..., yuzga..., mingga yaqin kabi holatlarda grammatika ham, mantiq ham sogʻlom, chunki yaxlitlash, umumlashtirish aniq koʻrinib turibdi. Lekin *oʻn uchdan ortiq*, *oʻn toʻqqizga yaqin*, *ellikdan ortiq*, *oʻttiz oltiga yaqin* kabi ifodalar mantiq u yoqda tursin, hatto grammatikaning ham kulgisini qistatishi tabiiy. Axir "...dan ortiq", "...ga yaqin" boʻlgandan keyin, ortadigan yoki yaqinlashadigan etalon – meʼyor muayyan yaxlit bir miqdor boʻlishi shart-ku! Ellik, toʻqqiz, oʻn uch, oʻn toʻqqiz va h.k.gacha sanagan odam davomini ham sanab qoʻya qolmaydimi? Bu kabi nuqsonlar nutq tuzuvchining aqliy tanballigi bilan bogʻliqqa oʻxshaydi.

Sintaktik meʼyorlarning buzilishi tildagi gap modellari — struktur sxemalarni yaxshi tasavvur qilmaslik sababli ham voqeʼ boʻladi. A.Gʻulomov bunday yozadi:

"Gapning umumlashgan namunasi, maketi uning struktura sxemasini tashkil etadi. Bu sxema gapning formal-grammatik tomoni bo'lib, u gap hosil qilish uchun zarur bo'lgan minimum komponentlardan tashkil topadi: ega+kesim: *Bola yugurdi*; ega+kesim+bog'lama: *Karim ukam bo'ladi*.

Gap sintaktik tugallangan konstruksiya bo'lib, bunday sintaktik konstruksiyalar til birliklarining birikish qonunlari asosida shakllanadi. Ma'lumki, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik birliklar so'zlarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. So'zlarning biri-biri bilan qo'shib, so'z birikmasi va gaplarni yuzaga keltirishi uchun muayyan shartlar bajarilishi zarur. So'zlarning o'zaro birikishida qat'iy qoidalar, qonuniyatlar bor, albatta. To'g'ri kelgan har qanday ikki so'z bir-biri bilan bog'lanavermaydi. O'zaro birikadigan so'zlar, avvalo, grammatik va semantik jihatdan mos bo'lishi kerak. Grammatik me'yorlarni olib ko'raylik. O'zbek tilida, aytib o'tilganiday, ega shaxs bo'lmasa, kesim bilan 3-shaxs ko'plikda moslashmaydi, ya'ni kesim **-lar** qo'shimchasini olmaydi. Ammo badiiy nutqda bu me'yordan ham chekinish mumkin. A.Qodiriy "O'tgan kunlar"da bunday holatlarda ham **-larni** qo'llaydi, u shunday tasvir tarzini tanlaydiki, oddiygina **-lar** o'zgacha nozik ma'no ishvalarini ifoda etadi. Ayniqsa, Otabek va Kumush bilan aloqali tasvirlarda bu holat juda yaqqol ko'rinadi. Samimiyatga to'la bu tasvirlarda jonsiz va jo'n narsalarning jonlanishi kitobxon ko'ngliga huzur baxsh etadi: *"Bu xabarni eshituvchi — Kumushbibining qora ko'zlari jiq yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar... Go'yo bu so'zlar Kumushbibining o'chgan chirog'ini qaytadan yoqarlar, umid osmonining yo'qolib, yashirinib ketgan yulduzlari yana qaytadan o'z o'rinlariga kelib qo'ngandek bo'lurlar, uning ko'z o'ngida joy olgan qoraliklar shu yoqila boshlagan najot shamlari partavi bilan o'z-o'zlaridan yo'qolgandek ko'rinarlar edi"*. Bunday erka va go'zal tasvirni sohir so'zchi Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida ham ko'rish mumkin. Ayrim misollar: *"Uning (Zebining) oyoqlari allaqanday yomon bir kuchning afsuniga ilashganlar, o'sha kuchning sudragan tomoniga borardilar... Shunday qilib, ikki alamzada ko'ngil juda qisqa bo'lgan quvonchlarga berildilar... Faqat bu to'rt devor orasiga kiradigan quvonchlar o'tkinchining nazariday bir nafasga kirib chiqadilar"*.

Grammatik me'yorlar so'zlarning o'zaro birikishi uchun tegishli sharoitlarni taqozo etadi. Avvalo, ma'nolarda mushtaraklik bo'lmasa, so'zlar bog'lana olmaydi.

Aytaylik, *yashil o'tloq* birikmasi mantiqan to'g'ri, ammo *yashil navo* birikmasi mantiqan noto'g'ri yoki *baqirgan odam* — mantiqan birikma, *baqirgan sukunat* esa mantiqan to'g'ri emas. Tabiiy, ularning grammatik tabiatida ham uyg'unlik yo'q. Nihoyat, so'zlarning o'zaro bog'lanishiga ularning har biriga leksik-uslubiy xususiyatlari ham monelik qilishi mumkin. Masalan, *yutuqqa erishmoq*, *muvaffaqiyatga erishmoq*, deb ishlatish mumkin. Biroq *kamchilikka erishmoq*, *muvaffaqiyatsizlikka erishmoq* deb bo'lmaydi.

1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Undagi xatolarni to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring. Qaysi me'yorlar bilan bog'liq xatolik kuzatilganini ayting.

Chin do'slikka hasad begonadir. (F. Laroshfuko) Farovonlik istasang, baxtliy bo'lganingda ham do'st-yor orttir — dengiz to'lib-toshsa ham daryo suviga muhtojdir. (Hind hikmati) Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham o'rganmoq kerak. (Kaykovus) Kuchni ishga solish badanni, shu bilan birga, ruhni ham chniqtiradi. (A.N. Radishchev) Agar qiziqsang, quloq bilan butun jahonni tinglash mumkun. Beparvo bo'lsang, o'z uyingda o'tgan sirdan ham voqif bo'lolmiysan. (Oybek) Yolg'on o'rmonga o'xsheydi: o'rmonga qanchalik kirib boraversang, undan chiqib olish ham shunchalik qiyinlashaveradi. (A. P. Chexov).

1. O'zbek adabiy tilida lug'aviy me'yorlar deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinli ishlatish tushuniladi. Ko'p ma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yorlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik me'yor to'g'risidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi. Chunki adabiy til sheva leksikasidan ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan so'zlarni tanlab oladi va uni o'z leksik tarkibiga kiritadi (mas., [sigir-siyir-inak](#), *chaqaloq-buvak*, *tuxum-moyak-yumurta*, *chumoli-murcha-qarinja-qumurusqa* kabilar).

	Toshkent shevasida	Farg‘ona shevasida	Buxoro shevasida	Samarqand shevasida	Xorazm shevasida	Adabiy tilda
.	do‘ppi	do‘ppi	kalpo‘sh kallapo‘sh	qalpoq	tahya	do‘ppi
2.	garmdori	qalampir	qalampir qalamfur	qalampir	murch aji	qalampir
.	chumoli	chumalik	mo‘rcha	mo‘rcha	qorinja	chumoli
.	narvon	shoti	narvon narbon	narvon	zangi	narvon
.	mushuk	mishiq	pishak	pishak	pishiq	mushuk

O‘zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobshye, tolko, tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo‘ymoq, bo, akun, soni* kabi so‘z va birikmalarining ishlatilishi ham ijobiy hodisa emas. Bu yerda ham me‘yor buzilgan.

“Davlat tili haqida”gi qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o‘tkazish, ularni “o‘zbekchalashtirish” ga imkoniyat yaratildi.

Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni “milliylashtirish” ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda ko‘paydi. Jo‘yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo‘lishi qiyin bo‘lgan takliflar ham o‘rtaga tashlandi. Bu gapning tasdig‘i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: *matematika-riyoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon- mushtariy, auditoriya-saboqxona, xona, o‘quv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar, sellofan-suvqog‘oz, seyf-zarf, attestasiya-ko‘rik, samolyot- aeroplan, tayyora, aeroport-tayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-da‘vatxona, titul list-zarvara*q va hokazo. Ammo bu qarashlar shu ma‘noda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash g‘oyasi yotadi.

Tilimizda qoʻllanilib kelinayotgan avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya, inspektor, intelligent, kontrol, komandirovka, komanirovochnaya, leksiya, ministr, oblast, ostanovka, planeta, problema, rayon, raport, redaktor, revolyusiya, spravka, student, sekretar, tema, territoriya, tradisiya, forma singari soʻzlar oʻrnini muallif, meʼmor, insonparvarlik, maʼruza, mafkura, nozir, ziyoli, nazorat, safar, safarnoma, maʼruza, vazir, viloyat, bekat, sayyora, muammo, tuman, bildirishnoma, xabarnoma, muharrir, inqilob, maʼlumot/maʼlumotnoma, talaba, kotib /kotiba, mavzu, hudud, anʼana, shakl kabi tavsiya etilgan soʻzlar osonlik bilan egalladi. Chunki ular dubletlar sifatida tilimizda ozmi-koʻpmi oldindan ham qoʻllanilib kelinayotgan edi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi tavsiya etilayotgan soʻzlarning maʼqul kelishi va meʼyorlashishi ularni tilda avval qoʻllanilib kelayotgan yoki kelmayotganiga ham bogʻliq.

2. Oʻzbek adabiy tilida semantik meʼyorlar. Shu oʻrinda bir misolni tahlil qilaylik. Koʻplab atamalarning muqobillarini izlash jarayonida *rayon* soʻzi oʻrnida *nohiya*, *depara*, *tuman* soʻzlari ishlatila boshlandi. Keyinchalik, garchi soʻzning asl mohiyatiga unchalik toʻgʻri kelmasa ham *tuman* soʻzi meʼyorlashdi. Ammo, taʼkidlash lozimki, bu soʻzning birgina maʼnosi – viloyatning bir qismi boʻlgan, maʼlum chegaraga ega boʻlgan, maʼmuriy hudud atamasi sifatida meʼyorlashdi. Ammo, lugʻatda *rayon* soʻzining umuman joy maʼnosini anglatish imkoniyati ham koʻrsatilgan: *prigorodniy rayon* - *shahar atrofi rayoni*, *promishlenniy rayon* - *sanoat rayoni*, *zavodskoy rayon* - *zavodlar rayoni*, *rayon voyennix deystviy* - *urush harakatlari rayoni*, [rayon boya](#) - [jang maydoni](#), *oboronitelniy rayon* - *mudofaa doirasi* kabi. Bu birikmalarni qanday meʼyorlashtiramiz? Bizning ongimizda u hozircha maʼmuriy hudud tarzida shakllanib turgan ekan, *shahar atrofi tumani*, *zavodlar tumani*, *urush harakatlari tumani* tarzida ham meʼyorlashib keta oladimi?

Buning ustiga, shu soʻz oʻzagidan yasalgan *rayonirovaniye*, *rayonirovanniy* - *rayonlashtirish*, *rayonlashtirilgan* soʻzlari bor. Masalan, biror ekin navlari urugʻini, yaʼni biror joyning sharoitiga eng koʻp moslashtirilgan navlar urugʻini rayonlashtirish. Buni qanday meʼyorlashtiramiz? *Urugʻni tumanlashtirish* debmi yoki *urugʻni*

joylashtirish, urug'ni joylarga moslashtirish, debmi? Harqalay, masalaning yechimi ma'lum vaqt o'tishi bilan hal bo'ladi.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'layapti. Bu holatni asosan fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, huquq sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'iy nazar, ularni qo'llashdagi har bir holatga munosabat bildirilib borilishi, me'yor sifatida tavsiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligini asoslanishi zarur bo'ladi.

Xususiy me'yorlar sifatida qaraladigan ma'lum sohaga va kasb-hunarga oid til birliklari me'yorlari haqida so'z yuritish ham ahamiyatli. Biz bu o'rinda o'rganilayotgan predmet mazmunidan kelib chiqib, huquqshunoslik kasbiga oid til birliklari xususida so'z yuritamiz va bunda Sh.Ko'chimovning kuzatish natijalaridan foydalanamiz.

Sh.Ko'chimov «Yuridik atamalar va iboralar lug'ati» ([Toshkent](#), 1993) ni o'rganib, unda 6700 ta atama mavjudligi to'g'risida ma'lumot beradi hamda bu atamalarni leksik jihatdan quyidagicha tasnif qiladi:

1. Umumyuridik atamalar: *qonun, sud, modda, advokatura, sudya, prokuror, milisiya, guvoh, sud majlisi, huquq, huquq normasi, yurisprudensiya* kabilar;
2. Konstitusiyaviy huquq atamalari: *konstitusiyaviy tuzum, davlat tuzilishi, suverenitet, suveren tenglik, siyosiy partiya* kabilar;
3. Ma'muriy huquq atamalari: *ma'muriy javobgarlik, ma'muriy jazo, ma'muriy qamoq, jamoat qoidalarini buzish* kabilar;
4. Fuqarolik huquqi atamalari: *fuqarolarning teng huquqligi, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish, sotuvchining javobgarligi, mualliflik huquqi* kabilar;
5. Jinoyat huquqi: *jinoiy harakat, jinoyat ishi, qilmish, og'ir jinoyat, jinoyatlarni tasniflash, jinoiy javobgarlik, qilmishning jinoiyligi, o'lim jazosi, ozodlikdan mahrum etish* kabilar;
6. Yer huquqi atamalari: *yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, yer kadastri, yerni tasarruf etish, yerdan foydalanish qoidalarini buzish* kabilar.

7. Agrar huquq atamaları: *dehqon xo‘jaligini yuritish huquqi, davlat xo‘jaliklari huquqi, jamoa xo‘jaliklari huquqi, rejani bajarish majburiyati, suvdan foydalanish huquqi, dehqon xo‘jaligining mol-mulkiga egalik qilish huquqi* kabilar;

8. Mehnat huquqi atamaları: *mehnat intizomi, mehnat shartnomasi, ishga qabul qilish, mehnat shartnomalarini bekor qilish tartibi, mehnatga haq to‘lash, mehnat nizolari* kabilar;

9. Ijtimoiy-ta‘minot huquqi atamaları: *pensiya olish huquqi, nogironlik nafaqasi, dam olish huquqi, ijtimoiy himoya* kabilar;

10. Ekologik huquq atamaları: *atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, havoni tozalash, ekologik vaziyat, ekologiyaning o‘zgarishi* kabilar;

11. Moliyaviy huquq atamaları: *daromad solig‘i to‘lovchilar, favqulodda daromadlar, moliyaviy jazo choralari, yuridik shaxslarni daromad solig‘idan ozod qilish, soliqni hisobga olish qoidalari* kabilar;

12. Fuqarolik-protsessual huquqi atamaları: *jinoyat ishlarini yuritish tartibi, fuqarolik-protsessual huquq layoqati, protsessual huquqiy vorislik, fuqarolik ishi* kabilar;

13. Jinoyat-protsessual huquqi atamaları: *jinoyat ishlarini yuritish tartibi, jinoyat ishini qo‘zg‘atish, sudda jinoyat ishlarining oshkor ko‘rilishi, jinoyat protsessi ishtirokchilari* kabilar;

14. Xo‘jalik-protsessual huquqi atamaları: *xo‘jalik sudi, xo‘jalik sudlov nizolari, xo‘jalik sudlov ishtirokchilari, xo‘jalik sudining ajrimi* kabilar;

15. Xalqaro huquq atamaları: *xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro xavfsizlik huquqi, diplomatiya va konsullik huquqi, xalqaro dengiz huquqi* kabilar.

Kasb-hunarga oid birliklardan tashqari tilimizda biror ijtimoiy guruhga yoki toifaga, masalan, talabalar, savdo xodimlari, sportchilar, o‘g‘rilar, bezorilar, shofyorlar, militsionerlar singarilarning o‘ziga xos va boshqalar tushunmaydigan, jargon deb ataladigan yasama tili mavjud. Bu til ana shu guruhlar doirasida amal qiladi va og‘zaki shaklda me‘yorlashib, og‘izdan og‘izga ko‘chib yashaydi. Shu jarayonda ularning ayrimlari yo‘qolib ketishi, ayrimlari o‘zgarishi, davrlar o‘tishi bilan bu qatlam yangi birliklar hisobiga boyib borishi mumkin. Ma‘lum qismi esa ommalashib ketadi. *Dollar* ma‘nosini beradigan *ko‘k*, *karam* so‘zlari bunga misol bo‘la oladi.

Badiiy adabiyot matnida jargonlar maxsus vazifa bajaradi. Uning ko‘magida asar voqyealari bir qadar ishonchli tasvir qilinishi yoki qahramonlar tili individuallashtirilishi mumkin. Masalan, S. Ravshanning “Chordoqdan otilgan o‘q” (Toshkent 1986-yil) qissasi jinoyatchilar olami, ularning qiyofalari va kirdikorlarini fosh etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda uchraydigan metaforik elementlar va jargonlar yuqorida qayd etilgan vazifalarni ado etishga ko‘maklashgan: *gladiator* (45), *qopchiq* (69), *qovurg‘a* (42), *kift* (31, 42), *qushcha* (25), *murg‘a* (31) - o‘g‘rilar, jinoyatchilar guruhining a‘zolari, ularning laqablari; *qafas* (13) - turma, *arava* (66) - mashina; *malax* (56) - pul; *dum* (54) - orqadan kuzatib yuruvchi odam; *buyurtma*, *mukofot* (36, 45) - o‘g‘irlangan mol, narsa; *hammol* (37) - molni olib keluvchi odam, kuryer; *soqol* (32, 33) - pul kabi. Yana: *atanda* - xavf, *xatar*: - *Shef, a t a n d a*, *ish chatoq* (54); *cho‘ra bo‘lmoq* - qochmoq: *Shaykamizda ch o‘ r a b o‘ l g a n l a r d a n biri* (32), *U rostdan ham ch o‘ r a b o‘ l g a n ekan* (37).

Ma‘lum bo‘ladiki, tildagi me‘yorlashish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, umumiste‘moldagi so‘zlar ma‘lum kasb-hunar yoki jargon doirasida atamalashishi, asosiy me‘yorlashgan holatidan chetga chiqib ketishi yoki buning aksi - kasb-hunar yoki jargonga oid xususiy me‘yorlar qamrovidagi atamalarning ma‘nosi kengayib, ular umumxalq mulkiga aylanishi mumkin. Zero, til taraqqiyoti o‘lchovlaridan biri ham ana shu.

Ammo biz o‘rganayotgan me‘yor masalasi ijtimoiy hayotimiz uchun yangilik emas. Til va jamiyat mavjudki, bu masala ham o‘rtada. Ammo, har bir davr o‘z taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda tildan foydalanishning o‘z muammolarini keltirib chiqaraveradi.

O‘zbek adabiy tilining qanchalik me‘yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o‘zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanalar ekan, bu muammo bilan shug‘ullanish ziyolilarning bundan keyingi hal qilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Asalarichilik mahsulotlari

Asal - asalari mahsuloti bo‘lib, eng foydali ne‘matlardan biridir. Asalning tarkibida odam organizmida tez hazm bo‘ladigan 80 % meva va uzum qandi bo‘ladi. Bu

qandlardan tashqari oz miqdorda oqsil, temir, fosfor va boshqa moddalar bor. Bu moddalar suyaklarning o'sishi va qonning normal yurib turishi uchun zarurdir. Asal organizmni mustahkamlaydi. Ayniqsa yosh bolalar uchun foydali. Asalning tarkibida juda oz miqdorda kislotalar, buyoq mineral hamda asalga maxsus hid beradigan xushbo'y moddalar bo'ladi.

Asal och, suvdek tiniq rangdan qoramtir ranggacha bo'ladi. Uning mazasi va xushbo'y hidi nozik mayin, juda yoqimli hamda o'tkir yoqimsiz bo'ladi.

Asalda qamish shakari qancha ko'p bo'lib, qiyom moddalari oz bo'lsa, u tezroq kristallanadi. Agar qamish shakari kam lekin qiyom moddalari ko'p bo'lsa, asal uzoq vaqtda kristallanadi. Asalning quyuq holga keltirish uchun suyuq asalga kristallanib qolgan asaldan qo'shiladi. Suyuq asalning 1 kg ga kristallangan asaldan 1gr qo'shilsa asal 3-4 sutkada quyuqlashadi. Quyuqlashgan asalni suyultirish mumkin. Buning uchun asal qo'shdevorli idishda qizdiriladi. Asal kuyib qolmasligi uchun, idishning devorlari o'rtasiga suv quyiladi. Asalni suyultirishda 65 darajagacha qizdirish kerak, chunki 65 darajadan yuqori qizdirilganida asalning tarkibidagi moddalar parchalanib ketadi va sifati buziladi.

Asalning sifatini saqlash uchun uni og'zi berkitilgan idishga solib, qishda salqin, o'ta sovuq bo'lmagan quruq xonada saqlash lozim. Xonaning harorati besh darajadan past bo'lmasligi lozim. Agar xonada namlik bo'lsa, asal namni o'ziga tortib, achib qoladi. Asal achiy boshlasa uni suyultirish kerak.

Asalni saqlash uchun har xil idishlar: bochkalar, flyagalar va hokazolar ishlatiladi. Ular alyumindan, plastmassadan yoki yog'ochdan tayyorlangan bo'lishi lozim. Eng yaxshi asal saqlovchi idish – quruq yog'ochdan ishlangan idish hisoblanadi. Asal mumkatakdan ajratilmay, ramkasi bilan ham saqlanadi. Biroq mumli asal iste'mol qilinganida anchagina mum behuda ketkaziladi. Ramkali asal qish yoki bahorda ozuqasi qolmagan asalari oilalariga berish uchun saqlanadi.

Asalning yetilganligini bilish uchun mumkatakli ramkalarni ko'tarib olib ko'rish kerak. Asalli ramkalar yarmigacha mumqopqoq bilan qoplangan bo'lsa yoki gorizontal holatda ramka aylantirilganida asal tomchilamasa u yetilgan hisoblanadi. Ochiq qurtchalari bor ramkalarning asalini ajratish uchun olib bo'lmaydi.

Asal – tog‘, o‘rmon, dala asallariga ajratiladi. Bu asallar har xil o‘simliklardan, yilning har xil davrlarida olinganligi uchun uning kimyoviy tarkibi ham turlicha. Asalning tarkibida 16- 20 % suv bo‘ladi. Asal bir xil o‘simliklardan olingan bo‘lsa “monoflerniy” unga shu o‘simlikning nomi beriladi. Agar asal har xil – “polifler” o‘simliklaridan olingan bo‘lsa – gul asali deyiladi. Asal ramkalardan asalajratgich yordamida olingan vaqtda suyuq bo‘ladi. U idishlarga qo‘yilgandan so‘ng, birmuncha vaqt o‘tgach qotib qoladi.

Asalning suyuq holatidan qattiq holatga aylanishi – cho‘kib, shakarlanib yoki kristallanib qolish deb ataladi.

Kristallanish ba‘zi asallarda tezroq ba‘zilarda esa sekinroq bo‘ladi. Qiyom esa kristallanmaydi.

Asalarilar tanasining eng muhim tarkibiy qismlari asosari oqsil va oqsil moddalaridan iborat. Asalarilarga oqsil moddali ovqat berilmasa, ularning vazni kamayadi, urchish qobiliyati yo‘qoladi, ari tobora nimjonlashadi va nobud bo‘ladi. Mana shuning uchun, oqsil moddalar asalari ovqatining eng zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Asalari oilasi normal rivojlanishi uchun yetarli miqdorda gulchangni olib kelishi kerak. Ular oqsil moddani gulchangidan oladi. Oqsil moddasi yetarli bo‘lmasa, asalarilar tarbiyalayotgan avlodi ham kamayib ketadi. Asalarilar gulchang bilan asaldan ishchi va erkak asalarilarning uch kunlik qurtchalarini boqish uchun oziqa tayyorlaydi. Asalari gullardan shira yig‘ish vaqtida gulchangi uning tanasiga yopishib qoladi. Bu gulchangni asalarilar oyoqlari bilan supurib, uni shira bilan ho‘llab, so‘nga orqa oyoqchalardagi savatchalariga bir xil vaznda joylashtiradi.

Arixonaga keltirilgan gulchangni asalarilar mumkatakchalarga joylab, ustiga asal bostiradi. Ustiga asal bostirilgan perga aynimaydi. Asalari oilasi rivojlanishi uchun, bir mavsumda 25 kg atrofida gulchang iste‘mol qiladi. Katakchalariga joylashtirilgan gulchang perga deb ataladi. Serchang gulli o‘simliklarni topib kelgan asalarilar ham raqs tushib bu haqida oilaga xabar beradilar.

ASAL, bol — ishchi asalarilar o‘simliklar gulidagi shira (nektar)ni organizmida qayta ishlash yo‘li bilan hosil qiladigan shirin suyuqlik. Asalarilar asalni uya kataklariga o‘zlari uchun oziq qilib g‘amlaydi. Asal o‘z tarkibiga ko‘ra nektardan farq qiladi. Asalda 80% dan ko‘proq uglevodlar (glyukoza, fruktoza), 0,4% kul, 13-20% suv

bo‘ladi. Asalda inson uchun foydali moddalarning 70 dan ortiq turi bor. Shuningdek, asalda mineral moddalar: kalsiy, natriy, kaliy va b.; mikroelementlar, organik kislotalardan olma, limon kislotalari, vitaminlar (V2, V6, RR, S, E, K) borligi aniqlangan. Tabiatdan olinish manbaiga ko‘ra gul (nektar) asal va shira (o‘simlik barglari va poyalaridan ajraladigan shira) asalga bo‘linadi. Guldan olingan asal ham o‘simlik turiga qarab beda, yantoq, kungaboqar, g‘o‘za va boshqalarga ajraladi.

Asal o‘zining ta‘mi, hidi, rangi jihatidan, shuningdek qaysi faslda qanday o‘simlik gulidan yig‘ilganligiga va joyi (tog‘, o‘rmon, vodiya)ga qarab ham farqlanadi. Eng yaxshi asal – tog‘ asali, chunki u turli dorivor gullardan yig‘iladi. Oq akatsiya, beda, olma, shaftoli va boshqa o‘simliklar gulidan to‘plangan asal ham sifatli. Oftob kam tushadigan o‘rmon gullari va yetishgarishda turli zaharli dorilar sepiladigan texnika o‘simliklari, masalan, kanopdan olingan asal ancha sifatsiz hisoblanadi.

Asal mumkatalardan maxsus asalajratkich moslamalar bilan ajratib olinadi. Asal qimmatli oziq-ovqat mahsuloti, uning 1 kg da o‘rtacha 3200 kaloriya energiya bor. Asaldan tibbiyotda qadimdan dori-darmon sifatida foydalanilgan. Hozir farmatsevtika sanoatida turli dori-darmonlar ishlab chiqariladi. Asalning o‘zi turli kasalliklarga parhez va davo vositasi tarzida beriladi. XX asrning 60- yillaridan boshlab tibbiyotda asal bilan davolash usullari - apiterapiya shakllandi. Asal oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi.

ASAL SIRKASI — asal idishlari yuvindisidan tayyorlanadigan sirka. Asal sirkasi lazzatli, undan asalning xushbo‘y hidi keladi. Asal sirkasini tayyorlash: 10 litr yuvindi sharbatga achitqi va qattiq non burdalari solinadi, aralashtirib, iliq joyga qo‘yiladi. Bijg‘ish tugagach, tindirib shisha idishlarga quyiladi. Shuningdek, asal sharbatiga vino va qora non burdalarini qo‘shib (1:1) ham sirka tayyorlash mumkin. Asal sirkasi oziq-ovqat sifatida oddiy sirka qatorida ishlatiladi.

ASALARI YELIMI, propolis – yumshoq, yopishqoq, xushbo‘y, nordon, sarg‘ish-yashil yoki jigarrang modda; smola, mum, efir moyi va gul changidan tashkil topgan. Tarkibida vitaminlar, aromatik kislotalar, flavonoidlar, kumarinlar, polisaxaridlar va boshqa moddalar bor. Asalari yelimi mikroblarni o‘ldirish xususiyatiga ega bo‘lgani uchun teri kasalliklarida surtiladigan malhamlarga qo‘shiladi.

ASALARI ZAHARI, apitoksin (lot. Apis – asalari, yun. Toxikon – zahar) — ishchi asalarilar tanasidagi ipsimon bezlari ajratadigan o‘tkir hidli achchiq, och sariq,

shaffof suyuqlik. Asalari zahari tarkibida biologik faol moddalar, fermentlar, erkin aminokislotalar, chumoli, xlorid, ortofosfat kislotalari, gistamin, xolin, triptofan, oltingugurt, magniy fosfat va boshqa moddalar bor. Asalari zahari tarkibidagi taʼsir qiluvchi moddalar gistamin glikozidi, lipidlar, hayvonot saponinlariga yaqin turadigan moddalardan iborat. Zichligi 1,313. Suvda tez, chumoli kislotada va 60°li spirtida sekin eriydi. Asalari chaqqanda 0,2 – 0,3 mg zahar ajratadi. Asalari chaqqan joyda qattiq ogʻriq va shish paydo boʻladi. Asalari chaqqan joyga darhol validol eritmasi yoki sarimsoq kesib surtilsa, ogʻriq qoladi, shish paydo boʻlmaydi. Asalari zaharidan tibbiyotda radikulit va bod kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Bunda organizm bevosita asalarilarga chaqtiriladi yoki tarkibida asalari zahari boʻlgan dorilar qoʻllaniladi. Bu preparatlardan bronxial astma, gipertoniya kasalliklarini davolashda ham foydalanish mumkin. Bod va radikulitni davolashda tarkibida asalari zahari boʻlgan virapin (1 g virapinda 0,15 mg asalari zahari boʻladi) surtma holida qoʻllaniladi. Tarkibida asalari zahari bor dorilardan qon tomirlarini kengaytirish va moddalar almashinuvini yaxshilashda foydalaniladi.

ASALARI MUMI — ishchi asalarilar mum bezlarida ishlab chiqaradigan yogʻsimon suyuqlik. Asalari mumi mum oynachalarida joylashgan mayda teshikchalar orqali tashqariga chiqib, havo taʼsirida qotadi va och sariq plastinka koʻrinishga keladi. Mumni faqat yosh arilar (10 – 20 kungacha boʻlgan yoshdagi) ishlab chiqaradi. Mavsum davomida bitta oila 0,8 – 2 kg gacha mum ishlab chiqarishi mumkin. Mum tarkibida 300 dan oshiq elementlar boʻlgan murakkab aralashma boʻlib, ular murakkab efirlar aralashmasi (75% gacha), yogʻ kislotalari, uglevodorodlar va boshqalardan iborat. Mum vitamiga boy (asalari uyasidan olingan 100 g mumda 4096 ME A vitamini bor). Solishtirma massasi 0,956 — 0,969. 62 – 72° da eriydi. Suvda erimaydi, efir, xloroform, benzol, benzin, skipidar moyida oson eriydi. Mumdan yangi asalari oilalari uchun mumparda tayyorlanadi, asosan, kosmetikada, oziq-ovqat sanoatida, tibbiyotda va texnikada ishlatiladi.

3-topshiriq. Sohaga doir atamalar roʻyxatini shakllantiring va maʼnosini izohlang.

ATAMALAR	MAʼNOSI
----------	---------

Propolis	
Gulchang	
Aminokislota	
Uglevod	

Nazorat uchun savollar.

1. Lugʻaviy meʼyor deganda nimani tushundingiz?
2. Andijon, Fargʻona va Namangan shevalarini lugʻaviy jihatdan bir-biriga taqqoslang
3. Adabiy tilning shevadan fonetik, leksik, grammatik jihatdan farqlanishini misollar orqali ayting
4. Jargonlar nima?
5. Semantik meʼyor deganda nimani tushundingiz?
6. Semantik jihatdan meʼyor buzilishlariga misollar ayting

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Imamova T., Tuxvatoʻllina L. Ish qogʻozlari qanday yoziladi? - Toshkent, 1992.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yoʻldosheva O. Oʻzbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yoʻldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (oʻquv qoʻllanma) .-Toshkent, 2004.

14-mavzu. Soha mutaxassisining muomala madaniyati, nutqining mantiqiyligi, aniqligi va toʻgʻriligi.

“Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi tahlili misolida”.

Reja:

1. Soha mutaxassisining muomala madaniyati
2. Nutqning toʻgʻriligi
3. Nutqning mantiqiyliigi
4. Nutqning tozaligi

Har qanday nutq ma'lum bir so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki o'quvchiga qaratilgan matnning shakllantirilgan tashqi ko'rinishidir. Albatta bu yo'llangan nutq tinglovchiga etib borib ma'lum bir ta'sir ko'rsatsagina unga nisbatan yaxshi nutq deyishimiz mumkin. Nutq har tomonlama yaxshi bo'lishi uchun o'z oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Bu talablar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb yuritiladi. Ular nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ta'sirchanligi, tozaligi, tushunarliigi va maqsadga muvofiqligidir.

1. Nutqning to'g'riligi. "To'g'rilik deganda,-deb yozadi V.Y.Kostomarov, -nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq qilinishi, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik normalarini egallashini tushunish lozim bo'ladi". Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to'g'ri bo'lmasa boshqa kommunikativ sifatlari ham vayron bo'ladi. Nutqning tuzilishi to'g'ri bo'lmasa, uning mantiqiyliigi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki normaga – urg'u va grammatik normaga qattiq amal qilishni talab qiladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'nosi ham ba'zan o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Bu ham nutqning buzilishiga olib keladi: Olma – olma, hozir – hozir, yigitcha-yigitcha, o'quvchimiz – o'quvchimiz, yangi – yangi va h.k.

Gap tarkibidagi bir so'zga tushadigan mantiqiy (logik) urg'uni ham ma'noni farqlashdagi xizmati katta.

Grammatik normaga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarni ularga bog'lanish qonuniyatlari tushuniladi.

2. Nutqning aniqligi – bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Arastu: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi",-degan bo'lsa, Kaykovus: "Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar

gapirgan vaqtingda soʻzning qanday maʼnoga ega ekanligini bilmasang qoʻshga oʻxshaysan...” deydi.

Aniqlik nutqning fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan, nutq predmetining maʼnosi bilan, nutqda ishlatilayotgan soʻz maʼnolarini bilish bilan bogʻliq boʻladi. Agar notiq oʻzi fikr yuritmoqchi boʻlgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos soʻzlar tanlasa va oʻzi tanlagan soʻzlarning maʼnolariga mos vazifalar yuklasa nutq aniq boʻlishi tayin. Aniqlik ikki xil boʻladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi.

3. **Nutqning mantiqiyliги** uning asosiy sifatлари toʻgʻrilik va aniqlik bilan chambarchas bogʻlangandir. Chunki grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lugʻaviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va oʻquvchiga ifodalanayotgan fikrning toʻliq borib etmasligi, baʼzan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi eʼtiborsizlik natijasida baʼzan, hatto, mantiqsizlik yuz beradi. quyidagi misolga eʼtibor qiling:

“Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish rejalarini muddatdan oldin bajaradilar (gazetadan)”. Gapda soʻzlarning tartibi toʻgʻri boʻlmaganligi, “olti oylik” birikmasining “sotish” soʻzidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur etayapti, hatto xato fikr ifodalanayapti.

Tushuncha mantiqiyliги alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik boʻlishini taqozo qiladi. Ammo, bu talabni nutqiy jarayonning hamma koʻrinishlarida ham oʻrtaga qoʻyib boʻlmaydi. Masalan: vazifaviylik uslublarida, xususan ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib koʻraylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir tuzilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud boʻlib, ular yagona bir xalqaga birlashadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrlar qatʼiy izchillikda bayon qilinadi. Badiiy nutq tuzilishi esa, bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelindi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa goʻyo mantiqiy izchillikka putur etkazganday koʻrinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng planlilik tasvir qurilishini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqan putur etmaganligi bunday asarlarning oxirida maʼlum boʻladi. Xulosa qilganimizda, nutqning mantiqiyliги deganda, yaxlit bir sistema asosida

tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

4.Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, ideal nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli til, 2ayri adabiy til unsurlaridan xoli bo'lishi kerak. Bu masalaning lisoniy tomoni bo'lib, nutqiy tozalikning nolingvistik jihatlari ham undan kam bo'lmagan ahamiyatga ega.

Nutqimizning toza bo'lishiga halaqit berayotgan lisoniy unsurlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir. To'2ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo'lmaydi. Chunki, badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar bilan ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum 2oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, milliy kaloritni bermoqchi yoki asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilishda dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilishi, hatto, zarurdir. Masalan: "Yoshulli, saning qizing bunda gatirilmagan. Ova, yoshulli. San manglayi qara batkirdor, na sababda mundoq yomon so'zlarni elga tarqatding" (Mirmuxsin). Ushbu misolda dialektizmlar hududiy kaloritni berishga xizmat qilgani kabi quyidagi misolda varvarizmlar – chet so'zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko'maklashgan. "Dubora" yana bordi bir ishga shul, (so'kib-net, - dedi, kelma durrak, poshul!)

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan: ayrim kishilar o'zlari sezmagan holda demak, xo'sh kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar. "Bir dokladchining bir soatli nutqida, -deb yozadi A.Axmedov – "o'rtoqlar" so'zi 101 marta, "ya'ni" so'zi 7 marta, "demak" so'zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo'lamiz. qarang, bir soatlik nutqda 24 ta ortiqcha, "bekorchi" so'z ishlatilgan" (A.Axmedov. Til boyligi. – T., 196h, 27-bet).

5.Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutilgan va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruxiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhimdir. Ya'ni, notiq tinglovchilarni

hisobga olishi kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigagacha, o‘z nutqining tinglovchilar eshitayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turishi, o‘z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilayotganini

nazorat qilishi lozim bo‘ladi. Professional bilimga ega bo‘lgan kishilar oldida jo‘n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo‘lmagani kabi, oddiy, etarli darajadagi ma‘lumotga ega bo‘lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish kerak emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni to‘laligicha tinglovchilarga etkazishga harakat qilish vazifa qilib qo‘yiladi. Xo‘sh, ta‘sirchan nutq deganda

qanday nutqni tushunmoq kerak? Unga B.N.Golovin shunday ta‘rif beradi:

“Ta‘sirchan nutq deb nutq qurilishining tinglovchi va o‘quvchi e‘tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytiladi, o‘z navbatida shu xususiyatlarga ega bo‘lgan nutq ta‘sirchan sanaladi”.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiqalar oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo‘lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog‘lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni bog‘lash lozim. Vaqtning hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki


so‘zlash muddati oldin e‘lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo‘lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi.

So‘zlovchining o‘z nutqiga munosabati ham muhimdir, chunki, shunday bo‘lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa yaxshi bo‘ladi. Notiq fikrlarni o‘zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub‘ektiv fikr mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ta‘sirli bo‘ladi

T-sxema jadvalini to‘ldiring

MADANIYATLI SHAXS DEB KIMNI AYTISH MUMKIN ?	AKSINCHACHI
--	-------------

--	--



Savollar

1. Nutqning kommunikativ sifatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning to'g'riligi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Qanday nutqni biz aniq nutq deymiz?
4. Nutqning aniqligiga qanday yo'llar bilan erishiladi?
5. O'zbek shoir va yozuvchilarining so'z boyligi haqida so'zlang

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Imamova T., Tuxvato'llina L. Ish qog'ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 2012.

2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.

15-mavzu. Og'zaki adabiy nutq. Nutqiy vaziyatlarni og'zaki ifodalash. . *“Ipakning kelib chiqish tarixi”*

Reja:

1. Og'zaki va yozma nutq haqida umumiy ma'lumot
2. *Yozma nutqning asosiy vazifasi*
3. Og'zaki nutq
4. “Tuproq unumdorligi” matni tahlili

Tayanch tushunchalar: yozma nutq, og'zaki nutq, ularning farqli xususiyatlari, til ma'yorlari, yozuv, muloqot, yozma nutqqa xos xususiyatlar, og'zaki nutqqa xos xususiyatlar.

1.Og'zaki va yozma nutq haqida umumiy ma'lumot. Ma'lumki, nutq og'zaki va yozma shakllarga ega. Og'zaki nutq so'zlovchi gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo'lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Ammo nutq ta'sirida uyg'onadigan hayajon, berilgan axborot ma'lum vaqtgacha tinglovchi ongida saqlanishi, uning xulqiga ta'sir etishi mumkin.

Tildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlanuvi hamda me'yorlashuvida *yozuvning* xizmati katta bo'lib kelayotganligi, shubhasiz. Nafaqat tilning me'yorlashuvi, balki dunyo xalqlari taraqqiyotida ham yozuvning o'rnini chetlab o'tib bo'lmaydi. Zero, har bir xalq, millat sivilizatsiyasi u yaratgan yoki foydalangan yozuvga ham bog'liq.

O'zbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan o'rnini haqida so'z yuritganda bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, sug'd, xorazm, pahlaviy, o'rxun (runik), uyg'ur, arab, lotin, rus (kirill) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi, shubhasiz, o'zbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir.

Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir. Yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining boshlanishi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400 – 500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutq)ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi, ishlab chiqarish va savdo kengayadi, boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va boshqa shartnomalar tuziladi, qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi, diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlarni shakllanadi, xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoji kuchayadi. Bularning barchasini faqat og'zaki nutq vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda *yozuv zaruriyatga aylanadi*.

Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsada, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba, bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha – barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi.

1. ***Yozma nutqning asosiy vazifasi.*** Og'zaki nutqni qayd qilish, uni zamon va makonda saqlashdan iborat. Kishilar o'rtasida bevosita muloqot qilish imkoni bo'lmaganda, odamlar zamon va makonda ajralib qolganda, yozma nutq insonlar o'rtasida aloqa-aralashuv vositasini o'taydi.

Muloqotning texnik vositasi – telefonning rivoj topishi xatning rolini pasaytirdi, Faksning paydo bo‘lishi va internet tizimining tarqalishi makonni bosib o‘tishga yordam berdi va bugunda nutqning yozma shaklini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Yozma nutqning asosiy xususiyati axborotni uzoq muddat davomida saqlash imkoniyatidir.

Yozma nutqning og‘zaki nutqdan farqli tomonlari

Yozma nutq va og‘zaki nutq inson nutq faoliyatining ikki shakli. Har ikkisi ham kishilik jamiyatining muloqot vositasidir. Og‘zaki nutq birinchi shakllanadi, yozma nutq esa keyin shakllanadi. Yozma nutq og‘zaki nutqning tayyor mexanizmlaridan foydalangan holda uni takomillashtirib va ularni bir qadar murakkablashtirib boradi, tilning yangi ifoda shakllari uchun xos bo‘lgan yangi unsurlarni qo‘shadi.

Yozma nutq ta‘lim jarayonida maqsadli ravishda egallab boriladi. Og‘zaki nutq bolaning kattalar bilan amaliy muloqoti jarayonida ularga taqlid qilish asosida shakllanadi. \1

ЛІ9+ шТ898рoбYozma nutqda so‘z tanlashga, jumla tuzishga ancha yuqori talab qo‘yiladi.

Yozma nutq tashqi tomondan (aytaylik, suhbatdosh tarafidan) tuzatishsiz kechadi. Yozma nutq muloqotning jonli vositalaridan holi, ya‘ni mimika, jestlar ishtirok etmaydi.

Demak, yozma nutq til mavjudligining bir shakli. Yozma nutq qat‘iy me‘yorga va tartibga solingan adabiy tildan foydalanadi. Adabiy so‘zlashuv ulubida gaplarda so‘zlarning tartibi qaror topgan, inversiya (so‘z tartibining o‘zgarishi) ham unga xos bo‘lib so‘zlovchining hissiyotini yorqin tasvirlashga xizmat qiladi. Adabiy so‘zlashuv uslubi o‘z leksikasi bilan og‘zaki so‘zlashuv uslubidan farq qiladi. Adabiy so‘zlashuv uslubi leksikasiga oid so‘zlar ”Imlo lug‘ati”dan joy olgan bo‘lib umum uchun tushunarlidir.

Shuningdek, yozma nutq og‘zaki nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: nutqni yozayotganda muallif vaqt jihatidan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. U o‘z nutqi qismlarini va butun nutqni qayta-qayta tahrir qilishi uchun eng

mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini qulaylashtirishi mumkin. Shuning uchun ham yozma nutq ogʻzaki nutqdan ravondir.

3. Ogʻzaki nutq xususiyatlari. Ogʻzaki nutq xususiyatlari sifatida quyidagilarni koʻrsatsa boʻladi:

1) ogʻzaki nutq tezkorlik bilan (avtomatik tarzda) amalga oshadi. Tushunchalar bilan “uning libosi” boʻlgan soʻz birgalikda “yashin tezligida” tilga kela boshlaydi. Baʼzan tushunchani ifodalovchi soʻzni oʻsha tezlikda soʻzlovchi topa olmay qoladi. Unga yaqin yoki oʻylangan tushunchani ifodalay olmaydigan soʻzlarni ishlatib yuboradi. Natijada, aytilgan nutq (gap, gaplar) koʻzlangan maqsadni (fikrni) toʻliq roʻyobga chiqarmaydi. Bunda tinglovchi ham soʻzlovchi ham zarar koʻradi.

2) ogʻzaki nutqda soʻz birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi boʻlgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi. Gap qurilishini, modellarini aql nazorat qilib boradi. Fikrni aytilganlarni ushlab koʻrgan holda rivojlantirishga toʻgʻri keladi. Agar xotira ozgina “dangasalik” qilsa, gap tuzilishi, soʻz birikmalari oʻzaro mantiqan va grammatik bogʻlanmay qoladi. Chunki yangi qism avvalgi qism unutilgani uchun u bilan moslasha olmaydi. Masalan, “Ustoz, sizni...xalq oldida qilgan ulkan xizmatlaringizdan biz minnatdormiz!”. Misolda soʻzlovchi nutqning “Ustoz, sizni...” qismini aytgandan soʻng uni qanday rivojlantirish ustida qilgan mulohazasi jarayonida avvalgi qismini, avval oʻylangan modelni unutib qoʻygan. Shu sababli tushum kelishigida kelgan soʻz keyingi qismlar bilan grammatik va mantiqan bogʻlanmay qolgan.

4) ogʻzaki nutq tahrir imkoniyatidan mahrum. U qanday shaklda borliqqa kelgan boʻlsa, shundayligicha tinglovchiga havola qilinadi.

5) ogʻzaki nutqda, odatda muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan, ikkinchidan nutqni kuchli tejash bilan bogʻliq. Shunga koʻra unga uzundan-uzoq kirish, keng izohlar kam uchraydi. Aksincha, hodisalarning, narsalarning oʻzaro bogʻliqlik darajalari, ularning tinglovchi va soʻzlovchiga ravshanligi darajasi hisobga olinadi. Faqat zarurat his etilgandagina avvaldan maʼlum narsalarga izoh beriladi.

6) Ogʻzaki nutq soʻz boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambagʻal boʻladi. Unda bir xil soʻzlar bir xil shakllar bir qadar koʻproq


takrorlanadi. Bu hol til vositalarini tanlash, qiyinchiliklar bilan bog‘liqdir.

7) Og‘zaki nutqda so‘zlovchining faol nutqiy harakati to‘xtam (pauza) ohang, urg‘u, turli xil imo-ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi.


8) Og‘zaki nutq tilning noverbal vositalari: turli mimika va jestlar yordamida ifodalanish imkoniga ega.

1-topshiriq. Quyidagi “Kaskad” o‘yin texnologiyasi orqali guruhlariga bo‘linib, musobaqa uyushtiring

“Kaskad” texnikasi



Nutq turlarini tushuntiring. Misollar keltiring



Ipakning kelib chiqish tarixi

Ipak –eng qadimiy va qimmatbaho to‘qimachilik xomashyolaridan biri. Fizikaviy va mexanikaviy xususiyatlari jihatidan ko‘p to‘qimachilik tolalaridan ustun.

Birinchi ipakni eslash Xitoy bilan bog‘liq. Qadimgi Xitoy shoyi matolari IV-V asrlarda tog‘li Oltoy hududlarida topilgan. Asosan, bu matolar yupqa va sidirg‘a rangli mato bo‘lgan.

Ko‘p yillar mobaynida Xitoy xalqi ipak olishni sir saqlab kelgan. Koreyslar II asrda ipakchilik bilan tanishadilar. Ular orqali yaponlar ipak bilan tanishadilar.

Rimliklardan greklar “ipak daraxtda o‘sadigan jun”, - deb ovoza qilib yuborganlar. Rimliklarning bu xato fikrlari Yevropaning boshqa xalqlariga ham yetib borgan.

Pliniy ipak qurti haqida to‘g‘ri ma‘lumot bergan, faqat negadir ipak qurtining yurti Assiriyu deb hisoblagan. Eramizning boshida rimliklar ipak kiyimlarini kiyib yurishgan deb o‘ylaymiz. Dastlab bu mato bombinasi ipidan yovvoyi ipak qurtidan olingan. Bunday matolar ko‘p miqdorda Assiriya va grek oroli Kosda tayyorlangan.

Ipakning bahosini u paytlarda uning og‘irligiga qarab shuncha og‘irlik miqdorida oltin bilan to‘lashgan.

Vizantiya imperatori Yustinian qaror qabul qiladi. Bu qarorda ipak 8 ta bo‘lak oltin 1 funt matoga sotilgan. Ipakni Vizantiyaga Persiya orqali olib kelishgan. 527-yilda bu 2 davlat o‘rtasida urush bo‘lgan va bu urush Yustinianni ipakni boshqa taraflama rivojlantirishga majbur qilgan.

XIV asrda ipak matolari ishlab chiqarish bo‘yicha Tur shahri birinchilardan edi. 1494-yilda davlatning muhrisiz ipak matolarini tashqariga chiqarish qat‘iy ma‘n qilingan edi. Shu qaror bilan birga shu matodan tikilgan kiyim-kechaklar kiyish ham ma‘n etildi. 1540-yilda Fransiyada ipakchilik podsho manifakturasi deb e‘lon qilindi va keyinchalik shu yerga ipak mahsuloti yoki yarim fabrikat mahsulotlarini olib kelish mumkin edi.

1850-1860-yillarda ipakchilik qurtlari kasallana boshladi va shu vaqt ichida ishlab chiqarish 7 baravar pasayib ketdi.

Amerikada birinchi ipakchilikning kashf qilinishi XVI asrda ro'y berdi. 1531-yilda Kortes Meksikaga ipak qurti urug'ini olib kelgan. Birinchi ipakchilik fabrikasi Amerikada 1810-yilda aka-uka Honkslar tomonidan Mensfil'deda asos solindi.

O'zbekiston janubida o'tkazilgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar bizning eramizdan avval IV minginchi yillar bu mintaqada yuqori madaniyatli dehqon qabilalari yashaganliklari aniqlandi. Ularning xo'jalik faoliyatlarining yuqori moddiy va ma'naviy madaniyatligi natijasida ko'p sohalarda ishlab chiqarishlar tashkil etilgan. Jumladan, hayvonlar terisiga ishlov berish, paxta, jun, ipakdan gazlama ishlab chiqarish va boshqa sohalarda hunarmandchiliklar bo'lgan.

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat institutining olimlari, akademik M. A. Hojinova, professor M.M. Muhamedov va boshqalarning ko'p yillik tadqiqotlari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining arxeologiya instituti tadqiqotchi-

-larining o'rganishlari natijasida Markaziy Osiyoda ipakchilik va shoyi to'qish juda qadimgi zamondan, 4000 yil avval mustaqil taraqqiy etganliga ilk bor isbot etildi.

1988-yilda Namangan viloyati Pop tumani Munchoqtepa qishlog'idagi arxeologik qazilmalarda topilgan mato parchasining rangi jigarrang, yashil, to'q qizil ekanligi elektron mikroskop, rengenografiya va boshqa usullar bilan aniqlandi. Bu matoning tarqoq iplari tabiiy ipakdan bo'lib, polotno o'rilishida to'qilgan. Qadim zamondan Markaziy Osiyo davlatlari va ular atrofidagi Afg'oniston, Eron, Iroq, Suriya va Pokistonda rang-barang nafis va ko'rimli ayollar kiyimlari uchun atlas, xonatlas, nafis yengil shoyi gazlamalar, og'ir beqasam va adraslar ishlab chiqarilgan.

3-topshiriq. Ipak yetishtirish sanoatining yutuq va kamchiliklarini quyidagi “**T jadval**” grafik organayzeri metodidan foydalanib to'ldiring.

Ipakchilik sanoatining yutuq va kamchiliklari

Yutuqlari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3

Nazorat uchun savollar.

1. Og‘zaki nutq haqida nimalarni o‘rgandingiz?
2. Yozma nutqqa xos xususiyatlarni ayting
3. Og‘zaki va yozma nutqning farqli xususiyatlarini sanang
4. Yozma nutqning imkoniyatlari haqida fikr bildirin

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imamova T., Tuxvato‘llina L. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 1992.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma) .-Toshkent, 2004.

16-mavzu. Adabiy til uslublari. Ilmiy uslub.

“Seleksiya asoslari”

Reja:

1. *Adabiy til uslublari haqida ma‘lumot*
2. *Ilmiy uslub*
3. *“Seleksiya asoslari”*

Tayanch so‘zlar: adabiy til, uslub, leksik resurslar, ilmiy uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub.

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublarni, til vositalarining nutqda qo‘llanish yo‘llari, lug‘aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi.

O‘zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika – uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo‘llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma‘no nozikliklarini aniqlash bilan shug‘ullanadi.

“Uslubiyat – tilda mavjud bo‘lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma‘lum bir tipdagi shakl, so‘z va konstruksiyalardan qaysi birini qo‘llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik

qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi, Shunga ko'ra, uslubiyat so'z san'ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandır". Tildagi ana shunday muammolar bilan shug'ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Tilning leksik resurslarini o'rganuvchi yo'nalish.
2. Funksional stilistika – vazifaviy uslubshunoslik.
3. Badiiy adabiyot uslublari.
4. Amaliy uslubshunoslik.

Mavzu nuqtai nazaridan bu o'rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi. O'zbek tili uslublari vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov, A.Shomaqsudov, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, S.Muhamedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo'lib, ularda asosan beshta uslub – so'zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublari e'tirof etiladi.

Ular haqida bilimga ega bo'lish talabalarga ona tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Ilmiy uslub Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga asoslanadi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga

xizmat qiladigan ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi. Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo‘ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o‘ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchillik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me‘yorning o‘ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Yuqorida bu kabi xususiyatlarning mushtarakligi bilan rasmiy uslubga yaqinligi aytib o‘tilgan edi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-metodik qo‘llanma, dastur, ma‘ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko‘rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma‘lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me‘yoriga ko‘ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so‘zlarni aniq, asosan bir ma‘noda qo‘llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo‘lmaganda, neytral variantini qo‘llash taqozo etiladi.

Atamalarni qo‘llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi: *“Ximiyaviy tarkibiga ko‘ra gerbidsidlar anorganik va organik gerbidsidlarga bo‘linadi. Anorganik gerbidsidlar: natriy arsenit, ammoniy sulfat, kalsiy sianamid, sulfat kislota va boshqalar. Organik gerbidsidlar: traktor kerosini, mochevina hosilalari, xlorfenoksisirka kislota, xlorfenoksimoy kislota va boshqalar. Hozirgi vaqtda ko‘proq organik birikmali va ba‘zan anorganik birikmali gerbidsidlar qo‘llaniladi”*

2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materialiy fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi. «Mantiq» darsligidan bir misol keltiramiz: “Epimenid “Men yolg‘on gapiraman”, - deb aytdi.

Bu paradoksni mutlaqo hal etib bo‘lmaydi. Aytaylik, Epimenid rost gapirdi, bu holda uning haqiqatda yolg‘on gapirgani aniq bo‘ladi. Aytaylik, u yolg‘on gapirdi. Bu holda uning haqiqatda ham rost gapirgani ma‘lum bo‘ladi”.

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. Mantiqiy izchillik. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinli, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriyl imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi: *"G'alla ekinlari urug'lari saqlashga ancha chidamli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini sifatli urug' bilan ta'minlashda uni saqlash muhim tadbirdir. Ekiladigan g'alla urug'lari uchun davlat standarti belgilangan"*

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko'pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo'lgani kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriyl vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subyektiv emosionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda fikr yuritilayotgan manba, mavzu bilan uyg'un ravishda ba'zan bu uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanish istisno emas. Masalan: *Differensial tenglamalarning xususiy hosilalari fizikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan bekaga aylanib ketdi.* Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqiyeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

1. Ilmiy uslubda atamalarning qo'llanilishi va uning xususiyatlari. Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi.

Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, [shuningdek](#), kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub **ilmiy-ommabop uslub** sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

Ilmiy uslub doirasi anchagina keng va xilma-xildir. Chunonchi, bir qator ijtimoiy fanlarga oid tadqiqotlar ko'proq ommaviyligi bilan tavsiflansa, aniq fanlarga oid

tadqiqotlar mutaxassislar doirasida ko‘proq anglashilarli bo‘ladi. To‘g‘ri, turli fanlarga oid xulosalar ham barcha mutaxassislar uchun aniq emas. Masalan: aruz bahrlari haqidagi fikrlar hamma uchun ham tushunarli bo‘lavermaydi. Biroq bir kimyoviy qolip yoki riyoziy tenglamaning aniqligi mutaxassis faoliyati bilan yanada bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, ilmiy uslubda atamalar ko‘proq qo‘llaniladi. Bir tushuncha uchun aniq bir atamani qo‘llash ma‘qul hisoblanadi. Bir tushuncha uchun 2-3 atama qo‘llanishi noaniqlik keltirib chiqaradi. Ilmiy asarlar tili faqat atamalardangina tashkil topmay, unda abstrakt leksika va ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega bo‘lgan umumxalq so‘zlari ham keng qo‘llaniladi. Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid simvol va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi. O‘zbek ilmiy uslubida obrazli nomlarning roli juda kattadir. Masalan: *oq tuproq, qora tuproq, qizil tuproq, sho‘rtuproq; muzlik kamari, muzlik darvozasi, muz tili, kulcha muz; marjon qirg‘oq, panjarasimon qirg‘oq; oy o‘tovi, serostona daryo, patsimon bulutlar* kabi atamalar ham aslida obrazli ifodalardan kelib chiqqan. Odatda ilmiy uslubga mansub materiallar o‘z mazmuniga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Ilmiy tadqiqotlar.

2. Ilmiy-ommabop asarlar.

- 1) ilmiy tadqiqotlar biron-bir fan sohasidagi izlanishlarni qamraydi, uzoq yillar olib borilgan ijodiy mehnat samarasini ko‘rsatadi. Masalan: Oybekning “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li”, I.Sultonning “Navoiyning qalb daftari”, H.Yoqubovning “Adibning mahorati” kabi asarlari xuddi shunday tadqiqotlardir. Ilmiy ommabop asarlar hamma uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan masalalarni sharhlaydi. Bunday asarlarda iloji boricha murakkab atamalar qo‘llanmaydi. Bu uslubda ham shevachilikka yo‘l qo‘yilmaydi.

- 2) ilmiy atamalarining ko‘proq qo‘llanilishi bu sohaning xarakteriga mosdir.

- 3) ilmiy uslubda gap bo‘laklarining tushib qolish alomati kam uchraydi.

- 4) adabiy me‘yorga rioya qilish, gaplarning grammatik shakllanganligi bu uslubning yetakchi xususiyatidir.

- 5) shevachilikka yo‘l qo‘yilmaydi.

Kesim, nutq uslublarida qo‘llanishiga ko‘ra, ayrim xususiyatlarga ega. Masalan, ot-kesim (sodda ot-kesim ham, murakkab ot-kesim ham) ko‘proq ilmiy va rasmiy-

idoraviy uslublarga, fe‘l-kesim (sodda fe‘l-kesim ham murakkab fe‘l-kesim ham) esa ko‘proq so‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarga xosdir. Bu hol ularning maqsad, vazifalari bilan izohlanadi. Qiyoslang:

Ilmiy uslubdan: *Organizm bilan muhit bir butun sistemadir. Bu sistemani hosil qiluvchi ikkala tur ziddiyat birligini tashkil qiladi. Bu ziddiyat organizmning yashash manbasidir va muhitning o‘zgarishi rivojlanish vositalaridan biridir.*

Rasmiy idoraviy uslubdan: *Saylov binosida ovoz berish vaqtida saylov to‘g‘risida agitatsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Saylov binosida tartib saqlanishi uchun uchastka saylov komissiyasining raisi javobgardir.*

Badiiy uslubdan: *Ikromjon na bo‘ri tovushini eshitar, na yuzlariga urilayotgan qamishlarning shitirlashini eshitar edi.*

So‘zlashuv uslubidan: —*Seni akang boqolmay taqachiga topshirgan ekan, – dedi Ergash, —meni o‘z otam qashshoqlikdan bir boyga topshirdi.*

Publitsistik uslubdan: *...ko‘chaga bepoyon Vatanimiz, ajoyib xalqimiz, hayotimiz uchun iftixor tuyg‘usi bilan mag‘rurlanib chiqqanimizda bir achchiq tarixiy faktni aytib berishdi menga.*

Kesim ilmiy va rasmiy-idoraviy uslublarda ko‘proq uchinchi shaxs shaklidagi majhullik va o‘zlik nisbati shaklidagi fe‘llar bilan ifodalanadi. Ilmiy uslubda kesim fe‘lning ijro mayli, rasmiy-idoraviy uslubda buyruq mayli orqali beriladi. Badiiy, so‘zlashuv uslublarida esa bunday kesimlar nisbatan kam uchraydi.

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ularni qaysi nutq uslubiga va qaysi sohaga xos ekanligini aniqlang.

1. Tobe so‘zning hokim so‘z talabiga ko‘ra ma‘lum kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi. 2. O‘lkamizda fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoymoqda. 3. Atomlar kimyoviy bo‘linmaydigan zarralardir. Bir xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt hamda barcha turdagi metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi. Har xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar murakkab moddalar deyiladi. 4. Yomg‘ir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog‘ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo‘ladi. 5. O‘z lavozimini suiiste‘mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e‘lon qilinsin. 6. Odamzod organik olamning

tarkibiy qismi va uzoq davom etgan evolutsiya jarayonining mahsuli sanaladi. Odamda oliy asab sistemasi bilan bog‘liq bo‘lgan: 1) aql; 2) idrok; 3) qobiliyat; 4) nutq; 5) mehnat qilish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu xususiyatlarning irsiylanishi juda murakkab bo‘lib, u genetik va ijtimoiy omillar ta‘sirida amalga oshadi. 7. Azamat paxtakorlarimiz mo‘l hosil etishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.

2-topshiriq. Matnni o‘qib, atamalarni toping va izohlang.

Atomlar kimyoviy bo‘linmaydigan zarralardir. Bir xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt hamda barcha turdagi metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi. Har xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar murakkab moddalar deyiladi. Suv, karbonat angidrid, mis (II) oksidi shular jumlasidandir.

Seleksiya asoslari

Seleksiya (lot. selectio — tanlash, saralash) – yuqori mahsuldor o‘simliklar navlari va duragaylarini, hayvonlar zotlarini va mikroorganizmlar shtammlarini yaratish nazariyasi va amaliyoti. Seleksiyaning ilmiy nazariy bazasi genetika hisoblanadi. O‘simliklar seleksiyasi botanika, sitologiya, embriologiya, gistologiya, fiziologiya, fitopatologiya, entomologiya, ekologiya, biokimyo, o‘simlikshunoslik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Ibtidoiy seleksiyaning ko‘rinishlari (beixtiyor tanlash) dehqonchilik paydo bo‘lgan davrlardan boshlangan. Bunday seleksiya asta-sekin muayyan maqsadli yo‘nalishlarda olib borilgan.

Xalq seleksiyasi O‘rta Osiyoda ham rivojlanib, g‘o‘za, zig‘ir, don, beda, sabzavot-poliz ekinlari, tok va mevali daraxtlarning qimmatli navlari yaratilgan. III-IV asrlarda Afrika, Osiyo g‘o‘zasining qattiq, quruq iqlimga moslashgan ertapishar shakllari chiqarilgan. Yumshoq bug‘doyning Qizil bug‘doy, Tuyatish navlari hosildorligi, qurg‘oqchilik va kasalliklarga chidamliligi hamda donining sifati bilan mashhurdir. Tok (Soyaki, Sohibi, Parkent va boshqa navlari), o‘rik (Ko‘rsodiq, Obinovvot), arpa (Toshkallak), sholi (Arpa sholi, Xo‘jaahmad, Qozoqi), jo‘xori (Xo‘raki, Kattabosh), qovun (Jo‘jaburun), tarvuz (Qo‘zivoy), sabzi (Mirzoyi, Mushak),

piyoz (Oq piyoz) va boshqalarning sifatli mahsulot beradigan, mevasi uzoq saqlanadigan ko'pchilik navlari hozir ham ekiladi.

Beda seleksiyasi sohasida, ayniqsa, katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm va Samarqand bedalari butun dunyoga mashhur bo'lib, hozir ham juda qimmatli navlar hisoblanadi.

Chorvachilikda uzoq tanlash yo'li bilan qorako'l, hisori qo'y zotlari, qorabayir, laqay ot zotlari va boshqa yaratildi. Keyinchalik ko'pgina muhim xo'jalik xususiyatlarga ega bo'lgan bu navlar va zotlardan seleksiya ishlarida qimmatli boshlang'ich material sifatida foydalanildi.

CH.Darvin o'zining "Turlarning kelib chiqishi" (1859) asari bilan seleksiyaning ilmiy asosini yaratdi, hayvonlar va o'simliklar dunyosida yangi shakllarning paydo bo'lishida tanlashning ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Seleksiyaning keyingi rivojlanish bosqichlarida irsiyat qonunlarining kashf etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, seleksiyaning rivojlanishida I.V. Michurinning ishlari ham muhim rol o'ynadi. Irsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatorlar qonuni hamda madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari to'g'risidagi ta'limot muallifi N. I. Vavilov seleksiyaning rivojiga katta hissa qo'shdi.

Yevropa va Amerikada seleksiya XIX asrda rivojlana boshladi. Fransiyada L. Vilmoren ko'p marta tanlash yo'li bilan qand lavlagining tanlab olingan shakllari qandliligini 3 hissa oshirishga erishdi. Shved seleksioneri G. Nilson Ele o'zidan changlanuvchi o'simliklarda yakka tanlash usulini qo'llab, sulining qimmatli navini yaratdi. AQShda L. Byorbank duragaylashni qat'iy tanlash bilan qo'shgan holda mevali o'simliklar va boshqa ekinlarning eng yaxshi navlarini yaratdi. Rossiyada seleksiya ishlari XIX asr oxiridan rivojlana boshladi.

O'zbekistonda ilmiy seleksiyaning boshlanishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Rossiya imperiyasi sanoatining paxta xomashyosiga bo'lgan katta ehtiyojlari ta'sirida dastlab g'o'za seleksiyasi bilan shug'ullanadigan muassasalar tashkil etildi. 1898-yilda ish boshlagan Turkiston qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasida (hozirgi Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik **ilmiy tekshirish instituti**) R. R. Shreder qishloq xo'jaligi sohasida ko'p qirrali ilmiy faoliyat bilan birga g'o'za, g'alla, sholi seleksiya ishlariga asos soldi. 1899-yilda Andijon tajriba dalasi, 1900-yilda Mirzacho'l

tajriba dalasi, 1913-yilda Namangan shahri yaqinidagi Paxtaliko‘lda g‘o‘za bo‘yicha maxsus Farg‘ona seleksiya stansiyasi tashkil etildi. M.M. Bushuyev, G. S. Zaysev, Ye. L. Navrotskiy kabi olimlar g‘o‘za, g‘alla ekinlari, qoramolchilik bo‘yicha seleksiya ishlarini faol olib borishdi va g‘o‘zaning yangi mahalliy 169 (Dehqon), 182 (Oq jo‘ra), Amerikadan keltirilgan Rusel navidan "Navrotskiy", Triumf navidan "Navrotskiy zafari" navlari, Bushuyev qoramol zoti yaratildi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab O‘zbekistonda o‘simlikshunoslik, chorvachilik, yilqichilik, qorako‘lchilik, pillachilik va boshqa yo‘nalishlarida tajriba va seleksiya stansiyalari, ilmiy tekshirish muassasalari tashkil etila boshladi. 1922-yilda Turkiston seleksiya stansiyasi (1965-yildan Butunittifoq g‘o‘za seleksiya va urug‘chiligi ilmiy tekshirish instituti), 1924-yilda Butunittifoq o‘simlikshunoslik institutining O‘rta Osiyo tajriba stansiyasi, 1925-yilda Milyutin (hozirgi G‘allaorol g‘alla ekinlari) tajriba stansiyasi, 1927-yilda O‘rta Osiyo ipakchilik instituti, 1929-yilda Butunittifoq paxtachilik instituti (SoyuzNIXI), 1932-yilda O‘zbekiston sholichilik tajriba stansiyasi, 1934-yilda O‘zbekiston sabzavot va kartoshka ekinlari tajriba stansiyasi, 1935-yilda Butunittifoq qorako‘lchilik instituti, 1940-yilda O‘zbekiston chorvachilik instituti va ularning respublikaning turli zonalarida joylashgan keng tarmoqli stansiyalari ish boshladi.

Chorvachilikda seleksiya mollarning mahsuldorlik va mahsulotlari sifati, kasalliklarga bardoshi, sharoitlarga moslashishi, yem-xashakdan samarali foydalanishi bo‘yicha olib boriladi. Yalpi, yakka, yakkaqarindoshlik, guruhli qarindoshlik belgilari majmui bo‘yicha tanlash seleksiyaning asosi hisoblanadi ([Duragaylash](#), [Naslchilik](#), [Saralash](#)).

O‘simliklar seleksiyasida navning asosiy yaroqlilik belgisi uning hosildorligi va hosili tarkibida ko‘zlangan zarur moddalar (masalan, bug‘doyda oqsil, kartoshkada kraxmal)ning ko‘pligi hisoblanadi. Shuningdek, tanlashda o‘simliklarning noqulay omillarga (qurg‘oqchilik, sovuqqa chidamlilik, kasalliklar va zararkunandalarga) bardoshlik, mexanizatsiya bilan ishlov berishga qulaylik, agrotexnologiyaga moyilligi ham muhim belgilar hisoblanadi.

O‘simliklar seleksiyasi boshlang‘ich material yaratish yoki tanlashdan boshlanadi. Ular tabiiy va duragay populyatsiyalar, ilgari yaratilgan navlar, o‘zidan

changlangan liniyalar, poliploidlar, mutantlar bo'lishi mumkin. Boshlang'ich materialdan tanlab olingan o'simliklar avlodi dastlabki baholash, ba'zan qayta tanlash uchun seleksion ko'chatzorlarga ekiladi. Ularning eng yaxshilari nav sinash uchun (dastlabki, stansion, konkurs) tanlab olinadi. So'ngra ular yakuniy baholash va rayonlashtirish uchun Davlat sinoviga o'tkaziladi.

Makkajo'xori seleksiyasida geterozisi yuqori bo'lgan liniyalararo va nav liniyalari duragaylari yaratiladi. Qand lavlagining yuqori geterozisli shakllarini yaratish uchun diploidlar tetraploidlar bilan chatishtiriladi. Sorgo, pomidor, garmdori, piyoz, poliz va boshqa ekinlar seleksiyasida ham geterozis duragaylari chiqariladi.

G'o'za seleksiyasi yalpi tanlash, yakka tanlash usullari bilan serhosil va tezpishar navlar yaratish yo'nalishida olib boriladi. Bunda navlarning sifat belgilariga (kasallik va zararkunandalarga, qurg'oqchilikka, sho'rga chidamliligi, tola chiqishi, mashinada terishga qulayligi va boshqalar) e'tibor beriladi. Boshlang'ich material sifatida chet el seleksiya navlaridan, tur ichida va turlararo madaniy, yovvoyi, yarim yovvoyi nusxalarni va turlarni chatishtirish yo'li bilan olingan populyasiyalardan, radioaktiv nurlanishlar va kimyoviy mutagenlar ta'sirida chiqarilgan populyasiyalardan foydalaniladi. Bir qancha mamlakatlarda geterozis samaradorligidan yoki turlararo va tur ichidagi duragaylar birinchi bo'g'inining yuqori biologik xo'jalik mahsuldorligidan foydalaniladi. G'o'za seleksiyasida oddiy yoki juft, pog'onali, duragaylar ichida, duragaylararo, takroriy (bekkross), murakkab chatishtirish usullari qo'llaniladi.

XX asrda O'zbekiston olimlari seleksiyaning nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqishga munosib hissa qo'shdilar. G'o'za seleksiyasida S. S. Kanash, A. I. Avtonomov, L. V. Rumshevich, A. Dadaboyev, S. S. Sodiqov, S. M. Mirahmedov, O. Jalilov mevalar va tok seleksiyasida M. Mirzayev, M. S. Juravel, A. M. Negrul, subtropik ekinlar (limon) seleksiyasida Z. Faxriddinov, sabzavot, poliz ekinlari kartoshka seleksiyasida D. Abdukarimov, A. Obidov, K. Yusupov, Ye. V. Yermolova, A. S. Hakimov va boshqalar, qoramolchilik seleksiyasida U. Nosirov, parranda (tovuq) seleksiyasida S. G'. Azimov, qo'ychilik seleksiyasida I.N.Dyachkov, ipak qurtining yangi zotlari va duragaylarini yaratishda B.L.Astaurov, V.A. Strunnikov, U. Nasrillayev va boshqalarning xizmatlari katta.

O‘zbekistonda seleksiya ishlari O‘zbekiston FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti, O‘zbekiston Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi ilmiy ishlab chiqarish Markazining paxtachilik, g‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi, o‘rmon xo‘jaligi, sholichilik, o‘simlikshunoslik, bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik; sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik; sug‘oriladigan yerlarda don va dukkakli ekinlar; chorvachilik, qorako‘lchilik, ipakchilik ilmiy tekshirish institutlarida, tolali ekinlar tajriba stansiyasida, Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy tekshirish institutida, Toshkent agrar universiteti, Andijon, Samarqand qishloq xo‘jaligi institutlari seleksiya kafedralarida olib boriladi. O‘zbekistonda seleksiya amaliyoti, uni tashkil etish va seleksiya yutuqlari (o‘simliklar navi, hayvonlar zoti)ga doir huquqiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida" qonuni (1996-y. 30-avgust) bilan tartibga solinadi.

3-topshiriq. Matndan bosh harflar bilan yozilgan so‘zlarni toping va quyidagi jadvalni to‘ldiring

Kishi nomlari	Joy nomlari	Tur va navlar
N.I. Vavilov	O‘rta Osiyo	Toshkallak

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imamova T., Tuxvato‘llina L. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 1992.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma) .-Toshkent, 2004.

17-mavzu. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.

Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”romani tahlili

Reja:

1. Badiiy uslubga xos matn turlari.
2. Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqli jihatlari.
3. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: tasviriy matn, bayoniy matn, mulohaza, tajnis (jinos), tuyuq, tazod (antiteza), omonim, sinonim, antonim, paronim, mubolag'a (giperbola), sifatlash (epitet), trop.

Badiiy uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining barcha qatlamlari ishtirok etadi. Chunki ilmiy va publitsistik uslublar ijtimoiy hayotning [u yoki bu sohasini ifodalasa](#), badiiy uslub inson faoliyatining turli qirralarini o'zida aks ettiradi, barchaga taalluqli bo'ladi.

Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi. Shuning uchun badiiy uslub aralash uslub deb ham hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi. Unda turli kasb-hunar, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi. Shu tufayli shoir va adiblar hammaga ma'lum til vositalaridan o'zigagina xos usulda foydalanishga harakat qiladilar. Shaxsiy obrazlilik publitsistik uslubga ham xosdir. Obrazlilik so'zlashuv uslubida ham bo'ladi.

Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan birga umumxalq tili boyliklarini ham qamrab oladi. Ya'ni asarning janr va mavzu talabi bilan yozuvchining individual uslubiga bog'liq holda badiiy nutqda umumxalq tilidagi barcha lug'aviy qatlamlar ishtirok etaveradi. Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlar, dag'al so'zlar, eskirgan so'zlar, oddiy so'zlashuv tili elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy nutqda o'rni bilan qo'llash mumkin.

Badiiy uslubning fonetik xususiyatlari. Badiiy uslubda yozuvchi yoki shoir erkin ijod qiladi. Shuning [uchun u boshqa uslublardan](#), ayniqsa, so'zlashuv uslubidan keng foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir o'z qahramoni xarakterini yoritish maqsadida uning turli xil ko'rinishlaridan foydalanadi. Badiiy uslubda tovush almashinishi, tovush

tushishi, tovush ortishi, unli tovushlarning cho‘zilishi, undosh tovushlarning qavatlanishi shuningdek, alliteratsiya, assonans, kontaminatsiya va boshqa turli xil hodisalarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, tovush almashinishi va ortishi: O‘rmonda otishdi, Qor edi qalin Yiqildi Hayqirib Yashash-shin Ishta-lin (M.Yusuf) YUqoridagi parchada s tovushining sh tovushiga almashinishi hamda so‘z boshida i tovushining ortishi orqali duduq odamning nutqi ko‘rsatib berilgan. Undosh tovushning ikkilantirilishi, geminatsiya hodisasi ham uchraydi.

Oh, [mening ortimdan ovvora onam](#),

Bir parcha yuragi ming pora onam. (M.Yusuf)

Ushbu misradagi ovora so‘zida v tovushi ikkilantirilib achinish, ichki hayajon ifodalangan. Badiiy matnda bir xil undoshning ketma-ket takrorlanishi, ya‘ni alliteratsiya o‘ziga xos ritmni vujudga keltiradi.

Mohiru mehru mahorat,

Olimu ilmu amal,

Oshiqu ishuq mashaqqat,

Shoiru she‘ru shuur. (E.Vohidov)

Bu she‘riy parchaning dastlabki ikki misrasida m undoshi, keyingi ikki misrasida sh undoshi ketma-ket ishlatilgan: har ikkisi 6 marta qo‘llangan. Misralardagi tovushlar takrori she‘rning nafaqat musiqiyligini, balki mazmunan yanada ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlagan.

Badiiy uslubning leksik xususiyatlari.

Ma‘lumki, badiiy matnning ta‘sirchanligini ta‘minlashda ijodkorning leksik vositalardan foydalanish (so‘z qo‘llash) mahoratini belgilash muhim o‘rin tutadi. M.Yo‘ldoshevning [qayd etishicha](#), badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim, omonim, antonim, polisemantik, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlarga alohida diqqatni qaratish lozim. Masalan, nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so‘z o‘yinlari hosil qilinadi:

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot,

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Bu o'rinda ot omonim so'zlari turlicha ma'nolarni ifodalamoqda. Omonim so'zlardan foydalangan holda so'z o'yinlarini yaratish tajnis (jinos) san'ati deyiladi. Badiiy adabiyotda ushbu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt qator she'r esa tuyuq deb ataladi.

Sinonim so'zlar, garchi bir ma'noni [ifodalasa-da](#), ma'no nozikliklari orqali darajalanish xususiyatiga ega. Ana shu darajalanish, ya'ni emotsional-ekspressivlikning kuchayib borishi konnotativ ma'noni hosil qilgan. Shoir Erkin Vohidov «Uch so'zda bir ma'no» nomli she'rida sinonimik qatorni keltiradi. Shoir she'ring har bir misrasida sinonimik qatorni shunday beradiki, bunda so'zlarning ma'nosi kuchayib boradi.

Seni ko'rmishdir Aynu Chashmu Ko'z.

Tush, Xob, Makominda

Labing, La'ling, Dudog'ing.

Bu na daryo deb savol bermish.

Qo'ling, Dasting, Yadinda.

May, Sharob, Sog'ar tutib masrur

Lisoning, Til, Zaboningkim .

Asal, Shahd ila bol bermish.

Antiteza badiiy matnning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiluvchi vositadir. Quyida E.Vohidovning antitezadan foydalanish mahorati xususida fikr yuritamiz.

Ushbu she'riy parchaning birinchi va ikkinchi hamda ikkinchi va uchinchi misralari o'zaro antiteza asosiga quriladi. Masalan:

Barcha shodlik senga bo'lsin.

Bor sitam, zorlik menga.

Barcha dildorlik senga-yu,

Barcha xushtorlik menga. (E.Vohidov)

Bu she'riy parchada shoir birinchi misradagi shodlik so'ziga ikkinchi misradagi sitam, zorlik so'zlarini zidlagan. Ikkinchi misradagi dildorlik so'ziga uchinchi misradagi xushtorlik so'zini qarama-qarshi qo'yib antitezani hosil qilgan. Birinchi holatda oldingi misradagi shodlik so'ziga ikkinchi misrada ikkita so'zni zid qo'yadi (sitam va zorlik).

Bu bilan ham sheʼrning [ohangdorligi ortadi](#), ham taʼsir kuchi oʻzgaradi, ham sheʼrdagi oʻynoqilik taʼminlanadi.

Shuningdek, shoir birinchi misradagi senga soʻziga ikkinchi misradagi menga soʻzini zid qoʻyadi hamda sheʼrning badiiyligi, taʼsir kuchini oshirish uchun keyingi misrada senga soʻziga yuklama qoʻshib, senga-yu tarzida beradiki, shoirming bor hayajonini ana shu yuklama ifodalagandek boʻladi. Bu tarzda qoʻllash orqali adib oʻquvchini oʻziga jalb qiladi, oʻquvchi hayajonini kuchaytiradi.

Paronimlarni toʻgʻri qoʻllamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: Shahrimizning nufuzi ikki milliondan oshdi. Mazkur gapda nufuz soʻzi notoʻgʻri qoʻllangan, oʻrniga nufus paronimi qoʻllanishi kerak edi. (nufuz - obroʻ, nufus - aholi).

Turli sabablarga koʻra qoʻllanishi chegaralangan soʻzlarga eskirgan va yangi soʻzlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy soʻzlardan oʻtmish voqyeligini ifodalash maqsadida qoʻllaniladi. Sheva soʻzlari mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni [ifodalash uchun ishlatiladi](#), jargonlar esa maʼlum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham maʼlum uslubiy vazifa bajaradi. Bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi badiiy nutqqa mansub boʻlsa, bir jon, bir tan boʻlmoq iborasi umumnutqqa xosdir. Yozuvchi va shoirlarimiz ham ibora va maqollar ijod qilishadi: Oʻlikning yogʻini, tirikning tirnogʻini yeydi bu. (Abdulla Qahhor) Oʻqsiz soldat - qilichsiz qin. (Oybek)

Badiiy uslubning grammatik xususiyatlariga nazar tashlasak, badiiy matnda taʼsirchanlikni oshirishda morfologik vositalar alohida oʻrin tutadi. Morfologik vositalar ichida konnotativ maʼnoni hosil qiluvchi maxsus soʻz shakllari, mustaqil va yordamchi soʻzlar, maxsus affikslar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, grammatik shaklning barcha koʻrinishlari - sheva va tarixiy variantlari ham asar mavzusi talabi bilan qoʻllanaveradi. Masalan:

Dunyo boʻldi chamanim manim,
Oʻzbekiston vatanim manim.(A.Oripov)


Badiiy nutq uslubida soʻz turkumlarini qoʻllashda ham oʻziga xosliklar mavjud. Masalan, sifatlarning ishlatilishi badiiy nutqda ot va olmosh kabi faoldir. Olmoshlardan kishilik va koʻrsatish olmoshlarining qoʻllanishi mahsuldordir. Sonlar odatda aniq maʼnolarni anglatishi bilan birga maʼnosi kengaygan holda ham qoʻllanadi. Undov va taqlid soʻzlar ham badiiy uslubda uchrashi xarakterlidir.

Badiiy uslub sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan farqlanadi. Shu sohada maxsus tadqiqot ishini olib borgan A.Abdullayev sintaktik vositalardan sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bogʻlovchilarning maxsus qoʻllanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, [takroriy gaplar](#), ritorik soʻroq kabilarning matn taʼsirchanligini ifodalashga xizmat qilishini qayd etadi.

M.Yoʻldoshev esa oʻzbek tilida badiiy matnda aktuallashadigan sintaktik vositalarning quyidagi turlarini farqlashni tavsiya etadi: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik soʻroq gap, inversiya, ellipsis (antiellipsis), parsellyatsiya, atov gaplar (segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron, (gʻayriodatiy birikmalar), antiteza (sintaktik konstruksiyalarda), farqlash, oʻxshatish, sukut, [ulab ketish](#), korreksiya.

Badiiy nutq uslubida darak, soʻroq, buyruq gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil qiladi. Undov gaplar ham badiiy nutq uslubi uchun xarakterlidir. Ular kitobxonga estetik taʼsir oʻtkazishda yozuvchi qoʻlida kuchli qurol hisoblanadi.

Badiiy nutq uslubida qoʻshma gapning barcha turlari aralash ishlatiladi. Bulardan tashqari badiiy asarlarda metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, jonlantirish (tashhis), apostrofa (jonsiz narsalarga jonlidek murojaat qilish), mubolagʻa (boʻrttirish), litota (kichraytirib boʻrttirish), oʻxshatish (tashbeh), tarseʼ (ustma-ust qofiyalanish), tazod (qarshilantirish), talmeh (oʻtganlarni yodga olish), sifatlash (epitet) kabilardan unumli foydalaniladi.



Yozuvchi Murod Muhammad Doʻstning “Lolazor” romani

Yozuvchi Murod Muhammad Doʻstning “Lolazor” romanida ikki xil odamning taqdiri (asl qismati emas, bergisi) badiiy tahlil qilinadi. Bu yolgʻon taqdir egalaridan biri – Nazar Yaxshiboyev, ikkinchisi – Oshno. Aslida, Saidqul Mardon taʼbiri bilan aytsak, Oshno mavzusi – ochilmagan qoʻriq. Asosiy gap – Yaxshiboyev xususida. Oshno boshqalar qatori shunchaki ilova, xolos!

Bulduruq qishlogʻining dohiysi Hotam Shoʻro edi. Maqsadi – qishloqning dongʻini olamga yoyish, buning uchun ilmi, sadoqatli kadrlarni koʻpaytirish. U Oʻrtaqoʻrgʻon shahriga – dorilfununga oʻqishga yuborish uchun oʻnta oʻspirindan ikkitasini tanlab olmoqchi boʻladi. Qurʼa tashlaydi. Oʻqishga Yaxshiboy choʻponning oʻgʻli bilan Kalonqul boʻyoqchining bolasi boradigan boʻladi.

Nazar Yaxshiboyev oʻqishga borib oʻtirmasa ham boʻlardi. Chunki uning kim boʻlishi shundoq ham maʼlum edi. Bir umr yetolmagan orzusi Hotam Shoʻroning martabayu darajasi boʻldi. Bu orzuga yetish uchun oʻqishga borib ovora boʻlish shartmidi? Oshnoga kelsak, uning yoʻrigʻi boshqa.

Yoʻlda, Oʻrtaqoʻrgʻonga ketar haddida Nazarning Jonuzoq karvon bilan qilgan qisqa suhbatini eslaylik. Yoʻlkira haqida gap ochiladi:

«– Karvonning yo‘lini to‘smasang, bas, – dedi karvonboshi jiddiy turib,
–qaroqchiyam karvonning yo‘lini to‘smagan.
– Yo‘g‘-ye, – deb kuldi norg‘ul yigit. – To‘sgan, talagan emasmi?
– To‘smagan, – dedi karvonboshi. – To‘xtatgan, xolos. Keyin, ularni olib bo‘lib, yana karvonni o‘tkazib yuborgan. Tushundingmi?

Norg‘ul tushunmadi, yana nimadir e‘tiroz aytmoqchi bo‘lib og‘iz juftladi, lekin xushbichim yigit uning yengidan tortdi, karvonboshi otini burib, karvon boshiga qarab ketdi...»

Jonuzoq karvon aytganidek bo‘ldi ham. Yaxshiboyev tez orada o‘g‘rilik yo‘liga kirdi. Muhtojlik shunga majbur qildi. Ehtimol, Yaxshiboyevning o‘rnida boshqa birov bo‘lganida vaziyatdan qutulishning o‘zgacha yo‘lini topar edi (Oshno singari). Ammo muhtojlikdan chiqishning har qanday yo‘li ham mohiyatan o‘g‘rilik ekan-da. Ammo Yaxshiboyev qasddan birovga yomonlik qilmaydi – karvonning yo‘lini to‘smaydi, yomonlarni talaydi-yu, yaxshilarga ziyon yetkazmaydi. Uning o‘g‘riligidan yaxshilarga foyda yetsa yetadiki, zarar yetmaydi.

Roman voqealaridan yana bir haqiqat ayon bo‘ladiki, o‘g‘rilik va to‘g‘rilik deganlari aslida g‘oyat nisbiy gaplar ekan.

Sirasini aytganda, yozuvchilik Yaxshiboyevning ishi emas edi. Lekin u bundan hech hijolat tortib o‘tirmasdan, chorasini topadi – ijod sohasiga qaroqchilik ilmi, ba‘zi jurnalistlarimiz iborasi bilan aytadigan bo‘lsak, amaliyotini joriy etadi.

Ikki do‘st (hozircha do‘st deb turamizda endi) suhbatlarining birida Oshno yozishga hech qo‘li bormayotganidan noliydi. Yaxshiboyev masalani xaspo‘shlab o‘tirmasdan, eslasang, biz u paytlarda non uchun yozardik, deb qo‘yaqoladi. Bu gap Oshnoning nafsoniyatiga tegadi. Darrov vaziyatni yumshatishga o‘tadi, bekor gap, ko‘ngil uchun ham yozgan paytimiz bo‘lgan, deydi. Yaxshiboyev yana, tap tortmasdan, dangal gapirib qo‘yaqoladi: “Orifiy ham ko‘ngil uchun yozadi... Ko‘ngil bir chaqaga arzimasi ham mumkin”. Oshno noiloj zohiran silliq, botinan qutqu so‘zlar bilan javob berishga majbur bo‘ladi: “Qo‘y bu gaplarni, yarashmas ekan. Ha, aytganday, bu gaplarni Bulduruqdayam aytasanmi? Aytmasang kerag-ov, omon yuribsan-ku...”

Oshno istardiki, o‘z kechmishidagi xato-kamchiliklar odamlarga fazilat qilib yetkazilsa. O‘zi tavba qilmagan gunohlari o‘zgalar uchun ibrat namunasi bo‘lsa.

Yaxshiboyev hayot haqidagi soxta, bo‘lar-bo‘lmas gaplardan ko‘ra, qanchalik achchiq va dag‘al bo‘lmasin, turmushning real haqiqatini ko‘proq biladi, his etadi. U gunohkor zaminda yursa, Oshno bamisoli yettinchi osmonda parvoz qiladi.

Oshno – havoyi odam. O‘rtaqo‘rg‘onga ilk bor kelgan kunlarining birida Oshno Yaxshiboyevga yolvoradi. Eng yaqin kishilari – onasi, singillarining sha‘nini o‘rtaga qo‘yib qasam ichadi. Qasamki, Yaxshiboyevga xiyonat qilmaslik haqida. Demak, u qandaydir Yaxshiboyevni deb inson uchun asrlar davomida or-nomus, g‘urur, sha‘nu sharaf timsoli bo‘lib kelayotgan mehribon ona, munis singillarni ham sotishga tayyor. Uning uchun aziz narsaning o‘zi yo‘q. Onasiyu singillarini o‘rtaga qo‘yib qasam ichgan odam ertaga Yaxshiboyevdan ham voz kechib yubormasligiga kim kafolat bo‘la oladi?

Yaxshiboyev – Oshnoning toleiga oshna, qismatiga sherik odam. Bir so‘z bilan aytganda, Oshnoning soyasi. Modomiki shunday ekan, soyaga qaraylik-da asliyat, asosiy obyekt – Oshno xususida fikr yuritaylik. Shundagina Oshno kimu Yaxshiboyev kim – yanada ayon bo‘ladi.

Oshno bir qarashda sodda, mo‘min-qobil yigit. Istagan odam uni qayirib olishi, domiga tushirishi mumkin. U tez qayriladi, lekin qayrilsagina ko‘kka sapchiydi. Unda mustaqillik, jur‘at kamroq, yo‘q darajada, desak ham bo‘ladi. Shuning uchun unda shubha mo‘l, qo‘rquv zo‘r! U risoladagidek bo‘lish uchun intilishga, mohir ijrochi bo‘lishga moyil. Albatta, buning hech bir yomon jihati yo‘q. Lekin, gap shundaki, uning hayot haqidagi, risoladagidek odobli bola bo‘lish xususidagi fikr va qarashlari o‘ta jon, primitiv.

Moyira voqeasini olaylik. Moyira kim? Ko‘chada yurgan ermaktalab qiz. Oshno shunga uylanmoqchi. Yaxshiboyev qo‘yib bersa, uylanadi ham! Oshno u bilan qilib qo‘ygan “sho‘xligi”ni sovet kishisining axloq kodeksiga to‘g‘ri kelmaydigan ish sifatida baholab, vijdoni qiynalgan bo‘ladi.

Ana shunday sodda-go‘lligi, ma‘naviy mo‘rtligi uchun Oshnoni yutib yuborish ham, hazm qilish ham oson. Yaxshiboyevni yutish qiyin, yutilsa ham oshqozonni buzadi, ichni og‘ritadi. Chunki u – chapaniroq, jur‘atliroq, dag‘alroq, yomonroq. Oshno hammaga birdek yaxshilik qilaveradi, U – o‘ta yaxshi. Lekin bu yaxshilikdan ko‘pincha yomonlar foydalandi. Chunki ozgina g‘ururi, oriyati bo‘lgan yaxshi odam

hamma vaqt ham kimsaning oldiga bosh egib bormaydi. Har kimga ham sig'inmaydi. Negaki, sig'inish – tamadir, tama – kamsitilishdir.

Yaxshiboyev sal yaxshiroq. U hammaga ham yaxshilik qilavermaydi. Yaxshilik qilishdan avval kimsaning avra-astarining ag'darib ko'radi. O'zini sotsayam, tekinga sotmaydi, haqqini naqd qilib, keyin sotadi.

Oshno hammaga birday yaxshilik qilish mumkin, deb o'ylaydi. Bilmaydiki, bir xilda yaxshilik odamlarni asta-sekin g'ururidan ayiradi, yaltoqi qilib qo'yadi. Yaxshilik odamlar ustidan hukm yurgizadigan, ularni kamsitadigan kuchga aylanadi.

Yaxshiboyev esa odamiga qarab yaxshilik qilgisi keladi. Toki yaxshilikning mevasi yomonlik bo'lib chiqmasin.

Yuzaki qaraganda, Oshno Yaxshiboyevni o'g'rilik yo'lidan qaytarib, to'g'ri o'zanga boshqarib qo'ygandek ko'rinadi. Aslida, Oshno tanlagan yo'l ham o'g'rilik edi. Bu yshlda insonning ma'naviyati, erkinligi, sha'ni, millati, vatani o'g'rilar, Jonuzoq karvonning ta'biri bilan aytganda, karvon – ezgulikning yo'li to'silar edi. Lekin bu o'g'rilik qonun bilan mustahkamlangan, jozibali shiorlar, g'oyalarga o'ralgan o'g'rilik edi. Shuning uchun har safar Oshnoning qo'li baland kelaveradi. Chunki u faqat hukmron g'oya nomidan gapiradi.

Yaxshiboyevning esa aksincha – hamisha qo'li past kelaveradi, chunki u real turmush mohiyatidan kelib chiqib ish tutadi. U hayotga real qaraydi. U – realist.

Oshno esa hamma narsaga ideal nuqtai nazaridan baho beradi. U – kommunistik idealga nisbatan realist, turmushga nisbatan esa idealist.

Aslida, Yaxshiboyev va Oshno – ikki olam. Ular hech qachon bir qozonda qaynay olmaydi, qaynaguncha bo'lmasdan bir-birini yeb tugatadi. O'rtada ziddiyat bor. Ziddiyatki, azaliy va abadiy xususiyatga ega.

Bu ikki xarakter bir tanganing ikki tomoni. Yaxshiboyev sabab bo'lsa, Oshno – oqibat, Oshno tasodif bo'lsa, Yaxshiboyev – zarurat. Taqdir taqozosi bilan ularning yo'li kesishi, shunchaki oshno bo'lib qolishdi. Aslidachi? Bosibroq qaraydigan bo'lsak, oshnolikning iplari – erish-avrovi tirqirab uzilib ketadi. Oshnoni bir qutb, Yaxshiboyevni esa butunlay boshqa qutb ohangrabosi tortib ketadi.

Oshno yurtni lolazorga aylantirmoqchi bo'ldi. Bu gap xovliqma inqilobchilarining jahon inqilobini amalga oshirish haqidagi safsatalarini yodga soladi.

Ammo real ish – Bulduruq dashtiga, o‘z qishlog‘iga suv chiqarish haqida gap ketsa, u ming bir bahonani ro‘kach qiladi.

Yaxshiboyev ilojsizlikdan kirib qolgan o‘g‘rilik yo‘li Oshnoni jirkantiradi, Oshno tanlagan, munofqlikdan iborat bo‘lgan hayot tarzi esa Yaxshiboyevni havasini keltiradi. Nega? Yaxshiboyevning o‘g‘riligida, har qalay, to‘g‘rilik emasmi?

Oshnoning artistlik bilan ko‘rsatgan isyoni Yaxshiboyevda mehr-shafqat uyg‘otadi, uni nomaqbul yo‘ldan qaytishga majbur etadi. Yaxshiboyevning chin dildan qilgan jaydari isyoni esa Oshnoning g‘azabini qo‘zg‘aydi. Nega? Yaxshiboyev yo‘lto‘sarlik qilib pul topsa, Oshno Vatani –Bulduruq, ustoz – Hotam Sho‘ro haqida soxta va uydirma gaplarni to‘qib, (“Burgutning parvozi” maqolasi) choy chaqaga ega bo‘ladi. Xullas, Oshnoning “to‘g‘riligi”da g‘irrom bor.

Yaxshiboyev o‘z fikri, g‘oyasini (aslida unda g‘oya yo‘q, g‘oya uning uchun tana ehtiyoji, turmushning oddiy mantig‘idan iborat) yaltiroq shiorlarga o‘rab o‘tirmaydi, borini boricha gapiradi. Shuning uchun ular, har bir narsani hukmron mafkura mezon bilan o‘lchaydigan Oshnoning nazdida, nojo‘ya gaplar bo‘lib tuyuladi. Oshnoning o‘zi esa har bir so‘zini qonun-qoida va mafkuraning o‘tkir ilmoqlariga o‘rgimchak to‘ridek o‘rab-chirmab gapiradi. Toki unga hujumga o‘tish niyatida bo‘lganlar ana shu ko‘rinmas to‘rga o‘ralib yiqilsin.

Asarda ayni shu zayldagi ikki xil odam, ikki jo‘raning latifanamo munosabatlari talqinida hayotning real manzarasi ochila boradi. Shakl qancha sodda bo‘lsa, mazmun shuncha murakkab, shakl qancha go‘zal bo‘lsa, mazmun shuncha shafqatsiz, shakl qancha kinoyali bo‘lsa, mazmun shuncha fojiaiy tus olib boraveradi...

Kulgili lavhalar jiddiy ishora va ramzlarga, darveshnamo monologlar falsafiy payrovga, egri suratlar to‘g‘ri qiyofalarga aylangandek bo‘ladi.

“Yaxshiboyev kim o‘zi, kim bo‘pti u? Oshnoning saltanati tug‘dirgan bir mujmal hodisada buyam! Yoki boshqachami? Formulasi nima uning? Formulasi ne bo‘lmasin, tarkibiga Oshnodan salgina aralashgani aniq. Kimki nufuzli kimsa bor, uning vujudiga Oshno aralashgan, Oshno – havo, Oshno – yer, Oshno – suv, Oshno – non... Oshno – hamma narsa...”

Oshno hammani o‘ziga tortadi. Uning sehri bormi? Yo qudrati zo‘rligi uchunmi? Unday desak, Yaxshiboyev, hali Oshno o‘smir bo‘lgan paytdayoq unga tan bergan edi. Sababi

nima? Sababi shuki, u – zaif, u – ojiz. Lekin, uning kuchi zaifligida, uning zehni ojizligidan. Yaxshiboyevlar ojizlarga tez qayishadi, zaiflarga darrov maftun bo‘lib qoladi. Chunki ko‘nglida yomonlik yo‘q. Sirtidan Oshno – sipo, Yaxshiboyev – dag‘al, Oshno – aql-hushi joyida, Yaxshiboyev tentaknamo bir odam o‘lib ko‘rinadi. Yaxshiboyevcha tashbeh san‘atini qo‘llasak, Oshno – olcha guli, sal shamol tursa, yer bilan yakson bo‘ladi; Yaxshiboyev – ajriq, shamol unga tegmay o‘tadi. Oshno – nozik ko‘zgu, bir tosh bilan chil-chil bo‘ladi; Yaxshiboyev – toshoyna, bolg‘a bilan ursa ham yarmi butun qoladi. Oshno – sharbat, bir tomchi zahar tomsa ichib bo‘lmaydi; Yaxshiboyev – sharbat tagidagi qiyom, zahar tomgan joyini olib tashlab yesa bo‘ladi. Oshno – chinni ko‘za, qo‘lga olgani qo‘rqasiz, o‘zingizga ishonmaysiz; Yaxshiboyev – mis ko‘za, otib o‘ynagingiz keladi.

Aslida, Oshno Yaxshiboyevdan ham mujmalroq narsada. Ayni qishda Darg‘om arig‘ining suvi qurib qolishini bilmaydigan odamdan ne umid? Xotiniga tog‘a bo‘lmish kishining ma‘rakasiga o‘zi borishdan qo‘rqib, jo‘rasini yuboradigan kimsadan nima xayr? Qor yog‘ib tizzaga chiqqan pallada, “dalalarimizda hosil mo‘l”, deb o‘zini ham, o‘zgalarni ham ishontirmoqchi bo‘lgan kishiga nima deysiz? Qo‘porib olinib boshqa joyda “ko‘kartirilgan” dov-daraxtlarga qarab zavqlanadigan odamni qanday davolash mumkin (buning ustiga, uning o‘zi eng zo‘r shifokorlikni da‘vo qilib turgan bo‘lsa)? Faqat tavba, deymiz, xolos. Chunki har birimiz qaysidir ma‘noda Oshno, qaysidir ma‘noda Yaxshiboyev ekanmiz. Har birimizga Oshnodan nimadir. Yaxshiboyevdan nimadir o‘tgan...

Oshno bilan Yaxshiboyev o‘rtasidagi munosabatlar sharhi uyning tomiyu to‘rt devori ekan. Saidqul Mardonning tarixi, ukalari bilan bo‘lgan munosabatlari talqini – uyning suvog‘i.

Oshno – soxta vatanparvar, Moyiradan qolgan axloqsizlik belgisi – chandiqni yuksak axloq – Vatan himoyasida qatnashganlik, fidoyilik nishoni qilib ko‘rsatadi.

Chetdan qaraganda, Oshno Yaxshiboyevga ko‘p yaxshiliklar qilgandek tuyuladi. Deylik, u Yaxshiboyevni uylab qo‘ydi. Kimga? Muhsinaga! Muhsina kim? U har tomondan Oshnoning risolasiga to‘g‘ri keladigan qiz: zamonasiga mos g‘oyaviy jihatdan sog‘lom, odobi joyida, eng asosiysi – Muyassarxon yoqib qo‘ygan sham bo‘ldi. Yaxshiboyev esa unga borib urilgan kapalak edi (Muhsinaning ko‘ylagiga tikilgan

“maskirovka” – gzbalak shunga ishora)... Qanotlari kuydi. Kuyganiki, Oliyani sevib qolib, uchaman deganida bilindi – ucholmadi!

Yaxshiboyev odamdek yashashni istar edi. Mayli, gunoh qilsin, mayli, vijdoniga dog‘ tushsin, lekin tirik odamdek yashasin.

Biroq, Yaxshiboyev gunoh qilsa, kasri Oshnoga urmaydimi, Yaxshiboyevning vijdoniga dog‘ tushsa, bu dog‘ aylanib kelib Oshnoning peshonasiga tommaydimi? “El nima deb o‘ylaydi, o‘rtoq Yaxshiboyev!”

Oshno aslida Yaxshiboyevni uylantirmagan ekan, Muhsinani turmushga bergan ekan. Yaxshiboyev uchun Muhsina emas, Muhsina uchun Yaxshiboyev tanlanibdi. Muhsina – asosiy qism. Chunki u idealga yaqin. Yaxshiboyev esa shunchaki ilova. Muhsina Yaxshiboyevga tegib deyarli hech narsa yo‘qotmadi, yaxshiboyev Muhsinaga uylanib bor-yo‘g‘idan judo bo‘ldi.

Yaxshiboyev sevgan ayoli bilan turmush qurib, baxtli bo‘lishni istaydi, lekin Oshnoning nazdida bu narsa axloqiy buzuvchilikka kiradi. Yaxshiboyev Bulduruq dashtiga suv chiqarib, bog‘ yaratishni niyat qiladi. Oshnoning nazdida bu – mahalliychilik. Yaxshiboyev Qurbonoy va Shoymardonov singari zotlarni fosh etib, havoni tozalash harakatiga tushadi. Oshnoning nazdida bu respublika erishgan g‘alabalarni kamsitish bo‘lib ko‘rinadi. Yaxshiboyev xotini yo‘lga solmoqchi bo‘ladi (hech qursa shu ishni qilish mumkindir, zora ruxsat berilsa), Oshnoning siyosiy “lug‘at”ida bunga ham izoh tayyor: yozuvchi odam xotiniga boy – feodallarcha munosabatda bo‘lsa yaxshimas!

Oshno – kommunistcha risoladagi odam. U rasmiy mafkura va qonun-qoidaning hamma bandlariga to‘liq mos keladi. Uning harakatlaridan siyosiy xato ham, g‘oyaviy kamchilik ham topilmaydi. U – barcha ustun va koshinlari mahorat bilan joy-joyiga qo‘yilgan me‘morchilik koshonasi! Yaxshiboyev esa har qanday risolaga ham sig‘avermaydi. Sig‘dirilsa-da, Oshnodek tek yotmaydi. Qafasdagi sherdek, har zamonda norozi bo‘lib irillab qo‘yadi. Lekin chiqib ketolmaydi, chiqib ketishi uchun tulkiga aylanishi lozim.

Yaxshiboyev umrining so‘ngida tulki ham bo‘lib ko‘rdi.

Oshno hammaga kerak, hammaga asqatishi mumkin. Yaxshiboyev faqat Oshnoga kerak. Yo‘q, u Muhsinaga kerak, Muhsina – Mussarga, Muyaassar esa – Oshnoga!

Yaxshiboyev Oshnoga dahldor, xolos. Oshnoga dahldorligidan u hamma uchun muhtaram zotga aylanadi.

Oshno oddiy hodisalarga ham ideal tus beradi. Uningcha, ijara kulba egasi o'ziga to'q odam bo'lgani uchun ijara haqi olmasligi kerak. Moyira sovet davrida voyaga yetgani uchun sof qiz bo'lishi shart, sotsializmida qurilgan molxonalar olijanob bo'lmog'i va ulardan olijanob mollar yetishib chiqishi lozim...

Hukmron mafkura qoidalari Oshnoning bo'ynidagi sirtmoq edi. Bu sirtmoqning ikkinchi uchidan tutgan odam uni har maqomga solib o'ynatardi. Katta Paxtakor, Shoymardonov va boshqalar xuddi shunday qildi. Sirtmoqni faqat Oshnoning o'zi yulib otishi mumkin edi. Biroq u sirtmoqni gulchambar deb xayol qilardi.

Yaxshiboyev o'zicha, Oshnoni men yaratdim, deb yuradi. Shuni aytib kerilib ham qo'yadi. Aslida-chi? Oshnoning yaratilish nuqtasigacha Yaxshiboyevni kim yetaklab keldi, Oshnoning o'zimasmi? Yaxshiboyev o'g'rilik yo'lidan qaytmaganida, Muharrir tog'a bilan uchrasharmidi? Ularning formulasi mana bunday: Yaxshiboyev – Oshno, Oshno – Yaxshiboyev, Yaxshiboyev – Oshno, Oshno – Yaxshiboyev va hokazo tarzida almashinib kelaveradi. Ularning biri faqat kallasi bilan o'ylaydi, vujudi – o'lik, ikkinchisi esa faqat vujudi bilan his etadi, kallani ishlatmaydi.

Oshno Yaxshiboyevni o'z qarichidagi ideal insonga aylantirmoqchi edi, bo'lmadi. Yaxshiboyev esa Oshnoni zaminga tushirib odam qilishga urindi, kuchi yetmadi. Bendasining aytgani bo'lavermas ekan-da?! Oshno viloyat miqyosida rahbarlikka ko'tarilgach, Bulduruqqa kelib, bolalarga sovg'alar berib ketadi. Sovg'alarki, har bir xonadonga kirib boradi. Bundan kutilgan maqsad nima edi? Bu o'yinchoq tarixidan xabardor bo'lgan bolalar o'z-o'zidan Oshnoga sig'ina boshlashi aniq edi. Ularning kelajagi shu tariqa badnom qilinadi.

Yaxshiboyev esa Bulduruq bolalariga bog' qoldirmoqchi.

Yaxshiboyev qildan qiyiq axtarib o'tiradigan odamga o'xshaydi. Insonki bor, hammasidan biror nuqson topadi. Topganda ham asoslar ishontiradigan qilib topadi. U – donishmand. Har bir gapi nishonga borib tegadi, yurakni o'yib ketadi. Chunki uning falsafasi shunchaki falsafa emas, turmushning achchiq falsafasi. Chig'iriqdan o'tkazilmagan, tarashalanmagan, tishi urib sindirilmagan falsafa.

Durustroq savodi ham bo'lmagan odam qanday qilib donishmand bo'lib qoldi? Donishmandlik Oshnoga yarashardi. Yaxshiboyev esa... Aslida, Yaxshiboyev durustroq o'qimagan, durustroq ishlamagan, risoladagidek yashamagan uchun ham donishmand bo'lib qoldi. O'nnganmagan taqdir dono qilib qo'ydi. U Saidqul Mardonbek xokisor, pokiza odamdan ham illat topadi: "Ana, Saidqul Mardonni Bulduruqqa oborib, itday ishlatib, ancha joyga bog' ektirib, rosa diydiyo qildim-ku? Uyam laqqa tushdi, ishondi. Umuman, ishonchli odam u. O'ligingni ishonib topshirsang ham bo'ladi. Har holda, itlarga tashlab yubormaydi. Xudodan qo'rqada. Yo'q, odatda munaqalar xudosiz bo'ladi, bular ko'proq o'zlaridan qo'rqishadi. Vijdon deb atalmish aziz matohlari bor, o'shani ko'tarib yugurganlari-yugurgan; aravaga qo'shilgan otday qorishadi, peshonadan reza-reza terni artib olishadi, bilishmaydiki, qo'llari – bo'm-bo'sh, hech vaqo yo'q, Iskandar Zulqarnayning qo'lidan bo'sh, yana bo'sh! Iskandar sal aqlliyoq bo'lgan, u bor-yo'g'i o'layotgan paytida qo'llarini bo'shatib olgan, lekin Saidqul Mardonga o'xshagan afandilarning qo'llari tug'ilgan chog'laridan beri bo'm-bo'sh!"

Dunyoda inson harakatlarini tartibga solib turadigan ikkita mezon bor. Bu – manfaatning barqararligiyu o'limning haqligi. Boshqa haqiqatlarning hammasi shularning soyasida qolib ketaveradi. Yaxshiboyevning falsafasi ana shu mezon mantig'idan chiqib kelgan bo'lsa ne ajab? Chunki Yaxshiboyevning o'zi ham shu mezonlar qarshisida ojiz, ularning qarshisida hamma ham ojiz. Ana shu ojizlik sabab o'zining ustidan ham, o'zgalarning ustidan ham kuladi. Kulganiki, donishmandlik bo'lib tuyuladi. O'g'ri qarisa, so'pi bo'ladi, deganlari rost ekan-da!

Yaxshiboyev va Oshnoning ilk qadamlariyoq ixtiyorsiz xarakat natijasi ediki, butun umrlari ham istaklaridan tashqarida kechdi. Ular boshidanoq bir narsani ikki xil tushunishardi, oxirigacha bir-birini to'g'ri anglamadi. Ular azaldan do'st emasdi (shunchaki oshno, "Qalinlik, do'stlik, oshnolik, borinki, harflik deganlari barisi yolg'on aslida. Barisi – sarob, bosibroq tikilganda tarqab ketadi. Lekin tikilib qaraydigan odam yo'q"), abadgacha do'st bo'lolmay ketishdi.

Oshno Yaxshiboyevdan cho'chirdi. O'lsam, mag'zava ag'daradi, degan hadigi bor edi. Shuning uchun Yaxshiboyevnig sirli o'limi unchalik ham sirli bo'lmasa kerak. Oshno jo'nashdan avval orqa-oldini tozalab ketgan bo'lsa ne ajab? Axir, u ozodalikni, batartiblikni jon dilidan sevardi.

Ayni vaqtda Yaxshiboyev ham anoyi emasdi. U ham oʻziga abadiyatni taʼminlab qoʻygan edi. Uning oʻlar haddida qilgan shumliklari shoh Iskandarnikdan kam boʻlmadi. Saidqul Mardonni ishga solib, bogʻ bino qildirdi. Nega endi aynan Saidqul Mardonni? Birinchidan, Yaxshiboyevning oʻzi tan olib aytganidek, Saidqul Mardon toza, halol odam, talanti ham oʻziga yarasha. Yaxshiboyev u bilan hamkorlik qilishi natijasida el-yurt nazarida, kelajak oldida biroz tozargandek, gunohidan forigʻ boʻlgandek taassurot qoldiradi. Ikkinchidan, Saidqul Mardon tama qilishni bilmaydi. Uchinchidan, u hech qachon birovning boshidan magʻzava agʻdargan emas, agʻdarmaydi ham. Demakki, uning tilida Yaxshiboyevning nuqsonlari ham fazilat boʻlib zikr etiladi. Va nihoyat, Yaxshiboyev Saidqul Mardonni hech vaqt mensigan emas. Uni quduq, oʻzini shoh siridan xabardor sartarosh deb bilgan. Hoxlagan payti kelib, quduqqa ichini yorib ketavergan. Bogʻ yaratishda hamkorlikka chaqirishva soʻngi vasiyalarini-da Saidqul Mardonga bildirish bilan u oʻsha quduqning ogʻzini ham bir yoʻla berkitib ketdi.

Bunday qaraganda, Yaxshiboyevdan hartugul bogʻ qoldi. Oshnodan nima qoldi? Yaxshiboyevdan qolgani Oshnodan qolgani emasmi? Biriniki ikkinchisiga tatimaydimi? Yoʻq, mashoyixlar aytmishlarki, har kimki oʻlsa, qabri boʻlak...

Qissanavis hikoyalari, nazarimizda, Saidqul Mardonning oʻzidek mujmalroq. Bu hikoyalar asli, yozuvchining oʻzi taʼkidlaganidek, muallifning nagʻmasi, xolos. U shu tariqa kitobxonni asarning yozilish jarayoni – “kuxniya”si bilan tanishtirmoqchi, “ayb”ning barchasini Saidqul Mardon bechoraning zimmasiga yuklab (Yaxshiboyevniki kammidi), oʻzi “chet”dan tomoshabinlik qilmoqchi boʻladi. Yozuvchi goʻyoki oʻzini ikkiga boʻlib tashlaydi: Yaxshiboyev – biroz jaydari, biroz sodda va tanti Murod Muhammad Doʻst; Saidqul Mardon – noziktaʼb Murod Muhammad Doʻst. Boshqa obrazlarning barchasi ana shu ikki “qahramon” vositasida asarga kirib keladi. Yozuvchi shu tariqa “chet”ga chiqib oladi.

Bu dunyoda faqat yaxshilikning oʻzi bilan hech narsaga erishib boʻlmas ekan. Yaxshilikka biroz quvvat – gohida ayyorlik, gohida aldov, gohida zar, gohida zoʻr – xullas, qulay bir vosita, qurol ham kerak ekan. Shunda, hech qursa Yaxshiboyev kabi, umr soʻngida koʻngildagi eng zil armonlarni aritishning yoʻlini topsa boʻlar ekan. Yoʻqsa, Oshno singari, yuksak martaba egasi boʻlaturib ham, qadrdon qishlogʻiga bir

giyoh o'tkazishningda evini qilolmasdan, quruq va'dalarga mahliyo bo'lib o'tib ketish hech gap emas ekan.

Romandan olgan ibratimiz ana shu.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasi. Toshkent 2018.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubi asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.

18-mavzu. Publitsistik uslub va uning sohada qo'llanishi.

Reja:

1. Publitsistik uslub haqida ma'lumot
2. Publitsistik uslubning sohaga aloqadorligi

Publitsistika (lot. *publika* — xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, [televideniye orqali yetkazish](#), ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan [siyosiy sharhlovchilar](#), notiqalarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy

tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar koʻproq qoʻllaniladi. Masalan, *isyon*, *irqchilik*, *qoʻporuvchilar*, *siyosiy tanglik*, *bitim* va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning oʻzi, masalan, gazeta, radio, televideniya da beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda oʻzida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday boʻlishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli koʻrinishlari sanaladi. U ham boʻlsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir.

1-topshiriq. Maktubni oʻqing, publitsistik uslubga xos boʻlgan oʻrinlarni topib, ularni izohlang. Siz ham biron-bir asar qahramoniga shunday maktub yozishga harakat qilib koʻring.

TURSUNBOYGA AYTAR SOʻZLARIM

(Said Ahmadning «Ufq» romanidagi Tursunboyga maktub)

Qishloqning bir xonadonida «chiroq yoqildi», yaʼni Jannat xola va Ikromjon togʻa oʻgʻil koʻrdilar. Oʻgʻlining ismini Tursunboy deb atashdi. Samimiy odamlar xonadonida yoqilgan chiroq siz edingiz, Tursunboy!

Siz yoshligingizdan ishyoqmas, dangasa, qoʻrqoq boʻlib oʻsdingiz. Qarang, katta yigit boʻlib ham qolibsiz. Afsuslar boʻlsinkim, Jahon urushi boʻlib qoldi. Sizni ham urushga chaqirtirishdi. Ota-onangiz koʻplar qatori yakka-yu yolgʻizini Vatan himoyasiga yubordilar. Ular: «Oʻgʻlimiz [jang qilib](#), xalqimni ozod, yurtimni obod qiladi», deb orzulagan edilar. Ammo, ammo... Ota-ona orzusi osmonga havodek uchib ketdi. Orzulari ogʻzida qoldi. Siz urush qiyinchiliklariga dosh berolmay qochib ketdingiz, soʻngra qishloqning chetida, toʻqayzorlar orasida berkinib yurdingiz. Buni onangizdan boshqa hech kim bilmas edi. Bechora Jannat xola... Har kuni oʻy-xayoli, hayoti toʻqayzorda boʻlib qoldi. Otangizdan berkitib ovqat olib kelar edi. Buni oʻzgalar bilib qolishidan juda-juda qoʻrqar edi.

Sizga maktub bitmoqdaman-u, xayolimga quyidagi misralar kelaveradi. Jannat xola zorlanayotganga oʻxshaydi nazarimda:

Chakka oʻtgan eski tomga oʻxshayman,

Koʻzimdan yomgʻirlar toʻkilar tinmay.

Bu yorug' dunyoda bormi, bilmayman,
O'z o'g'lin yo'liga intizor menday...

(M. Yusuf)

Kunlar o'tdi... [Onangiz xastalana boshladi](#), chunki uni vijdon azobi qiynar edi.
Faqat sizni o'ylar edi.

Kunlardan bir kuni Ona sizga og'riyotganini aytdi, siz bu gapga parvo ham qilmadingiz, qo'lidan ovqatni olib hayvonlarcha ovqat yeyar edingiz. Ha, siz faqat o'zingizni, qorningizni o'ylar edingiz.

Siz to'qayzordasiz... Ana shunday kunlarning birida ko'chadan tobut ko'tarib, yig'i bilan mahalla-ko'yingiz, qarindosh-urug'laringiz, padaringiz Ikromjon ota o'tib borar edi. Yuragingiz sezdi, tobut ichidagi sizning mushfiqqina onangiz Jannat xola edi. Yuragingizni g'am-alam bosdi, chunki shunda Siz: «Endi menga kim ovqat olib keladi», deya alam chekdingiz. O'shanda ham o'zingizni o'yladingiz. Onayizorga ozgina bo'lsa ham achinmadingiz-a?!

Nahotki, onangizni tuproqqa qo'yib kelishga ham yaramagan bo'lsangiz? Yo'q! Sizni odam bolasi, deya olmayman.

Tursunboy! Bir umr vijdon azobida qiynalishingizni xayolingizga keltirdingizmi? Shu payt sizni haqoratlagim keldi. Yo'q! Yo'q! Unday demayman, chunki har bir qilayotgan ishimizning oxiratda javobi bor-ku axir?! Sizni yuraksiz, dilsiz, zabonsiz, bir quriyotgan daraxtga qiyoslayman, xolos.

Matnni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan ko'tarinkilik, ifodalilikka diqqat qiling.

TEMUR BOBOGA MUROJAAT!

Tun yozib yubordi qora zulfini, majnuntol belanchakni tebrab ohista, qurbaqa-yu chigirtkalar boshlaydi alla. Parquv bulutlarga boshini qo'yib, hilol uxlayotir shirin, beozor. Go'zal kanizaklar — hadsiz yulduzlar uning tegrasida qurishar davra. Sokinlik ko'rpasin [yopinib olib](#), mizg'iyotir Zamin tinch va osuda... Faqat mening bezovta qalbim uyqu to'rlariga ilinmaydi hech. Ichki tug'yonlarim bo'g'zimdan toshib. Sizga xat bitmoqqa tutaman qalam. Siyohimning rangi etmasin hayron, siyohdonga dilim qonin ezg'ilab to'kdim.

Dil so'zlaring ne deysizmi? Eshiting bobo!

Siz tiklagan Turonzamin halihanuz turadur, og‘a-ini turkiyingiz bir-birini suyadir. Biri o‘zbek, biri tojik, biri qirg‘iz, turkmandir, bir-biriga xuddi tog‘a, og‘a-ini, singildir.

Bobojonim, axir ayting, orzuingiz shul emasmi, tomirimda oqayotgan Turkiy degan qonmasmi? Siz yaratgan ko‘hna bino, qarang, qanday ko‘rkamdir. Bir-biriga do‘stlasharkan o‘g‘lonlaringiz, Bobo, yurtning, elning kelajagi gullab, yashaydi obod.

Qaytib [keldi elga insof](#), vijdon hamda e‘tiqod, go‘yo qora zulmat ichra balqib chiqdi, nur, oftob. Erklarida mardlik mo‘l-ko‘l, ayolida nazokat, farzandlari bari baxtli, yurtda ko‘pdir halovat. Tinglang, bobo. O‘g‘lonlari yurtim deya uyg‘onsin, qalbmida erk ataluvchi o‘chmas olovlar yonsin, yog‘iylarning ko‘zi chiqib, soqolini silasin, qabrdan ham qo‘llab turgan qo‘ling [yaxshi deyarlar](#), fido bo‘lay, jonim bobo, qo‘llab turing o‘zingiz. Ijobat bo‘lur, bilaman, Sizning har duoyingiz...

...Vaqt oxirlab qolibdi, qalamim ham tolibdi. Otayotgan tong misol yorug‘ bo‘lsin kelajak, pok ruhingiz qo‘llasin, farzandingiz kutajak.

Ommabop (publitsistik) uslub. Tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borishda qo‘llanadigan uslub, ya‘ni matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo‘lish, ta‘sirchanlik, adabiy til me‘yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televideniyeda ishlatiladigan ko‘rinishi *og‘zaki ommabop uslub* deyilsa, gazeta jurnallarda ishlatiladigan ko‘rinishi *yozma ommabop uslub* hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Nutq ta‘sirchan bo‘lishi uchun ta‘sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe‘llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan unumli foydalaniladi: 1. *Azamat paxtakorlarimiz mo‘l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.* 2. *Partiya faollari o‘zlarining navbatdagi majlisiga yig‘ilishdi.*

Til taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publitsistika o‘z navbatida tilning imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi.

Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ‘ibot-tashviqot xarakterda bo‘lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy atamalarning

qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publisistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy atamalarining qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi. Ma'lumki, publisistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniyaeda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, feleton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. Bu o'rinda esa me'yorlashishning umumiy jihatlari xususida so'z yuritish imkoniyati mavjud.

Ritorik so'roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi. Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Hatto umumiste'moldagi so'zlar ham ommabop uslubda yozilgan matnda atamaga aylanishi mumkin: *ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi singari*²

Ijtimoiy-siyosiy atamalar asosan -chi, -parast, -parvar, -xona, -noma qo'shimchalari yordamida yasaladi. Misollar: *terrorchi, qo'poruvchi, aqidaparast, millatparvar, devonxona, bojxona, hissador, tadbirkor* kabi.

Shu o'rinda mazkur uslubda so'z yaslash imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Turli metaforik turg'un birikmalar - *davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar*

² Q u r b o n o v T.I. Hozirgi o'zbek adabiy tilining publisistik uslubi. 116-b

hamdo 'stligi, mustaqillikni mustahkamlash singarilarni faol qo'llash ham ommabop uslub tabiatiga mosdir.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .- Toshkent, 2004.

2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.

19-mavzu. Soha tili leksikasi va adabiy til.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi misolida

Reja:

- 1. Hozirgi o‘zbek tili leksikasining ijtimoiy dialektal tarkibi*
- 2. Ayrim ijtimoiy guruhlar leksikasi*
- 3. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi tahlili*

Hozirgi zamon o‘zbek tili leksikasining lug‘aviy tarkibiga nazar tashlasak, birinchidan, shu tilda so‘zlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lgan umummillat xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni, ikkinchidan, millatning ma‘lum bir ijtimoiy taraqqiyoti natijasida guruhlanishi bilan bog‘liq ayrim so‘zlarni ko‘ramiz. Shunga ko‘ra ularni ikki turga bo‘lish mumkin.

Umumxalq leksikasi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning hammasi uchun tushunarli va keng iste‘mol qilinadigan so‘zlar umumxalq o‘zbek till leksikasi deyiladi. Masalan , ota, ona, uka, osh, non, suv, tog‘, tosh, kun, yil, dehqon, qo‘l, bet, men, sen, ko‘p, oz, keladi, ketdi, ming kabi umumxalq o‘zbek tilining ish ko‘rish, iste‘mol doirasi juda keng va o‘z ichida adabiy tildan tashqari uning barcha mahalliy ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Masalan: yuzlab shevalarni o‘zida birlashtirgan qorlig‘. qipchoq. o‘g‘iz lahjolari umumxalq o‘zbek tilining tarkibiy qismlari sanaladi.

Dialektal leksika Yagona milliy tilda ishlatilmaydigan, ayrim hududdagina qo‘llanadigan so‘z sheva so‘zlari deyiladi va ularning yig‘indisi dialektal leksika deb ataladi Masalan. charcha, tarak(Surxondaryo) \n\ish (Andijon), chagana(Surxondaryo), chapo‘sh (Surxondaryo), kallapo‘sh (Surxondaryo), checha (Qashqadarvo), olvoli (Samarqand), taka (Xorazm), chagana (Surxondaryo) kabi.

Dialektal so‘zlar adabiy til bilan fonetik leksik, grammatik jihatdan o‘xshash va noo‘xshlash xususiyatlarga ega.

1. Adabiy til va shevalarda shaklan bir xil bo'lib ma'noda farq qiladigan so'zlar semantik dialektizm deyiladi. Masalan: shalpar (mato) (g'ayridin), naynov (novcha) va boshqalar.
2. Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevaga xos so'zlar leksik dialektizmlar deb ataladi. Masalan. chunul (chuqur), digil(qo'y), nayi (masxara) hashuva (mazax), jupkarchi (g'iybatchi), ulapa (haq, ulush), dadar (sayoq) .
3. Shevada fonetik jihatdan kuchli fonetik o'zgarishga uchrab, o'z shaklini o'zgartirgan so'zlar. Sunday so'zlar fonetikdialektizmlar deb ataladi. Masalan, appar (olib boh), gay-gayi (gohi- gohi) ganayi(gunohi), navincha (nima buncha) kabi;

Sheva so'zlari badiiy asarlarga, uslubiy vosita sifatida qahramonlar nutqini hamda mahalliy koloritini ifoda etish maqsadida yozuvchilar tomonidan ishlatiladi.

Kasb-hunar leksikasi. Biror kasb-hunarga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar kasb-hunar (professional) leksikasi deyiladi. Kasb-hunarga oid atamalar, so'zlar o'zbek xalqining ijtimoiy taraqqiyot davri turmush tarzi va boshqa holatlar bilan bog'liqdir. Ma'lumki o'zbek xalqi juda qadim zamonlardan dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, kulolchilik, binokorlik, ipakchilik, temirchilik, zargarlik, miskorlik, etikdo'zlik va boshqa kasb hunarlar bilan shug'ullanib kelgan va bu holatlar ularning tilida aks etgan. Masalan, kapsan, tola, yagona, galagab (dehqonchilikka oid), tola, ko'gan, sirg'a, hgana, joyuv (chorvachilikka oid), pangor, sumba, dog'chil, aspak (tunukasozlik, kulolchilikka oid) nalava, to'qima, dub. qilich, adargi, kuding (to'quvchilikka oid) kabilar. Kasb-hunarga taalluqli so'zlarda sheva xususiyatlari bilinib turadi.

Ammo hozirgi XXI asrga qadam qo'ygan bir davrda insoniyatning turmush tarzi butunlay o'zgardi va davr kompyuter asridir. Shuning uchun hozirgi o'zbek tilida yangi zamonaviy industriya, texnika, fan bilan bog'liq so'zlar ko'payib bormoqda.

Atamalar (terminologik) leksikasi. Har bir tilda o'zining ishlatish doirasiga ko'ra cheklangan, asosan, birgina ma'noli so'zlar ham bo'ladi. Fikrni, maqsadni ajratib,

aniqlab berishda maʼnosi aniqlangan, muayyan bir tushunchani bildiradigan fan, texnika, sanʼatning biror sohasiga oid fikrni ifodalovchi lugʼaviy birliklar atama (termin) deyiladi. Ularning yigʼindisi atamalar (terminologik) leksika deb ataladi. Bu haqdagi taʼlimot terminologiya deb yuritiladi.

Atamalarning xususiyati shundaki, ular koʻp maʼnoli boʻlmaydi, koʻchma maʼnolarda ishlatilmaydi. Atama (termin) lar asosan, ilm-fan, texnika, adabiyot sanʼat sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, kosmanavtika, kibernetika, kompyuter, metro, teplovoz, elektro voz (texnikaga oid), matematika, fizika, lingvistika, adabiyotshunoslik, fonetika, morfemika (ilm-fanga oid), teatr, musiqa, dutor, gʻijjak, nay (sanʼatga oid), menejment, biznes, investitsiya, kredit (moliya, savdoga oid).

Atamalarda dialekt va shevalarga xos fonetik, leksik-grammatik belgi boʻlmaydi va ular umummilliy tilga xos boʻladi. shuning uchun bir xilda ishlatiladi, yoziladi.

Kundalik ijtimoiy hayotda, ayniqsa, XXI asrga qadam qoʻygan hozirgi sharoitda fan, texnika, adabiyot, sanʼat va ishlab chiqarish tez surʼatlar bilan rivojlanmoqda, mustaqil Oʻzbekistonning xalqaro diplomatiya aloqalari taraqqiy etmoqda, bu esa tilimizda oʻz ifodasini topadi.

Ayrim ijtimoiy guruhlar leksikasi. Jamiyat aʼzolari orasidagi qiziqishlari, mashgʻulotlari bir xil boʻlgan tor doiradagi toʻdalar nutqiga xos boʻlgan va umumxalq uchun tushunarli boʻlmagan soʻzlar ayrim ijtimoiy guruhlar leksikasi deyiladi. Bular: 1) jargonlar; 2) argonlar.

Jargon-fran - "buzilgan til" degan tushunchadir. Ayrim guruh va toʻdalar (tekinxoʻrlar, bezorilar, firibgarlar, tovlamachilar, otarchilar, ichuvchi, giyohvandlar) nutqida qoʻllanadigan va xalq tushunmaydigan soʻzlar jargonlar deyiladi. Masalan, danap-oʻyinchi ayol, noyvor-jim boʻl, xashpakchi (doirachi), kagon (oʻyinsiz), dori (aroq), oqboʻta (aroq), oqsoqol (aroq), qizili (konyak), qizil(oltin), koʻki(dollar), nichtiyak(hech narsa emas) kabi.

Argo - oʻgʻri, qimorbozlar nutqiga xos boʻlib, omma uchun tushunarli boʻlmaydigan soʻzlardir. Masalan, bedana (toʻponcha), molatbu (bor), xitola (oʻgʻizla), dego (bedana) loy yakan(pul), okrasni(harakat qil) kabilar. Bunday soʻzlardan badiiy adabiyotda qisman foydalaniladi.

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish—uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. Qobil boboning qo'shnisi - burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

— Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!
Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyod sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

— Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar, o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi.

— Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi — go'yo u ko'chaga chiqsa bas — ho'kiz topiladi. Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga

berdi, yana qancha duo qiddi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qil-moqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

— Ha, sigir, yo'qoldimi?

— Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

— Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

— Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

— Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

— Ola ho'kiz...

— Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

— Qo'sh mahali...

— Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

— Bisotimda hech narsa yo'q...

— O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da!

Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

— Qidirtirsakmikin-a?—dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, - suyunchisi nima bo'ladi?

uyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga "Ma, ho'kizing" deganday bo'lib ketdi.

— Kam bo'lmang,— dedi pulni uzatib,— yana xizmatigizdaman.

— Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi. Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir "duoning zo'ri bilan qulf ochadigan" azayimxonga obdastagardon

qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpish tovoq jo‘xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi:

— Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!

Qobil bobo yor-do‘stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma‘lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan. Uchta tovuq, garchi biri kurk bo‘lsa ham, Qobil boboning o‘zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo‘ni-qo‘shni, yor-birodarlar o‘zaro yig‘ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o‘tib bo‘lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto‘xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va‘da qildi. Cholning butun bo‘g‘inlari bo‘shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go‘rda bir narsa deya oladimi! "O‘ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan". "Yaxshilab tushuntirilgan" pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so‘m pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, "beto‘xtov hokimga xabar beraman" demasdan, "aminga bor", deb qo‘ya qoldi. Amin "ellikboshiga borilsin", dedi.

— Gumoningizni ayting bo‘lmasa! — dedi ellikboshi tajang bo‘lib, - kim olganini men bilmasam, avliyo bo‘lmasam! Olgan odam allaqachon so‘yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko‘nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko‘nchilikka tushgan bo‘lsa, allaqachon charm bo‘ldi;

xudo biladi, kavush bo‘lib bozorga chiqdimi...

— Endi bizga juda qiyin bo‘ldi-da. Peshonam sho‘r bo‘lmasa... — dedi chol yerga qarab.

— Ey, yosh bolamisiz! Nega yig‘laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho‘kiz bo‘lsa bir gap bo‘lar, xudo ajalga to‘zim bersin! Men qaynagamga aytayin, sizga bitta ho‘kiz bersin. Bitta ho‘kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi— Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart kuzda ma‘lum bo‘ladi...

2-topshiriq. Quyidagi gaplarni kim aytganligini aniqlang, munosabat bildiring.

1. Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

2. - Endi bizga qiyin bo'ldi-da... Peshonam sho'r bo'lmasa, ...

3. - Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?

4. - Ey, yosh bolamisiz? Nega yig'laysiz? Kap-katta odam...

5. - Ha, ho'kizni uylariga eltib berishsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.

2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.

8-mavzu. Sohada hujjat yuritish asoslari. Soha hujjatlarini tuzish texnologiyasi.

Farmoyish hujjatlari va ularning turlari

Reja:

1. Hujjatlarning tasniflanishi.
2. Hujjat rekvizitlari.
3. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.
4. Ish yuritish hujjatlarning ro'yxatini tuzish. Ularni klaster shaklida tasniflash.

Hujjat – ish yuritishning asosi. O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur.

Hujjatchilik tarixi

O'zining qadimiy va boy tarixiy an'alariga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligi, o'z ish yuritish tarixiga ega. Davlatchilikning boshlang'ich shakllarida, hali yozuv

bo'lmagan paytlarda, ma'lum odat tusiga kirgan og'zaki huquqiy me'yorlar asosida ish olib borilgan. Ular yordamida davlatlararo va mamlakat ichidagi, shaxslararo va oilaviy munosabatlar, jinoyatga qarab jazo belgilash, tartib va intizom masalalari yo'lga qo'yilgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrlar mahsuli hisoblanadigan qonun, farmon va farmoyishlar hamda boshqa mazmundagi hujjatlarning amaldagi ko'rinishlari ham aynan ana shu hujjatlarning davomidir. O'zbek davlatchiligining ma'lum bir bosqichi arablar istilosi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan musulmon huquqi bilan bog'liq bo'lib, u Qur'oni Karim va hadislar shaklidagi urf-odatlarini izga soluvchi hujjatlar majmuini qamrab oladi. Ular uzoq yillar davomida jamiyatni boshqarish va tartibga solishning asosiy ma'naviy-huquqiy hujjatlari bo'lib kelgan. Huquq doirasida amal qiluvchi asosiy hujjatlardan biri – yer egaligi bilan bog'liq bo'lgan *vaqfnomalar* sanaladi. *Vasiqa* ham qadimda keng tarqalgan hujjat turlaridan biri bo'lib, mulkka bo'lgan egalikni bildirib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosga qo'yuvchi hujjat sanalgan va qozilar tomonidan tasdiqlangan. Amir Temur davrida ham soliqqa oid ish yuritish ana shu ko'rsatmalarga asoslangan.

O'rta asrlarda ish yuritish huquqiy maqomga ega bo'ldi, davlat mahkamasida munshaot tizimi shakllandi va qator hujjat turlari paydo bo'ldi. O'zbek tilining rasmiy-idoraviy til sifatida qo'llanishi qoraxoniylar hukmronligi davrida boshlandi. XX asrdan so'ng o'zbek xonlari va amirlari saroylarida yozilgan turli xil hujjatlar o'ziga [xos mazmuni](#), muayyan tartibi va nutqiy qolipi bilan ajralib turdi.

Hujjatlarning tasniflanishi. Hujjat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi. Tasnifnomada mutlaqo bir xil guruhlantirish mavjud bo'lmasa-da, har qalay ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlantirish mumkin. Hujjatshunoslikdagi ana shu an'anaga ko'ra ish yuritishdagi hujjatlar quyidagicha tasniflanadi:

1. Tuzilish o'rniga ko'ra ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi:

Ichki hujjat – muassasa yoki korxonani o'zida tuziladigan va shu korxona ichida foydalaniladigan hujjatlardir. Bularga xodimning shaxsiy varaqasi, majlis bayonnomasi, ichki buyruq va boshqalar kiradi.

Tashqi hujjat – korxonaga, boshqa tashkilot va ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir. Bularga taklifnoma, ishonchnoma, yo‘riqnoma, kafolat xati, tavsiyanoma va boshqalar kiradi.

2. Mazmuniga ko‘ra sodda va murakkab hujjatlar farqlanadi:

Sodda hujjat – bir masalani o‘z ichiga oladigan hujjatdir. Bularga ariza, e‘lon, tilxat, kafolat xati va boshqalar kiradi.

Murakkab hujjat – bir necha masalani o‘z ichiga olgan hujjatdir. Bularga shartnomalar ma‘lumotnoma, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

3. Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy, namunaviy, qolipli hujjatlar farqlanadi.

Xususiy hujjatlar – tashkilotlarda matnning o‘ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo‘ladigan hujjatlardir. Bularga *xizmat, so‘rov, iltimos, javob, kafolat, axborot xatlari* va boshqalar kiradi.

Namunaviy hujjatlar – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog‘liq, bir-biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga *tavsiyanoma, ariza, e‘lon, taklifnoma* va boshqalar kiradi.


Qolipli hujjatlar – odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladigan hujjatlardir. Butur hujjatlarga nisbatan ko‘pincha «yozmoq» emas, balki «to‘ldirmoq» so‘zi ishlatiladi. Bularga *ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma‘lumotnomalar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari* va boshqalar kiradi.

4. Tegishlilik jihatiga ko‘ra xizmat (rasmiy) va shaxsiy hujjatlar farqlanadi:

Xizmat (rasmiy) hujjatlari – tayyorlanishiga ko‘ra tashkilot yoki mansabdor shaxslarga tegishli hujjatlardir. Bularga *ishga qabul qilish buyruqlari* va boshqalar kiradi.

Shaxsiy hujjat – yakka shaxs tomonidan yoziladigan, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladigan hujjatlardir. Bularga *shaxsiy ariza, shikoyat* va boshqalar kiradi.

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya katta. Bu jihatiga ko‘ra hujjatlar quyidagicha tavsiflanadi:



Asl nusxa – asli birinchi rasmiy nusxasidir.

Nusxa – asl nusxaning aynan qayta ko‘chirilgan shakli, uning o‘ng tomonidagi yuqori burchagiga «Nusxa» degan belgi qo‘yiladi.

Ikkinchi nusxa – asl nusxa yo‘qolgan hollarda hujjatning ikkinchi nusxasi (dublikati) beriladi va u asl nusxa bilan teng huquqlidir.

Ko‘chirma nusxa – ba‘zan muayyan hujjatga emas, uning bir qismiga ehtiyoj tug‘iladi, bunda ko‘chirma olinadi. Nusxa va ko‘chirmalar notarius, kadrlar bo‘limi va shu kabilar tomonidan tasdiqlangach huquqiy kuchga ega bo‘ladi.

Erkin nusxa – hujjatda axborot to‘la ifodalansa-da, u asliga muvofiq kelmaydi. Erkin nusxada muhr o‘rniga “muhr” deb, imzo o‘rniga “imzo” deb, gerb o‘rniga «gerb» deb yozib qo‘yiladi.

Aksar hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi, bu hujjat tayyorlovchining qo‘lyozma yoki mashinalangan dastlabki nusxasidir. Bu nusxa tuzatilib, qayta ko‘chirilishi mumkin. Qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas.

Hujjat qat‘iy belgilangan rekvizitlar tarkibiga ega bo‘lishi, ularning joylashish va rasmiylashtirish tartiblari 6,38-90 GOST ga muvofiq kelishi kerak. Hujjatlarni tayyorlash borasida bugungi kunda shakllangan umumiy qoidalarga ko‘ra, boshqaruv hujjatlari zaruriy qismlar (rekvizitlar)ning belgilangan majmuiga va ularning barqarorlashgan joylashish tartibiga ega. Tashkiliy-farmoyish hujjatlari zaruriy qismlarining to‘liq, ro‘yxati quyidagicha:

1. O‘zbekiston Respublikasining gerbi.

2. Tashkilot yoki korxonaning ramziy belgisi (emblemasi).
3. Mukofot tasviri.
4. Vazirlik yoki yukori idoraning nomi.
5. Muassasa, tashkilot yoki korxonaning nomi.
6. Tarkibiy tarmoqning nomi.
7. Aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), tashkilot yoki korxona manzili, telefon raqami, faks raqami, bankdagi hisob-kitob raqami.
8. Matn sarlavhasi.
9. Sana.
10. Shartli raqam.
11. Keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola.
12. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
13. Hujjatni oluvchi (adresat).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (rezolyutsiya).
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.
18. Matn.
19. Ilova mavjudligi haqidagi qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (viza).
23. Muhr.
24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.
25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.
26. Hujjatning bajarilganligi va uni hujjatlar yigʻmajildiga yoʻnaltirilganligi haqidagi qayd.
27. Axborot mashinaga koʻchirilganligi haqidagi qayd.
28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Albatta, hujjatning har bir turi mazkur zaruriy qismlarning barchasini oʻz ichiga olmaydi. Hujjatning muayyan turiga muvofiq ravishda bu qismlarning ayrim bir

turkumi huquqiy talablarni ta'minlash darajasida qo'llanadi. Shu narsa ham muhimki, ayni qismlarning hujjatda joylashishida qat'iy tartib mavjud, ular joylashishidagi qat'iy ketma-ketlik hujjatning huquqiy kuchini ta'minlash, hujjatni zudlik bilan ishlash, bajarish, undan osonlik bilan foydalanish uchun muhimdir.

Mazkur 29 ta zaruriy qismning o'ntasi nisbatan ko'p qo'llanadi, shuning uchun ular asosiy zaruriy qismlar deb ham yuritiladi: hujjat muallifi (muassasa nomi yoki shaxsiy hujjatda imzo quyuvchi shaxs), hujjat turining nomi, sarlavha, hujjatni oluvchi (adresat), kelishuv va rozilik belgilari, matn, tasdiqlash, imzo, muhr, ilova mavjudligi haqidagi qayd.

Farmoyish hujjatlari asosan tashkilot rahbarining buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari asosida yuzaga keladi. Farmoyish hujjatlarida vazirlik, idora, tashkilot faoliyatiga oid ma'muriy va tashkiliy masalalarning yechilishi belgilab beriladi. Bunday hujjatlar tashkilot faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi, boshqaruv organiga uning oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradi.

Farmoyish hujjatlari boshqaruv tizimi bo'yicha yuqoridan quyiga: boshqaruvchi organdan [boshqariladigan organga](#), tashkilot rahbaridan tarkibiy tuzilmalar va xodimlarga yo'llanadigan qarorlarni o'z ichiga oladi. Buyruq – muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llanadigan hujjat bo'lib, muassasa rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi muavin tomonidan imzolanadi. Buyruqlarning ikki turi mavjud: asosiy faoliyatga oid va shaxsiy tarkibga oid buyruqlar. *Asosiy faoliyatga oid buyruqlar* ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llanadi. Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmaviy hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, ularning ijrosi yuzasidan aniq tadbir-choralar belgilanadi, mas'ul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi.

Buyruqning asosiy matni asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi [qismda buyruqdan maqsad](#), shart-sharoitlar, sabablar ko'rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi (nomi, raqami, sanasi yoziladi). *Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar* biror xodim ishga qabul qilinganda yoki bo'shatilganda, boshqa bo'limga o'tkazilganda, shuningdek muayyan xodimga nisbatan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo'llanganda, xodimga

mehnat ta'ili berilganda va shu kabi hollarda beriladi. Bunday buyruqlarga tarkibiy tuzilma rahbarining taqdimnomasi, shaxsiy ariza hamda bildirgilar, xizmat tekshiruv xulosalari va shu kabilar asos bo'ladi.

& Yodingizda tuting!

Farmoyish – boshliq, uning o'rinbosarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat. Odatda, farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib, biror-bir bo'lim, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. [Farmoyish matni](#), xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi, faqat uning asos qismida “BUYURAMAN” so'zi o'rniga “TALAB QILAMAN”, “TAVSIYA QILAMAN”, “RUXSAT BERAMAN” kabi iboralar ishlatiladi. Ko'rsatma – idoralarda axborot-metodik tusdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat. Ko'rsatmalarga birinchi rahbar, ularning o'rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko'rsatma muassasaning xos ish qog'oziga bosiladi. [U ham buyruq kabi odatda](#), sarlavha bilan yoziladi, asos (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi.

Ma'lumot-axborot hujjatlari muayyan qarorlarni qabul qilishga undaydigan ma'lumotlarni yetkazadi. Ma'lumot-axborot hujjatlari idoraviy hujjatlarning katta guruhini tashkil qiladi. Ularning xususiyati shundaki, hujjatlar boshqaruv tizimida quyidan yuqoriga: xodimdan bo'lim rahbariga, bo'lim [rahbaridan muassasa rahbariga](#), quyi tashkilotdan yuqori tashkilotga qarab harakatlanadi. Ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnoma, bildirgi, dalolatnoma, e'lon, faksogramma, hisobot, [ishonchnoma](#), ma'lumotnoma, taklifnoma, tarjimai hol, tavsifnoma, tavsiyanoma, tushuntirish xati va boshqalar kiradi.

Tarjimai hol– ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilingan hujjat. Tarjimai hol bir xil andozada yozilishi shart emas. [U muallif tomonidan mustaqil](#), erkin (ixtiyoriy) shaklda tuzilsa-da, biroq unda ayrim rekvizitlarning bo'lishi shart. Hujjat matni “men” so'zi bilan boshlanadi. Tarjimai holda o'tgan va hozirgi zamon fe'llari ishlatiladi. Unda dastlab *Tarjimai hol* deb

yoʻziladi, keyin muallifning ismi, familiyasi va otasining ismi toʻliq koʻrsatiladi, tugʻilgan yili, kuni, oyi va joyi ham aniq yoʻziladi. Ota-onalar haqida qisqacha maʼlumot beriladi. Shundan soʻng qayerlarda, nima ishlar qilinganligi toʻgʻrisida [batafsil](#), yilma-yil yoʻziladi, oilaviy ahvoli va turar joyi haqida maʼlumot beriladi. Oxirida yoʻzilgan sana koʻrsatilib, imzo chekiladi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Ichki va tashqi hujjatlarning farqi nimada?
2. Sodda va murakkab hujjatlar qanday farqlanadi?
3. Xususiy hujjatlar haqida nima bilasiz?
4. Namunaviy hujjatlar qanday boʻladi?
5. Qolipli hujjatlar haqida fikringiz qanday?
6. Qoralama, asl nusxa, ikkinchi nusxa (dublikat) va koʻchirma hujjatlarning farqi nimada?

Adabiyotlar roʻyxati:

1. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh. Yusupova. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”.T.- 2002.
2. H.Uzoqov, Oʻ.Mirzakarimova, R.Saidova.”Oʻzbek tili amaliyoti”. T.- 1993.
3. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”.T.-2003.
4. Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi I.M.Moʻminov nomidagi falsafa va huquq instituti. “Mustaqillik izohli ilmiy- ommabop lugʻati”. T.-1998.
5. Samadov Q. Oʻzbek tili uslubiyati. T., 2014.

21-mavzu. Shaxsiy hujjatlar. Tavsifnoma, taqriz, ariza.

Reja:

1. Ish hujjatlarini tayyorlash va ularga qoʻyiladigan talablar.
2. Ish hujjatlarini yuritish tili va uslubi
3. Hujjatlardan namunalar

Ish hujjatlarini tayyorlash va ularga qoʻyiladigan talablar.

Nutq [madaniyati](#) [madaniyatli](#), maʼlumotli, ziyoli insonning muhim fazilati hisoblanadi. Bunday inson tafakkur qila bilishi va oʻz tafakkurini toʻgʻri, aniq, chiroyli

ifodalay bilishi kerak. Buning uchun esa fikr aniq, izchil, asosli bo‘lib, tilning grammatik, so‘z va orfografik me‘yorlariga rioya etilishi muhimdir.

Ma‘lumki, har bir kishi mustaqil ishlab chiqarish faoliyatini boshlar ekan, turli-tuman hujjatlar yozishga to‘g‘ri keladi. Ish hujjatlarini yoza bilish – olingan bilimlarni amaliy hayotga bevosita qo‘llash demakdir. Ish hujjatlarisiz birorta muassasa va tashkilot faoliyat ko‘rsata olmaydi. Ish qog‘ozlari kishilarning uzoq ish va mehnat munosabatlari jarayonida tarkib topgan muayyan shakl va izchillikda tuzilgan yoki yozilgan hujjatlardir.

Hujjatlar xizmat va shaxsiy hujjatlarga bo‘linadi.

Xizmat hujjatlari muassasa, tashkilot, korxona yoki ularning vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslari nomidan bo‘ladi. Bayonnoma, tavsifnoma, dalolatnoma shular jumlasidandir.

Alohida fuqarolar nomidan yozilgan hujjatlar – [tarjimayi hol](#), ariza, ishonchnoma va shu kabi shaxsiy hujjatlardir.

Hujjatlar tarixiy manba, dalillash yoki guvohlik vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ma‘lumki, hujjatlar xilma-xil va miqdoran juda ko‘p. Hujjatlarning maqsadi, yo‘nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga qo‘yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar oldiga qo‘yiladigan ko‘pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o‘ziga xos lisoniy xususiyat va sifatlar bilan belgilanadi. Bu xususiyat va sifatlarni har taraflama va chuqur tasavvur qilmasdan turib, mukammal hujjatchilikni yaratish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun bu o‘rinda hujjatlar tasnifi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hujjatshunoslikdagi ana shu an‘anaga ko‘ra ish yuritishdagi hujjatlar eng avvalo yaratilish o‘rniga ko‘ra tasnif qilinadi, bu jihatdan ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi. Ichki hujjatlar ayni muassasaning o‘zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlardir, muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa tashqi hujjatlardir.

Hujjatlar mazmuniga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

sodda [hujjatlar](#) – muayyan bir masalani o‘z ichiga oladi;
murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga oladi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy (individual), namunali (tipovoy) va qolipli (trafaretli) hujjatlar farqlanadi. Matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo'lmasligi xususiy hujjatlarning asosiy belgilaridir (masalan, xizmat yozishmalari va shu kabilar). Bunday hujjatlarda ham muayyan doimiy tarkib mavjud bo'lsada, bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo'ladi. Namunali hujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladi. Qolipli hujjatlar, odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya'ni o'zgarmas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o'zgaruvchi (hujjatni tuzish paytida mashinkada yoki qo'lda yoziladigan) axborotlar; shuning uchun bu tur hujjatlarga nisbatan ko'pincha «yozmoq» emas, balki «to'ldirmoq» so'zi ishlatiladi. Shu o'rinda [aytish kerakki](#), hujjatlarning qolipli turlarini kengaytirish ish yuritishni takomillashtirishdagi istiqbolli yo'llardan biridir. Chunki bunday qilish hujjat matnlarini bir xillikka olib kelish va hujjat tayyorlash uchun ketadigan vaqt hamda mehnatni anchagina tejash imkoniyatini beradi. Qolipli hujjatlar sirasiga, masalan, ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safarlari guvohnomalari va boshqa ko'plab hujjatlarni kiritish mumkin.

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhim. Bu jihatiga ko'ra hujjatlar quyidagicha tasniflanadi: qoralama; asl nusxa; nusxa; ikkinchi nusxa (dublikat); ko'chirma.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonining borishida jamoa [ishtirokining qayd qilinishi](#), boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Nizomlar, yo'riqnomalar, majlis bayonlari, shartnomalar ana shunday tashkiliy hujjatlar sirasiga kiradi. Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabilar kiradi.

Ish hujjatlarini yuritish tili va uslubi. O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur.

Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog'i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so'z va so'z shakllarini qo'llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinkitantanavor yoki bachkana so'zlar, dag'al so'zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so'zlar, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi.

Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxolisligiga olib keladi.

Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so'zlar ko'p qo'llanadi. Hatto fe'l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so'z [shakllari tanlanadi](#), ya'ni «harakat nomi» deb ataluvchi so'z shakllari faol ishlatiladi: «...tayyorgarlikning borishi haqida», «...qarorning bajarilishi to'g'risida», «...yordam berish maqsadida», «...qabul qilishingizni so'rayman» kabi.

Fe'l shakllarining qo'llanilishida ham birmuncha o'ziga xosliklar mavjud. Xususan, majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o'tgan (yoki hozirgi-kelasi) zamondagi fe'l shakllarining qo'llanish darajasi anchayin yuqori: topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo'shatilsin, tayinlansin, eshitildi, qaror qilindi, ko'rib chiqildi, ko'rsatib o'tildi kabi.

Hujjatlardagi [gap qurilishi](#), odatda, tasniflash, mayda qismlarga ajratishga, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga, umuman, sabab-oqibat va shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan uzun jumlar, murakkablashgan, uyushiq bo'lakli gaplar ko'p qo'llanadi. Lekin gap tarkibida odatdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi, badiiy va boshqa asarlarda mumkin bo'lgan g'ayriodatiy so'z tartibiga yo'l qo'yilmaydi. Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda ularda so'roq va undov gaplar deyarli qo'llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi xabar berish (informativ)

va buyurish (volyuntativ) vazifalari amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, majlis bayonida esa ham axborot («eshitildi...»), ham buyurish («Qaror qilindi...») o'z ifodasini topadi.

Hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Yakka rahbar nomidan yoziladigan farmoyish hujjatlari (buyruq, farmoyish, ko'rsatma kabilar) birinchi shaxs tilidan bo'ladi. Shuningdek, ayrim shaxs tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati kabi) ham birinchi shaxs, birlik sonda shakllantiriladi. Boshqa hujjatlar esa yo birinchi shaxs ko'plik sonda, yoki uchinchi shaxs birlik sonda rasmiylashtiriladi: «...ga ruxsat berishingizni so'raymiz», «...deb hisoblaymiz»; «ma'muriyat talab qiladi», «boshqarma so'raydi» kabi.

Hujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalanish lozim. Chunki qoliplashgan, yagona doimiy shaklga ega bo'lgan so'z tizimlari, iboralar, muhandislik psixologiyasining ma'lumotlariga ko'ra, boshqa so'z birikmalariga qaraganda 8–10 marta tez idrok qilinar ekan. Buning ustiga qoliplashgan so'z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi. Tayinki, har bir hujjat turining mohiyati va maqsadi bilan bog'liq ravishda o'ziga xos qoliplashgan sintaktik tuzilmalar shakllana boradi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin:

«... ..so'm maosh bilan ...lavozimiga tayinlansin»;

«...o'z xohishiga ko'ra ...lavozimidan bo'shatilsin»;

«...boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ...lavozimidan bo'shatilsin»;

«...ga ...dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin»;

«...ga o'z bo'limida intizomni bo'shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e'lon qilinsin» va h.k.

Yoki xizmat yozishmalarida mana bunday qoliplashgan so'zlardan foydalanish mumkin:

«Sizga ...ni ma'lum qilamiz»;

«Sizga ...ni bildiramiz»;

«Sizga ...ni eslatamiz»;

«... yordam tariqasida...»

«... munosabati bilan...»

«...qaroriga muvofiq ravishda...»

...ga korxona ma'muriyati qarshi emas»;«...ga korxona kafolat beradi» va h.k.

Hujjatdagi fikrni aniq, lo'nda bayon qilishda xat boshi (abzats) ning hamiyati ham katta. [Har bir yangi](#), alohida fikr xat boshi bilan ajratilishi, bir xat boshidan ikkinchi xat boshigacha bo'lgan matn 4–5 jumladan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Hujjatchilikda imlo va tinish belgilari masalasiga alohida e'tibor qilish kerak. Savodli yozilgan hujjatgina o'z vazifasini mukammal bajarishi mumkin. Hujjatning nomini yozishda bizda har xillik mavjud, xususan, ba'zan kichik harf bilan, ba'zan bosh harf bilan yoziladi. Hujjatning nomi bo'lganligi uchun uni bosh harf bilan yozgan ma'qul, shuningdek, bosma matnda boshqa usul bilan, masalan, mazkur nomni to'lig'icha bosh harflar bilan yozish orqali ham ajratib ko'rsatish mumkin.

TARJIMAYI HOL

Men, Salimov Karim Olimovich, 1985-yil 15-sentabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug'ildim. Otam – Salimov Olim Oripovich Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, onam – Rahimova Gulnora Azimovna 122-bolalar bog'chasida bosh tarbiyachi bo'lib ishlaydilar.

1992-yildan 2000-yilgacha Toshkent shahridagi 1-o'rta maktabda so'ngra Toshkent politexnika kollejida o'qidim. 2003-yilda Toshkent Politexnika institutining qurilish fakultetiga o'qishga kirdim. 2003–2004-yillarda O'zbekiston Res publikasi qurolli kuchlari safida haqiqiy xizmatni o'tab qaytgach, o'qishni davom ettirdim va 2008-yilda shu institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, quruvchi-muhandis mutaxassisligiga ega bo'ldim. Institutni tugatgach yo'llanma bilan Toshkentdagi 166-qurilish trestining 94-mexanizatsiyalashgan ko'chma korxonasiga ishga yuborildim. Dastlab muhandis lavozi mida, 2010-yildan buyon bosh muhandis lavozimida

ishlayapman.

2011-yilda rejadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganimiz va erishilgan natijalar uchun O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandim.

Bir necha jamoat ishlarida ham qatnashaman, jumladan, 166qurilish tresti hamda shahar xalq nazorati komitetining a'zosiman.

Uylanganman. Xotinim – Rasulova Muhabbat, 1988-yilda tug'ilgan. 2-shahar kasalxonasida hamshira bo'lib ishlaydi. O'g'lim – [Salimov Nodir](#), 2009-yilda, qizim – Salimova Lola, 2011-yilda tug'ilgan, ular 520-bolalar bog'chasiga qatnaydi. Mening turar joyim: 700210, Toshkent, Usmon Nosir ko'chasi.

5-uy, 27-xonadon. tel.: 72-28-61.

2013.14. 01. K. Salimov

Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologiya) asosida beriladi. Tarjimayi hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, ishchanlik mahorati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida tasavvurga ega bo'lsin.

TILXAT

Ma'lum bir shaxsdan yoki muassasadan pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

Tilxat birgina nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

Hujjatning nomi (Tilxat).

Matn:

tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi; pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi); d) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ular-

ning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi); f) olinayotgan buyumning texnikaviy holati (agar u mashina, apparatlar va h.k. bo'lsa).

Tilxat berilgan sana.

Tilxat muallifining imzosi. Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi *shart.*

Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda bunday hujjatning haqiqiyligi shubha ostiga olinishi mumkin.

TILXAT

Men, Toshkent davlat madaniyat institutining xo'jalik ishlari bo'limining mudiri Bahodir Olimov Toshkent musiqa asboblari kor xonasining tayyor buyumlar ombori mudiri Erkin Karimovdan institut buyurtmasi [asosida tayyorlangan](#), umumiy bahosi 1800 (bir ming sakkiz yuz) so'm bo'lgan 100 (yuz) dona rubobni qabul qilib oldim.

2010.12.08. (imzo) B. N. Olimov

Ba'zan tilxatda guvohlar ham ko'rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o'z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

A R I Z A

Ariza muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat sanaladi. Ariza amaliyotda eng ko'p qo'llanadigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'quvchisi va talaba, menejer va agronom yoki fermer, muhandis va olim, tadbirkor va mansabdor shaxs – jamiyatning barcha a'zosi ariza yozishdan xoli emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va lavozimi, ariza yo'llanayotgan muassasalar va idoralar g'oyat xilma-xildir. Arizalar bog'cha mudirasiga, maktab direktoriga, oliy o'quv yurti rektoriga, jamoa xo'jaligi boshqaruviga, tuman rahbariyatiga – xullas, oddiy arizachining taklif, iltimos yoki

shikoyatini ko‘rib chiqib hal qila oladigan har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin.

Hajmi, uslubi va turidan qat‘iy nazar, ariza o‘zining umumiy zaruriy qismlariga ega.

Arizaning zaruriy qismlari barcha arizalarda ham birday takrorlanavermaydi. Masalan, xodim o‘zi ishlayotgan korxona yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda, uning yashash joyi haqidagi ma‘lumot zarur bo‘lmaydi. Bunday hollarda xodim o‘zi ishlaydigan bo‘lim va lavozimini ko‘rsatsa, kifoya. Shuningdek, ko‘pchilik arizalar uchun ilovalarning ham hojati bo‘lmaydi.

Bundan qat‘iy nazar har qanday arizada quyidagi zaruriy qismlar ifodalanishi lozim:

- ariza yo‘llanadigan muassasa nomi yoki rahbarning vazifasi, unvoni, ismi, ota ismi va familiyasi;
- ariza yozuvchining turar joyi yoki vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi;
- hujjat nomi (**Ariza**);
- ariza matni (**iltimos, taklif yoki shikoyat**);
- zarur bo‘lgan holatda ilova qilinadigan hujjatlar nomi;
- qog‘ozning chap tomonida ariza yozilgan vaqt (**yil, kun va oy**);
- qog‘ozning o‘ng tomonida ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi.

Arizaning yozilish shakli

Ariza yozuvchining turar joyi,
lavozimi, to'liq nomi

Ariza matni (mazmuni)

Ilova

Sana (yil, kun, oy)

Imzo

I.O. va familiyasi

ARIZA

Men «Umid» jamg'arma... tanlovida ... natijalarga erish... imtiyozli o'rinni qo'lga kirit... . Shuning ... «Umid» jamg'armasi men... Amerika Qo'shma ... ga o'qish uchun yo'llanma berishga ... qildi.

O'qishimni Amerik... Shtatlari... Kaliforniya universiteti... tarix fakultetida ... ettirish uchun ruxsat ... ni so'ray... .

2009-yil 28-oktabr (imzo) S. Qosimov

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Imamova T., Tuxvato'llina L. Ish qog'ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 1992.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.
4. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) .- Toshkent, 2006.

22-mavzu.Ma'lumot-axborot hujjatlari: tilxat, e'lon, hisobot.

Reja:

1.Ariza, bayonnoma hujjatlari va ularning tuzilishi.

2.Ishonchnoma, tavsifnoma va tavsiyanoma va ularning shakllari.

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

I S H O N C H N O M A

Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat **ishonchnoma** hisoblanadi. Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomondan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi.

R a s m i y (x i z m a t s o h a s i d a g i) i s h o n c h n o m a l a r davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak.

Rasmiy ishonchnomalarda ularning amal qilish (o'z kuchini saqlash) muddati, albatta, ko'rsatilgan bo'ladi. Ular bir necha kundan bir necha yilgacha bo'lgan (lekin uch yildan ortiq bo'lmagan) muddat uchun berilishi mumkin. Agar ishonchnomada uning amal qilish muddati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday hollarda u berilgan kundan boshlab bir yil davomida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Ishonchnomalarning ikkinchi xili s h a x s i y, ya'ni ayrim shaxs tomonidan boshqa bir shaxsga muayyan ishni bajarish uchun ishonch bildirib berilgan yozma hujjatdir. Muayyan tashkilotdan pul yoki qimmatbaho buyum, zaruriy hujjatlar olish,

avtomobilni boshqarish, oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirish, mulkni boshqarish va boshqa xususiy ishlarni bajarish uchun ishonch bildiriladi.

Shaxsiy ishonchnomalar ayrim shaxslar tomonidan o'ziga tegishli pul yoki qimmatbaho narsalarni borib olish uchun ishongan kishisiga ishonch bildirib yozgan hujjatidir. Bunday ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (ishlamagan taqdirda mahalla qo'mitasi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

T I L X A T

Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat **tilxat** deyiladi.

Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyliги shubha ostiga olinishi mumkin.

Ba'zan tilxatda guvohlar ismi-sharifi ham ko'rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o'z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

T A V S I F N O M A

Ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat **tavsifnoma** deyiladi.

Tavsifnoma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlashtirish va boshqa hollarda) beriladi.

Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatleri ham ko'rsatib o'tiladi.

Tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, hulq-atvori, hatto ba'zida siyrati, jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo'lganligi va boshqa asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo'lish uchun kamchiligi ham ko'rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi.

Tavsifiy matnlarda shaxs, narsa, voqea-hodisaning muhim belgilari aniq ma'lumotlar, sifatlovchi ifodalar orqali bayon qilinadi. Tavsiflashda shaxs yoki narsa-voqeani xolisona baholash bilan birga unga munosabat bildirish ham muhim hisoblanadi. Bunday matnlar tilida xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar, belgining ortiqlik darajasini ifodalovchi leksik-grammatik vositalar, yasama sifatlar faol ishlatiladi. Shuningdek, shaxs harakat-holatining belgisini ifodalovchi ravishlardan o'rinli foydalanish talab qilinadi.

Tavsifnomada tavsiflanayotgan shaxs haqidagi malumotlar bir-biridan vergul bilan ajratib yoziladi. Masalan: ...ning 2- bosqich talabasi, 1988-yilda tug'ilgan, o'zbek... kabi.

Tavsifnoma namunasi

O'z MU fizika fakultetining
4-kurs talabasi, 1979-yilda
tug'ilgan, o'zbek
Nazar Shukurovga

Tavsifnoma

Nazar Shukurov o'rta maktabni tugatgach, 1995-yilda fizika fakultetining 1-kursiga o'qishga kirdi.

Universitetda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi. Fizika fanlariga alohida qiziqadi. U 1998-yilning aprel oyida talabalarninig Xalqaro ilmiy konfrensiyasida ma'ruza bilan qatnashdi.

Ma'ruzasi konfrensiyasining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

N. Shukurov fakultetining jamoat ishlarida faol qatnashadi, fakultetning "Yosh fiziklar" devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.

U kamtarin va to'g'riso'zligi, mehribonligi tufayli hamkurslari hurmatiga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma Sobir Rahimov tuman hokimiyatiga taqdim qilish uchun berildi.

Dekan (imzo) O.R. Azizov.

Kasaba uyushmasi raisi (imzo) A.R.Miraliyeva

(muhr) (sana)

TAVSIYANOMA

Biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat **tavsiyanoma** deyiladi.

U ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin. Tavsiyanoma matnida tavsiya qilinayotgan shaxsning xususiyatlari – mutaxassis sifatidagi malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyatiga baho beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozim yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildiriladi.

Tavsiyanoma ba'zi xususiyatlariga ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi, shu sababli ularning ko'pchiligi tavsifiy tavsiiyanoma shaklida bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tavsifnomalarda shaxsning barcha ijobiy, salbiy xususiyatlari qayd qilinadi. Tavsiyanomalarda esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Zarur so'z va birikmalarni qo'shib, gaplarni to'ldiring. Fe'l shakllarining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Men Ilhom Shokirov... 2007-yildan ... taniy... . 2. Shu fakultet ... „Kasb ta'limi“ yo'nalishi... birga o'qiy... . 3. I. Shokirov intizomli, ..., talaba ... tanilgan. 4. Fakultetimizning jamoat ishlari... faol qatnash... . 5. U sport ... muntazam shug'ullana...

, shu yilgi respublika festivalida stol tennisi ... faxrli uchinchi o‘rin... egal... . 6. U ingliz til biladi, erkin so‘z... ola... . 7. “Kasb ta‘limi” kafedrası... ilmiy ish... jalb etilgan. 8. Shun... ko‘ra, men Ilhom Shokirovni Beruniy nom... stipendiyani olish ... tanlovda qatnashish... tavsiya eta....

Guruh murabbiyi: imzo K.Sobirov.

2-topshiriq. O‘qish va jamoat ishlarida ijobiy ishlari bilan o‘zini ko‘rsata olgan guruhdoshingizni biror mukofot bilan taqdirlanishi uchun tavsiyanoma yozing.

T A R J I M A Y I H O L

Ma‘lum bir shaxs tomonidan o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv **tarjimai hol** deyiladi. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas, mufassar yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hol)

2. Matn:

a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi;

b) tug‘ilgan yil, kun, oy va tug‘ilgan joyi;

c) millati, ijtimoiy kelib chiqishi;

d) ota-onasi haqida qisqacha ma‘lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi va ish joyi);

e) ma‘lumoti (qayerda, qanday o‘quv yurtini tugatganligi va ma‘lumotiga ko‘ra mutaxassisligi);

f) ish faoliyatining turlari;

g) oxirgi ish joyi va lavozimi;

j) mukofot va rag‘batlantirishlar;

z) jamoat ishlarida ishtiroki;

i) oilaviy ahvoli va oila a‘zolari;

k) pasport ma‘lumotlari;

l) turar joyi (uy adresi), telefoni.

3. Sana.

4. Imzo.

Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologik) asosida, aniq sanala bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimayi hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsin.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Matnni o'qing, uning zaruriy qismlarini aniqlang va tavsiflang.

T A R J I M A Y I H O L

Men, Sobirov Nodir Nozim o'g'li, 1985-yil 27-iyunda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug'ildim. Otam – Sobirov Nozim viloyat yo'l qurilishi boshqarmasining bosh muhandisi, Onam – Nomozova Nasiba 18-o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydilar. Oilada 4 kishimiz. Ukam – Nasim 7- sinfda o'qiydi.

1992-yildan 2002-yilgacha Buxoro shahridagi 18-maktabda o'qidim. Maktabda sinf devoriy gazetasi muharriri bo'ldim. Ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Bu fan bo'yicha viloyat olimpiadasida 2-o'rinni egallaganman. Tennis bo'yicha respublika musobaqalarida faxrli o'rinlarni olganman.

9-sinfni tugatib, 2002-yilda Buxoro davlat universitetining akademik litseyiga o'qishga kirdim.

Mening turar joyim: Buxoro shahri, Yangiyer ko'chasi, 51-uy.

(imzo) N. Sobirov.

2002-yil 21-may

2-topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini daftaringizga ko'chiring va ma'nolarini izohlang, so'ngra ulardan foydalanib, o'z tarjimayi holingizni yozing.

Dehqon oilasida tug'ildim, savdo uyushmasi raisi, bo'lim mudiri vazifasida ishlaydi, maktabni tamomladim, o'qishga kirdim, lavozimida ishladim, a'zosiman, qatnashaman, uylanganman, turmush o'rto'g'im, jamoat ishi, saylanganman.

3-topshiriq. Ijtimoiy kelib chiqishi va oilaviy ahvoli birikmalarining ma'nosini izohlang. O'zingizning ijtimoiy kelib chiqishingiz va oilaviy ahvolingiz to'g'risida kichik matn tuzing.

MA'LUMOTNOMA

Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat **ma'lumotnoma** deyiladi. Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

X i z m a t m a ' l u m o t n o m a s i - muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, xodim (shtat)lar soni, topshiriqlarning bajarilishi, moddiy-tovar boyliklarining saqlanishi, mehnat intizomining ahvoli haqida va boshqa xilma-xil masalalar to'g'risida hozirlanadi.

Bunday ma'lumotlarga matn mazmunini ochuvchi sarlavha qo'yilishi lozim. Masalan: «Kontrakt to'lov asosida tahsil olayotgan talabalar soni haqida» kabi. Sarlavhadan so'ng (ba'zan uning tarkibida) xabarga oid sana ko'rsatiladi. Masalan: «2009- yil 1-oktabrdagi holatga ko'ra» kabi.

S h a x s i y m a ' l u m o t n o m a - muassasalar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir. Shaxsiy ma'lumotnomalar quyidagilarga berilishi mumkin:

- muassasa xodimga uning qayerda, kim bo'lib va qancha maosh olib ishlashi haqida;
- o'quvchi va talabaga esa qayerda o'qishi haqida;
- fuqarolik holatlari hujjatlarini qayd qilish (FHHQ - ZAGS);
- notarial idoralari hamda fuqarolar yig'inlari raislari shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida nikoh bo'lganligi yoki ajralganligi haqida (hujjatlar yo'qolganda);
- tuman va shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi shaxsning nogironligi, nafaqasining miqdori, avtomobilga ega emasligi haqida;
- shifoxonalar kishining sog'lig'i (kasal emasligi) haqida;
- mahalla qo'mita yig'inlari yoki uy-joy boshqarmalari shaxsning yashash joyi, egallab turgan uy-joyining maydoni yoki oila a'zolarining soni haqida ma'lumotnomalar beradi.

Shaxsiy ma'lumotnomalar muassasa, idoralar tomonidan fuqarolarning oilaviy yoki ish faoliyatidagi holatlarni tasdiqlovchi hujjat sanaladi. Xizmat ma'lumotnomalaridan farqli ravishda shaxsiy ma'lumotnomalarda ular yo'llangan idora yoki shaxs nomi ko'rsatilmaydi. Buning o'rniga matn so'ngida ma'lumotnomaning qayerga berilganligi yoziladi. Masalan: «Uy-joydan foydalanish boshqarmasiga taqdim etish uchun berildi» kabi. Asosiy matnda shaxs haqida barcha ma'lumotlar aniq nisbatdagi hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli orqali ifodalanishi lozim (Ishlaydi, yashaydi, o'qiydi kabi).

M A ' L U M O T N O M A

2007-2008 o'quv yilining ikkinchi yarmida talabalar turar joyida yashovchi 324 ta talabadan 56 ta atiza va shikoyat tushdi. Bulardan 34 tasi ariza va 12 tasi shikoyat hisoblanadi.

Arizalar moddiy ehtiyoj hisoblangan narsa va turli jihozlar berilishini so'rab yozilgan bo'lib, bu ehtiyojlar o'z vaqtida qondirilgan.

Shikoyatlardan 10 tasi ko'rib chiqilgan, 2 tasi ko'rish jarayonidadir. Shikoyatlar yotoqxonada Nizomi qonun-qoidalariga muvofiq tarzda ko'rib chiqilgan.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati

shu'ba raisi

(imzo)

B. Mahkamov

2-topshiriq. So'z va birikmalarni quyidagi savollarga javoblar tartibida joylashtiring.

Kim?	Qayerda?	Kim bo'lib?	Nima qiladi?

Tuman soliq nazorati idorasida, ishlaydi, Aziz Ibrohimov, iqtisodchi, o'qiydi, Toshkent Moliya institutida, ikkinchi kurs talabasi, Sho'rtan gaz kimyo majmuasida, bosh muhandis, tadbirkor, Yunusobod savdo markazida, lavozimida, hisoblanadi, dorishunos bo'lib, 18-sonli dorixonada, Buxoro shahar Shofirkon tumanidagi.

3-topshiriq. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: Ma'lumotnoma shahar soliq boshqarmasiga taqdim etish uchun berildi.

Oliy o'quv yurtiga, kasaba uyushmasiga, Qo'qon shahridagi 18-o'rta maktab, ma'muriyatga, uy-joylardan foydalanish bolimiga, 316-bolalar bog'chasiga, harbiy

komissariatga, tuman ta'minoti boshqarmasiga, texnolog lavozimida, A.Nabiyev ko'chasi 27-uyda, bolalar shifokori lavozimida, kontrakt-to'lov asosida.

4-topshiriq. Yaqin qarindoshlaringizning ish joylari haqida o'z tumaningizdagi biror yuqori idora nomiga malumotnomalar namunasini tayyorlang.

5-topshiriq. O'z guruhdoshlaringizdan uchtasining yashash joylari to'g'risida ma'lumotnoma matnlarini tuzing.

B I L D I R I S H N O M A

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot **bildirishnoma** deyiladi. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo'yicha tuzuvchi(yozuvchi)ning takliflari aks etadi.

Kimga yo'llanganiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

I c h k i b i l d i r i s h n o m a rahbar shaxs yoki bo'lim mudiri nomiga yoziladi. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi.

T a s h q i b i l d i r i s h n o m a, ya'ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda xos ish qog'oziga ikki nusxada yoziladi. Hujjatning ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida qoldiriladi. Bunday bildirishnoma rahbar tomonidan imzolanadi.

Bildirishnoma tayyorlayotgan shaxsning xulosa va takliflari aniq, ravshan va ishonarli bo'lmog'i kerak.

Shuning uchun ham bildirishnomalarda chiqarilgan xulosalarni tasdiqlovchi, voqea-hodisalarga, qonunchilik ko'rsatmalariga, tegishli hujjatlarning raqam va sanasiga hamda bayon etilgan masalani bevosita muassasa misolida o'rganish yoki sinab ko'rish natijasida olingan boshqa dalillarga havolalar qilinishi zarur. Bildirishnoma matni asosan ikki qismdan iborat. Birinchi qismda uning yozilishiga sabab bo'lgan dalillar, voqealar bayon qilinishi, ikkinchi qismida esa xulosalar va aniq ish harakatlar haqidagi takliflar aks etmog'i zarur.

Bildirishnomalarni tayyorlashda faqat biror voqea, holat to'g'risida xabar berish bilan cheklanish yetarli emas, ularning sabablari tahlil qilinishi, xulosa chiqarilishi,

takliflar berilishi ham lozim. Shuning uchun bildirishnomalarda xulosa va takliflar aniq va ishonarli yozilishi talab qilinadi.

Agar bayon qilinayotgan ma'lumotlar aniq sana yoki vaqtga tegishli bo'lsa, bu sana yoki vaqt matn oldidan ko'rsatilishi lozim. Masalan: 2008-yil 10-oktabrdagi holatga ko'ra kabi.

BILDIRISHNOMA

Bildirishnoma matni (yozilish sabablari, xulosa, talab va takliflar).

Ulova: (zarur bo'lsa).

Kutubxona mudirasi (imzo) S. Usmonova

TUSHUNTIRISH XATI

Tushunirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan, ba'zan bo'linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqlarni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi.

Tushunirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasini qo'llash yoki, dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tushuntirish xati xodim (talaba)ning o'z dastxati bilan yozilib, yozuvchi shaxs nomi qaratqich kelishigida (masalan: N. Sobirovning tushuntirish xati) rasmiylashtiriladi. Matn mazmuni aniq va ixcham tuziladi, sana va dalillar aniq ko'rsatiladi, yetarlicha izohlanadi, qo'shimcha asoslov hujjatlari ilovada beriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Imamova T., Tuxvato'llina L. Ish qog'ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 1992.
2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.
4. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) .- Toshkent, 2006.

23-mavzu. Soha mutaxassisi nutqida soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra farqlanishi. Zooveterinariya va zootexnika sohasiga oid atamalar bilan ishlash.

Reja:

1. *Omonimlar*
2. *Omoformalar*
3. *Omofonlar*
4. *Omograflar*
5. *Paronimlar*
6. *Sinonimlar*
7. *Antonimlar*

Tildagi soʻzlarning maʼlum qismi shakl yoki maʼnosiga koʻra oʻzaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi soʻzlar ana shu xususiyatlariga koʻra ikki guruhni tashkil qiladi: 1) omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga koʻra; 2) sinonimlar, antonimlar esa oʻzaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga koʻra alohida guruhga mansub boʻladi.

1. Omonimlar yunoncha *homos-bir xil*, *onoma-nom* soʻzlaridan olingan boʻlib, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo alohida maʼnolarga ega boʻlgan soʻzlardir. Bunday soʻzlar **leksik omonimlar** deyiladi. Masalan: *kuya* - hasharot, *kuya* - qozonning kuyasi. Omonimlar bir va bir necha turkumga mansub boʻlishi mumkin. Masalan: *chang* - gard va cholgʻu asbobi maʼnolari bilan ot turkumiga mansub; *oʻt*-olov, koʻkat kabi maʼnolari bilan ot soʻz turkumiga mansub, *oʻt* - feʼlining buyruq-istak mayli ekanligi kabilar shular jumlasidandir.

Bir xil soʻz turkumiga mansub omonimlar turli grammatik qoʻshimchalar bilan shakllanganda ham ularda omonimlik saqlanib qoladi. Masalan: *ot* - ism va uy hayvoni maʼnolaridagi omonim soʻzlarga egalik, kelishik, koʻplik qoʻshimchalarini qoʻshish bilan omonimlikning saqlanib qolganini koʻrish mumkin: *otlar*, *otning*, *otlarim*. Bunday omonimlarni mutlaq omonim soʻzlar deb atash mumkin.

Omonimlarni vujudgaga keltiruvchi hodisalar turlicha boʻlib, ularning asosiylari qoʻyidagilardir:

1. O‘z qatlamga mansub bo‘lgan ba‘zi so‘zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo‘lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: *ot* (ism) - *ot* (hayvon) - *ot* (harakat); *o‘t* (o‘t-o‘lan) - *o‘t* (olov) - *o‘t* (harakat) kabi omonim so‘zlardagi *o* va *o‘* unlilari tarixan o‘zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo‘lgan. Biroq, hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko‘p ma‘noli so‘zlar o‘rtasidagi ma‘no bog‘lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, *ko‘k* so‘zi, dastlab, *ko‘k* rang (sifat) tushunchasiga ega bo‘lgan. Keyinchalik bu so‘z metafora (o‘xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular o‘rtasidagi bunday ma‘no bog‘lanish yo‘qolib, omonim so‘z hosil bo‘lgan. Xuddi shunday holatni *dam* so‘zining nafas, hordiq, harorat, bosqon ma‘nolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

3. Umumturkiy yoki asl o‘zbekcha so‘zlar o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo‘lib qolishi mumkin. Masalan, *bog‘* (mevazor) va *bog‘* (bog‘langan narsa, beda bog‘i); *tok* (uzum novdasi) va *tok* (elektor toki), *tom* (uy tomi) va *tom* (kitob jildi) so‘zlari o‘zbekcha-tojikcha hamda o‘zbekcha-rus va yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning o‘xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so‘zlardir.

4. Ma‘lum bir so‘zning o‘zak-negizidan qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar yasalishi natijasida shakldosh so‘zlar hosil bo‘ladi. Masalan: *oylik olmoq*, *oylik reja* birikmalaridagi oylik so‘ziga qo‘shilgan –lik qo‘shimchasi asosida shakldosh so‘z hosil bo‘lgan.

Ba‘zan shakldoshlik nisbiy bo‘lib, so‘zlarning ma‘nolari har xil bo‘lgani holda aytilishi bir xil, ammo yozilishida bir oz farq bo‘lishi yoki ba‘zan ma‘noli qismlarigina shakldosh bo‘lsa ham, grammatik ma‘nosi o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra shakldosh so‘zlarning uch xil turi farqlanadi: 1) omoshakllar, 2) omofonlar, 3) omograflar.

8. **Omoformalar** ma‘nolari har xil bo‘lib, ba‘zi grammatik shakllariga ko‘ra bir xillikka ega bo‘ladigan shakldosh so‘zdir. Omoformalar ayni bir so‘z turkumiga ham, boshqa-boshqa so‘z turkumlariga ham mansub bo‘lishi mumkin. Masalan, *oqar* (oq tusga kir) - buyruq fe‘li, II shaxs birlik; *oqar* ("oqadigan") fe‘lning

kelasi zamon sifatdosh shakli; yoz - ot, bosh kelishik shaklida, yoz - II shaxs birlikdagi buyruq fe'li va boshqalar.

Bu so'zlarga boshqa grammatik qo'shimchalar qo'shilganda bir-birlaridan tamomila ajralib, omonimlik yo'qoladi. Masalan: *oqaray, oqarsin - oqaradi, oqarsan; yozning, yozni, yozga, yozda, yozdan - yozay, yozgin, yozsin* kabi holatlarda omonimlik mavjud emas.

3. Omofonlar fonetik tarkibi ma'lum tovush bilan farqlanadigan, lekin talaffuzda shakldosh bo'lib qoladigan so'zlardir. Omofonlardagi o'zaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada bo'ladi va ular, asosan, jarangli va jarangsiz juftliklar va hosil bo'lish o'rniga ko'ra yaqin bo'lgan tovushlarning talaffuzda bir xillik kasb etishida ko'zga tashlanadi. Masalan, *sud - sut, tanbur - tambur, tub-tup, yetdi - yetti* kabi so'zlar talaffuzi omofonlarni yuzaga keltiradi.

4. Omograflar yozilishi bir xil bo'lgan shakldosh so'zlardir. Omograflar ma'nosi va fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa - boshqa, faqat yozilish shakli jihatdan bir xil bo'lgan so'zlardir. Masalan, *tol - daraxt, qurilish jihozi, tok - elektr quvvati, uzum novdasi, to'r-xonaning yuqori qismi, parda* kabi ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardagi *o, o'* tovushlari talaffuzda qattiq va yumshoqligi bilan farqlanadi, biroq yozilishiga ko'ra shakldoshlikka ega bo'ladi. Xullas, talaffuzi va yozilishi bir xil bo'lgan bunday shakldosh so'zlarni o'zak va grammatik qo'shimchalarining bir xilligi, bir turkumga mansubligi e'tibori bilan omograflar qatoriga qo'shish mumkin. Tildagi bu kabi shakldoshliklar so'z o'yini sifatida tuyuq, askiya san'atlarida asosiy o'rin tutadi.

5. Paronimlar. Paronimlar so'zlar yunoncha *para-juft* va *onoma-nom* so'zlaridan olingan bo'lib, fonetik tarkibi va ma'nosi boshqa-boshqa biroq talaffuz jarayonida o'xshash, yaqin bo'lgan so'zlardir. Demak, paronimlar birdan ortiq so'zning shakliy o'xshashligiga asoslanadi va bu hodisa ko'pincha so'zlarni adabiy normada to'g'ri talaffuz etmaslik, adabiy normaning buzilishiga ham olib keladi. Masalan, *fakt - pakt, afzal - abzal* so'zlari f undoshining p, b tarzda talaffuzi asosida yuzaga kelgan paronimlar bo'lib, ular aslida fonetik tarkibi va ma'no jihatdan farqlanuvchi so'zlardir: *fakt* - dalil, isbot, *pakt* - davlatlar o'rtasidagi shartnoma, kelishuv hujjati ma'nosidagi so'z; *afzal* - qulay, ma'qul *abzal* esa ot va boshqa ulov anjomi, to'qim va

boshqa jihozlarning umumiy nomidir. Xuddi shuningdek, paronimlik holatni *amr-amir*, *zirak - zyrak*, *jayron-jiyron*, *yondosh - yondash*, *quyilmoq - quyulmoq* soʻzlari misolida koʻrish mumkin.

Paronimlar tub yoki yasama soʻzlardan tarkib topgan boʻlishi mumkin. Masalan, *fakt-pakt*, *burj-burch* kabilar tub soʻzlar asosida shakllangan paronimlardir. Yasama soʻzdan esa bir oʻzaklardan bir xil qoʻshimchaning fonetik variantlarini qoʻshish asosida hosil boʻladi: *yoriq-yorugʻ*, *qurit-qurut*, *oqlik-oqliq*, *otalik-otaliq*. Paronim soʻzlar oʻz va oʻzlashma soʻzlar asosida vujudga kelishi mumkin: *aro-oro* (oʻzbek va fors-tojik), *burch-burj* (oʻzb. va arab). Paronimlar ham antonimlar singari har doim juft soʻz shaklida tuziladi, biroq ular bir xil va har xil soʻz turkumlariga mansub boʻlishi mumkin.

Paronimiya baʼzi til hodisalariga yaqin boʻlib, ulardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1.Paronimlar soʻz variantlari (leksik dubletlar) bilan yondosh hodisadir. Ular ham ayrim tovush orqaligina farqlanib, talaffuz oʻxshashligiga ega boʻladi. Shu bois baʼzan paronimlar mazkur hodisa bilan chalkashtirilishi mumkin. Masalan, adabiy tildagi *tomosha* soʻzining baʼzan *tomosho*, *tamosho* tarzda ikki xil variantda fonetik jihatdan buzib ishlatilishi orqali uning talaffuz dubleti hosil boʻladi. Shuningdek, ayrim soʻzlarning turlicha variantlarda ishlatilishi adabiy meʼyor sifatida qabul qilingan: *gado-gadoy*, *demak-demoq*, *obroʻ-obroʻy*, *nogoh-nogah*, *yiqilabermoq-yiqilavermoq* kabi juftliklar, shular jumlasidandir. Xullas, tilshunoslikda variantlilik, soʻz variantlari va leksik dubletlar kabi turlicha terminlar asosida nomlangan bu hodisa, paronimlardan farqli ravishda, bitta soʻzning ogʻzaki va yozma nutqda turlicha shakllarda qoʻllanishidir.

2.Paronimlar bilan yondosh hodisalardan yana biri omofonlardir. Bu ikki hodisaning asosiy oʻxshash va farqli tomonlari quyidagilarda koʻzga tashlanadi: a) monosillabik (bir boʻgʻinli) oʻzlashma soʻzlardan tarkib topgan baʼzi paronimlardagi undoshlarning talaffuz oʻrni va usuliga koʻra bir xilligi ularni omofonlarga yaqinlashtiradi. Masalan: *burch-burj*, *dars-darz*, *qars-qarz*. Biroq aksariyat paronimlarda bunday undoshlar jarangli-jarangsiz juftlik boʻlmay, hosil boʻlishi oʻrniga koʻra oʻxshashlikka asoslanadi. Masalan *fakt-pakt*, *abzal-afzal*. Omofonlarda esa artikulyatsiya oʻrni va usuliga koʻra

bir xil bo'lgan undoshlar har doim so'z oxirida uchraydi va talaffuzda aynan ana shu juftliklar omofonlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *top-tob tub-tup, mard-mart, yod-yot* kabilar shular jumlasidandir; b) ko'p bo'g'inli so'zlardan tarkib topgan paronimlarda esa paronim juftliklar o'zaro noo'xshash fonema vositasida ajralib turadi va shu jihatiga ko'ra omofonlardan farqlanadi: *ahil-ahl, otalik- otaliq, yoriq-yorug', qurut-qurit* kabilar shular jumlasidandir.

6. Sinonimlar(yunoncha *synonimon*-bir xil nomli so'zidan olingan) fonetik tarkibi har xil, ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Ma'nodoshlikning so'zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug'aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, *nomus - vijdon, dangasa - yalqov - ishyoqmas – tanbal* so'zlari leksik sinonimlardir. Bunday so'zlar, odatda, bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi. Ularning bir umumiy ma'no doirasida bog'lanishi esa, **sinonimik qator** deb yuritiladi. Masalan, *vaqt - payt -zamon - fursat - mahal - chog' - kez - mavrid - palla - muddat - dam* so'zlari o'zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so'z **dominanta** (bosh so'z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste'mol so'zlaridan bo'lib, sinonim so'zlar lug'atida birinchi o'rinda beriladi. Masalan, *yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor* sinonimik qatoridagi *yuz* so'zi betaraf - dominanta bo'lib, *aft, bashara turq* salbiy, *oraz, chehra, ruxsor* esa ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik so'zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so'z o'zining har bir ma'nosi bilan boshqa - boshqa sinonim qatorda ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: *balo - falokat - ofat; balo - uddaburon - bilog'on- ishbilarmon* kabi ma'nodoshlik qatorida *balo* so'zi o'z va ko'chma ma'nosi bilan ishtirok etgan.

Sinonim qatordagi so'zlar quyidagi xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi:

1. Sinonim qatordagi so'zlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, *doim, hamisha, nuqul, birday* so'zlari ko'pincha so'zlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub bo'lgan *yakkash, mudom* so'zlari esa kitobiy uslubda ko'proq ishlatilishi bilan boshqa ma'nodoshlardan farqlanadi.

2.Sinonimik qatordagi baʼzi soʻzlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan boʻlishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan baʼzilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: *mard, jasur, botir, yovqur, jaysan*. Bu sinonimlardan *yovqur* soʻzi eskirganligi, *jaysan* esa tarixiy – dialektalligi bilan farqlanadi.

3.Sinonimik qatordagi soʻzlar oʻzaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, *qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq* sinonimik qatoridagi *istamoq* soʻzi shevaga xosdir.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari boʻlib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va maʼnolariga koʻra quyidagi turlarni tashkil qiladi:

1.Toʻliq (sof) sinonimlar. Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri oʻrnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular koʻpincha boshqa tillardan kirib kelgan oʻzlashma soʻzlarning oʻzbekcha soʻzlar bilan maʼnodoshligi asosida hosil boʻladi: *kuch* (oʻzb.) - *qudrat* (ar.), *ot* (oʻzb.) - *ism* (ar.), *koʻklam* (oʻzb.)- *bahor* (toj.), *tuman* (oʻzb.)-*rayon* (rus). Shuningdek, *fazo-kosmos, muharrir-redaktor* kabi faqat oʻzlashma soʻzlardan tuzilgan sinonimlar ham toʻliq sinonimlardir.

2.Maʼnoviy sinonimlar. Bir-biridan nozik maʼnolari yaʼni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi maʼnodosh soʻzlardan tashkil topadi. Masalan, *kuldi, jilmaydi, tirjaydi, iljaydi, ishshaydi* kabi maʼnodosh soʻzlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy boʻyoqdorligiga koʻra *chiroyli, goʻzal, xushroʻy, koʻhli, koʻrkam, barno, suluv, zebo, latif* kabi sinonimlar esa ijobiy boʻyogʻining darajasiga koʻra farqlanadi.

3.Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina maʼnodoshlikka ega boʻladigan sinonim soʻzlardir. Ular koʻpincha sheʼriyatda kuchli his-tuygʻu ifodalovchi vositalar sifatida qoʻllaniladi: *Nega kerak shu chiroy, shu oʻt, Shu yoniq yulduzni koʻzga yashirmoq* (H.O.) Parchadagi *chiroy, oʻt, yoniq yulduz* oʻzaro maʼnodosh soʻzlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda *qad-sarv, lab-laʼl, yuz-oy, hilol* kabi tashbehlar asosida ham keng qoʻllaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga koʻra a) sodda: *tez-chaqqon-ildam*; b) juft: *sogʻ-salomat, el-yurt*; v) birikmali: *yuzi qora-beti qora-ori* yo *ʻq* shaklida uchraydi.

Ayni paytda soʻzlar fraziologik birikmalar bilan ham maʼnodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: *sevindi, boshi koʻkka yetdi; xotirjam, koʻngli toʻq*. Bunday maʼnodoshlik **leksik-fraziologik sinonim** deyiladi.

Sinonimlarni deyarli barcha soʻz turkumlarida uchratish mumkin. Masalan 1) ot sinonimlar: *baxt, saodat, tole, iqbol*; 2) sifat sinonimlar: *goʻzal, chiroyli, koʻrkam, koʻhlik, suhuv*; 3) olmosh sinonimlar: *barcha, bari, hamma, butun*; 4) feʼl sinonimlar: *oʻsmoq, ulgʻaymoq, voyaga yetmoq*; 5) ravish sinonimlar: *tez, chaqqon, ildam*; 6) aralash sinonimlar: *besht, aʼlo, muvaffaqiyatli* (son va sifat turkumlari asosida); 7) koʻmakchi sinonimlar: *kabi, singari*; 8) bogʻlovchi sinonimlar: *ammo, lekin, biroq*; 9) modal soʻzli sinonimlar: *shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz*.

Xullas, sinonimlar tilning lugʻaviy boyligini, koʻrkamligini belgilovchi vositalardan biri boʻlib, ular nutq jarayonida oʻrinsiz takrordan, uslubiy gʻalizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega boʻladi.

7-§. Antonimlar (yunoncha anti-zid, onoma-nom soʻzidan olingan boʻlib) oʻzaro zid tushunchalarni ifodalaydigan soʻzlardir. Soʻzlarning zid maʼnoligi boshqa shu kabi hodisadan farqli ravishda leksik (lugʻaviy) antonimlar deyiladi Masalan: *oq - qora, kun - tun*. Antonimlar ham odatda bir soʻz turkumi doirasida yuzaga keladi va zid maʼnolilik, odatda, faqat ikkita soʻz doirasida sodir boʻladi: *uzun - qisqa* (sifat), *kelmoq - ketmoq* (feʼl) kabi. Antonimlar bir xil va har xil oʻzakli soʻzlardan ham tarkib topishi mumkin. Oʻzakdosh soʻzlarning antonimligi, asosan, zid maʼnoli soʻz yasovchi qoʻshimchalar vositasida yuzaga keladi: *suvli - suvsiz, xabardor - bexabar* kabi. Har xil oʻzakli soʻzlardan tarkib topgan antonimlar esa tub shaklda boʻladi: *katta - kichik, rost - yolgʻon*.

Koʻp maʼnoli soʻzlar oʻz va koʻchma maʼnolari bilan bir necha antonim juftliklar tarkibida ishtirok etishi mumkin: *ogʻir yuk - yengil yuk, ogʻir masala - oson masala* kabi.

Bir soʻz oʻzaro sinonim soʻzlar bilan yoki oʻzaro sinonim soʻzlar boshqa sinonimlar bilan ham antonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, *xafa* soʻzi *xursand, shod xushnud* kabi soʻzlar bilan oʻzaro antonim munosabatga kirisha oladi.

Antonimlar nutqda belgi-xususiyat, miqdor, o‘rin, payt ifodolovchi so‘zlarda ko‘p bo‘lib, aniq tushuncha ifodalaydigan lug‘aviy birliklarda kam uchraydi. Bu hol antonimlarning asosan belgi, xususiyat negizida (sifat va ravishlarda) paydo bo‘lishidan darak beradi. Antonimlarga so‘z turkumlari nuqtai nazaridan qaralganda ularning quyidagi turkumlarda uchrashini kuzatish mumkin: 1) ot antonimlar: ota-ona, yigit-qiz, kelin-kuyov; 2) sifat antonimlar: shirin-achchiq, katta-kichik, baland-past; 3) fe‘l antonimlar: kulmoq-yig‘lamoq, turmoq-o‘tirmoq; 4) ravish antonimlar: uzoq-yaqin, oz-ko‘p, sekin-tez; 5) ba‘zan nutqda baho me‘zoni bo‘lgan besh va ikki sonlari ham zidlikka ega bo‘ladi.

Antonimlar nutqda juft holda qo‘llanilib, ma‘no ko‘chgan holda yangi tushuncha ifodalash vositasi bo‘ladi. Masalan: *bordi - keldi, keldi - ketdi, yaxshi - yomon, oq - qora* kabi antonimik juftliklar aslida fe‘l va sifatlar bo‘lib, nutq jarayonida otga ko‘chishi mumkin: *bordi-keldi uzildi, keldi-ketdi ko‘p bo‘ldi, oq-qorani tanigan* kabi.

Antonimlar asosida anglashilgan ma‘no zidligi kuchli va kuchsizligi bilan ham farqlanadi. Masalan, *oq-qora, issiq-sovuq* kabi belgi anglatuvchi so‘zlarga nisbatan *ota-ona, chol-kampir* singari nom bildiruvchi so‘zlarda ma‘no zidligi kuchsizroqdir. Shunga ko‘ra ularni **sof** va **yarim antonimlar** sifatida ajratish mumkin. Bulardan tashqari, muayyan matndagina o‘zaro zidlik kasb etuvchi o‘t (olov)-suv, it-mushuk, mushuk-sichqon kabi **matniy antonimlar** ham mavjud.

Zidlik munosabati faqat so‘zlar doirasida mavjud bo‘lmay, so‘z bilan iboralar o‘rtasida ham uchraydi: *qo‘rqoq-yuragida yoli bor, botir-chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadigan* kabilar shular jumlasidandir. Budnay antonimlar **leksik-fraziologik antonimlar** deyiladi.

Antonimlar tildagi kuchli uslubiy vositalardan biri bo‘lib, badiiy ijodda tazod san‘atini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Tojiev Yo., Hasanova N.,Tojimatov Q., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
- 2.Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma) .- Toshkent, 2004.
- 3.Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) .- Toshkent, 2006.

24-mavzu. Ilmiy matn yaratish. Maqola, esse, tezis yozish

Reja:

1. Ilmiy matn yaratish
2. Maqola yozish
3. Esse, tezis yozish

Tayanch soʻzlar: *ilmiy uslub, ilmiy matn, semantika, morfologiya, meʼyor, maqola, esse, tezis*

Ilmiy uslubda yaratilgan matn standartlashtirilgan yopiq tizimdir.

Ilmiy uslubning asosiy xususiyatlari adabiy tilning meʼyoriy talablariga muvofiqligi, standart navbatlar va ifodalardan foydalanish, "ramziy" ramzlar va formulalar tilining imkoniyatlaridan foydalanish, zikr va yozuvlardan foydalanish. Misol uchun, klientlar ilmiy jamiyatda odatda qabul qilinadi: masalan, ... *shuni taʼkidlash kerakki, tadqiqot davomida olingan maʼlumotlar quyidagi xulosalarga olib keldi ... keling, tahlilga oʻtamiz ...* va hokazo.

Ilmiy axborotni "sunʼiy" til elementlariga oʻtkazish uchun: 1) grafikalar, davralar, bloklar, chizmalar, chizmalar keng qoʻllaniladi; 2) formulalar va belgilar; 3) ilmiy uslubning maxsus terminlari va leksik xususiyatlari, masalan, fizik miqdordagi nomlar, matematik belgilar va boshqalar.

Malumot moslamasi (dipnotlar, izohlar, eslatmalar) nutq mavzusiga nisbatan aniqroq gʻoyalarni shakllantiradi va atamalarning aniqligi va manbalarning tekshirilishi kabi ilmiy nutq sifatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yaʼni, xususiyati adabiy til normasiga muvofiqligi bilan ajralib turadigan ilmiy uslublar tadqiqot gʻoyalarini ifoda qilishda aniqlik, aniqlik va lakonizmga xizmat qiladi. Ilmiy maʼruza uchun monologik shakli xarakterli boʻlib, bayonning mantiqiyliги izchil ravishda aniqlanadi, xulosalar toʻliq va aniq ifoda shaklida rasmiylashtiriladi.

ILMIY MATNNING SEMANTIK TUZILISHI

Ilmiy uslubning har bir matnida qurilishning oʻziga xos mantiqi mavjud boʻlib, u tuzilish qonunlariga mos keladigan aniq bir shaklga ega. Odatda tadqiqotchi quyidagi sxemaga rioya qiladi:

- Muammoning mohiyatiga kirish, uning dolzarbligi va yangilanishi;
- Tadqiqot mavzusini tanlash (baʼzi hollarda obʼekt);
- Maqsadlarni belgilash, muayyan vazifalarni bajarish davomida hal qilish;
- Tadqiqot mavzusiga har qanday tarzda taʼsir etadigan ilmiy manbalarni koʻrib chiqish, ish uchun nazariy va uslubiy asoslarni tavsiflash; Terminlarning asoslanishi;
- Ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyati;
- Ilmiy ishning mazmuni;
- Eksperimentning tavsifi, agar u amalga oshirilsa;
- Tadqiqot natijalari, uning natijalari boʻyicha tuzilgan xulosalar.

TIL XUSUSIYATLARI: SOʻZ BOYLIGI

Mavhum ohang va umumlashma ilmiy uslubning leksik xususiyatlarini hosil qiladi:

1. Soʻzlarning oʻziga xos maʼnolarda ishlatilishi, soʻzlarning mavhum maʼnoda ustunligi (*hajmi, aniqligi, qarshilik, ziddiyat, turgʻunlik, soʻz shakllanishi, bibliografiya* va boshqalar).
2. Kundalik hayotdagi soʻzlar ilmiy ish doirasida terminologik yoki umumiy maʼnoga ega. Bu, masalan, texnik atamalar uchun qoʻllaniladi: *debriyaj, lenta, quvur* va boshqalar.
3. Ilmiy matndagi asosiy semantik yuk atamalar bilan toʻldiriladi, ammo ularning ulushi har xil turdagi ishlarda bir xil emas. Tarjima shartlari muayyan tushunchalarni mujassamlashtiradi, toʻgʻri va mantiqiy taʼrifi professional yozilgan matn (*etnogenez, genom, sinusoid*) uchun zarur shartdir.
4. Ilmiy uslublar, qisqartmalar va murakkab soʻzlar uchun xos boʻlgan namunalar: *nashriyot, GOST, Gosplan, million, ilmiy-tadqiqot instituti*.

Ilmiy uslubning lingual xususiyatlari, xususan, soʻz boyliklari sohasidagi funktsional yoʻnalishlarga ega: material taqdimotining umumlashtirilgan mavhumligi, muallifning xulq-atvori va xulosalari, taqdim etilgan maʼlumotlarning aniqligi.

TIL XUSUSIYATLARI: MORFOLOGIYA

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari:

Grammatika darajasida, soʻzning muayyan shakllari va soʻz kombinatsiyalarini va jumalarni barpo qilish bilan ilmiy matnning mavhumligi yaratilgan: bu ... va hokazolar.

2. Ilmiy matn kontekstidagi feʼllar abadiy, umumlashtirilgan maʼnoga ega. Va asosan hozirgi va oʻtmishdagi shakllar qoʻllaniladi. Ularning almashinuvi "tasviriylilik" yoki rivoyatning dinamikasi emas, aksincha, ular tasvirlangan hodisaning muntazamligini koʻrsatadi: *muallif taʼkidlaydi, ...; Muammolarni echish va boshqalar, bu maqsadga erishishga yordam beradi*.

3. Kam boʻlmagan turlarning feʼllari (taxminan 80%) ham ilmiy matnni umumlashtirilgan maʼnoga ega. Mukammal turdagi feʼllar barqaror aylanalarda qoʻllaniladi: *oʻylab koʻring ...; Biz misollar*, va boshqalar. Bundan tashqari, zarurat yoki majburiyatning soya bilan noanʼanaviy shaxsiy va nomaqbul shakllari qoʻllaniladi: *xususiyatlar ...; Buni bilishingiz kerak ...; Yodingizda boʻlmang ...*

4. Passiv maʼnoda qaytariladigan feʼllar ishlatiladi: *uni isbotlash kerak ...; Batafsil tavsiflangan ...*; Bunday feʼllarning shakllari jarayonning taʼrifini, tuzilishini, mexanizmini taʼkidlashga imkon beradi. Qisqa passiv ishtirokchilar uchun xuddi shunday maʼno: *u chegara beriladi ...; Normni tushunish mumkin* va hokazo.

5. Ilmiy maʼruza ham qisqa sifatlardan foydalanadi, masalan: *munosabat xarakterlidir*.

6. Ilmiy nutqning odatiy belgisi - *men* oʻrniga ishlatiladigan maqomdir. Bu usul mualliflikning soddaligi, obʼktivligi, umumiyligi kabi xususiyatlarni shakllantiradi: *oʻrganish davomida biz xulosaga keldik ... (oʻrniga men xulosaga keldim ...)*.

TIL XUSUSIYATLARI: SINTAKSISI

Sintaksis nuqtai nazaridan ilmiy uslubning til xususiyatlari, nutqning olimning oʻziga xos fikrlashiga bogʻliqligini koʻrsatadi: matnlarda ishlatiladigan inshootlar neytral va odatda qoʻllaniladi. Eng tipik - matnning hajmi axborot va semantik mazmunini oshirganda, sintaktik siqishni usuli. Bu soʻz kombinatsiyasining maxsus jumalari va jumalar yordamida amalga oshiriladi.

Ilmiy uslubning sintaktik xususiyatlari:

1. "Tegishli atamalardagi noun + ism" atamasi ishlatiladigan iboralardan foydalanish: *metabolizm, valyuta likvidligi, sōkme qurilmasi* va boshqalar.

2. Sifat nomi bilan ifodalangan atamalar atamaning ma'nosida ishlatiladi: *shartsiz refleks, qattiq belgi, tarixiy qazish* va hk.
3. Ilmiy uslublar uchun (ta'riflar, asoslar, xulosalar) ismga ega kompozit nominal predikat xarakterli bo'lib, odatda fe'l-ligament bilan ifodalanadi: *hislar - asosiy bilim jarayonidir ...; Tilning me'yoriy amalga oshirilishidan chetga chiqish bolaning nutqining eng yorqin xususiyatlaridan biridir*. Boshqa umumiy "predetate formulasi" - qisqa nomer bilan birlashtirilgan nominal predikatdir: *uni ishlatish mumkin*.
4. Vaziyatlar roli uchun zarflar tergov qilinayotgan hodisaning sifatini yoki xususiyatini tavsiflashga xizmat qiladi: *sezilarli, qiziqarli, ishonchli, yangi usulda; Bu va boshqa voqealar tarixiy adabiyotda yaxshi tasvirlangan*.
5. So'zlarning sintaktik tuzilmalari kontseptual tarkibni ifodalaydi, shuning uchun yozuvchi olimning standarti - bu so'zning turiga to'liq jumlar jumlasiga kiradi, uning qismlari o'rtasida ittifoqchilik aloqasi, uslubiy jihatdan neytrallik va so'zning normativ tartibi bilan neytral bo'ladi: *Zoopsixologlar uzoq, qat'iy va muvaffaqiyatsiz o'qitishga urinishgan Eng rivojlangan antropoid (shimpanziya) ovoz tili*. Murakkab jumlar orasida bitta subordinate tuzilmalar ustunlik qiladi: *aql va til orasida o'rtasida nutqning funksional asoslari deb ataladigan oraliq asosiy kommunikativ tizim mavjud*.
6. So'raladigan jumlarning ahamiyati - taqdim etilgan materiallarga diqqat etish, taxminlar va farazlarni ifodalashdir. *Balki, maymunning jest nutqi bo'lishi mumkinmi?*
7. Axborotni ataylab, bilvosita o'zboshimchalik bilan taqdim qilish uchun turli xil bo'lmagan shaxslarning takliflari keng qo'llaniladi: *adolatli janrlarning maqomi do'stona muloqotni o'z ichiga oladi (ruhlar haqida suhbatlashish, suhbatlashish va boshqalar)*. Shunday qilib, umumlashtirilgan ilmiy jamoa nomidan so'zga chiqqan obyektiv tadqiqotchi bo'lish istagi.
8. Hodisalar orasidagi sabab-ta'sir munosabatlarini rasmiylashtirish uchun ilmiy nutq birlashtirgan va bo'ysunuvchi birlashma munosabatlari bilan murakkab jumlarni qo'llaydi. Ko'pincha murakkab uyushmalar va ittifoqdosh so'zlar mavjud: *shunga qaramay, boshqalar keng tarqalgan bo'lsa-da, subordinatsiyalangan tushuntirish, aniqlik, sabablar, Shartlar, vaqt, ta'sir*.

Maqola va uning turlari

Maqola – adabiy yoki ilmiy mazmunda bo‘lib, hajm jihatidan ancha katta bo‘ladi. Maqola hayotning muhim va dolzarb masalalariga bag‘ishlanishi yoki ilm-fanning biror sohasini yoritishi mumkin. Shunga ko‘ra maqolalar ilmiy, uslubiy, publitsistik kabi turlarga bo‘linadi. Maqolalar uch tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi:

1. Kirish – bunda tanlangan mavzuning dolzarbligi belgilanadi.
2. Asosiy qism – muallif tomonidan rejalangan fikr, muammo yoki yangilik bayon qilinadi.
3. Xulosa – mavzu yuzasidan muallifning xulosalari, tavsiyalari beriladi.

Maqolalar ilmiy yoki publitsistik uslubda, adabiy til me‘yorlariga to‘liq amal qilingan holatda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning sarlavhasi qisqa, lekin e‘tiborni jalb qiladigan va, albatta, maqolaning bosh mavzusini yoritib beradigan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, maqolalarda muallif haqida qisqacha ma‘lumot va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ko‘rsatiladi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to‘g‘risida aniq, asoslangan, izchil ma‘lumot berishda qo‘llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta‘riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me‘yorga qat‘iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe‘llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo‘ljallanganligiga nisbatan o‘zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish material bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma‘lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo‘ljallanishi yoki bunday ilmiy ma‘lumotlar keng ommaga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo‘lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo‘lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko‘pchilikka mo‘ljallangan ma‘ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko‘rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta‘minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

ozishdan oldin siz ilmiy maqolani va uning nima ekanligini yozishni tushunishingiz kerak. Ilmiy maqola maʼlum bir kichik mavzu boʻyicha kichik tadqiqot. Uchta ilmiy maqolalar mavjud:

1. Ampirik - bu oʻz tajribasi asosida qurilgan maqola.
2. Ilmiy-nazariy - bu tadqiqotning aniq natijalarini tasvirlaydigan maqolalar.
3. Koʻrib chiqish - bu tor doirada muayyan sohadagi yutuqlarni tahlil qiluvchi maqolalar.

Ilmiy maqola qanday yoziladi?

Ilmiy maqola, har qanday boshqa kabi, muayyan tuzilishga ega boʻlishi kerak. Ilmiy uchun, tuzilishning asosiy qoidalari tanlanadi:

- Sarlavha
- annotatsiya
- kalit soʻzlar;
- kirish;
- adabiyotlarni oʻrganish;
- asosiy qismi - metodologiya va natijalarni oʻz ichiga olishi kerak;
- xulosalar;
- adabiyotlar roʻyxati.

Maqola – bu mustaqil ilmiy tadqiqot boʻlib, u dolzarb ilmiy muammo boʻyicha oʻz fikrlarini bayon qilishdir.

- **Maqola ustida ishlashning asosiy bosqichlari**

-

1. Mavzuning belgilanishi, uning tahlili, reja/tezislarning tuzilishi.
2. Reja/tezislar asosida maqolaning birinchi varianti ustida ishlash
3. Ishning yakunlanishi, matn tahlili, takomillashtirish, tuzatish.

-

Maqola yozishga kirishishdan oldin quyidagi savollarga javob bering:

- materialdan qanday xulosa chiqarish kerak?

- ish mazmuni nimadan iborat bo'ladi?

- maqola nima uchun yoziladi?

Agar Siz o'z maqolangiz yakunini «ko'rib turgan bo'lsangiz», unda ish puxta bo'lishi kerak.

- **Maqolaning tuzilishi**

- **I. Kirish qismi**

Mavzuning

asoslanishi • Qo'yilgan mavzuning retrospektiv tahlili.

+ • Mavzuni bugungi kun pozitsiyalaridan ko'rib chiqish zarurligining mavzuning asoslanishi.

dolzarbligi • Mavzu asosiy tushunchalarining izohlanishi.

+ Mavzuni bayon qilish bilan bog'liq xatolar bayoni va hokazo asosiy tezis

- **II. Asosiy qism**

Dalillar+

ilgari surilgan • induksiyadan foydalanish: aniqdan umumlashtirishga;
tezisni • deduksiyadan foydalanish: umumiydan batafsil ko'rib
tasdiqlaydigan chiqishga.
faktlar

- **III. Yakunlovchi qism**

Ilgari surilgan • asosiy fikrning tezislar shaklida bayon qilinishi;
tezisni tasdiqlaydigan yoki • xulosalar;
inkor qiladigan xulosalar • muammoning davomiyligini ko'rsatish

- *Matnni rasmiylashtirishdagi xarakterli nuqsonlar*

1. Mavzudan chetga chiqish, uni boshqasi bilan almashlash.

2. Haddan ortiq hajmli kirish qismi, aniq xulosalar yo'qligi.

3. *Fikrni bayon qilishdagi muayyan bosqichlarni ko'rsatadigan xatboshilarni ajrata bilmaslik.*
4. *Materialni bayon qilishning uzunligi va haddan ortiq ko'pso'zlik.*
5. *Har xil nutqiy va uslubiy xatolar.*

Esse deganda nimani tushunasiz?

Esse – frantsuzcha so'z bo'lib, asl ma'nosi —urinish, —sinash, —ocherkdir.

Esse erkin kompozitsiyali uncha katta bo'lmagan nasriy asardir. Esse orqali narsa va hodisalarga e'ki shaxsga oid sub'ektiv fikr ba'en qilinadi. Esse falsafiy, tarixiy, biografik, publitsistik, adabiy tanqidiy, ilmiy-ommabop xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab e'ki masalaga oid tugal tafsilotni e'ki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida tarkib topgan. Bu janr G'arbda oldinroq ishlatilgan bo'lsa-da, o'zbek adabietida XX asrning 70-80-yillaridan esse yaratila boshlandi. Umuman, esse ilmiy e'ki publitsistik xarakterdagi ocherkka o'xshashdir.

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho. Esse – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo'yicha umumiy e'ki dastlabki dunëqarashni o'z ichiga oladi.

□ Esselarning qanday turlari bor?

Besh daqiqalik esse – o'rganilaëtgán mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida olib boriladi. Masalan:

- —Men bu ... haqida nimani o'ylayman e'ki —Nima uchun, mening fikrimga ko'ra ... savollariga javob bering;

- o'quv mashg'ulotida berilgan talabalar uchun yangi sanalgan g'oyani tavsiflash va sharhlab berish;

- olingan bilim, ko'nikmalar qacda amaliëtda qo'llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko'rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo bunda juftliklarga ajralish, ishlar bilan o'zaro almashish va e'zilganlarni muhokama qilish taklifi berilishi mumkin.

Asoslangan esse - qo'yilgan savolga asosli javob keltirilgan èzma ishdir. muallif ma'lum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o'zining pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

Taqriz degandan nimani tushunasiz?

Taqriz – adabiy tanqid janri bo'lib, arab tilida ijobiy baho degan ma'noni anglatadi. Yangi badiiy, ilmiy èki ilmiy-ommabop asar tahlili.

Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiètda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi. Asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz, asosan, keng kitobxonlar ommasini uchun mo'ljallangan, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi. Ichki taqriz ham bo'ladi. Masalan, nashriètga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi. Biroq, taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi, rus tanqidchiligi tarixida taqrizning rivojida V.G.Belinskiyning roli katta. U taqrizni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. Taqriz badiiy asar haqida

shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy haètning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni haèt va adabièt haqida o'ylashga o'rgatuvchi uning estetik didini tarbiyalashga èrdam beruvchi janrga aylanadi. Taqriz xarakteriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Masalan, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi taqrizda asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi. Tanqidiy èki publitsistik maqola taqrizlarida konkret asarga munosabat bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi. Esse (adabiy o'ylar) xarakteridagi taqrizlarda taqrizchi o'z fikr-tuyg'ularini, asarni o'qish jaraènida hosil bo'lgan taassurotlarini lirik tarzda ifodalaydi. Nihoyat, muallif o'z asariga ham taqriz èzishi mumkin (avtotaqriz). Bunda muallifning asarga qarashlari baèn qilinadi, èki u biron munosabat bilan munozaraga kirishadi.

O'zbek adabiètida taqriz XX asr boshlarida vaqtli matbuot bilan teng rivojlana boshlagan. Endilikda taqriz o'zbek adabiy tanqidchiligining eng muhim janrlaridan bo'lib qoldi. Oybek, Abdulla Qahhor, SHayxzoda, G'afur G'ulom kabi èzuvchilar,

O‘.Hoshimov, S.Husayn, Olim SHarafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, .Yoqubov, M.Qo‘shjonov, I.Haqqulov va boshqa olimlar o‘zbek adabiy haetida chuqur iz qoldirgan taqrizlarni yaratdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

2. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma) .-Toshkent, 2004.
4. Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) .-Toshkent, 2006.

25-mavzu Sohaviy matnga so‘z va termin tanlash. Agrar sohaga oid atamalarning o‘ziga xosligi

Reja:

1. Sohaviy atama va so‘zlarning kelib chiqishi, atamashunoslik masalalari
2. Atamalarning vazifaviy xususiyati
3. *Agrar sohaga oid atamalarning o‘ziga xosligi*

Tayanch tushunchalar: Soha atamaları, atamashunoslik masalalari, nutq uslubi, bir ma‘nolilik, ko‘p ma‘nolilik, atamshunoslikning rivoji, atamashunoslik lug‘atlari, faol va nafaol so‘zlar, atamaga xos xususiyatlar.

Ma‘lumki, tilshunoslikning eng dolzarb, g‘oyatda murakkab, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan sohasi atamashunoslikdir.

XX asrning 30-yillarida o‘zbek tilining ko‘plab atamashunoslik lug‘atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda atamalar tarixi, atamalarning ma‘no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo‘li va boyish manbalari haqida nazariy masalalari ham ishlab chiqildi.

Albatta, atamalarni o‘rganish ehtiyoji o‘z-o‘zidan kelib chiqqan emas. Barcha bilim sohalari bo‘yicha o‘zbek tilida ta‘lim berishni yo‘lga qo‘yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, o‘zbek tili lug‘at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda atamalarning ko‘payib borishi ularni (atamalarni) har tomonlama o‘rganish va tartibga keltirishga turtki bo‘lgan edi. Turli fan sohalariga mansub atamalar o‘zbek tilshunosligida dastlab, ya‘ni 20-30-yillarda, aksar hollarda sof amaliy maqsadlarni ko‘zlab o‘rganila boshlagan edi. To‘g‘ri, bu

davrdagi atamaning xususiyati u yoki bu atamani qanday qo'llash ruscha-baynalmilal va arabcha, forsha yoki umumturkiy islohlarning afzalligi haqida qator maqolalar, ayrim risolalar e'lon qilingan. Biroq bunday ishlar o'sha davrdagi keskin mafkuraviy, siyosiy kurash ruhi bilan hamohang, bog'liq bo'lganligi natijasida atamashunoslik, umuman, til masalalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan hal etilishida qator xatolarni keltirib chiqargan edi. Shunday bo'lsa-da, bu davrda atamalarni ko'proq amaliy jihatdan o'rganishga, fan sohalariga doir ayrim bir tilli, ko'p tilli ilmiy lug'atlar yaratishga kirishildi.

O'zbek tilshunosligida turli fan sohalariga oid atamalarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish urushdan keyin, asosan, 50-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; atama va atamashunoslikning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar ayrim fan sohalarida atamalarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi, atamalarga doir mukammal lug'atlar yaratishga kirishildi.

Hozirgi davrda o'zbek tilshunosligida turli fan sohalarida atamalarini jadallik bilan o'rganilmoqdaki, bu fan sohalarining yanada rivojlanishi va ularning ishlab chiqarishga tadbiq etilishi darajasi bilan, binobarin, atamalarning rivojlanishi va boyib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek tilshunosligida atamalarni atroflicha tadqiq etish bilan ularni tartibga solish va barqarorlashtirish singari amaliy masalalarga bag'ishlangan qirqa yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi, ko'plab monografiya va yuzlab ilmiy-nazariy maqolalar nashri e'lon qilindi, yuzga yaqin atamalogik lug'atlar chop etildi. Atamashunoslardan S.Ibrohimov, U.Tursunov, O.Usmonov, N.Mamatov, S.Akobirov, R.Doniyorov, H.Jamolxonov, N.Qosimov, D.Bazarova, A.Qosimov, A.Madvaliev va boshqalar o'z ilmiy ishlari, amaliy tavsiyalari bilan o'zbek atamashunosligining rivojiga u yoki bu darajada hissa qo'shdilar va qo'shmoqdalar.

1. Sohaviy atama va so'zlarning kelib chiqishi, atamashunoslik masalalari.

Atama – ma'lum fan yoki hunar sohasiga oid tushunchalarni qayd qilish, saqlash va bu sohada to'plangan bilim, tajriba, texnik mahorat va malakani boshqalarga berish vositasidir. Shuning uchun ilm -fan, texnika ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi atamalarning nazariy va amaliy qimmatini oshiradi. Mutaxassislarning bir-birini tushunish uchun, ilmiy va ilmiy pedagogik mutaxassislarni tayyorlashda, ilmiy, ilmiy

texnik adabiyotlar va darsliklarni yaratishda, ilmiy-statistik hisoboti, xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda sifatli va ko'pchilik ma'qullagan atama lug'atlarining bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ikki va ko'p tilli hamda izohli lug'atlarning tuzilishi uzoq davrlarni o'z ichiga oladi. Turkiy tillar bo'yicha lug'atlar qadimgi davrlardayoq tuzila boshlagan edi. M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» (XI asr) M.Zamahshariyning «Muqaddimat-ul adib» (XII asr) va boshqa qator asarlar shular jumlasidandir.

Birinchi rus-sart (o'zbek) lug'atlarining nashr etilishi 1906-17-yillarga to'g'ri keladi. 1902-yilda O'zbekiston maorif rahbarligi qoshida Atamashunoslik qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mita 1937-yilgacha ishladi. Umuman, turli lug'atlar tuzish ishlari 20-yillarda keng avj oldi. Bu yillarda yangi oliy o'quv yurtlari, Fan qo'mitasi, so'ngra O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil bo'ldi. Bu hol tabiiyki, fan taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Natijada ijtimoiy, siyosiy, ma'muriy va aniq fanlar sohasida yuzlab atamalarining kelib chiqishiga asos bo'ldi. Yangi atamalar rus va chet tillaridan bevosita qabul qilindi yoki ularning o'zbekcha muqobillari yaratildi.

Atamalar leksikaning tez o'zgaruvchan sohasidir. Atamalarni tanlash borasida 20-30 yillarda matbuotda katta kurash ketdi. Agar 1917-31 yillarda *vodorod*, *kislorod*, *uglevod* atamaları *muvalldulmo*, *muvalldulhamuza*, *homzi qarbut*, 1931-36-yillarda *suvchil*, *achchil*, *ko'mirgen*, tarzida qo'llanilgan bo'lsa, 1941-yildan boshlab esa *vodorod*, *kislorod*, *uglevod* shaklida tilde qo'llanila boshladi.

1984-yil O'zRFA Rayosati qoshida Respublika muassasalararo atamashunoslik qo'mitasi tuzildi. 1989-yilda bu qo'mita Respublika Vazirlar mahkamasi qoshiga ko'chirildi. Hozirda bu qo'mita atamashunoslik borasida qizg'in ish olib bormoqda. Fanning turli sohalariga oid 150 dan ortiq atama lug'atlari nashr etildi. Ammo bu sohada nazariya amaliyotdan orqada qolmoqda. Nashr qilingan lug'atlarda, matbuotda, ilmiy ishlarda birlik, izchillik yo'q. Buning asosiy sababi atamalar lug'ati tuzish tartib-qoidalarining ishlab chiqilmaganidir.

Hozirgi texnikaning yuqori taraqqiy etgan bir paytda adabiy til yanada zakovatli bir shaklga ega bo'lib muhitning ma'lum bir sohalar bo'yicha ixtisoslashi ro'y beradi. Shu sababli ham mutaxassislar bilan tilshunoslar va oddiy til ixlosmandlarini manfaatlari va qiziqishlari to'qnashadi. Bu to'qnashish munozara masalani to'g'ri hal

bo'lishiga muvofiq manzur atamani tanlab olishga yordam beradi va yagona yo'nalishni vujudga keltiradi.

Atama o'zi ifodaloyotgan tushunchani aniq ifodalashi kerak. Tilshunos olim G Shuhrat "atamashunoslikdagi noaniqlik, chalkashlik tuman ichidagi paroxodni boshqarish bilan barobar" degan edi. Atama qo'llashdagi aniqlik darhol ro'y bermaydi, yillar davomida tanlash, tartibga solish, nihoyat umumlashtirish, standartlashtirish orqali ro'y beradi.

Atamalarning aniqligi millatning, ma'rifati, madaniyati darajasini ko'rsatadi.

Umuman, ona tilida atamalarni puxta ishlanishi, tartibga solishni darslik qo'llanmalar tuzishi uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir etadi, chunki uslubning turli sohalarini yaratuvchi vositalardan biri atamadir.

Ma'lumki, so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlarning aniq ma'nosi kontekstda, gap tarkibida aniqlanadi. Bunday so'zlar nuqtning ta'sirli, jonli, ixcham va badiiy bo'lishida nihoyatda katta rol o'ynaydi. [Shu bilan birga](#), har bir tilda o'zining ishlatish doirasiga ko'ra cheklangan, asosini birgina ma'noga ega bo'lgan, birgina tushunchani ifodalaydigan so'zlar ham bo'ladi. Bunday so'zlar, xususan fan, texnika, sanoat, siyosat, til va adabiyot, hunarmandchilik kabi turli sohalarda uchraydi.

Atamalarning muhim xususiyati shundaki, ular ko'p ma'noli bo'lmaydi. Ko'chma ma'nolarda ishlatilishi nihoyatda kam uchraydi. Masalan, *operatsiya* atama sifatida 1) tibbiyot sohasida yorish, kesish, kesib olib tashlash va shu yo'llar bilan kasallikni tuzatish va davolash maqsadida. 2) harbiy sohada biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma'nosida. 3) davlat idoralarida rasmiy muomala (masalan: bank pochta operatsiyasi kabilar ma'nolarda qo'llaniladi).

Fan-texnika, adabiyot, san'at ishlab chiqarishning taraqqiy etib borishi bilan atamashunoslik ham rivojlanib boradi, ya'ni atamalar paydo bo'ladi. Ba'zi bir eskirib keraksiz bo'lib qolgan atamalar esa iste'moldan chiqib qoladi.

K.M.Musayev atamashunoslikni tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha atamashunoslik yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi.

Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Atamashunoslikni tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik shu bilan belgilanadi. Rus tilshunosi D. S. Lotte atamashunoslik bag'ishlangan asarlarda barcha sohaviy atamashunosliklar uchun umumiy bo'lgan quyidagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tgan.

2. Barcha atamashunoslik sistemalar uchun taniqli bo'lgan kamchiliklardan bir atamalarning ko'p ma'noliligidir. Bunda bir atama ikki va undan ortiq ma'nolarda qo'llaniladi.

3. Ikkinchi yirik nuqsonlardan biri atamalar sinonimiyasi hodisasidir. Atama-sinonim (dublet) lar deganda muayyan bir tushunchani ifodalash uchun ikki va undan ortiq atamaning muomalada bo'lishi tushuniladi.

4. Atamashunoslikdagi muayyan bir kamchilik bu ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi atamaning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligidir. Ba'zi holatlarda so'zning aynan ma'nosi bilan tushuncha mohiyati o'rtasidagi nomutanosiblik vujudga keladi.

5. Atamaning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylikdir. Bunday muayyan bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi atama ikki va undan ortiq komponentlardan iborat bo'ladi.

6. Atama talaffuzining noquylayligi. Bunday atamalar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy atamani yaratishda uning derivativlik imkoni imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi. 2) xorijiy atamani o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondashilmaydi.

7. Atamashunoslikdagi eng katta kamchilik bu atamashunoslikni keragidan ortiq miqdorda xorijiy atamalar bilan to'ldirib tashlashdir.

7. Ko'p hollarda ba'zi tushunchalarni ifodolovchi atamalar iste'molda mavjud bo'lmaydi. Natijada bunday tushunchalar o'ta muhim va ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

8. Yana bir kamchilik shuki, atama yaratishda u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblikni yetishmasligidir.

D.S.Lotte tomonidan ko'rsatib o'tilgan barcha soha atamashunosliklariga oid bu kamchiliklar, oradan 40 yildan ortiq vaqt o'tishiga qaramasdan bugungi kunda ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmasdan turibdi.

Ma'lumki, atamashunoslik lug'atlar ham soha atamashunosligini tartibga solishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Akademik G' Abdurahmonov atamashunoslik lug'atlarni ma'lum fan sohasiga xizmat qilibgina qolmay atamalarni tartibga solish, takomillashtirish hamda standartlashtirishda ham muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tgan. Atamashunoslik lug'atlar uchun atama tanlash nihoyatda mas'uliyatli ish. Chunki har bir atama ma'lum tushunchani to'g'ri ifodalashi o'zi ifodalangan sohaga va ayni chog'da ona tili qonuniyatlariga mos bo'lishi shart. Tanlangan atama bir ma'noli, ixcham so'z yoki birikmadan iborat bo'lishi, qolaversa u sinonimlarga ega bo'lmasligi kerak. Atamashunoslik lug'atlar bir tilda yoki ikki tilda tuzilib, uning vazifasi har bir sohadagi atamalarni izohlab, tushuntirib berishdan iborat. Bunday lug'atlar "Maxsus lug'atlar", ya'ni "Soha lug'atlari" deb ham yuritiladi. Atamashunoslik lug'atlari har qaysi soha bo'yicha tuziladi. Ilmiy uslubda atamalar alohida o'rinni egallaydi.

Atamashunoslikda ilmiy uslubning alomatlari yetakchi deb tan olingan. Hozirgi zamon fani va texnikasi differensiyalashish va maxsuslashish bilan xarakterlanadi. Masalan, zamonaviy fanlar 500 dan ortiq soha va tarmoqlarga bo'linib ketganki, ularning har qaysisi o'zining takomillashtirilgan atamashunosligiga ega. Shu bilan birga fan va texnikaning barcha soha va tarmoqlari maxsuslashgan bo'lishi bilan bir qatorda umumiy hamdir, binobarin, ular soha mutaxassislarining tor manfaatlari bilan cheklanib qolmaydi. Pirovardida, atamalar aniq amaliy ishlarda qo'llash uchun qulay bo'lmog'i lozim.

1. Atamalarning vazifaviy xususiyati. Ma'lumki, so'zlar nutqimizda qo'llanish doirasiga ko'ra faol va nafaol kabi turlarga bo'linadi. Kundalik turmushimizda keng qo'llanishda bo'lgan so'zlar faol so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar sirasiga *ota, ona, aka, uka, opa, singil, ish non, kitob, maktab, muallim, daftar, paxta, uy, meva, tuz, choy, o'quvchi, olov, yaxshi, yomon, yemoq, kiymoq, pishirmoq, bormoq, kelmoq, bir, besh, o'n, yuz* va boshqa shu kabi so'zlar kiradi. Kundalik turmushda kam qo'llanadigan, barcha uchun birdek tushunarli bo'lmagan ayrim so'zlar nafaol so'zlar guruhini tashkil etadi. Nafaol so'zlar sirasiga bugungi kunda iste'moldan chiqqan *bilga, ulus, hoqon, budun, tilmoch, bitik, o'miz* kabi arxaizmlar; yaqin o'tmishga qadar keng qo'llanishda bo'lgan va tarixiy jarayon tufayli iste'moldan chiqqan *mirshab, yuzboshi, darvesh, qalandar, amir, qul, cho'ri, kaniz, o'lpon, sovut, paranjji, mirza, zindon, qozi* kabi

istorizmlar; ilm-fan, texnika rivoji bilan bog'liq tarzda tilimizda paydo bo'layotgan, boshqa tillardan kirib o'rtnashayotgan *menejer, menejment, broker, nou-xou, shou, lizing, kliring, sertifikat, litsenziya* kabi neologizmlarni kiritish mumkin.

Umumis'temoldagi so'zlar bir yoki bir necha ma'noga egaligi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, *bug'doy, no'xat, ajriq, terak, piyola, o'rdak, qumursqa, qurt, oltmish, men, sen, o'rik, shaftoli* kabi so'zlar bir ma'noli bo'lsa, *burun, yuz, ko'z, qirq, qir, sur, tur, to'r, bo'z, tuz, uy, qo'y, tol, quloq, bo'l, tor* kabi yuzlab, minglab so'zlarning har biri bir nechadan qo'shimcha ma'nolarga ham egadir. Buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy asarlarida birgina "*shoh*" so'zi, *shoh, podshoh, olloh, tangri, eng go'zal, sabrli shaxmatning bosh donasi* kabi mustaqil ma'nolardan tashqari birikma holida yana 54 ma'noda qo'llanganligi "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" 3-tomida qayd etilgan. Mana shu birgina misolimizning o'ziyoq o'zbek tilining naqadar boyligidan, so'zlarining serjiloligi, ko'p ma'noliligidan dalolat beradi.

So'zlar umumxalq tiliga, adabiy tilga yoki ma'lum shevagagina xosligi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ham so'zlarning talaffuz etilishi orqali ularning ma'lum shevaga, ma'lum hududga xos fonetik, leksik yoki morfologik belgilarigina farqlanib qolmasdan, nutq egasining kekxa yoki yoshligi, ayol yoki erkakligi, ma'lumoti, kasb-kori, hayotiy tajribasi, lug'at boyligi, madaniyatidan ham darak berib turadi.

Tilda shunday so'zlar ham borki, ular ma'lum bir fan (masalan, tilshunoslikka oid *tovush, fon, fonema, ega, kesim, aniqlovchi, aniqlanmish, sifatlovchi, sifatlanmish, to'ldiruvchi, hol, gap, undalma* va h.), texnika (*kalit, ko'targich, qisqich, gayka, shayba, bolt* va h.), sport (*to'p, to'r, darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol* va h.), madaniyat (*sahna, musiqa, qo'shiq, lapar, raqs, ijro, soz, nutq* va h.)ga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so'zlar atamalar (terminlar) deb yuritiladi. Ularni o'rganuvchi soha esa atamashunoslik (terminologiya) deb ataladi.

Atama so'zini Abdurauf Fitrat 1927-yilda nashr etilgan "Nahf" kitobida birinchi bo'lib qo'llagan bo'lsa-da, bu so'z XX asrning 90-yillariga kelibgina keng ishlatila boshladi. Ilmiy adabiyotlarda asosan "termin" so'zi qo'llanishda bo'ldi.

A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da terminga shunday ta'rif beriladi: "Termin – lotincha terminus – chek, chegara, chegara belgisi. Fan,

texnika va boshqa sohalarga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressiya va emotsionallikka ega emasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmol soʻzlaridan farqlanadi”.

Keltirilgan taʼrifdan ham maʼlum boʻladiki, atamalar oʻzi tegishli sohaga doir maʼlum bir tushunchani ifodalab, faqat bir maʼnodagina qoʻllanishi lozim. Shuning uchun ham atamalar nafaqat maʼlum bir soha xodimlari uchun, balki u qoʻllanishda boʻlgan til egalari uchun ham umumiy hisoblanadi.

Atamaning koʻp maʼnoli boʻlishi har qanday fan uchun ham ijobiy hol hisoblanmaydi. Chunki uning koʻp maʼnoda qoʻllanishi maʼlum fan yoki shu atama tegishli boʻlgan sohada noaniqliklar keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham atamalar oʻzining bir maʼnoliligi, betarafligi (neytral), ijobiy yoki salbiy boʻyoqqa ega boʻlmasligi, maʼlum fan yoki sohaga xosligi bilan soʻzlardan farq qiladi. Toʻgʻri, har qanday atama soʻzdir. Shuning uchun ham atama vazifasini bajarayotgan soʻz maʼlum fan yoki sohadan tashqarida oʻz sinonimlari qatorida yoxud oʻzining bosh va koʻchma maʼnolari bilan nutqda faol qoʻllanaverishi mumkin. Masalan, *tuproq* soʻzi biologiya, ekologiya, qishloq xoʻjaligiga oid fanlar uchun atama boʻlsa, umumxalq tilida *tuproq* – vatan, yurt, qabr, sigʻinadigan muqaddas joy maʼnolarida qoʻllanishi mumkin. Tildagi barcha soʻzlar atama boʻlmasligi mumkin. Chunki atamalar miqdor jihatidan cheklangan boʻlsa, tildagi soʻzlar son-sanoqsizdir.

Nazorat uchun savollar

1. Soha atamalari va atamashunoslik masalalari deganda nimani tushunasiz?
2. Atamalarning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Sohaviy atamashunoslikda bugungi kunda qanday kamchiliklar uchraydi?
4. A. Fitrat oʻzining qaysi asarida atama haqida mulohaza yuritadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yoʻldosheva O. Oʻzbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.
2. Mahmudov N., Rafiev A., Yoʻldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (oʻquv qoʻllanma) . - Toshkent, 2004.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yoʻldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) . - Toshkent, 2006.

26-mavzu Soha nutqida monolog, diolog, poliloglarning qo'llanilishi.

Monologik nutq haqida tushuncha va uning shakllari.

Reja:

1. Monologik nutq
2. Diologik nutq
3. Polilogik nutq haqida tushuncha

Og'zaki nutqiy muloqatga o'rgatish tinglab tushunish va gapirish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda gapiruvchi axborot berish jarayonida nutqiy muloqatni amalga oshirsa, tinglovchi esa uni tinglash va tushunib olish orqali nutqiy muloqatni amalga oshiradi

Suxbat davomida gapiruvchi bilan tinglovchi rollari almashib turiladi. Og'zaki nutqiy muloqat bir tomonga yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin. Bunda birinchi shaxs faqat gapiradi, ikkinchi shaxs va qolganlari faqat tinglaydi.

Monologik nutq - so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning Monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan Monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma Monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruk-siyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Mas, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) Monologik nutq, dramatik Monologik nutq, lirik Monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) Monologik nutq Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari mavjud; ochiq Monologik nutqda personaj o'z nutqini ovoz chiqarib bayon

[etadi](#); ichki Monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o‘ylari shaklida namoyon bo‘ladi

Monologik nutq turlari

1. xikoya2. ta‘riflash
3. tasvirlash
4. muxokama
5. ma‘ruza

Monologik nutqning xususiyatlari

1. Monologik nutq faqat bir tomonga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
2. U rejali bo‘ladi.
3. U qisman tayyorlangan bo‘ladi‘
4. U uzilmay davom etadi.
5. U rejali bo‘lganligi sababli mantiqiy davom etadi.
6. U bir kontekst , matn asosida olib boriladi.
7. Unga vositalar , tayanchlar, sharoit ta‘sir ko‘rsatadi.
8. Uslub ta‘sir qiladi.
9. Monolog ta‘sirchan, ma‘lumotli, his-xayajonli bo‘ladi, kimgadir nimagadir qaratiladi.
10. Nutq vaziyatli bo‘ladi. Bir sharoitni, vaziyatni ko‘zda tutadi.

Monologik nutqning quyidagi lingvistik qiyinchiliklari xususiyatlari ham muxim o‘rin tutadi, ular tasirini ko‘rsatadi

1. Talaffuzi qiyin so‘zlarning ishlatilishi.
2. Gaplarning kitob uslubiga mansubligi.
3. Nutqni bayon qilishga bog‘liqlik bo‘lishi.

1993-yilda chiqarilgan dasturda bayon qilinishicha monologik nutq :

5 – sinfda 5-7 ta jumla

6- sinfda 7 ta jumla

7- sinfda 9 [ta jumla](#)

8-sinfda 8-10 jumladan

iborat bo‘lishi kerak.

Tavsifiy (monologik) matn soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, maʼlumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi.

Maʼlum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan taʼriflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyat ifodalovchi soʻzlar, atamalar, modal soʻzlar, feʼlning funksional shakllari, ravishlar faol qoʻllanadi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq boʻlaklar, ajratilgan gap boʻlaklari, atov gaplar, qoʻshma gap koʻrinishlaridan ham keng foydalaniladi. Tavsifiy matn ilmiy, [publisistik](#), rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

Alohida bir kishiga taalluqli boʻlgan nutq monologik nutq sifatida baholanadi. Bu nutq ikki xil koʻrinishga ega: ochiq nutq va ichki nutq.

Ochiq nutq jamoaga qaratilgan boʻladi va turli xarakterdagi yigʻilishlarda – qurultoylarda, sessiyalarda, ilmiy anjumanlarda, dars jarayonida, hisobot yigʻilishlarida, har xil jamoalarning majlislarida, uchrashuvlarda, bayramlarda, toʻy-tomoshalarda, tugʻilgan kunlar, doʻstlar uchrashuvi singari kichik davralarda, motam mitinglarida soʻzlanadi. Bu yigʻilishlarning mazmuni turlicha boʻlganligi sababli ularda soʻzlanadigan monologik nutq xarakteri ham bir-biridan farq qiladi. Masalan bayramlar, [uchrashuvlar](#), toʻy-tomoshalar, tugʻilgan kunlar tantanali tarzda kechadigan yigʻinlar boʻlganligi tufayli ularda soʻzlanadigan nutq ham tantanali ruh asosiga qurilgan boʻladi. Hisobot yigʻilishlari va jamoalarning (ishlab [chiqarish](#), rejalashtirish) majlislari rasmiy xarakterda boʻladi. Qurultoy va sessiyalar keng qamrovli yigʻilishlar boʻlganligi tufayli ularda rasmiylik ham, norasmiylik va tantanavorlik ham boʻladi. Mavzuga qarab har xil faktlar, raqamlar keltiriladi. Motam mitingida soʻzlanadigan nutq esa yuqoridagi nutqlarning barchasidan tubdan farq qiladi.

Nutq mavzusining bu tarzda turli-tuman boʻlishi ular uchun til vositalarining ham tanlab ishlatilishini taqozo qiladi. Vaziyatga qarab kishilarga tantanavor ruh beradigan, ularni ilhomlantiradigan, safarbarlikka undaydigan, his-tuygʻularini junbushga keltiradigan, masʼuliyatini oshiradigan, tartib-intizomga chaqiradigan, taʼlim-tarbiya berishga qaratilgan yoki shunchaki axborot berishga qaratilgan til vositalari tanlanadi.

Motam marosimida soʻzlangan nutq esa mazmuni bilan ham, tanlangan soʻzlari bilan ham, tuzilishi bilan ham yuqoridagi nutq turlaridan tubdan farqlanadi.

Soʻzlovchining har bir nutqni soʻzlash jarayonida oʻzini tutishi, [harakatlari](#), hatto kiyinishi ham farq qiladi. Boshqacha aytganda, farq qilishi kerak. Masalan, Oliy Majlis sessiyasiga toʻn kiyib [borish odob sanalmagani kabi](#), azaga eʼtiborni tortadigan yaltiroq kiyimlarni kiyib borish yoki lab va qosh-koʻzlarni boʻyab borish ham maʼqul emas.

Demak, har bir monologik nutqiy vaziyat soʻzlovchidan alohida bir munosabatni va masʼuliyatni talab qiladi. Ayni paytda, ularning barchasi uchun, avvalgi mavzularni yoritishda taʼkid lab oʻtilganidek, umumiy boʻlgan qoidalar ham mavjud. Bu dastlab soʻzlanadigan nutqning qolipi – rejasi boʻlishi. Qayerda va qanday vaziyatda soʻzlanishidan qatʼi nazar, har bir nutq maʼlum reja asosida boʻlishi, auditoriya, vaqt hisobga olinishi lozim. Boshqacha aytganda, nutq soʻzlashdan maʼlum maqsad boʻlishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga taʼsir oʻtkazish, taʼsir oʻtkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, oʻzini tutishning ham taʼsirchan vositalaridan foydalanish kerak boʻladi. Adabiy asarda monologning ichki koʻrinishi xarakterli boʻlib, badiiyat manfaati nuqtai nazaridan ular alohida vazifa bajaradi. Shuning uchun Said Ahmad: «Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki ichidan gapirtirilgandagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonning ichki olamini, ichidagi boʻlgan ohangni, ichki dardni yozuvchi oʻz tili bilan olib chiqadi» yegan edi. Prof.B.Yoʻldoshev «Badiiy nutq stilistikasi» nomli kitobida oʻzining ana shu qarashlariga amal qilgan yozuvchi asarlari («Turnalar», «Alla», «Oʻrik domla», «Ufq»,) misolida ularning obrazni individuallashtirish va xarakter yaratishdagi vazifalari xususida mulohaza yuritib, dialogik va monologik nutq tahliliga keng toʻxtalgan va ularni badiiy nutq uslubidagi bayon usullari sifatida koʻrsatib bergan.

Darhaqiqat, yozuvchi qoʻlida ichki monolog qahramon qiyofasini oʻquvchi koʻz oldida butun borligʻi va murakkabligi bilan gavdalantirishga xizmat qila oladigan kuchli badiiy vosita boʻla oladi. «Shaytanat»dagi Asadbek oʻquvchi koʻz oʻngida har ishga qodir boʻlgan qudratli kishi sifatida namoyon boʻlgan. Ammo u ham hamma qatori inson. Bedavo dard – saraton kasaliga yoʻliqqanda uning xayolidan oʻtgan kechinmalarni yozuvchi quyidagicha beradi: Toʻyib-toʻyib nafas olishga tor boʻlib

o‘laman. Jonim yo‘tal bilan chiqsa o‘lganimni bilmay ham qolishadi. Birov xabar olguncha sasib yotaveraman. Jag‘imni tang‘ishadi, oyoqlarimni bog‘lashadi. Dod-voy... Kim yig‘laydi? O‘g‘illarim uzoqda. Zaynab dod solar balki... Yana bir-ikki xotin qo‘shilar., Xotinlarning yolg‘ondan bo‘lsa ham yig‘lab turgani yaxshi. Bo‘lmasa bu uydan o‘lik chiqqanini birov bilmaydi. Xotinlarning yig‘isisiz o‘likning ham fayzi bo‘lmasa kerak. Manzura yetib kelsa bu yog‘ini o‘zi eplashtiradi! Yo‘-o‘q... u yig‘lamaydi. Jalilning onasi o‘lgandamidi... ha, o‘shanda yig‘isini eshitib «Dodlashni ham o‘rniga qo‘yar ekansan, o‘lsam maza qilib eshitib yotaman», deb hazillashganimda «Voy adasi, xotinlar eriga yig‘lamaydi, ayb bo‘ladi», degan. Qiziq, nima uchun ayb bo‘ladi? Manzuraning yig‘lashi shart ham emas. Balki...qutulganiga shukur qilar?.. Menga tekkanidan beri boshi tashvishdan chiqmaydi. [Endi yayrayman](#), deganida bolalarni o‘qishga jo‘natdim. Keyin chet elga yubordim. Ularni sog‘indi. Sog‘indi-yu, «Sog‘inayapman», deb zorlanishga mendan qo‘rqdi. Qiziq... urmasam ham mendan qo‘rqadi-ya... Zaynabning tashvishi uni tamom qildi. Yaxshi hamki keyingi voqealardan uzoqroqda. Bilsa yuragi yorilib ketardi, Kelinlarini boshlab kelib rohat ko‘raman, deganida men cho‘zilib yotsam. Bir jihatdan u kelgumcha jo‘navorganim ham yaxshi. O‘ligimni ko‘rmasa bir-ikki kun yig‘lab, keyin ko‘nikib qoladi. Meni tanish-bilishlarimning o‘zlari joyimga olib borib qo‘ya qolishadi. Janozaga tizilishadi. Domla aql o‘rgatadi. Nima deydi? «Odam oxir-oqibat o‘lmoq uchun bu dunyoga keladi», deydimi? «Pensiyaga chiqqandan keyin namoz o‘qiyman, deb kutmanglar, mana bu birodarimiz ham pensiya yoshiga yetmabdilar. O‘lmasingizdan oldin bir marta bo‘lsa ham peshonangiz joynamozga tegsin», deydi-mi? Yo «Yog‘och otga minib kelmasingizdan avval o‘z oyog‘ingiz bilan masjidga kelib turing», deydimi? Keyin «Marhumning yaqinlari kim?» deb so‘raydi. Kim chiqadi? Haydarmi? Mahmudmi? Yo‘q, Jalil chiqadi. «Marhum birovdan qarz olgan bo‘lsa, to‘layman» deb so‘z beradi. Tentak. Mening kimdan qarzim bor ekan? Odamlar mendan qarz. Lekin ular qarzlarini keltirib berishmaydi. O‘lganimdan xursand bo‘lishadi. Balki o‘shalar «Tezroq o‘la qolsin» deb duo qilishayotgandir. Men Jalildan qarzman. Ha... qarzim bor undan. Hovli joy olib berishim kerak edi. Mahmudga tayinlab qo‘yishim kerak, mendan keyin olib bersin. Keyin ko‘tarishadi. Tobutning bir chekkasidan ushlash savob ekan. Meni ko‘tarish ham savobmi? Odam yig‘iladi? Yuztami, mingtami? [Shundan qanchasi](#)

[xursand](#), qanchasi xafa?.. Joyimga yotqizishib, bir kaftdan tuproq tashlashadi. Joyim., joyim qop qorong‘i lahadmi? Keyin «Asadbek qanaqa odam edi?» deb so‘rashadi. «Yaxshi odam edi», deyishadi. Ha... Bu gaplari to‘g‘ri bo‘ladi. Dunyodagi eng yaxshi odam – o‘lik odam. Chunki u birovga yomonlik qilmaydi.

Asadbek qanchalik mag‘rur inson bo‘lmasin, u ham o‘limga tan berishga majbur. Mana shunday paytda atrofdagilari birma-bir uning ko‘z oldidan o‘tadi. Ularning munosabatini Asadbek qanday tushunishini ochishda ichki monologning xizmati va vazifasi ana shundan iborat bo‘ladi.

Xullas, bu har ikkala nutq ham qanday vaziyatda ijro etilishidan qat‘i nazar ular muallifning dunyoqarashi va maslagini, ma‘naviyati va madaniyatini o‘zida mujassam qiladi. Insonning saviyasi qanday bo‘lsa, uning muomalasi ham shunday bo‘ladi. Bu har ikkala nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olganimizdan keyin biz ham vaziyatga qarab so‘zlashimiz va har bir nutqiy vaziyatdan o‘z maqsadimizdan kelib chiqib unumli foydalanishimiz, bor imkoniyatimizni tinglovchilarning hurmat e‘tiborini qozonishga qaratishimiz lozim bo‘ladi.

Alohida bir kishiga taalluqli bo‘lgan nutq monologik nutq sifatida baholanadi. Bu nutq ikki xil ko‘rinishga ega: ochiq nutq va ichki nutq.

Ochiq nutq jamoaga qaratilgan bo‘ladi va turli xarakterdagi yig‘ilishlarda – qurultoylarda, sessiyalarda, ilmiy anjumanlarda, dars jarayonida, hisobot yig‘ilishlarida, har xil jamoalarning majlislarida, uchrashuvlarda, bayramlarda, to‘y-tomoshalarda, tug‘ilgan kunlar, do‘stlar uchrashuvi singari kichik davralarda, motam mitinglarida so‘zlanadi. Bu yig‘ilishlarning mazmuni turlicha bo‘lganligi sababli ularda so‘zlanadigan monologik nutq xarakteri ham bir-biridan farq qiladi. Masalan bayramlar, uchrashuvlar, to‘y-tomoshalar, tug‘ilgan kunlar tantanali tarzda kechadigan yig‘inlar bo‘lganligi tufayli ularda so‘zlanadigan nutq ham tantanali ruh asosiga qurilgan bo‘ladi. Hisobot yig‘ilishlari va jamoalarning (ishlab chiqarish, rejalashtirish) majlislari rasmiy xarakterda bo‘ladi. Qurultoy va sessiyalar keng qamrovli yig‘ilishlar bo‘lganligi tufayli ularda rasmiylik ham, norasmiylik, va tantanavorlik ham bo‘ladi. Mavzuga qarab har xil faktlar, raqamlar keltiriladi. Motam mitingida so‘zlanadigan nutq esa yuqoridagi nutqlarning barchasidan tubdan farq qiladi.

Nutq mavzusining bu tarzda turli-tuman bo'lishi ular uchun til vositalarining ham tanlab ishlatilishini taqozo qiladi. Vaziyatga qarab kishilarga tantanavor ruh beradigan, ularni ilhomlantiradigan, safarbarlikka undaydigan, his-tuyg'ularini junbushga keltiradigan, mas'uliyatini oshiradigan, tartib-intizomga chaqiradigan, ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan yoki shunchaki axborot berishga qaratilgan til vositalari tanlanadi. Motam marosimida so'zlangan nutq esa mazmuni bilan ham, tanlangan so'zlari bilan ham, tuzilishi bilan ham yuqoridagi nutq turlaridan tubdan farqlanadi.

So'zlovchining har bir nutqni so'zlash jarayonida o'zini tutishi, harakatlari, hatto kiyinishi ham farq qiladi. Boshqacha aytganda, farq qilishi kerak. Masalan, Oliy Majlis sessiyasiga to'n kiyib borish odob sanalmagani kabi, azaga e'tiborni tortadigan yaltiroq kiyimlarni kiyib borish yoki lab va qosh-ko'zlarni bo'yab borish ham ma'qul emas.

Demak, har bir monologik nutqiy vaziyat so'zlovchidan alohida bir munosabatni va mas'uliyatni talab qiladi. Ayni paytda, ularning barchasi uchun, avvalgi mavzularni yoritishda ta'kidlab o'tilganidek, umumiy bo'lgan qoidalar ham mavjud. Bu dastlab so'zlanadigan nutqning qolipi – rejasi bo'lishi. Qayerda va qanday vaziyatda so'zlanishidan qat'iy nazar, har bir nutq ma'lum reja asosida bo'lishi, auditoriya, vaqt hisobga olinish lozim. Boshqacha aytganda, nutq so'zlashdan ma'lum maqsad bo'lishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga ta'sir o'tkazish, ta'sir o'tkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, o'zini tutishning ham ta'sirchan vositalaridan foydalanish kerak bo'ladi.

Adabiy asarda monologning ichki ko'rinishi xarakterli bo'lib, badiiyat manfaati nuqtai nazaridan ular alohida vazifa bajaradi. Shuning uchun Said Ahmad: «Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki ichidan gapirtirilgandagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonning ichki olamini, ichidagi bo'lgan ohangni, ichki dardni yozuvchi o'z tili bilan olib chiqadi» degan edi Prof.B.Yo'ldoshev «Badiiy nutq stilistikasi» nomli kitobida o'zining ana shu qarashlariga amal qilgan yozuvchi asarlari («Turnalar», «Alla», «O'rik domla», «Ufq»), misolida ularning obrazni individuallashtirish va xarakter yaratishdagi vazifalari xususida mulohaza yuritib, dialogik va monologik nutq tahliliga keng to'xtalgan va ularni badiiy nutq uslubidagi bayon usullari sifatida ko'rsatib bergan Darhaqiqat, yozuvchi qo'lida ichki monolog qahramon qiyofasini o'quvchi ko'z oldida

butun borlig'i va murakkabligi bilan gavdalantirishga xizmat qila oladigan kuchli badiiy vosita bo'la oladi. «Shaytanat»dagi Asadbek o'quvchi ko'z o'ngida har ishga qodir bo'lgan qudratli kishi sifatida namoyon bo'lgan. Ammo u ham hamma qatori inson. Bedavo dard – rak kasaliga yo'liqqanda uning xayolidan o'tgan kechinmalarni yozuvchi quyidagicha beradi: To'yib-to'yib nafas olishga zor bo'lib o'lamen. Jonim yo'tal bilan chiqsa o'lganimni bilmay ham qolishadi. Birov xabar olguncha sasib yotaveraman. Jag'imni tang'ishadi, oyoqlarimni bog'lashadi. Dod-voy... Kim yig'laydi? O'g'illarim uzoqda. Zaynab dod solar balki... Yana bir-ikki xotin qo'shilar... Xotinlarning yolg'ondan bo'lsa ham yig'lab turgani yaxshi. Bo'lmasa bu uydan o'lik chiqqanini birov bilmaydi. Xotinlarning yig'isisiz o'likning ham fayzi bo'lmasa kerak... Manzura yetib kelsa bu yog'ini o'zi eplashtiradi! Yo'-o'q... u yig'lamaydi. Jalilning onasi o'lgandamidi... ha, o'shanda yig'isini eshitib «Dodlashni ham o'rniga qo'yar ekansen, o'lsam maza qilib eshitib yotaman», deb hazillashganimda «Voy adasi, xotinlar eriga yig'lamaydi, ayb bo'ladi», degan. Qiziq... nima uchun ayb bo'ladi? Manzuraning yig'lashi shart ham emas. Balki... qutulganiga shukur qilar?.. Menga tekkanidan beri boshi tashvishdan chiqmaydi. Endi yayrayman, deganida bolalarni o'qishga jo'natdim. Keyin chet elga yubordim. Ularni sog'indi. Sog'indi-yu, «Sog'inayapman», deb zorlanishga mendan qo'rqdi. Qiziq... urmasam ham mendan qo'rqadi-ya... Zaynabning tashvishi uni tamom qildi. Yaxshi hamki keyingi voqyealardan uzoqroqda. Bilsa yuragi yorilib ketardi. Kelinlarini boshlab kelib rohat ko'ramen, deganida men cho'zilib yotsam... Bir jihatdan u kelguncha jo'navorganim ham yaxshi. O'ligimni ko'rmasa bir-ikki kun yig'lab, keyin ko'nikib qoladi... Meni tanish-bilishlarimning o'zlari joyimga olib borib qo'ya qolishadi. Janozaga tizilishadi. Domla aql o'rgatadi. Nima deydi? «Odam oxir-oqibat o'lmoq uchun bu dunyoga keladi», deydimi? «Pensiyaga chiqqandan keyin namoz o'qiyman, deb kutmanglar, mana bu birodarimiz ham pensiya yoshiga yetmabdilar. O'lmasingizdan oldin bir marta bo'lsa ham peshonangiz joynamozga tegsin», deydimi? Yo «Yog'och otga minib kelmasingizdan avval o'z oyog'ingiz bilan masjidga kelib turing», deydimi? Keyin «Marhumning yaqinlari kim?» deb so'raydi. Kim chiqadi? Haydarmi? Mahmudmi? Yo'q, Jalil chiqadi. «Marhum birovdan qarz olgan bo'lsa, to'layman» deb so'z beradi. Tentak. Mening kimdan qarzim bor ekan? Odamlar mendan qarz. Lekin ular qarzlarni keltirib berishmaydi.

O'lganimdan xursand bo'lishadi. Balki o'shalar «Tezroq o'la qolsin» deb duo qilishayotgandir... Men... Jalildan qarzman. Ha... qarzim bor undan. Hovli-joy olib berishim kerak edi. Mahmudga tayinlab qo'yishim kerak, mendan keyin olib bersin. Keyin... ko'tarishadi. Tobutning bir chekkasidan ushlab savob ekan. Meni ko'tarish ham savobmi? Odam yig'iladi? Yuztami, mingtami? Shundan qanchasi xursand, qanchasi xafa?.. Joyimga yotqizishib, bir kaftdan tuproq tashlashadi. Joyim... joyim qop-qorong'i lahadmi? Keyin... «Asadbek qanaqa odam edi?» deb so'rashadi. «Yaxshi odam edi», deyishadi. Ha... Bu gaplari to'g'ri bo'ladi. Dunyodagi eng yaxshi odam – o'lik odam. Chunki u birovga yomonlik qilmaydi.

Asadbek qanchalik mag'rur inson bo'lmasin, u ham o'limga tan berishga majbur. Mana shunday paytda atrofdagilari birma-bir uning ko'z oldidan o'tadi. Ularning munosabatini Asadbek qanday tushunishini ochishda ichki monologning xizmati va vazifasi ana shundan iborat bo'ladi.

Xullas, bu har ikkala nutq ham qanday vaziyatda ijro etilishidan qat'iy nazar ular muallifning dunyoqarashi va maslagini, ma'naviyati va madaniyatini o'zida mujassam qiladi. Insonning saviyasi qanday bo'lsa, uning muomalasi ham shunday bo'ladi. Bu har ikkala nutqning o'ziga xos xususiyatlarini bilib olganimizdan keyin biz ham vaziyatga qarab so'zlashimiz va har bir nutqiy vaziyatdan o'z maqsadimizdan kelib chiqib unumli foydalanishimiz, bor imkoniyatimizni tinglovchilarning hurmat-e'tiborini qozonishga qaratishimiz lozim bo'ladi.

Dialog nutq shakllaridan biri bo'lib, unda har bir fikr to'g'ridan-to'g'ri suhbatdoshga qaratilgan bo'ladi. Dialogik nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi. Dialog fikrlarning qisqaligi bilan ajralib turadi. Unda suhbatni davom ettirish uchun eng zarur narsalargina ifodalanadi. Voqealar keng izohlanmaydi. Shu jihatdan ham dialog monologga o'xshamaydi. *Dialog so'roq, buyruq va darak* gaplardan tashkil topadi.

Qozi (kirib). *Ha, keldimi?*

Mullado'st. *Ha taqdir, ichkaridalar.*

Qozi (kira turib). *Eshikdan boxabar bo'lib turing.*

Mullado'st. *Xo'p, eshik bizning haramimiz bo'lib qoldi-ya... (chiqar)*

Qozi. *Ha, Maysara opa, keling, o‘tiring, o‘tiring!*

Maysara (ta‘zim bilan). *Taqsirim, keldim. (O‘tirib) Ammo bir xizmatni bajo keltirolmadim. Lekin erta oqshom mahbuba bilan suhbatlari muborak bo‘lsin... (Hamza, «Maysaraning ishi»)*

Polilog. Ikkidan ortiq ishtirokchilarning [nutqidan tuzilgan suhbat](#) **polilogdir**. Polilog hamma til xususiyatlari jihatidan dialogning o‘zidir. Faqat unga suhbatdoshlarning soni ko‘proq bo‘ladi. So‘zlovchi o‘rtaga tashlagan muammoga birdan ortiq ishtirokchi o‘z fikrlarini bildirishi mumkin.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat.

Ikki kishi o‘rtasidagi dialogik nutq, *savol-javob, buyruq-javob, xabar-e‘tiroz* kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi *tasdiq, yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani* bildiradi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo‘lmay, *o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da‘vat, biror xabar, dalillar* bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida *so‘roq, [olmoshlari](#), muomala* odobiga oid so‘z va iboralar, *yuklamalar, undovlar, kirish* so‘zlar keng qo‘llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibili turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

So‘zlovchining bayon etayotgan fikriga munosabatini bildiradigan so‘z birikmasi **kirish so‘z** deyiladi.

Kirish so‘zlar vazifasida modal so‘zlar, ayrim yuklamalar ba‘zi tartib sonlar (*birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi* kabi) keladi.

Kirish so‘zlar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so‘zlovchi o‘zi qo‘llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini tanlab qo‘llaydi. Masalan, shaksiz, [shubhasiz](#), darhaqiqat, demak, fikri ojizimcha, avvalambor kabi kirish so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlardir. Ulardan, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalombor, fikri ojizimcha so‘zlari kitobiy uslubga xos. Kitobiy uslubga xos bu so‘zlar o‘z ichida ichki xoslanishga ega: shaksiz, fikri ojizimcha – badiiy uslubga xos; bayon

qilinishicha – publitsistik uslubga xosdir. Shuning uchun har qaysi kirish soʻzini oʻz oʻrnida ishlatish madaniy nutq belgisi sanaladi.

His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish maʼnolarini ifodalaydigan soʻzlarga undov soʻzlar deyiladi.

Undov soʻzlar ham xuddi modal soʻzlar kabi qoʻshimchalar olib oʻzgarmaydi. Masalan, *hoy* soʻzi kelishik, egalik qoʻshimchalari olmaydi. Unga yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib yangi soʻz yasalmaydi.

Ayrim undov soʻzlar otlashganda, yaʼni ot vazifasida qoʻllanganda, egalik qoʻshimchasini olishi mumkin. Masalan, *Ohi olamni tutdi*. Bu oʻrinda *ohi* nimasi soʻrogʻiga javob boʻlib, oh deyishning, nola qilishning nomini bildirib kelyapti.

Undovlar maʼno jihatdan ikki turli boʻladi:

1. *His-hayajon undovlari.*

2. *Buyruq-xitob undovlari.*

Undovlar boshqa soʻzlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Baʼzan kishilarning undov soʻzlar orqali [ifodalagan his-hayajonini](#), buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov soʻzlarga *demoq, solmoq, urmoq, tortmoq* singari feʼllar qoʻshilib keladi va qoʻshma feʼllar hosil boʻladi: *voy demoq, dod solmoq, oh urmoq, oh tortmoq, pisht demoq* kabi.

Undovlar undov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov soʻz turli ohang bilan talaffuz qilinib, turli xil maʼnolarni ifodalashi mumkin. Masalan, *Hay-hay, qanday mazali (rohatlanish, zavqlanish); Hay-hay, tegma (buyurish); Hay-hay, yigitlar bu yoqqa! (undash, taʼkidlash); Hay-hay, shakkoklik qilmang (fikrdan qaytarish)* va boshqalar.

Nutq jarayonida soʻzlovchilarning yoshi, amali nuqtayi nazaridan undovlardan foydalanish ham maʼlum darajada farq qiladi. Xususan, oʻzidan katta yoshdagilarga murojaat qilinganda yoki maʼlum lavozimni egallagan shaxslarga uning qoʻl ostida ishlayotgan shaxslar *hoy* deb murojaat etmaydi yoki *balli* undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yoki qilayotgan ishlaridan [mamnunligini ifodalash](#), ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Shuningdek, undovlar ogʻzaki soʻzlashuv, badiiy, qisman publitsistik uslubda keng qoʻllanilib, rasmiy va ilmiy uslubda qoʻllanilish doirasi cheklangan. Baʼzan xat janrida, maʼlum voqea-hodisalar bayoni yuzasidan oʻzaro maktublarda yoki ishqiy maktublarda, undovlar qoʻllanilishi mumkin. Rasmiy doiralarning xatlarida undovlar qoʻllanilmaydi. Sababi – rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtirolardan holi boʻladi.

Tabiatda insondan tashqari juda koʻplab tirik jonzorlar yashaydi. Ularda ham oʻziga xos nutq apparati mavjud. Mana shu nutq apparati yordamida ular turli-tuman ovoz chiqaradilar. Itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, tovuqning qoqogʻlashi hech birimizga yot emas. Bundan tashqari, tevarak-atrofimizda beadad voqea va hodisalar sodir boʻlib turadi: narsalar bir-biriga tegadi, uriladi. Natijada har xil ovozlar hosil boʻladi. Inson oʻz faoliyati davomida mana shu ovozlarga taqiid qilishga urinadi. Tilshunoslikda bunday ovozlar taqlid soʻzlar atamasi bilan yuritiladi.

Taqlid soʻzlar ikkiga boʻlinadi.

- tovushga taqlid soʻzlar: taraq, gumbur-gumbur, [shov-shuv](#), duv-duv, qars-qars, tap, sharaq, sholop, shitir-shitir vahokazo...
- obrazga yoki holatga taqlid soʻzlar: lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, lapang-lapang, dik-dik kabi

Taqlid soʻzlar egalik va kelishik qoʻshimchalarini oladi, turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Masalan, *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi.*

Taqlid soʻzlarning barchasidan feʼl yasaladi: *shovillamoq, gumburlamoq, dupirlamoq, qarsillamoq, yaltillamoq kabi.*

Soʻzlashuv [jarayonida](#) albatta, shubhasiz, ehtimol singari soʻzlarni koʻp eshitasiz, lekin bunday soʻzlar borliqdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlarini nomlamaydi. Shu bilan birgalikda, yordamchi soʻzlarga oʻxshab sof grammatik maʼno ham ifodalamaydi. Bunday soʻzlar bildirilayotgan axborotga soʻzlovchining tasdiq, ishonch, gumon kabi munosabatlarini bildiradi.

Soʻzlovchining munosabatini ifodalaydigan soʻzlar modal soʻzlar sanaladi. Masalan, Mamlakatimiz, albatta, buyuk, gullagan yurtga aylanadi. Yuqoridagi gapdan albatta soʻzini tushirib qoldirsangiz ham gapning umumiy mazmuniga putur yetmaydi. Lekin ishonch, tasdiq, maʼnosi boʻrtib turmaydi. Gapga albatta,

shubhasiz soʻzlarining qoʻshilishi bilan esa soʻzlovchining gap orqali ifodalanayotgan [axborotga ishonch](#), tasdiq munosabati alohida taʼkidlangan holda bayon qilinadi.

Modal soʻzlamning maʼno tasnifini quyidagi jadvalda ifodalash mumkin:

Dialoglarni oʻqing. Undov soʻzlarni topib, ularning ishlatilish oʻrinlariga diqqat qiling.

Sobir uni koʻtarib otga mindiradi.

– *Chu!*

– *Men hayday? – soʻraydi Zulfiya*

– *Qoʻrqmaysanmi? Ot yomon, olib qochib ketadi.*

– *Meni ushla sen.*

Sobir uning yelkasidan ushlab oladi.

– *Ketdik. Voy, chopib ketayapti-ku!*

– *Ot boʻlgandan keyin chopadi-da. Qoʻrqma, tezroq haydayver.*

Zulfiya haqiqiy aravakashlarga oʻxshatib:

– *No-o-o! Jonivor, no-o-o! – dedi. Ot qattiqroq chopa boshlaydi.*

– *Qani, men olay, – Sobir cholning qoʻlidan chelakni oldi.*

– *Oʻh-hoʻ! Muncha muzdek?*

– *Quduqning suvi-da. – dedi Nazir ota gʻurur bilan.*

– *Tagʻin meshda olib keldim. Koʻp ichmang, oʻgʻlim, tomoq ogʻrigʻi boʻlib qolasiz.*

– *O, Toshkent, Samarqand! – havas bilan dedi Anna-Mariya, – xorosho!*

Uning oppoq tishlari marvarid donalariga oʻxshardi.

– *U yerlarda boʻlganmisiz? Anna-Mariya yoʻq, deya boshini qimirlatdi.*

Oʻ. Umarbekov

Savol va topshiriqlar

1. Dialogik nutq shakllarini, uning oʻziga xos jihatini tushuntirib bering.
2. Dialogik nutqda kirish soʻz, undov va modal soʻzlarning qoʻllanish xususiyatlarini izohlang.
3. Dialogik nutqda tildan tashqaridagi(paralingvistik) vositalarning ahamiyatini ayting

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yoʻldosheva O. Oʻzbek nutqi madaniyati va uslubi asoslari. -Toshkent, 1994.

- 2.Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma) .- Toshkent, 2004.
- 3.Mahmudov N., Rafiev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) .- Toshkent, 2006.

27-mavzu Soha mutaxassisining ommaviy va lisoniy madaniyati.

Reja:

1. Ommaviy madaniyat
2. Ommaviy madaniyatning ko‘rinishlari
3. Lisoniy madaniyat

Tayanch so‘zlar: *madaniyat, ommaviy madaniyat, lisoniy madaniyat, lingvistik tamoyillar, kinoya*

Ommaviy madaniyat tilining makrotizimi ma‘lum bir quyi tizimlardan iborat, masalan, gazeta va jurnallar nashrlari tili, radio tili, televedeniye tili, estrada tili, reklama tili va kundalik muloqot tili. Ushbu quyi tizimlarning har biri ma‘lum funktsional munosabat, stilistik xususiyatlar, lingvistik tamoyillar bilan ajralib turadi.

Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, bugungi kunda ommaviy madaniyat tilida kuzatiladigan ba‘zi xususiyatlar va tendentsiyalar orasida ikki guruhni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi guruhga an‘anaviy va ommaviy madaniyat tili uchun xos bo‘lganlar kiradi. Ikkinchi guruhga esa ommaviy madaniyat tiliga xos bo‘lgan xususiyatlar kiradi. Keling, birinchi guruh haqida ko‘proq to‘xtalib o‘tamiz.

Ba‘zi tilshunoslarning ta‘kidlashicha, hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki yanada nozik - bilvosita ta‘sir bilan tavsiflanadi

Shiorlar, murojaatlar, birma-bir aytilgan gaplar o‘rniga konstruktsiyalar keng qo‘llaniladi, ularning yashirin mazmuni ularning yuzaki semantik tuzilishida keltirilgan ma‘noga qaraganda muhimroq bo‘ladi.

Quyidagi misolni ko‘rib chiqaylik:

Namoyishda chorak million kishi qatnashdi.

Namoyishda 250 ming kishi qatnashdi.

(V demonstratsii prinyali uchastiye chetvert milliona chelovek.

V demonstratsii prinyali uchastiye 250 tysyach chelovek.)

Ikkala misolda ham faktik ma'lumotlar bir xil, ammo birinchi holda, namoyishda ko'p sonli odamlar ishtirok etgani, ikkinchi holatda esa, aksincha, nisbatan kam sonli ishtirokchilar nazarda tutiladi. Bilvosita nutq ta'siri, ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, samaraliroq. Ommaviy tilga ham, an'anaviy madaniyat tiliga ham xos bo'lgan yana bir xususiyat bu turlarning stilizatsiyasi:

- o'zini o'zi stilizatsiya qilish (muallif "uning" imidjini yaratishga intiladi, masalan, jargonga xos tilda so'zlashadigan odamning qiëfasi);
- baën qilingan voqeada ishtirokchilarning nutq uslubini stilizatsiya qilish;
- potentsial o'quvchining odatini stilizatsiya qilish.

Keyingi umumiy xususiyat bu nutq ob'ektini ëki predmetini baholash tendentsiyasidir. Baholash bevosita va bilvosita amalga oshirilishi mumkin. Tilshunoslik darajasida to'g'ridan-to'g'ri, keskin affektiv baholash referentsiyada mos ëzuvlar uchun atamalar sifatida ishlatiladigan ëki atributlar va predikatlar sifatida ishlatiladigan peyorativ leksika va frazeologiyalar ërdamida, shuningdek ob'ekt uchun "nomaqbul" bo'lgan metaforizatsiya manbai bo'lgan metafora ërdamida qo'llaniladi.

Kinoya - baholashni ifoda etishning eng keng tarqalgan bilvosita vositalaridan biridir. Ko'pincha u butun matnlarni ëki ularning muhim qismlarini yaratishda foydalaniladi.

Tilshunoslar evfemizatsiyani keng qo'llaniladigan bilvosita baholash vositasi deb ham atashadi. Allyuziyalar va pretsedenti bo'lmagan hodisalar bu yerda alohida rol o'ynaydi. Boshqa matnlarning belgilari sifatida ular baënning baho ma'nosini ochib berishga ërdam beradi.

Baholashni bilvosita ifoda etish usullari haqida gap ketganda, ta'riflangan hodisada "figurantlarning" o'z o'zini identifikatsiya qilish kontekstlarini yaratish kabi uslubni esdan chiqarmaslik kerak. Qoida tariqasida, ular nutq ob'ektining so'zlarini iqtibos qilish yo'li bilan yaratiladi, bu uni shaxs sifatida salbiy tavsiflaydi. Endi to'g'ridan-to'g'ri ommaviy madaniyat tiliga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarni ko'rib chiqishga o'tamiz. Birinchidan, muloqot tamoyili (I. Yotov) ommaviy madaniyatning ko'pgina matnlarining konstruktiv va optimallashtiruvchi tamoyili sifatida ishlaydi deb faraz qilaylik. Ushbu nuqtai nazarni muloqot nazariyasi nuqtai nazaridan isbotlash mumkin. Ushbu nazariya doirasida o'zaro aloqalarning barcha turlari dialogikdir,

chunki ular baʼzi bir ikki shaxs èki baʼzi shaxslar guruhlarining oʻzaro taʼsirini anglatadi. SHu bilan birga, shaklda ommaviy madaniyat matnlari ham dialogik, ham monologik boʻlishi mumkin. Koʻplab tilshunoslarning (O.G. Revzina, YU.A. Sorokin va boshqalar) guvohliklariga koʻra, dialogik nutqning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- baʼnotning "qisqartirilganligi" (elliptiklikka intilish);
- sintaktik konstruktsiyalarning "rivojlanmaganligi" (implitsitlik, yadrolik, oʻziga xos valentlikka intilish);
- ichki qayta aloqa bosqichlarining buralganligi, nutq oqimini ongli boshqarishning yoʻqligi (oʻz-oʻzidan).

Oʻz navbatida monologik nutq quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniqroq sintaktik konstruktsiyalardan foydalanish;
- muloqot mavzusiga qaraganda aloqa mavzusini kengroq qamrab olish;
- rejani oldindan ishlab chiqish;
- nutq oqimini ongli ravishda boshqarish.

Odatda, ommaviy madaniyat matnlari ham dialogik, ham monologik nutqni oʻz ichiga oladi. Tilshunoslar va sotsiologlar ommaviy madaniyat tili, aniqrogʻi, ommaviy aloqa deb ataladigan uning tarkibiy qismi tili nafaqat aloqa èki axborot uzatish vositasi sifatida harakat qilishiga eʼtibor berishadi. Koʻpincha, bu qabul qiluvchining bilim tizimiga kontseptual konstruktsiyalarni kiritishning samarali vositasidir, koʻpincha qabul qiluvchining ongiga qoʻshimcha ravishda. Ommaviy madaniyat tili, baʼzi tadqiqotchilar (YU.A. Sorokin va boshqalar) anʼanaviy madaniyatning tilidan farqli oʻlaroq, qarashlar va gʻoyalarni bogʻlab qoʻyish vositasi sifatida ijtimoiy kuch vazifasini oʻtaydi.

"Ommaviy madaniyat" matni keng omma uchun moʻljallangan, yaʼni leksik va stilistik jihatdan ular tushunarli va tinglovchilarning koʻpchiligi uchun mavjud boʻlishi kerak. Tilshunoslik materiallarining tahlili ommaviy axborot vositalari va aʼlumotlarning salbiy rangga boʻyalgan va baʼzida vulgar semantikaga ega boʻlgan leksik birliklardan foydalanishning yuqori chastotasini koʻrsatmoqda


Darhaqiqat, koʻplab olimlar ommaviy axborot vositalarining adabiy tilining keskin pasayganligini taʼkidladilar: gazeta sahifalarida, radio va televideniya jargonli

soʻzlar, soʻzlashuv tiliga oid soʻzlar va baʼzan ochiqchasiga haqoratli soʻzlardan foydalanish; primitivizm va oʻrtachalik; tajovuzkorlik. Ushbu tendentsiya oʻz tushuntirishlariga ega. Birinchidan, ushbu turdagi lugʻatlardan foydalanishning sabablari umuman, diskursning deofilizatsiyasi va jamiyatni demokratlashtirish bilan bogʻliq holda axborot makonining kengayishi (tematik shartliligi). Biroq, faqatgina bu tushuntirishlar bilan bu yerda cheklanmaydi. Koʻpincha bunday lugʻatdan foydalanish salbiy mohiyat va keng tarqalgan madaniyat bilan bogʻliq. Ammo, biz ishonamizki, buning sababi ommaviy madaniyatning oʻzida emas, balki uning ishlab chiqilgan ahsulotlarining moʻljallangan auditoriyasida. Demak, ommaviy madaniyatning shunchalik ommalashishining sabablaridan biri bu odam bilan qandaydir munosabatda boʻlish, uning muammolariga achinish, uning mohiyatini tushunish natijasida yuzaga keladigan xaeldir. Tilshunoslik darajasida bunday psixologik nyanslar bevosita aks etadi.

Tilshunoslarning fikriga koʻra, haqoratli, qoʻpol iboralarni ishlatish begonalashish va sovuqqonlikdan farqli oʻlaroq, yaqinlik va aloqa muhitini yaratish uchun nozik til vositasidir

Aqlli, hissiy va nutqiy tajovuzkorlik bilan ommaviy aloqaning hozirgi tendentsiyasi beqarorlik va jamiyat haetidagi bir qator oʻzgarishlar bilan izohlanishi mumkin deb taxmin qilinadi. SHunday qilib, oʻtmishni inqilobiy inkor etish, tilni takomillashtirishni rad etishga olib keladi. Oʻz navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi turgʻunlik ommaviy axborot vositalarining tiliga boshqacha taʼsir qiladi: u sust, begʻaraz va notajovuzkor boʻlib qoladi.

- 1. Soha mutaxassisi ovozida qanday xususiyatlar boʻlmogʻi lozim? Klaster tuzing va shu asosida mavzuni yoritib bering.**



Nutqni rivojlantirish:

a) so‘zlashuv nutqini shakllantirish. So‘zlashuv nutqining funktsiyalari. So‘zlashuv nutqini shakllantirish boyicha dastur talablari tasnifi. So‘zlashuv nutqini shakllantirishning asosiy yo‘llari. [Predmetli amaliy ta’lim](#) darslarida so‘zlashuv nutqini rivojlantirish (dialog va suhbat o‘tkazish). Tabiat predmetlari va hodisalari haqida, jamiyat hayoti, bolalar faoliyati haqida dialog va suhbat o‘tkazish. Yopiq kartinkalar bilan ishlash. So‘zlashuv nutqini shakllantirish – barcha o‘quv mashg‘ulotlarni asosiy elementi. b) bog‘langan nutqni rivojlantirish. Og‘zaki va yozma bog‘langan nutqni shakllantirish. Og‘zaki va yozma bog‘langan nutqni o‘zaro aloqasi, bog‘langan nutqni rivojlantirish boyicha dastur talablari. Predmetli amaliy talim darslarida bog‘langan nutqni shakllantirish boyicha ish turlari. Hodisa va predmetlarni tasvirlovchi hikoyalarni tuzishga o‘rgatish usullari, rasmlar, kinofilmlar, diafilmlar boyicha gapirishga o‘rgatish. Hikoya ustida ishlashda og‘zaki, yozma, daktil nutq formalarini o‘zaro aloqasi. So‘z va

gaplar, soʻz birikmalari ustida ishlash, bogʻlangan nutq boyicha ishlashning asosiy shartidir. Lugʻat ishining asosiy vazifalari unga qoyiladigan dastur talablari.

Oʻqish va nutqni rivojlantirish. Tushunib oʻqishning mazmuni va vazifasi. Oʻqishga oʻrgatish boyicha dastur talablari. Oʻqishga oʻrgatishga analitik-sintetik yondashuv. Predmetli amaliy talim darslari va oʻqish darslari oʻqish malakasini shakllantirishda oʻzaro aloqadorlik va ketma-ketlik. Toʻgʻri, tez, ifodali oʻqishga oʻrgatish usullari. Oʻqish bilan birgalikda ogʻzaki yozma nutqni rivojlantirish. Individual va frontal sinfdan tashqari oʻqishni tashkil etish, kitob tavsiya etish usullari. Sinfdan tashqari oʻqishni tashkil etishda oʻqituvchi va tarbiyachi roli. 5-7 sinflarda tilga oʻqitish. Bu bosqichdagi ish turlari, mazmuni, maqsadi Faoliyat turlari va muloqot doirasi kengayishi va murakkablashuvi. Nutqni rivojlantirish. Bogʻlangan va soʻzlashuv nutqni rivojlantirishga qoyilgan dastur talablari. Dialog va suhbatlar oʻtkazish uchun sharoitlarni oʻzgartirish. Yozma va ogʻzaki bogʻlangan nutqni rivojlantirish boyicha ish turlari. Bayon turlari, bayon uchun material tanlash, bayon yozishga tayyorgarlik koʻrish. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida bayon yozishga oʻrgatishning oʻziga xos usullari. Insho turlari. Rasm, rasmlar seriyasi boyicha insho yozish. Kuzatuvlar asosida insho yozish. Ijodiy tasavvurlari asosida insho yozish. Muloqot quroli sifatida mustaqil yozma ishni shakllantirish. Qilgan yoki tomosha qilingan tasavvurlar boyicha hisobot, taqriz tuzishga oʻrgatish. Yozuvlarni takomillashtirish, devoriy gazetaga maqola yozishga oʻrgatish. Hujjat qogʻozlarni tuzishga: biografiya, ariza, xatlar, tushuntirish xatlarini yozishga oʻrgatish. Oʻqish va nutqni rivojlantirish. Kichik va oʻrta sinflarda oʻqishga oʻrgatish [vazifalari](#), ketma-ketligi va murakkablashuvi. Oʻqishga oʻrgatish mazmuni va dastur talablari. Bu bosqichda oʻqish uchun beriladigan materialini xarakterini oʻzgarishi. Qoyilganni tushunishga erishish boyicha ish olib borish. Qadimiy asar-idrok etishga tayyorgarlik. Matnlar tanlash usullari, savol-javoblar xarakterini murakkablashuvi. Qayta oʻqish maqsadi va toʻgʻri. Sodda oʻqishga tayyorgarlik koʻrish. Reja tuzish yoʻllari. Oʻqish darslarida oʻquvchilar - nutqiy faoliyatini faollashuvi. Oʻqishga oʻrgatish bilan bogʻliq nutqni rivojlantirish boyicha ish turlari. Grammatika, yuqori sinflarda grammatikani oʻrgatish maqsadi. Dastur mazmuni va tarkibi. Talim printsip va metodlari. 8 sinfdan grammatikani oʻrgatish usullari. Grammatik mavzu ustida ishlash. Grammatik qoida, tushunchalar ustida ishlash.

Grammatika darslarida amaliyot va nazariyani o‘zaro aloqasi. Grammatika kursini turli bo‘limlari: [fonetika](#), morfologiya, sintaksis boyicha ishlash metodikasi. Orfografiya va punktuatsiyaga o‘rgatish. Grammatika darslarida nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirish.

Pedagogik faoliyatda psixologiyaning ahamiyati. Faoliyat va motivlar. Faoliyatning asosiy turlari. Motivasiya sohasilari. Shaxsi eksperimental tadqiq qilish metodlari. Pedagogik jarayonni boshqarish. Ta‘lim va aqliy taraqqiyot. Pedagogik qobiliyat va uning turlari. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Ilmiy tadqiqot ob‘ektlari va metodlari. Ta‘limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi. O‘tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo‘nalishlari. Ilg‘or pedagogik qarashlar. Jahon ta‘lim tizimi. Pedagogik jarayondagi integratsiyalar. O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli. Ta‘lim va tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, birligi, differensiyasi, yagona pedagogic jarayon. Ta‘lim nazariyasi (didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari. Ta‘lim prinsplari. Talim metodlari, texnologiyalari. Ta‘lim turlari va bosqichlari. Jamoada, oiladagi tarbiya hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari. Ta‘limni boshqarish shakllari. O‘quv-me‘yoriy hujjatlar. Pedagog kasbining o‘ziga xos xususiyatlari. Pedagogning kommunikativ [qobiliyati](#), uning vositalari.

Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi, ilmiy manbaalarni tahlil qilish metodlari: ilmiy bilish metodlari; induksiya, deduksiya, analogiya; pedagogik kompetentlik, ya‘ni ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish shakllari, metodlari hamda vositalari; ta‘lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta‘minlashni bilish, mashg‘ulot olib boriladigan fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va ob‘ekti, fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni va ahamiyati; fan taraqqiyotining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog‘liqligi; foydalaniladigan asosiy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va elektron adabiyotlar; fan mazmunini ishlab chiqishda o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontal va vertikal uzviylikning ta‘minlanishini baholash; fanning istiqboldagi taraqqiy etishi muammolari va ularning yechimlari haqida bilim va layoqatga egalik.

Multimediya vositalari (multimedia – ko‘pvositalilik) - bu insonga o‘zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyi-dagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an‘anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro‘yxatdan o‘tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;
- muayyan vaqtdagi ish, o‘z tabiatiga ko‘ra statik bo‘lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma‘lum oralig‘ida ko‘rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma‘lumotlarni o‘zatish shinasining o‘tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig‘imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo‘yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-kompyuter" interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta‘lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta‘lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o‘zi nima degan savol tug‘iladi? Ko‘pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob‘yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko‘rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. X,ozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo'tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jaxon Valyuta Fondi, Umumjaxon banki, Yevropa Ittifoki komissiyasi kabi nufo'zli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch xosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter

dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Xozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

2. Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish xozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni o'zlashish kanallarini rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalarni distant uslubi asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayonini va tijorat ishlarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

- audiokonferensiyalar ;
- videokonferensiyalar ;
- ish stolidagi videokonferensiyalar ;
- elektron konferensiyalar ;
- ovoz kommunikatsiyalari ;
- ikki tomonlama sputnik aloqa ;
- virtual borliq ;

Nointeraktiv texnologiyalar:

- bosib chiqarilgan materiallar;
- audiokassetalar;
- videokassetalar;
- bir tomonlama sputnik aloqa;

- televizion va radio ko'rsatuvlari;
- disketa va CD-ROMlar.

Avvalombor, distant uslubi asosida o'qitish, jugrofiy jihatdan o'zoqda joylashgan maktablar va akademik ta'lim uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi tabiiy ta'lim-tarbiya jarayonini o'zoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada distant uslubi asosida o'qitish, tez vaqt ichida ko'pgina maktablarda, tijoratchilar ichida va ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanila boshladi va o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Distant uslubi asosida o'qitishning Xalqaro kengashining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, xozirgi kunda jahonda 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQSH da shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda. Shunday qilib, ular milliy kadrlarni zamon talabi asosida tayyorlash va qayta tayyorlash uchun olga qadam qo'yishmoqda. Distant uslubining qo'yidagi afzalliklari mavjuddir:

- a) o'qitishning ijodiy muxiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan distant metodi asosida esa o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlari asosida almashadi. Bu esa o'quvchilarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mehnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.
- b) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Distant uslubi asosida ta'lim berish - boshlangich, o'rta, universitet, sirtqi - kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorgarligi har xil darajadagi inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari mumkin va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.
- v) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Distant uslubi asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan xam ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda judayam katta ro'l o'ynamoqda, ya'ni jug'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklarsiz o'zining ishlab turgan o'rnida ilm opishi mumkindir.

g) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmokdiki, distant uslubi asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, distant uslubi asosida ta'lim olish universitet tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan talabalar yoki o'quvchilarning boshqalardan ustunligi - ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchilar bilan ta'minlanishidir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda, o'qituvchi auditoriyada o'qitish shartlaridan xoli bo'lishi kerakdir. Distant uslubi asosida o'qitishning o'quv qoidalaridan kelib chiqsak, soliq, inspektorlari INTERNET turi orqali jaxon bo'yicha sayyohat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, ta'lim berish uslubining o'zgarishi bilan uning shakllari ham o'zgarishi shartdir.

Hozirgi kunda to'g'ridan-to'g'ri INTERNET tarmog'iga kirish xizmati distant uslubi asosida ta'lim berish uchun elektron pochta, kompyuter konferensiyalari va ma'lumotlarning elektron bazasida foydalaniladi. Axborotlashgan tezkor kanalning rivojlanishi yangi gipermedia tizimini berib, u o'z ichida INTERNET tarmog'iga kirishning uchta asosiy xizmatini mujassamlashtiradi va foydalanuvchining interfeysini (muloqoti) yanada takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, maltikast texnologiyalarining, konferensiya vositalarining va multimedia kompyuterlarining mavjudligi INTERNET tarmog'i orqali video-konferensiyalarni yulga qo'yishga imkoniyat berdi. Shunday qilib, bunday gigant axborotlashgan tarmoq o'quvchilarning distant uslubi asosida zamonaviy bilim olishlari uchun vaqti yoki qayerda turganligiga qaramasdan keng sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda matnlar va matematik formulalarni qayta ishlash uchun odatiy tusga aylangan tovush va tasvirning kompyuterli qayta ishlash imkoniyatining paydo bo'lishi, shubhasiz, butun insoniyat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1994.
2. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) . - Toshkent, 2004.
3. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) . - Toshkent, 2006.

29-mavzu Ijtimoiy muloqot jarayonida ichki va tashqi omillarning ahamiyati.

Reja:

1. Ijtimoiy muloqot haqida tushuncha
2. Muloqot turlari
3. Muloqot odobi

Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda o‘zaro muloqot jarayoni g‘oyatda katta rol o‘ynaydi. Chunki muloqot jarayonida borliqdagi xilma-xil narsa, xodisalar bilan munosabatda bo‘lishi asosida ularning mohiyatini anglay boshlaydi. Muloqot dialektik jarayon bo‘lib, kishilarning o‘zaro aloqa munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, jamiyatda hal qilinmagan muammolar muloqot jarayonida o‘z yechimini topib jamiyatda muvozanat yuzaga kelib, jamiyat taraqqiyoti yuksalaveradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatida ta‘kidlaganidek; “Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz”. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak” degan g‘oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda”-deb uqtiradi. Qisqa muddatda bir yarim milliondan ziyod fuqarolar murojaat qilishi natijasida muloqot jarayonida ularning muammolari o‘z yechimini topdi.

Darhaqiqat, muloqot insonlar o‘rtasida xilma-xil ijtimoiy munosabatlarida amalga oshadi. Ijtimoiy munosabatlar, aslida, odamning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini ham, o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o‘zlaricha o‘rganishlari ma‘lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o‘zaro ta‘sirning turlicha namoyon bo‘lish shaklida tushunchalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari odamlarning bir – birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o‘zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o‘xshash hozirda turli-tuman yondashuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona-g‘oya-bu odamlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan o‘zaro ta‘sir va o‘zaro aloqa jarayonlarining

mexanizmlarini aniqlash va ushbu jarayonni boshqarish usullarining taktika va strategiyasini ishlab chiqishdir.

Falsafa ilmidan shu narsa maʼlumki, har qanday ijtimoiy munosabatlar koʻp qirrali boʻlib, har birining oʻziga xos kechish xususiyatlari va shart –sharoitlari, qonuniyatlari boʻladi. Agar rahbar oʻz jamoasidagi shaxslararo munosabatlar nimaga asosan kechishini bilsa, uni boshqarish oson. Shunga koʻra taʼkidlash mumkinki, agar jamoada haqiqiy samarali, ijodiy mehnatga safarbar eʼtuvchi “iqlim” tashkil qilinmagan boʻlsa, odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar va muoamala ham asosan hissiyotlarga, odamlarning bir-birlarini hurmat qilishlari, yoqtirishi – yoqtirmasliklariga asoslanib qoladi. Odamlar ishga otlanar ekanlar, avvalo kimlarni koʻrish, kimlar bilan tushlikka chiqish yoki bir stol atrofida oʻtirish, vaqtni oʻtkazish uchun qaysi ishlar bilan shugʻullanishi kerakligini oʻylab keladi. Demak, bunday jamoada ish qoniqarsiz tashkil etilgan, odamlar oʻrtasidagi munosabatlar sof emotsional-hissiy muomalaga tayanadi. Ana shunday yerlarda guruhbozlik, jamoaning kichik-kichik guruhlariga boʻlinib ketishi, buning oqibatida bir nechta norasmiy liderlarning paydo boʻlib, har biri oʻz “ixlosmandlarini” oʻziga xos manfaatlar bilan atrofida birlashtirayotganligini koʻrish mumkin.

Boshqa jamoada esa ish butunlay boshqacha tashkil etilgan boʻlishi mumkin. Oqil va tashabbuskor rahbar qoʻl ostida ishlayotganlar jamoasini bir yaxlit deb tasavvur qilib, ishga ketayotganda, eng avvalo, kecha oxiriga yetkaza olmagan ishlari bor-yoʻqligini, bugun qanday ishni va kim bilan, kim orqali bitkazishini, ishni yanada yaxshilash uchun bugun yana qanday choralar koʻra olishi haqida oʻylaydi. Jamoaning har bir aʼzosi eng avvalo ishni oʻylab uyidan chiqadi. Demak, bunday jamoadagi oʻzaro shaxslararo munosabatlar ham ishchanlikka asoslanadi va jamoaning eng tashabbuskor, fidoyi, aqlli aʼzosi kim boʻlishidan, yoshi yoki jinsidan qatʼiy nazar, norasmiy obroʻga ega boʻlishi va liderlikka daʼvogar boʻlishi mumkin.

Rahbar esa ana shunday tashabbuskor, mehnatkash, jonkuyar odamlar bilan doimo hisoblashadi va ular fikriga quloq soladi. Bunday rahbarning mahorati uning jamoadagi norasmiy va rasmiy liderlar bilan hamkorlikda, muloqotda ishlay olish sanʼati bilan baholanadi. Bundan tashqari har bir konkret vaziyatda va jamoada odamlar oʻrtasidagi munosabatlarning turli shakllari namoyon boʻlishi mumkin.

Masalan, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat faqat rasmiy aloqalar bilan cheklanmay balki bir vaqtning o'zida norasmiy shaxsiy munosabatlar bilan uyg'unlashadi. Agar umuman jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlarning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, diniy, ma'naviy sohalarda ro'y beradigan shakllarini ham farqlash mumkin. Ular yuqoridagilardan kelib chiqib, konkret vaziyat va ijtimoiy faoliyat turiga mos tarzda o'ziga xos qonuniyatlarga asoslanib ro'y beradi.

Xo'sh, shunday ekan muloqot nima degan savol tug'iladi. Bu savolga javob topish bilan ko'pincha psixolog olimlar shug'ullanganlar. Masalan, psixologiyaga oid kitoblarda: "Muloqot – hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni; muloqat belgilar tizimi orqali sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvi. Muloqat-kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki korreksiyanadi" – degan ta'riflar berilgan.

Ma'lumki muloqot sub'ektlarini barcha tirik mavjudotlar, odamlar tashkil etadi. Muloqot barcha tirik mavjudotlar o'rtasida yuz berishi mumkin, biroq, odamlar o'rtasidagi muloqot til va tafakkurga bog'liq ekanligi bilan ajralib turadi. Jonli ijodiy muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Muloqotda ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar ro'yobga chiqariladi. Muloqotsiz kishilik jamiyati bo'lishi mumkin emas. Chunki muloqot jarayonida insonlar bir-birining dunyoqarashini boyitadi. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat rejasini tuzish, uni ro'yobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida kishilar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi.

Muloqat o'zbek tili izohli lug'atida bayon etilishicha arabcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida "uchrashish", "ko'rishish", "qabul qilish", degan ma'nolarni anglatgan. Faylasuf olimlar J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyevlar muloqat tushunchasining mohiyatini ifodalashga harakat qilganlar.

"Muloqat bilan faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda muloqat tushunchasini shunday ta'riflashga uringanlar.

Muloqat bu, kishilarning o'zaro bevosita yoki bilvosita uchrashishi, ko'rishishi, qabul qilishi orqali o'rnatiladigan munosabatlari natijasida axborotlar almashiladigan,

